Key words: *Integration, auction lesson, innovative lesson, joint lesson, modern lesson analysis, didactics, zoology, technology, interactive, efficiency.*

KIRISH

Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o'rgatishga, o'quvchi yoshlarni tafakkurini keng ko'lamda rivojlantirishga, olamni bir butun anglashga hamda tasavvur etishga, tevarak atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarni mohiyatini to'g'ri anglaydigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Ya'ni bugungi kun ta'limining o'z oldiga qo'yga ulkan maqsadlaridan biri o'quvchilarni hali yosh paytlaridanoq sekin astalik bilan zo'riqishlarsiz mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida hayotga tayyorlashdan iborat. Maktabda

o‘qitilayotgan fanlarning tarqoqligi o‘quvchiga faqat tor doiradagi nazariy bilimnigina beradi, bu esa o‘quvchi ongidan keyinchalik unitiladi, amaliyotga taqbiq etilmaydi. Olimlarning fikricha, integratsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o‘rin egallaydi. [1; 250-b]. Biologiya darslarida o‘quvchilarning aqliy faoliyatini hat tomonlama rivojlantirishda integratsiyalashgan darslarning o‘rni beqiyos.

Rivojlangan davlatlatning 70 foizi ta’lim tizimida integrative xarakterdagi o‘quv dasturlari va darsliklaridan foydalanmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniya ta’lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo‘lsa, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar, Vengiriyada madaniyat yonalishidagi o‘quv fanlari, Irlandiyada fan va texnika bloklaridan barcha o‘quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o‘qitiladi. [2;75-b]. Pedagog U.Musayev integratsiyaning mavzulami ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiyaga ahamiyat qaratishi bejiz emas. Bunda o‘quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya’ni oldingi o‘quv materiali keyingisini to'ldiradi.

Ta’lim-tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o’qituvchining ishlash tizimi tubdan o‘zgarmoqda va pedagogik texnologiyalar, integratsiyalashgan darslar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. O’quv fanlararo aloqadorlik ta’minlangan sharoitda o’quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok qilish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. [3; 210-b].

T. T. Lakotsenina va S. V.Kulnevich “Zamonaviy dars tahlili” kitobida quydagicha ta’rif keltirilgan: “Integratsiya – bu ma’lum bir sohadagi umumlashtirilgan bilimlarni iloji boricha bir o‘quv materialiga chuqur kiritib boorish, birlashtirish”. “Intergratsiya” so‘zi lotincha integratio-tiklash, to‘ldirish, “integer” butun so‘zidan kelib chiqqan. Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi: birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon; ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va nihoyat o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o‘quv predmetlari mazmunini eng kamida ta’lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o‘rganilayotgan o‘quv predmetlari doirasida ma’lum didaktik birliklar orasida o‘rnatilib, ularni o‘rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi, bundan farqli o‘laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o‘quv predmeti yoki integratsiyalab o‘rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. [4; 352-b].

Integratsiya- differensiatsiyaning aksi bo‘lib, unga teskari bo‘lgan jarayondir.

Uni quydagi yo‘nalishlarda joriy etish mumkin.

a) o‘quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o‘rganish;

b) turli o‘quv predmetlaridan tehsil beruvchi shaxslarning faoliyatini integratsiyalash;

c) ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o‘quv kunini integratsiyalash. Hozirgi zamon biologiya ta’lim pedagogikasida ta’limning yanada samarali yo‘llarini topish jarayoni kechmoqda. Pedagogik integratsiya ana shunday yo‘llardan biri bo‘lib, uning asoslaridan biri integratsion darslardir. Integratsion darslar – interaktiv ta’lim tizimi bo‘lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o‘rganadi. Biologiya darslarida o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Integrasiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o‘rgatadi. Integratsion darslarda mavzularni va mashg‘ulotlarni hamkorlikda, mutaxasis ishtirokida va o‘quvchilar faolligida o‘tiladi. [5; 126-b].

Integratsion darslarning 5 ta asosiy maqsadi mavjud va ular quydagilar: 1. O‘quvchilarning aqliy va emotsional qobiliyatlarini rivojlantirish; 2. O‘quvchilarning irodasini rivojlantirish;

3. O‘quvchilarning individual xarakterini rivojlantirish;

4. O‘quvchilarning boshqa fanlarga qiziqishini oshirish;

5. O‘quvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish.

Fanlararo integratsiya bir o‘quv fanining materialidan boshqasini o‘rganayotganda foydalanishda namoyon bo‘ladi. Bu darajada olib borilayotgan mazmunni tizimlashtirish o‘quvchilar ongida o‘rganilayotgan ob’yektning yaxlit tasavvurini shakllantirish kabi natijaga olib keladi. 3 xil integratsion dars turlari hozirda ommalashgan.

1. Auksion dars;

2. Innovatsion dars;

3. Hamkorlik dars.

Integratsion dars turlaridan biri auktsion dars deb nomlanib, muayyan mavzular bo‘yicha qisqacha tushuntirish berilib, o‘quvchilarning fikri o‘rganiladi va ular mutaxassis tomonidan baholanib boriladi. Bunday darsda o‘qucvchilar to‘rt guruhga bolinadi va guruh a’zolari qo‘yilgan mavzular bo‘yicha fikrlar taqdimotini o‘tkazadi. Qaysi guruhning fikri mavzuni keng yoritib bersa, shu guruh g‘olib hisoblanadi va guruh a’zolarining har biri teng baholanadi. Auksion dars yakunida uyga vazifa berilmaydi.

Hamkorlik darsi muayyan mavzularni mutaxassislarning ishtirokida o‘tkazishga asoslangan. Unda mutaxassis mavzuni ma’ruza tarzida tushuntiradi va dars yakunida o‘quvchilarning savoliga javob beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning muhokamada ishtirok etishiga tayanib ularning bilimini baholaydi.

Innovatsion dars ko‘p hollarda kompyuter texnologiyasiga asoslanadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi tomonidan mavzu va uning matni kompyuter dasturiga joylashtiriladi. Dars jarayoni ham kompyuter vositasida o‘tiladi va taklif qilingan mutaxassis yoki o‘quvchilar masofadan turib dars jarayonini kuzatib boradilar. Darsning yakunida kuzatuvchilar darsga nisbatan o‘z munosabatini bildiradilar va uning yangilik darajasini baholaydilar. Integratsion darslarning bir nechta didaktik asoslari mavjud:

- darsda aniq muammoni qo‘yish va dars oxirida muammoning yechimiga erishish; - darsda har bir berilayotgan bilim va tushunchalarning ta’rifi hamda misollari keltiriladi;

- dars davomida o‘quvchilarning o‘zlashrirish jarayoni savolar berish bilan tekshirib boriladi;

- darsda faol istirok etgan o‘quvchilarning bilimi va tushunchasi darxol baxolanadi;

- dars yakunida beriladigan uyga vazifalarni o‘quvchi hamkorligida bajarish nazarda tutiladi.

Integratsion darslarga qo‘yiladigan talab darslarni davlat ta’lim standartlari asosida yoritishdir. Biologiya darslarida kimyo, geografiya, matematika, tarix , tabiiy fan, ingliz tili va o‘qish fanlari bilan integratsiyalash mumkin. Ta’limni integratsiyalashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad o’quvchilarda tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini bildirishga yo‘naltirishdan iborat. [6; 32-b].

Demak, integratsiya darsi mavzu jihatidan bir biriga mos kelishi va puxta reja asosida tuzilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Ta’lim samaradorligini oshirish uchun integratsiya holatidagi dastur va darsliklar yaratish lozim.

Ta’limni integratsiyalashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad o’quvchilarda tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini bildirishga yo‘naltirishdan iborat. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rgatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir.

Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o‘quv darslarida o‘zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Integratsiyalashgan darslar ijodiy, erkin bo‘lishi bilan bir qatorda, yaxlit, mantiqan ketma-ket,o‘ziga xos o‘tish metodologiyasiga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitish vositalari bilan ta’minlanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1.Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. doktori. diss. –Toshkent: 2007. –250 b.

2.Begimkulov U.Sh., Djuraev R.X., Icyanov R.G., Sharipov Sh.C., Adashboev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariyaci va amaliyot. –Toshkent: 2011. –75 b

.3.Бабешко В.Н. Система оценки качества программных комплексов для дистанционного обучения. -М.: ЦДО МИЭМ, 2004. -210 с

4.Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). М.: Изд-во Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2002. 352 с.

5.M.N.Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishda integrativ texnologiyalardan foydalanishni tashkil etishning metodik tizimi. Uzluksiz ta'lim Тошкент . 2023 y. № 6 Б- 126-129 bet .

6.M.N.Ibodova Improving tne met hodologu of using OF electronic educa tional Resources in improving tne effect tiveness of teaching tne subject " ZOOLOGY" In pedago gical higher educa tional institutions International scientific research journal ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023

BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH – BARQAROR EKOTIZIMLAR GAROVI

Tilakova Shirin Xaqberdi qizi
Navoiy davlat universiteti Tabiiy fanlar va tibbiyot fakulteti, Biologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada biologik xilma-xillikning mohiyati, unga tahdid soluvchi omillar, uni saqlab qolish yo'llari, hamda barqaror ekotizimlar uchun ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Genetik xilma-xillik, tur xilma-xilligi , endemik tur, tirik organizmlar, genetik resurslar , turlar, populyatsiyalar, sun'iy tanlash, seleksiya, ekotizim xilma-xilligi, Orolbo'yi, Tyan-Shan, Hisor tizmalari*

Аннотация: *В данной статье раскрывается суть биологического разнообразия, факторы, угрожающие ему, пути его сохранения, а также значение для устойчивых экосистем.*

Ключевые слова: *Генетическое разнообразие, видовое разнообразие, эндемичный вид, живые организмы, генетические ресурсы, виды, популяции, искусственный отбор, селекция, экосистемное разнообразие, Приаралье, Тянь-Шань, Гиссарские хребты.*

Annotation: *This article highlights the essence of biological diversity, the factors threatening it, ways to preserve it, and its importance for sustainable ecosystems.*

Keywords: *Genetic diversity, species diversity, endemic species, living organisms, genetic resources, species, populations, artificial selection, breeding, ecosystem diversity, Aral Sea region, Tien Shan, Hissar ranges.*

Kirish bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar insoniyat hayotida dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ayniqsa, biologik xilma-xillikni saqlash ekologik barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Biologik xilma-xillik – bu Yer yuzidagi barcha tirik organizmlar, ularning genetik resurslari, turlari, populyatsiyalari va ular tashkil etgan ekotizimlar majmuasidir. U inson hayoti, sog'ligi, oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim muvozanati va ekologik xizmatlarning kafolatidir.

1. Biologik xilma-xillik tushunchasi va uning darajalari , biologik xilma-xillik (bioturfa) uch darajada namoyon bo'ladi:

Genetik xilma-xillik –bu bir turdagi organizmlar orasidagi genetik farqlarning yig'indisidir. Ya'ni, bir xil turga mansub bo'lsa ham, har bir individ (yoki organizm) o'ziga xos genlarga ega bo'lishi mumkin. Bu xilma-xillik organizmlarning muhitga moslashishi va evolyutsiyasi uchun asosiy omildir.

Genetik xilma-xillikning manbalari , mutatsiyalar – DNKda yuz beradigan o‘zgarishlar, genetik rekombinatsiya – jinsiy ko‘payish jarayonida ota-onadan farzandga turli kombinatsiyalardagi genlar o‘tadi. Migratsiya (gen oqimi) – turli populyatsiyalar orasida individlarning harakatlanishi va gen almashinuvi. Gen drift – kichik populyatsiyalarda tasodifiy genetik o‘zgarishlar. [1]. Genetik xilma-xillikning ahamiyati-moslashuvchanlikni ta'minlaydi, organizm har xil muhit sharoitlariga moslasha oladi (masalan, kasallik, iqlim o‘zgarishi, oziqa tanqisligi). Evolyutsiyaning harakatlantiruvchi kuchi - tabiiy tanlanish genetik xilma-xillikka asoslanadi.Qishloq xo‘jaligida foydalidir .Yaxshi hosildorlikka ega, kasallikka chidamli navlar yaratish uchun zarur.

Biologik xavfsizlikni ta'minlaydi -biror kasallik yoki ofat butun populyatsiyani yo‘q qilmasligi uchun genetik farqlilik muhim.

Genetik xilma-xillikni o‘lchash usullari ,

Allozim tahlili – fermentlar orqali gen farqlarini aniqlash. DNK markerlari (SSR, AFLP, SNP) – molekulyar biologiya usullari orqali genetik farqlilikni aniqlash.

Genom sekvenslash – organizm DNK’sini to‘liq o‘qish. Genetik xilma-xillikka tahdid soluvchi omillar , populyatsiyaning kamayishi yoki yo‘qolishi , sun’iy tanlash (seleksiya), genetik ifloslanish (masalan, GMO bilan tabiiy organizmlarning chatishtirilishi) , atrof-muhitning ifloslanishi yoki o‘zgarishi , monokultura – faqat bir navning katta maydonda yetishtirilishi , genetik xilma-xillikni saqlash yo‘llari , In situ saqlash – organizmlarni tabiiy yashash joyida himoya qilish, Ex situ saqlash – urug‘ banklari, gen banklari, hayvonot bog‘larida saqlash.

Genetik monitoring – vaqt o‘tishi bilan xilma-xillik darajasini kuzatib borish. . [2]. Biotexnologiyalar yordamida ko‘paytirish – genetik xilma-xillikni tiklash yoki oshirish.

Tur xilma-xilligi - bu muayyan hududda yoki butun Yer yuzida mavjud bo‘lgan tirik organizmlar turlari sonining ko‘pligidir. Bu biologik xilma-xillikning asosiy komponentlaridan biridir (yana genetik xilma-xillik va ekotizim xilma-xilligi ham mavjud). [3]. Oddiy qilib aytganda: Tur xilma-xilligi — bu Yer yuzida mavjud bo‘lgan turli hayvonlar, o‘simliklar, zamburug‘lar, bakteriyalar va boshqa tirik organizmlar turlarining soni va ular orasidagi farqlar. Tur bir-biri bilan erkin juftlashib, urug‘li avlod qoldira oladigan organizmlar guruhi. Masalan: odam, qarg‘a, bodring, arslon. [4].

Tur xilma-xilligi muayyan ekotizimda yoki butun dunyoda mavjud bo‘lgan turli turlar soni va turlar orasidagi farq. Endemik tur Faqat ma’lum bir hududda uchraydigan tur. Masalan, Farg‘onada uchraydigan noyob g‘ozlar.

Tur xilma-xilligining ahamiyati. Ekotizim barqarorligini ta’minlaydi: Turli turdagi organizmlar bir-biriga bog‘liq va ular birga yashab ekotizimni muvozanatda ushlab turadi.

Oziq-ovqat manbai: Turli turdagi hayvon va o‘simliklar odamlar uchun oziq-ovqat manbai hisoblanadi.

Dori-darmon ishlab chiqarishda: Ko‘plab turlar tabiiy dori manbai sifatida xizmat qiladi.

Ekotizim xizmatlari: Changlatish, tuproq hosildorligini oshirish, kislorod ishlab chiqarish kabi muhim xizmatlarni ko‘rsatadi.Ilmiy va madaniy ahamiyat: Har bir tur — o‘ziga xos ilmiy va tarixiy qadriyatga ega.

Yer yuzidagi tur xilma-xilligi- Yerda 8,7 millionga yaqin tur mavjudligi taxmin qilinadi, lekin ularning faqat bir qismi aniqlangan. O‘simliklar, hayvonlar, zamburug‘lar, bakteriyalar – barchasi bu xilma-xillikka kiradi. Eng ko‘p turlar — hasharotlar, ayniqsa qo‘ng‘izlar orasida.

Tur xilma-xilligini yo‘qotishga sabablar:

O‘rmonlarning kesilishi ko‘plab turlar yashash joyidan ayriladi, iqlim o‘zgarishi - ayrim turlar yangi sharoitga moslasha olmaydi , ifloslanish suv, havo va tuproq ifloslanishi tur o‘limiga olib keladi. Yovvoyi turlarning ovlanishi, turlar soni kamayib, yo‘qolib ketadi. Begona turlar kirib kelishi, mahalliy turlar bilan raqobatlashib ularni siqib chiqaradi.

O‘zbekiston misolida tur xilma-xilligi: O‘zbekistonda flora (o‘simliklar) va fauna (hayvonlar) jihatdan katta xilma-xillik mavjud. Qizil kitobga kiritilgan o‘simlik va hayvonlar soni yildan-yilga ortmoqda. Orolbo‘yi, Tyan-Shan, Hisor tizmalari kabi hududlar endemik turlarga boy. [5].

Ekotizim xilma-xilligi – turli tabiiy muhit va ularni tashkil qiluvchi ekotizimlar (masalan, o‘rmon, dasht, botqoqlik, cho‘l, dengiz ekotizimlari) xilma-xilligi.

Biologik xilma-xillik biosferaning uzviy qismi sifatida tabiiy ekotizimlarning barqaror ishlashi va insoniyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan xizmatlarning (polinatsiya, toza suv, tuproq unumdorligi, uglerod aylanishi va boshqalar) asosidir. [6].

2. Biologik xilma-xillikka tahdid soluvchi omillar bugungi kunda biologik xilma-xillikka quyidagi omillar tomonidan jiddiy tahdid solinmoqda:

Antropogen omillar: O‘rmonlarning kesilishi, tuproq eroziyasi, sanoat chiqindilari, qishloq xo‘jaligida pestitsid va kimyoviy o‘g‘itlarning ko‘p miqdorda qo‘llanilishi.

Iqlim o‘zgarishi: Harorat oshishi, yog‘ingarchilik rejimining o‘zgarishi, cho‘llanish, qurg‘oqchilik , invaziv turlar - o‘zga hududdan keltirilgan hayvon yoki o‘simlik turlari mahalliy turlarga tahdid soladi, ularning tabiiy yashash joylarini egallaydi. genetik ifloslanish -sun’iy seleksiya va genetik modifikatsiya natijasida tabiiy genetik fond yo‘qolmoqda. Shaharsozlik va infratuzilma kengayishi, tabiiy yashash joylari qisqarib, turli organizmlar yo‘qolib ketmoqda. [7].

Jahon miqyosida har 20 daqiqada bir tur yo‘qolib bormoqda, bu esa butun biosferaning muvozanatiga tahdid tug‘diradi.

3. Biologik xilma-xillikni saqlashning ekologik va iqtisodiy ahamiyati

Biologik xilma-xillik nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham beqiyos ahamiyatga ega:

Ekologik jihatdan, tur xilma-xilligi tabiiy ekotizimlarni barqaror va moslashuvchan qiladi. Iqtisodiy jihatdan, o‘rmonlar, baliqchilik, dehqonchilik, dorivor o‘simliklar resurslari ham biologik xilma-xillik bilan bog‘liq. Tibbiy jihatdan, dorilar tarkibidagi faol moddalar ko‘pincha tabiiy organizmlardan olinadi. Madaniy jihatdan, ko‘plab xalqlar va millatlarning turmush tarzi, urf-odatlari va e’tiqodlari hayvonot va o‘simlik dunyosi bilan chambarchas bog‘liq.

4. Biologik xilma-xillikni saqlash strategiyalari

Biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo‘yicha quyidagi strategiyalar amalga oshirilmoqda:

Qonunchilik asoslarini mustahkamlash: Xalqaro va milliy darajada qabul qilingan konvensiyalar (masalan, Biologik xilma-xillik bo‘yicha Konvensiya, CITES) asosida himoya mexanizmlarini kuchaytirish.

Qo‘riqlanadigan hududlar tashkil etish: Milliy bog‘lar, biosfera qo‘riqxonalar, tabiiy yodgorliklar va boshqa muhofaza etiladigan hududlarni kengaytirish.

Ekologik ta’lim va targ‘ibot: Jamiyatning ekologik madaniyatini oshirish, ayniqsa yosh avlodda tabiatga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirish.

Barqaror foydalanish: Tabiiy resurslardan foydalanganda ularning tiklanish salohiyatini hisobga olish va ortiqcha ekspluatatsiyani cheklash.

Ilmiy tadqiqotlar: Bioturlarni monitoring qilish, yo‘qolish xavfi ostidagi turlarni aniqlash va ularni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

5. O‘zbekistonda biologik xilma-xillikni muhofaza qilish choralari

O‘zbekiston hududi o‘ziga xos biogeografik hudud bo‘lib, bu yerda 27 mingdan ortiq biologik tur mavjud. O‘zbekistonda biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha quyidagi choralar ko‘rilmoqda:

Davlat ekologik qo‘riqxonalar (Chatqol, Zomin, Qizilqum) va milliy bog‘lar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

2008-yildan buyon Biologik xilma-xillik bo‘yicha Konvensiya doirasida davlat dasturlari ishlab chiqilgan.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi orqali o‘rmonzorlash, ko‘chat ekish va urban ekologiyasini yaxshilash choralari ko‘rilmoqda. Ilmiy muassasalar tomonidan Qizil kitob doimiy ravishda yangilanib, noyob va yo‘qolib borayotgan turlar nazorat ostiga olinmoqda.

Xulosa Biologik xilma-xillik – bu insoniyat uchun tuganmas boylik, tabiat uchun esa barqarorlik asosi. Uni yo‘qotish hayotning barcha jabhalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, har bir inson, har bir jamiyat va har bir davlat biologik xilma-xillikni saqlash borasida mas’uliyatli bo‘lishi lozim. Zero, tabiatga e’tibor – kelajak avlodlarga bo‘lgan e’tibordir. Tur

xilma-xilligi tabiatdagi muvozanatni saqlash, inson salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi va ilmiy taraqqiyot uchun beqiyos ahamiyatga ega. Uni asrash, muhofaza qilish va kelajak avlodlarga yetkazish — har bir kishining burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Biologik xilma-xillik bo‘yicha Konvensiya. BMT, 1992-yil.

2.O‘zbekiston Respublikasi “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

3.Abdusattorov A., Ekologiya asoslari. Toshkent, 2020.

4.FAO va UNEP ma’lumotlari – global biologik xilma-xillik holati, 2023.

5.O‘zbekiston Qizil kitobi, 2019-yil nashri.

6. Shodimetov Y. "Ijtimoiy ekologiyaga kirish" Toshkent 1991 y. b 120-121

"Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 189

7. To’xtayev A.S. "Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish". Toshkent O’qtuvchi 1994 y. b 27-28

TA'LIM VA TARBIYA SHAROITIDA LOYIHANING AHAMIYATI

Palimbetova Sarbinaz Aybek qizi
1-kurs magistranti Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
palimbetovasarbinaz@gmail.com +998907031355

Annotatsiya: *ushbu maqola ta'lim va tarbiya sharoitida loyihaning ahamiyatini o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *maktab o'quvchilari, ta'lim, tarbiya, loyiha faoliyati va loyiha faoliyatining maqsadlari.*

Zamonaviy jamiyatda chuqur o'zgarishlar inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatdi. Yosh avlodning, asosan maktab o'quvchilarining shaxsiyatini etishtirish alohida ahamiyatga ega.

Bitiruvchilar doimiy o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga va turli xil kelib chiqishi bo'lgan shaxslar bilan umumiy til o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ta'limning zamonaviy tendentsiyalariga muvofiq, o'quv jarayonining ta'lim komponentining roli ortib bormoqda. Federal Davlat ta'lim standartlari shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan sifatli yangi ta'limni tashkil etishga asoslanadi.

Kasbiy faoliyatda, jamoat hayotida va madaniyat sohasida o'z harakatlarini mustaqil ravishda boshqarishga qodir bo'lgan va o'zini takomillashtirishga va o'z yo'lini ongli ravishda tanlashga intiladigan ijodiy, tashabbuskor shaxsni shakllantirishga yordam beradigan innovatsion usul va uslublarning zarurligi dolzarb ehtiyojdir.

Shu munosabat bilan maktab o'quvchilarining ta'lim muhitida har tomonlama rivojlanishiga nazariy va amaliy tadqiqotlarni birlashtirgan holda ta'lim va tarbiyaga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Loyiha usuli professional, ijtimoiy, ta'lim va ijodiy sohalarni qamrab oladigan ko'p qirrali shaxsni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida aniqlandi. Talabalarning loyihaviy faoliyati o'qituvchilar tomonidan yaqindan o'rganish mavzusi bo'lib, ular ushbu tadbirlardan innovatsion ta'lim amaliyotini joriy etish platformasi sifatida foydalanadilar. Loyiha faoliyati o'quvchilar o'rtasida avtonom ta'limni rivojlantiradigan, bolalar muammolarni faol ravishda aniqlashi va hal qilishi mumkin bo'lgan stsenariylarni yaratadigan texnologiya sifatida qaraladi. Bunday tadbirlarda ishtirok etish talabalarga ijodiy salohiyatini, tadqiqot qobiliyatlarini optimallashtirish, mustaqillik, faollik, qat'iyatlilik, o'z harakatlarini rejalashtirish va maqsadlarga erishish qobiliyatini namoyish etish, eng muhimi, olingan bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi. Loyiha faoliyatini qamrab oladigan texnologik

asos loyiha usuli chegaralaridan tashqarida ekanligini tan olish kerak. Loyiha usuli tayyor mahsulot shaklida aniq natijaga erishishga asoslanadi. Loyiha faoliyati texnologiyasi loyiha ishining har bir bosqichida shaxsiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida individual ishtirokchiga asoslanadi.

Loyiha faoliyati mustaqil tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishga, shu jumladan muammolarni aniqlashga, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishga qaratilgan rivojlantiruvchi ta'limning samarali vositasidir. Ijodkorlik va mantiqiy fikrlashni targ'ib qilish dasturning asosiy xususiyati bo'lib, o'z taqdirini o'zi belgilash, ijodiy o'zini o'zi anglash va asosiy shaxsiy kompetentsiyalarni shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

Ta'limdagi loyiha faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Loyiha faoliyatini zamonaviy o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlik munosabatlariga o'tish va o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik amaliyotini rivojlantirish bilan tavsiflangan ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi interaktiv dinamikani o'zgartirish juda muhimdir. O'zaro ta'sirning bu o'zgarishi yangi bilimlarni birgalikda izlashni va keyinchalik uni amaliy sharoitlarda qo'llashni osonlashtiradi va shu bilan ijtimoiy umidlar va talablarga mos keladigan muhim natijalarni beradi.

Shaxsiy kompetentsiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ta'limdagi loyihaviy yondashuv maktab, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslanadi, maqsad aniq loyihalar orqali ta'lim maqsadlariga erishishdir. Ushbu jarayonning asosiy elementi ishtirokchilar o'rtasida samarali muloqot bo'lib, muammolarni birgalikda hal qilish, maqsadlarni belgilash, ishni rejalashtirish va aniq natijalarga erishishga qaratilgan. Bu haqiqiy hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim muhitida ta'lim muassasalari loyihaga asoslangan ta'limni boshlash uchun yaxshi jihozlangan bo'lib, ushbu pedagogik yondashuv turli xil o'quv fanlarida qo'llaniladi. Shaxsiy faoliyatdan tortib guruh faoliyatigacha bo'lgan turli xil ish shakllarini birlashtirish imkoniyati mavjud. O'quv jarayoniga loyihaviy yondashuvning joriy etilishi o'qituvchi rolining vakolat lavozimidan tashkilotchi, maslahatchi va o'quv jarayonidagi hamkorga o'tishiga olib keladi.

Loyihalarni yaratish va amalga oshirish jarayonida talabalarning yangi bilim va ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoji uyg'onadi, bu kursda o'rganilgan materialni yoki uning alohida mavzularini birlashtirishga yordam beradi.

Loyihalarda ishtirok etish talabalarga noyob tajriba o'rganish imkoniyatini beradi va ularga an'anaviy ta'lim modellari doirasidan tashqariga chiqadigan zamonaviy vakolatlarni taqdim etadi. Ushbu vakolatlar umumiy ilmiy, axborot, kognitiv, kommunikativ, qiymatga

yo'naltirilgan, ijtimoiy va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini o'z ichiga olgan keng sohalarni qamrab oladi.

Loyiha uslubining tobora ommalashib borayotganini uning umumiy ta'limdagi modernizatsiyaning asosiy tamoyillari bilan uyg'unlashishi bilan bog'lash mumkin.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda o'quv materialining integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Axborot, kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy kompetentsiyalarni shakllantirish ta'lim jarayonining asosiy jihati hisoblanadi. O'quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'ziga hurmatni namoyon etish, amaliy ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Loyiha tamoyillarida poydevor olishning ahamiyati ta'limning barcha darajalarida loyiha bilan bog'liq loyihalardan keng foydalanish bilan yanada ta'kidlanadi. Maktab yoshidagi loyiha ishlarining texnologiyalari va tamoyillari bilan tanishish o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish va ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash omili sifatida aniqlandi.

Muvaffaqiyatga erishish shaxsning loyiha sifatida mavjudligini kontseptsiyalash qobiliyatiga, maqsadlarni belgilashni, harakatlar rejasini tuzishni va natijalarni keyingi baholashni talab qiladigan jarayonga bog'liq. O'zbekistonda va xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biznes, sport, siyosat va san'at sohasidagi zamonaviy rahbarlarning katta qismi loyiha fikrlash bilan shug'ullanadi.

REFERENCES:

1. Тюнина, В. М. Проектная деятельность как одна из форм воспитательной работы в современной школе / В. М. Тюнина. — Текст : непосредственный // Образование и воспитание. — 2024. — № 1 (47). — С. 14-16. — URL: https://moluch.ru/th/4/archive/262/8874/ (дата обращения: 27.04.2025).
2. Kengesbayevich, R. M. (2024). INCLUSIVE EDUCATION IN GENERAL EDUCATION PRESCHOOLS AND TRAINING OF FUTURE EDUCATORS TO WORK WITH CHILDREN. AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 2(3), 166-171.
3. Kengesbayevich, R. M. (2024). THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE ABILITIES THROUGH THE CREATIVE PROCESS. TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 13, 142-144.
4. Kengesbayevich, R. M. (2025). ETHNOCULTURAL ASPECTS OF VALUE ORIENTATIONS. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 3(1), 40-43.

5. Kengesbayevich, R. M. (2025, January). PSYCHOLOGICAL DEFENCES IN CHILDREN. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 13, pp. 22-23).

6. Oralbaevna, M. A. (2025). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY OF TEACHING THE SUBJECT «EDUCATION». AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 3(1), 993-997.

7. Tajibay, S., & Kengesbayevich, R. M. (2024). CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT AND SOCIALIZATION OF TEENAGERS. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 2(5), 886-890.

ALGEBRANING ASOSIY TEOREMASI

O‘rozova Nafisa Xusniddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Matematika yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Algebraning asosiy teoremasi har bir kompleks koeffitsiyentli polinomning kompleks sonlar maydonida kamida bitta ildizga ega ekanligini bildiradi. Bu teorema polinomlar nazariyasining asosiy natijalaridan biri bo‘lib, har qanday n darajali polinomning ildizlari kompleks sonlar maydonida mavjud ekanligini tasdiqlaydi. Teorema kompleks sonlar maydonining to‘liq ekanligini ko‘rsatadi va ko‘plab matematik sohalarda, jumladan, kompleks analiz va algebra sohalarida keng qo‘llaniladi.*

Kalit so’zlar: *Algebraning asosiy teoremasi, polinom, kompleks sonlar, ildizlar, kompleks koeffitsiyentlar, algebra, polinomlar nazariyasi, kompleks analiz, to‘liq maydon, n darajali polinom, matematik teorema.*

KIRISH

Algebra o‘zining tarixiy rivojlanishida muhim bosqichlardan o‘tdi va bugungi kunda matematikada eng muhim va asosiy tarmoqlardan biriga aylandi. Algebra nafaqat sonlar bilan ishlashni, balki matematik tuzilmalarni, funksiyalarni va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, algebra polinomlar, ularning ildizlari va ularni yechish usullari bilan chambarchas bog‘liqdir. Polinomlar matematikada juda keng qo‘llanilib, ular ko‘plab nazariy va amaliy masalalarning asosini tashkil etadi.

Algebraning asosiy teoremasi — har bir n darajali kompleks koeffitsiyentli polinomning kompleks sonlar maydonida kamida bitta ildizga ega ekanligini tasdiqlovchi asosiy natija bo‘lib, matematikada juda katta ahamiyatga ega. Ushbu teorema, ayniqsa, polinomlarning ildizlarini o‘rganish, ularni tasniflash va umumiy qoidalarni keltirishda muhim o‘rin tutadi. Teorema polinomlar nazariyasini rivojlantirishda va kompleks sonlar maydonida to‘liq tahlil qilishda mustahkam poydevor yaratdi. Algebraning asosiy teoremasi polinomlar bilan ishlashni osonlashtiradi, chunki ularning ildizlari har doim mavjud bo‘lishini kafolatlaydi.

Algebraning asosiy teoremasi XIX asrda matematik Carl Friedrich Gauss tomonidan isbotlangan va shundan keyin bu natija turli matematik usullar yordamida tasdiqlangan. Teorema faqat polinomlar bilan ishlashni emas, balki matematikaning boshqa tarmoqlarida ham, masalan, sonlar nazariyasida, kompleks analizda va algebraik geometriyada muhim qo‘llaniladi. Shuningdek, algebraning asosiy teoremasi boshqa matematik masalalarni hal qilishda, xususan, yechimlarning mavjudligi va ularning xossalarini tahlil qilishda ham qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, algebraning asosiy teoremasi matematik tahlil va boshqa ilg‘or matematik yo‘nalishlarni rivojlantirishda asosiy o‘rin tutadi. Bu teoremaning muhimligi, uning nafaqat matematik nazariyani, balki ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishda ham katta rol o‘ynashida yotadi.

Asosiy qism

Algebraning asosiy teoremasi (AAT) — har qanday n darajali kompleks koeffitsiyentli polinomning kompleks sonlar maydonida kamida bitta ildizga ega ekanligini ta’minlaydigan asosiy natijadir. Bu teorema polinomlarning ildizlarini izlashda, ular bilan ishlashda va ular orasidagi o‘zaro munosabatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu teorema, algebraning rivojlanishida, ayniqsa kompleks sonlar maydonida, matematik tahlil va boshqa sohalarda katta rol o‘ynaydi.

Algebraning Asosiy Teoremasining Formulasi

Teoremaga ko‘ra, agar $P(z)=a_n z^n + a_{n-1} z^{n-1} + \ldots + a_1 z + a_0$ darajali kompleks koeffitsiyentli polinom bo‘lsa, va $a_n \neq 0$ $a_i$unda bu polinomning kompleks sonlar maydonida kamida bitta ildizga ega ekanligi isbotlanadi. Ya'ni, har qanday kompleks koeffitsiyentli polinom, agar daraja $n > 0$ bo‘lsa, ularning ildizlari kompleks sonlar maydonida mavjud bo‘ladi.

Algebraning Asosiy Teoremasi va Uning Ahamiyati

Bu teorema nafaqat algebraik tuzilmalar va polinomlar nazariyasini, balki matematik fizikada, boshqaruv tizimlarida va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Misol uchun, polinomlar yordamida ba'zi fizik jarayonlarning modellarini qurishda, ularning ildizlarini aniqlash uchun algebraning asosiy teoremasidan keng foydalaniladi.

Misollar bilan Algebraning Asosiy Teoremasi

Misol 1: Oddiy Polinomning Ildizlarini Topish

Ko‘rib chiqaylik, oddiy bir polinomni:

ılgebraning asosiy teoremasi: har bir n darajali kompleks oeffitsiyentli polinom kompleks sonlar maydoni da kamida bitta dizga ega.

Misol 1:

$P(x) = x^2 - 5x + 6$

$x = 2)(x - 3)$

Misol 2:

$P(z) = z^2 + (2 + 3i)z + (4 - i)$

$z = -1 + 2i, \quad z = -1 - i$

Misol 3:

$P(x) = x^5 - 3x^4 + 4x^3 - 2x^2 + x - 6$

ırrqılcaa: $x - b$

Bu polinomni ildizlarini topish uchun biz uni faktorlarga ajratishimiz mumkin. Polinomning ildizlarini topish uchun quyidagi formulani qo‘llaymiz:

x2-5x+6=(x-2)(x-3)x^2 - 5x + 6 = (x - 2)(x - 3)x2-5x+6=(x-2)(x-3)

Misol 1: $P(x) = x^2 - 5x + 6 = x(x-2)(x-3)$

$x = 2, x = 3.$

Misol 2: $P(z) = z^2 + (2+3i)z + (4-i)$

$z = = \frac{-b \pm \sqrt{b^2-4ac}}{2a},$

$z_1 = -1+2i,\ z_2 = 1-i$

Misol 3: $P(x) = x^5 - 3x^4 + 4^3 - 2x^2 + x - 6$

Misol 4: $P(z) = z^4 + 1$

$z = e^{i\pi},\ e^{3\pi/4},\ e^{5i\pi/4},\ e^{5\pi}4,\ e^{7\pi/4}$

Bu yerda x=2x - 2x=2 va x=3x - 3x=3 polinomning ildizlari hisoblanadi. Demak, bu polinomning ildizlari 2 va 3 ekanligini ko‘ramiz.

Agar biz algebraning asosiy teoremasi nuqtai nazaridan qarasak, bu teoremaga ko‘ra, har qanday darajali polinom, xususan, bu polinom, kompleks sonlar maydonida kamida bitta ildizga ega ekanligi isbotlanadi. Bu misolda polinomning ildizlari haqiqiy sonlar bo‘lsa ham, algebraning asosiy teoremasi shuni ta’minlaydi ki, bu polinomning ildizlari har doim mavjud va ular kompleks sonlar maydonida joylashgan.

Misol 2: Kompleks Ko‘effitsiyentli Polinom

Endi ko‘rib chiqaylik, kompleks ko‘effitsiyentlarga ega bo‘lgan polinomni:

Bu polinomning ildizlarini topish uchun avvalo kvadrat tenglamaning ildizlarini aniqlash formulasi yordamida yechimlarni topamiz:

Algebraning asosiy teoremasi (shuningdek, Algebra asosiy teoremasi) — har bir n darajali polinomning kompleks sonlar maydonida kamida bitta ildizga ega ekanligini bildiruvchi teorema. Bu teorema XX asrda matematikada juda muhim natija bo‘lib, polinomlarning ildizlarini o‘rganish va ularning xossalarini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Teorema quyidagicha ifodalanadi:

Algebraning asosiy teoremasi: Har bir n darajali (ya'ni, n o‘zgaruvchiga ega) kompleks koeffitsiyentli polinom, $P(z)=a_n z^n + a_{n-1}z^{n-1}+\ldots+a_1 z + a_0$, $a_n \neq 0$ a_i kompleks sonlar maydonida kamida bitta ildizga ega.

Bu degani shuki, har bir kompleks polinom z = c nuqtada nolga teng bo‘ladigan bitta c kompleks sonini (ildiz) topadi. Polinomning barcha ildizlari (bir nechta bo‘lishi mumkin) kompleks sonlar maydonida mavjud bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. PEDAGOG, 7(5), 670-676.

2.Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 40-46.

3.Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 54-60.

4.Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. PEDAGOG, 7(4), 328-334.

5.Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. European research, (3 (81)), 47-49.

O‘QUVCHILARNI FAZOVIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISHDA 3D MODELLAR VOSITASIDA O‘QITISH

Raximjonova Zuxra Abduqahor qizi
Sirdaryo viloyati Guliston davlat pedagogika instituti Tarix va san’atshunoslik kafedrasi 2-kurs magistranti

Annatatsiya: *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chizmachilik fani darslarini tashkil qilishda innovatsion texnologiyalarning bir qancha afzalliklari hamda dars jaraayonlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanilganda erishish mumkin bo‘lgan yutuqlar va natijalar haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan. Bunda o‘quvchilarning qiziqishlari inobatga olingan holda darslarni tashkil qilishda 3D madellashtirish dasturlar(AutoCAD)dan foydalanish usullari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktab,chizma, fazoviy tasavvur, innovatsion, texnologiya, 3D madellar, AutoCAD, manipulyatsiya,*

“Tasavvur bilimdan muhimroqdir. Chunki bilim bizga bor narsalarni berishga yordam beradi, tasavvur esa cheksiz imkoniyatlarni ochib beradi.”

Albert Eynshteyn.[5]

Fazoviy tasavvur tushunchasi keng ma’noli tushuncha bo‘lib u – insonni uch o‘lchamli fazoni tushunishi, uni ko‘z oldiga keltira olishi hamda manipulyatsiya qila olish qobiliyatidir. Ta’lim sohasida fazoviy tasavvur insonning fazoviy obyektlar haqida va ularning o‘zaro munosabatlarini idrok etish, tushunish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim ko‘nikmalarni o‘rganishdan iborat. Bu ko‘nikma barcha sohalarda, shu jumladan muhandislik, chizmachilik, arxitektura, dizayn, matematika va boshqa texnik yo‘nalishlarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Chizmachilik fanida fazoviy tasavvur tasvirlanayotgan obyekt, chizma, buyum, detal va boshqalarning shakli, hajmi, ko‘rinishi, vaziyati va uning harakterikasi haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lishdir. Fazoviy tasavvur deganda chizilayotgan chizma, detal, buyumlarning inson tasavvuri va hayolida ko‘z oldiga keltira olishi hamda uni chizma formatiga tushira olishi tushuniladi. Dars jarayonlarida fazoviy tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirishda, dars samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirib, ongi hamda dunyoqarashini o‘stiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi.

Ijodiy faollikni hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Hozirda kelajak avlod yoshlarining bilim salohiyatini oshirishda faqat tanqidiy ko‘z bilan

[5] https://hikmatlar.uz/author/133

emas balki tasavvur qila olish, kreativ fikrlay olish qobiliyatini oshirish bilan ko‘zlangan natijalarga erishish mumkin. Bunda kompyuter texnologiyalari inson uchun ayniqsa yosh avlod uchun bera olishi mumkin bo‘lgan ko‘plab imkoniyatlardan unumli foydalanish vositasi sanaladi.

Xususan yuqorida ta’kidlangan fazoviy tasavvur qilish qobiliyatini kompyuter texnologiyalari va unda mavjud turli dasturlar yordamida amalda ko‘rish, kuzatish va turli sohalarda sinash mumkin bo‘ladi. Bunga isbot sifatida birgina kompyuter dasturi orqali biz maktabda chizmachilik darslarida qog‘ozga chizib o‘rgangan turli geometrik shakllar, grafik tasvirlarning 3D ko‘rinishini kompyuter ekranida osonlik bilan hosil qilish imkoniyatini olish mumkin.

Chizmachilik fanidan ishlab chiqilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar qonun-qoidalarga asoslangan holda tayyorlangan. Chunki, axborot texnologiyalari taraqqiy etgan hozirgi davrda yoshlarning ushbu texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zamon talabi bo‘lib bormoqda. O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining ahamiyati haqida so‘z yuritganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022-yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojatnomasida aytilgan “Umumiy o‘rta ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish va farzandlarimiz har tomonlama rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratish zarur” degan fikrlarini esga olish joiz. Bu masala Davlat dasturlarida ham ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Har bir loyihada ko‘rsatilgan ta’lim texnologiyalari o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish shart-sharoitlari, mashg‘ulot rejasi, pedagogik maqsad va vazifalar, ko‘zlangan natijalar hamda o‘qitish usullari va vositalari haqida to‘liq ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Hozirgi kunda chizma va uch o‘lchamli modellar tasvirlarini bajarish bo‘yicha juda ko‘plab AutoCAD, TopCAD, JCAD, 3D-GRAF, KD-Masler, КОМПАСграфик kabi grafik tizimlar kishilarning ilmiy va muhandislik faoliyatining turli sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Ulardan ta’lim tizimida ommalashgani AutoCAD hisoblanadi. AutoCAD shuningdek, mamlakatimizda va chet ellardagi ko‘pchilik korxona va tashkilotlarda loyiha-chizma ishlarini avtomatlashtirishning standartlashtirilgan tizimi sifatida shakllangan.[6]

AutoCAD grafik dasturi yordamida ikki ko‘rinishga qarab uchinchi ko‘rinishni topish, tutashma, chiziq turlari, aksonometrik proeksiyalar, sirtlar, qirqimlar va kesimlar va boshqa mavzular bo‘yicha ishlanmalar yaratish mumkin. Kompyuterda yaratilgan 3D chizmaning vizual modeli orqali namoyish etilishi uni real hayotdagidek ko‘rsatib beradi va o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lib, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantiradi.

[6] https://kompy.info/zamonaviy-fan-va-talim-tarbiya-muammo-yechim-natija.html?page=145

Interaktiv vositalarni chizmachilik darslarida qo‘llanilishi orqali har bir o‘quvchiga individual berilgan topshiriqlar berilishi, ularning shaxsiy-individual traektoriyasi belgilanadi, natijada virtual qurilmalar va multimedia dasturlari yordamida o‘quvchilar real vaqtda chizmalar yaratish imkoniga ega bo‘ladilar.



Virtual modellashtirish texnologiyalari o‘quvchilarga murakkab chizmalarni vizuallashtirishni va ularning o‘lchamlarini aniq tahlil qilishni o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda chizmachilik darslarida 3D – modellashtirish va vizualizatsiya – uch o‘lchamli tasvirni yaratish jarayonida grafik dasturlardan foydalanish ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Ushbu texnologiyaning imkoniyatlari cheksizdir va bu texnologiya yordamida har qanday shakl va o‘lchamdagi narsalarni yaratish, ranglar bilan tajriba qilish, o‘zgartirish mumkin.

Shu bilan bir qatoqda, uch o‘lchamli vizualizatsiyaning asosiy afzalligi shundaki, u tasavvurda shakllangan tasvirlar, ajoyib rasmlar va murakkab belgilar tartibini yaratishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-sonli farmoni “2022 - 2026 yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/6008663

2. K.G.Malikovning “Chizmachilik fani darslarida ijodiy loyihalash masalalarini qo‘llash orqali o‘quvchilar fazoviy tasavvurini oshirish” (-T.: “Maktab va hayot” jurnali, 2017 yil, 1-son.

3. Rahmonov I., Valiyev A. Chizmachilik (chizmachilik fanida konstruksiyalash asoslari). –T.: “Voris nashriyot”, 2011

Elektron saytlar

1. https://hikmatlar.uz/author/133

2. https://kompy.info/zamonaviy-fan-va-talim-tarbiya-muammo-yechim-natija.html?page=145

THE ROLE OF QUEST TECHNOLOGY IN INTELLECTUAL DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AND PRIMARY GRADES

Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna
Scientific advisor Teacher at Samarkand Pedagogical College Samarkand city.
Turayeva Dilnoza Niyatullayevna
Student International Institute of Finance, Technology and Science Master's student in Pedagogy,

Abstract: *In this article, we examine how quest technology affects intellectual development in preschool education and primary grades. Quest technology is a method that makes the learning process more effective and interesting for students, helping to develop collaboration, problem-solving, and creative thinking. The role and benefits of quest technology for preschool and primary grade students, as well as its role in intellectual development, are scientifically analyzed. The research emphasizes the importance of quest technology in increasing student motivation and developing independent thinking and teamwork abilities. The article also provides methodologies, techniques, and recommendations for optimizing the learning process necessary for the effective application of quest technology.*

Keywords: *Quest technology, intellectual development, preschool education, primary grades, creativity, student motivation, independent thinking, educational methodologies.*

INTRODUCTION

Today, the education system is in a process of change, and the need for updating pedagogical technologies and methodologies is increasingly growing. In particular, among modern technologies aimed at increasing student activity in the learning process, deepening knowledge acquisition, and developing thinking skills, quest technology holds a special place. Quest technology is a methodology that involves teaching students through solving certain problems or tasks, enabling the development of independent thinking, teamwork, and creativity. This technology provides students with interesting and effective ways to acquire knowledge.

Quest technology is an innovative approach to the education process, playing an important role not only in learning but also in ensuring the personal development of students. The use of quest technology in preschool and primary education institutions especially helps children fully realize their intellectual potential. Through this methodology, children independently acquire knowledge while performing various tasks, which increases their self-confidence and improves cognitive processes.

In this article, we analyze how quest technology affects intellectual development in preschool and primary grades, its effectiveness, and how it can increase student interest in

education. Quest technology encourages students to acquire knowledge in a different way in the modern education system. Research shows that the interactive and problem-solving methods that form the basis of quests further activate students, and they develop creative approaches to solving problems they encounter. Active dialogue between teacher and student, and teaching the student to work in a team, are among the greatest benefits of this methodology.

In preschool education, quest technology especially helps provide children with knowledge about nature, the physical environment, and the social world through various games and activities. Children test themselves through interesting and challenging tasks, while developing independent and creative thinking in solving complex problems. This process improves students' mental activity, memory, and attention.

In primary grades, quest technology introduces students to problems in various fields of science. Through this method, students participate in interesting games to develop scientific and mathematical abilities, analyze complex tasks, and find solutions. This process allows students to choose the most effective method for acquiring knowledge and further develops their thinking abilities.

The Impact of Quest Technology on Intellectual Development:

Quest technology has a positive impact on intellectual development, especially for children and students. This methodology encourages students to adopt independent and creative approaches to problem-solving. The main advantage of quest technology is that it allows students to clearly express their thoughts and effectively apply knowledge while completing complex tasks. Through this process, children and primary school students actively participate in analyzing the material they have learned, consistently presenting their ideas, and engaging in discussions with others.

The impact of quests on intellectual development is particularly evident in the formation of problem-solving skills in children. For example, through quest games, students find their place in a team and learn unique ways of accepting and responding to ideas. As a result, they not only expand their knowledge but also learn to express their thoughts in mutual communication. This is of great importance in their intellectual development.

Additionally, quest technology develops mental processes such as logical thinking, concentration, memory, and imagination in students. In preschool education, this technology helps develop children's speech, strengthen their interactions with the social environment, and apply their knowledge in practice.

The Impact of Quest Technology on Students:

Quest technology has beneficial effects in various directions for preschool and primary school students. Through this methodology, students:

olimi G. Spenser tomonidan fanga kiritilgan. Integratsiya muammosini hal etish borasida olimlar birmuncha ishlarni amalga oshirganlar. Rivojlangan davlatlarda ta'lim mazmunini integratsiyalash borasida muhim va dolzarb ishlar amalga oshirilgan. Angliya, Yaponiya, Vengriya davlatlarda ta'lim mazmunini integratsiyalashga erishilgan. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, kommunikativ qobiliyatining o'sishiga, o'quvchilar o'rtasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

O'z darsini integratsiyalashgan usulda tashkil etayotgan o'qituvchi o'quvchisining yoshi, aqliy rivojlanish darajasi va albatta, qiziqishlari doirasiga mos tarzda vosita va usullar tanlaydi.

Integratsion dars loyihasining tematikasi o'quv dasturining qaysidir masalasiga tegishli bo'lishi mumkin, bunda alohida qaralgan iqtidorli o'quvchilar va umuman, sinf o'quvchilaridagi mazkur mavzu yuzasidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi bilimni chuqurlashtirish, o'rganish jarayonini differensiallashtirish maqsad qilib olinadi.

Integratsion dars odatdagi darslardan:

- aniqligi, ixchamligi, o'quv materialining ko'lami;

- darsning har bir bosqichida integratsiyalanayotgan o'quv fanlarining har taraflama mantiqiy shartlanganligi;

- berilayotgan o'quv materialidagi keng ko'lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

Darslarni integratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o'tishini, balki o'quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'quv jarayonini yuqorida ta'kidlangan pedagogik xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etish dars samaradorligini oshiradi, vaqtni tejaydi, kutilgan pirovard natijaning qo'lga kiritilishini kafolatlaydi.

Bunda pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, u orqali ta'lim jarayonida rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud bo'lganligi sababli o'quvchilarda dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit shakllantirish bilan bog'liq jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva Sh. Loyihalar usuli // Kasbiy fanlar metodikasi. – Toshkent, 2013. – № 2. – B. 10-12.

2. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (ижтимоий-гуманитар йўналишидаги академик-лицейларда математика ўқитиш мисолида): Пед. фан. док. дисс. ...автореф. – Т., 2006. – 49 б.

3. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000.

4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.

5. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

6. Xodjaev B.X. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDPU.

7. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

8. Зиёмуҳаммедов Б., Абдуллаева Ш. Илғор педагогик технология. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2001.

9. Мавлонова Р., Раҳманқулова Н. Бошланғич таълимни интеграциялаш. – Т., 2011.

CREATIVENESS AS A MAIN FACTOR IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Azimova Maxfuza Abdusamatovna

Senior teacher of the department of foreign language and literature, Tashkent University for Applied Sciences,Tashkent, email:makhfuza67@icloud.com

Abstract: *The primary definitions of creative abilities provided by international scientists are discussed in the article, along with a critical examination of the various forms of creative abilities and how they relate to thinking traits. The aim of this paper is to emphasize the importance of the students' creativity in foreign language acquisition. Additionally, strategies for fostering creative abilities through the use of a foreign language are described.*

Key words: *cognitive ability, capacity, human intelligence, risk taking, flexibility, imagination, innovative growth, interpreted, divergent.*

The issue of creative personal development is more pressing now than it has ever been. Naturally, one could wonder why this component is receiving so much attention at this time. The solution is straightforward: experts who can come up with ideas and show creativity are needed in this period of active foreign technology integration into all facets of life and the execution of the digital economy agenda. The growth of creative skills enhances practical and emotional experience, shapes mental attitudes and intellectual potential, nurtures an individual's aesthetic and mental abilities, accumulates professional skills and abilities, and brings out children's innate tendencies.

The fact that all cultural values developed over centuries of history are the result of society's creative endeavors is not surprising. Furthermore, the inventiveness of the next generation will influence how far civilization may progress in the future. Being a broad education subject, learning a foreign language is a great way to help pupils develop their creative skills. Let's examine the essence and traits of a foreign language in order to comprehend its contribution to the growth of a person's creative talents. The relationship between language and creativity has been the subject of inquiry by numerous scientists. Accordingly, K. Vossler views language as a spiritual activity and a "expression of the spirit." Vossler believes that language must be studied in dynamics, throughout its production, which is predicated on ongoing innovation, in accordance with W. Humboldt's view of language as an action [1:p.144].

As we can see, language formation itself can already be considered an expression of an individual's creative activity. Let's start by examining the term "creativity" itself. Creative

talents are part of general mental abilities and are comparable to cognitive abilities. According to E. Fromm, everyone is born with the capacity for creativity. E. Torrance clarifies that creativity is a higher thought process associated with a sudden guess that combines new associations with the problem posed ."The ability to be creative is the unity of the ability to go beyond the known and the ability to create an extensive set of associations," says S. Mednik, who also views associative thinking as one of the fundamentals for an individual's creative development. [2:p.368].

In response to this query, Khutorskoy defines creative talents as an individual's creative traits (such as imagination, creativity, and the capacity to develop ideas) that are part of the broader notion of creativity. By examining the ways in which scientists have interpreted creative abilities in their writings, we can draw the conclusion that creative abilities are a combination of a person's unique psycho physiological traits with qualitatively novel states (e.g., changes in attitude toward surrounding events, perception of oneself and what is happening around), showing up during an activity that is novel to the person, as evidenced by its successful execution or the creation of a new product. Creativity, a steady personality attribute with a strong drive for creative endeavors, is the outcome of the process of developing creative abilities. Every person have creative qualities that emerge and grow during an activity. However, the social and educational context in which an individual lives has the biggest impact on how their creative abilities develop. It is common for psychologists to discuss the relationship between creative talents and thinking traits [3;p.186].Thus, the famous American researcher J. Guilford, who studied issues of human intelligence, found that creative individuals have so-called divergent thinking. In order to consider as many choices as possible, people who exhibit this mode of thinking start looking for a way out of the situation in all directions to solve problems rather than focusing all of their efforts on finding the one right answer. These individuals frequently create links between two seemingly unrelated things or create novel combinations out of elements that are used by the majority of society in a particular way. Divergent thinking is the foundation of creative thought, and its distinguishing characteristics are: speed—the capacity to come up with and produce the most ideas in the shortest amount of time (in this instance, quantity is more important than quality); flexibility—the capacity to come up with a wide range of different ideas; originality—the capacity to come up with novel and unconventional ideas; and completeness—the capacity to polish your "product" or give it a final form [4:p.324].

As for attempts to identify which specific abilities are considered creative, researcher A.N. Luk, taking into account facts from the biographies and success stories of famous extraordinary representatives of art and science, identifies 13 types of creative abilities:[5:p.127]

1. Ability to detect a problem.

2. Towards generalization and specification.

3. To use the experience gained.

4. Towards a holistic perception of the surrounding world.

5. Towards associations.

6. To choosing one of the ways to solve the problem before checking it.

7. Towards the integration of new information into existing knowledge systems

8. To finalize the original plan.

9. Flexibility of thinking.

10. The ability of memory to produce the necessary information when required.

11. The ability to perceive things objectively, to separate what is observed from what is the result of interpretation.

12. Ease of generating ideas.

13. Creative imagination.

The classification of creative abilities presented by V.T. Kudryavtsev and V. Sinelnikov is much smaller. Scientists, relying on rich historical and cultural material, have identified 4 creative abilities formed during evolution: [6:p.296]

1. Realism of imagination.

2. The ability to see the whole before the parts.

3. The supra-situational-transformative nature of creative solutions.

4. Experimentation

As we can see, the only creative abilities stated here are universal personality traits. According to Altshuller, human creative potential consists of nine different components:- a strong sense of risk-taking; - divergent thinking; - flexibility in thought and action; - a high rate of thought; - the capacity to generate and express ideas that are far from banal; - a good imagination; - a high appreciation of aesthetics; - a developed intuition. The essential elements of creative abilities are identified as imagination and the capacity to make innovative choices that aim to update something that already exists or create something essentially new, according to our critical analysis of the views presented on the subject of the essence and characteristics of creative abilities. It is only via creative activities that pupils can improve their creative ability. Additionally, L.N. Tolstoy stated: "A student will only copy in life if he does not learn to create anything himself in school" [7:p681].

A foreign language education is the best way to accomplish the objectives of a student's whole personality development. It is in the process of teaching a foreign language that practicing methodologists recommend the widespread use of one of the most effective methods in modern education - project-based . Students who participate in project-based learning activities within the framework of language education not only gain and enhance the language skills they need, but they also have the chance to develop their creative thinking,

autonomously plan their actions, anticipate various events, and actively engage with the linguistic reality. [8:p.82-85]

In conclusion, it should be mentioned that a modern student of any age has creative abilities as a fundamental part of their personality. These abilities represent the union of individual psycho physiological traits of an individual with qualitatively novel states. The student has the chance to show off his creative potential and hone his creative skills during the process of learning a foreign language, which encompasses the whole development of the individual. Project activities are among the most effective tools for innovative personal growth during the foreign language learning process.

REFERENCES:

1.Vossler K. Aesthetic idealism: selected works on linguistics. Series “History of Philosophical Thought” / K. Vossler. – 2007. – 144 p.

2.Druzhinin V.N. Psychology of general abilities / V. N. Druzhinin - St.Petersburg. : Peter, 2008. – 368 p.

3. Khutorskoy A.V. The structure of students’ heuristic abilities / A.V. Khutorskoy //Internetmagazine “Eidos” 2005.–April,21. p.186

4. Guilford J. Structural model of intelligence / J. Guilford // Psychology of thinking; edited by A. M. Matyushkina. – M., 1965. – 324 p.

5. Luk A.N. Psychology of creativity / A.N. Onion. – M.: Nauka, 1978. – 127 p.

6. Kudryavtsev and V. Sinelnikov Creativity: theory, diagnostics, technology: dictionary-reference book / edited by. ed. T. A. Barysheva. – St. Petersburg, 2008. – 296 p.

7. Apostolov N. N. Living Tolstoy: the life of Leo Nikolaevich Tolstoy in memoirs and correspondence / N. N. Apostolov. – St. Petersburg. : Lenizdat, 1995. – 681 p.

8. Kikteva E.I. Psychological and methodological principles of project-based teaching methods / E.I. Kikteva, E.S. Kuznetsova // Current problems of the humanities, socio-political sciences: interuniversity collection of scientific works; under the general editorship of V.N. Plaksina. – Voronezh, 2003. – pp. 82–85.

9. KM Khabibullayevna (2022) “Linguocultural and sociocultural relevance of the concept "Health" and " disease" in the English and Russian languages”. Наука, техника и образование 86 (3), 102-104p.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ЭКИНЛАРНИ ЧАНГЛАТИШДА АСАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Наўризов Тохтамыс Қыдырбергенович
Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти, доценти
Аллебеков Бердах Кабылбекович
Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти, ассистенти
Мадияров Сапажон Камоладдин уғли
Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти, 2 босқич ветеринария таълим йўналиши талабаси

Аннотация: *Мазкур мақолада чанглатишда юқори даражадаги кўрсаткичларга эришган асосий шартлардан бири аризорни чанглатиладиган майдонга яқин қўйиш ва асаларининг бу ерга учиб келадиган йулидан тўсиқларнинг камроқ бўлиши ҳақида маълумотлар берилган.*

Калит сўзлар: *Аризор, чангланиш, зиғир, ром, оила, масофа, шарбат, озуқа, отқулоқ, насл.*

КИРИШ

Асалариларнинг экинларни чанглатиш хусусияти ҳаммага маълум. Ғўза гулини асаларилар чанглатганда пахта ҳосилдорлиги 27,9 % га, резавор-мева ҳосили 50-60 % га ортади. Беда уруғи уч баравар кўпаяди, мева уруғ ва пахта толасининг пишиб етилиши тезлашади, сифати яхшиланади.

Сўнги йилларда соҳада вужудга келган салбий оқибатлар натижасида асалари оилалари бош сони камайиб кетди, бу эса мавжуд асалари 7 зотларининг ирсий хусусиятларидан тўла фойдаланиш имкониятларини чегаралаб қўйди, асалариларнинг ривожланиш қобилияти кечика бошлади, қишловдан чиқиши оғирлашди, иқлим шароитимизга ва турли касалликларга чидамлилиги пасайди.

Ўсимликларнинг чангланиш масаласи билан кўпгина олимлар шуғулланишган. Улар асаларилар полиз экинлари ва мевали дарахтларни чанглатишда қатнашиб, уларни ҳосилдорлигини 4-5 марта оширганлигини исботладилар. Асаларилар ёрдамида ва бошқа комплекс тадбирларни қўллаб,

ҳосилни ошириш масаласига мамлакатнинг барча вилоятларида ҳам аҳамият берилмоқда. Олимларнинг маълумотларига кўра ўсимликларнинг асаларилар ёрдамида чанглатиш беда ҳосилини 180-250 % гача, кунгабоварни 40-50 % гача, карам, шолғом, пиёзни 30-40 %, зиғирни 27 % гача оширади.

Чанглатишда асаларилардан унумли фойдаланиш учун соғлом, кучли асалари оиласи чанглатиш керак бўлган жойга олиб чиқишдан 12-14 кун олдин оилада 5-6 та наслли ром бўлиб, ундаги наслни боқишга етадиган асалари бўлиши керак.

Чанглатишда юқори даражадаги кўрсаткичларга эришган асосий шартлардан бири аризорни чанглатиладиган майдонга яқин қўйиш ва асаларининг бу ерга учиб келадиган йулидан тўсиқларнинг камроқ бўлишидир. Табиий (дарё, кўл, қирлар) ва сунъий (қурилишлар, дарахтлар, заҳарли газлар, корхоналар тутуни, кимёвий чиқиндилар) тўсиқлар қанчалик кам бўлса асаларилар шунча тез жойига бориб чанглата бошлайди, тўсиқлардан учиб ўтишга камроқ қувват сарфлайди, уларни ишлаш шароити хавфсизроқ бўлади ва белгиланган майдонни чанглаштиш учун камроқ асалари оиласи керак бўлади.

Ўзбекистон шароитида пахта экинлари, шоли далаларида чанглатувчи аризорни майдароқ қисмларга бўлиб (40-50 оиладан), бир-биридан 450-500 метр узоқликда жойлаштириш маъқул. Боғларда бу масофа 200 метргача қисқартирилади.

Катта, чўзилган майдонларда чанглатиш самарасини ошириш учун, аризорни майдон четидан 200-300 м ичкарига, бир-биридан 800-1200 м масофада қўйиш керак. Шуни ҳисобга олиш керакки, чанглатиладиган майдоннинг атрофида асаларилар диққатини жалб қиладиган ўсимликлар бўлмаслиги керак. Акс ҳолда уларда асалариларнинг бир қисми қолиб кетади. Тарвуз, қовун, бақлажон, бодринг ва ёввойи ўсимликлар: шўра, чирмовуқ, отқулоқ ва ҳаказо экинлар асалариларни хаётий фаолиятини кучлантиради.

Асаларилар гулдан – гулга қўниб, ўсимликларнинг гулчангини биридан иккинчисига ўтказиб, уларнинг чангланишини таъминлайди. Ҳар хил турдаги ўсимликларнинг турлари турлича ҳид ажратганлиги учун ҳам асаларилар уларни яхши мўлжалга олиб, тез қидириб топадилар.

Асаларилар кўпроқ бориб қўнадиган гулларга яхши мослашиб олиб, хар битта асалари ўнлаб гуллар орасидан ўзи нектар олаётган гулни топа олади. Асаларилар ўсимлик гулларида шарбат камайиб қолгандагина айрим тур ўсимлик гулларидан бошқа тур ўсимлик гулларига бориб қўнади.

Асаларилар озуқа қидириб гулларни чанглатиб, мева навларини яхшилаб ҳосилдорликни оширсалар, гуллар асалариларни гулчанг ва нектар (оқсил, углевод) каби озуқа билан таъминлайди.

Ҳар – хил қишлоқ хўжалик экинларини чанглатиш учун маълум бир асалари оиласи миқдори талаб қилинади.

Жадвал-1

Экинларни чанглатиш учун асалари оиласининг меъёри

Экинлар	1 га экилган майдонга асалари оиласи	Ҳосилнинг ошиши, %
Семичкали боғлар	2,0	25-30
Гречиха	2,0-2,5	40-60
Кунга боқар	0,5-1,0	40-50
Қизир юнғичга	4,0-6,0	70-75
Йўнғичқа	8,0-10,0	60-65
Эспарцет	3,0-4,0	30-50
Кориандер	2,5-3,0	60-80
Пахта	0,5-1,0	15-30
Полиз экинлар, бодринг	0,3-0,5	30-160
Иссиқхонадаги бодринг	10-12	200-300

Ўсимликларни чанглатишда ёввоий хашаротларга нибатан асаларилар муҳим ўринни эгаллайди. Битта ишчи асалари гулзорга ҳар бир учишида 100-150 та гулга қўнади, кучли оиланинг асаларилари кунга боқарнинг, йўнғичқанинг, полиз экинларининг, мевали дарахтларнинг ва бошқа ўсимликларнинг 50-60 млн гулига қўнади. Гулларга қатнаш пайтида асаларилар ўз таналарида 3-5 млн гул чанги донини келтириб ўсимликларни мувофаққиятли чанглатадилар. Асаларилар 80-90 % чангларишишини бажаради, ёввойи хашаротлар эса 10-20 % гача чанглатади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Верещагин А.Н., Халько А.В. Вывод маток и получение маточного молочка. Ж. «Пчеловодство», №4, 2006, стр. 12-14.
2. Исамуҳаммедов А.И “Асаларичилик” Т., Ўқитувчи. 1995.
3. Қахраманов. Б.А,.Исамухаммедов А.И., Балласов У.Ш.Эргашев С. Ф.Тўраев О.С. “Шахсий, ѐрдамчи дехқон ва фермер хўжаликларида асалари оилаларини парваришлаш”. Т.2009. (ўқув қўлланма)

4. Қахраманов. Б.А,.Исамухаммедов А.И., Балласов У.Ш., Исамуҳаммедов С.Ш. Тўраев О.С. ”Асаларичик” Тошкент 2012 й (ўқув қўлланма)

UO‘K: 657.1:005.52:664.7(575.122)

ISHLAB CHIQARISH JARAYONINI BOSHQARUV TAHLILINI TASHKIL ETISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

Chinberdiyeva Lazokatxon Raxmatjonovna
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: *Maqolada ishlab chiqarish jarayoni boshqaruv tahlilini tashkil etish, ishlab chiqarish dasturlarini belgilashdagi ahamiyati, mahsulot ishlab chiqarish hajmi hamda xarajatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda zarur bo‘lgan iqtisodiy tejamkorlik ko‘rsatkichi haqida ma’lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarish dasturi, mahsulot hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari, iqtisodiy muvozanat, iqtisodiy tejamkorlik.*

Аннотация: *В статье изложены сведения об организации управленческого анализа производственного процесса, его значении при определении производственных программ, а также об экономическом показателе рентабельности, необходимом для обеспечения баланса между объемом производства и расходами.*

Ключевые слова: *Производственный процесс, производственная программа, объем продукции, производственные затраты, экономическое равновесие, экономическая эффективность.*

Annotation: *The article presents information on organizing managerial analysis of the production process, its importance in determining production programs, and the economic efficiency indicator necessary to ensure the balance between production volume and costs.*

Keywords: *Production process, production program, product volume, production costs, economic balance, economic efficiency.*

KIRISH

Ishlab chiqarish jarayoni korxonaning xo‘jalik jarayonlari ichida eng muhim jarayon hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni davomida xom ashyo, materiallar texnika va texnologiyalar yordamida, hamda ishchi kuchi mehnati natijasida tayyor mahsulotga aylanadi. Ishlab chiqarish jarayonida sarflangan xarajatlar evaziga moddiy ne’matlar yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida boshqaruv tahlilining asosiy maqsadi - ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlash va xarajatlarni kamaytirishga qaratiladi.

Asosiy qism: Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun boshqaruv tahlilida mahsulot hajmi va xarajatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik chuqur o‘rganiladi. Korxona ishlab chiqarish dasturining bajarilishi esa ishlab chiqarish uzluksizligining asosiy ko‘rsatkichidir. Dasturlar davriyligiga qarab oylik, choraklik va yillik rejalar shaklida tuziladi.

Dastur bajarilishini bosqichma-bosqich tahlil qilish orqali yillik rejalarning umumiy bajarilish holatini aniqlash mumkin. Misol sifatida Andijon viloyatidagi "Andijondonmahsulot", "Asaka don mahsulotlari" va "Qo‘rg‘ontepa don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatlarining ishlab chiqarish faoliyati yillik kesimda tahlil qilinadi.



1-rasm. Donni qayta ishlash korxonalarida un ishlab chiqarish hajmining dinamik tahlili (tonna)

Tadqiqot natijalari ob’ekt sifatida o’rganilayotgan “Andijondonmahsulot” aksiyadorlik jamiyati, “Asaka don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati, “Qo‘rg‘ontepa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish jarayonida keskin pasayish kuzatilmoqda. Mamlakatimizda kichik biznes sub’yektlariga berilayotgan imkoniyatlar, xalqaro eksport-import jarayonlarini kuchayishi donni qayta ishlash korxonalari oldiga bozorni chuqur tahlil qilish, yanada raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsion mahsulotlar yaratish, xarajatlarni oqilona boshqarish, narx siyosatini to‘g‘ri olib borish vazifalarini kuchaytirmoqda.

Ishlab chiqarish jarayoni tahlilida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim hisoblangan ko‘rsatkichlar xarajatlarni tahlil qilish natijasida aniqlanadi. Xarajatlarni tahlil qilish mahsulot tannarxini pasaytirish yo‘llarini topish yoki xarajatlar ortiqcha sarflangan holatlarda uning sabablarini aniqlash imkonini beradi. Xarajatlarni tahlil qilishning amaldagi tartib-qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan belgilanadi.

Muhokama: Ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish xarajatlarni ham rejalashtirish, shuningdek, xarajatlarni belgilangan me'yor va standartlarga muvofiq amalga oshirilayotganligini nazorat qilish bilan bog'liqdir.

G.V.Savitskaya: "Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi quyidagi holatlarda o'zgarishi mumkin deb hisoblagan:

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

Mahsulot tarkibi;

Mahsulot birligiga tegishli o'zgaruvchan xarajatlarning darajasi;

Doimiy xarajatlar summasi".

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi - xarajatlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Doimiy xarajatlar mahsulot hajmiga bog'liq emas, ya'ni o'zgarmaydi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi doimiy xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi maxsulot tannarxining pasayishiga olib keladi. Mahsulot tarkibining o'zgarishi uning tarkibiga kiritilayotgan qo'shimchalar yoki chiqarib yuborilayotgan ortiqchaliklar natijasida yuzaga keladi. Bu holat ham mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish harajatlarining boshqaruv tahlilida xarajatlarni o'zgarish sabablarini aniqlash zarurdir. Xarajatlar o'zgarishining muhim sabablardan biri mahsulot hajmining ko'payishi yoki kamayishidir. Mahsulot hajmi va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish muammo yechimini topishga yordam beradi. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot hajmi o'rtasidagi nisbat bir so'mlik (bir birlik) mahsulotga to'g'ri keluvchi xarajatni ifodalaydi. Bir so'mlik mahsulot hajmiga to'g'ri keluvchi xarajatni xarajat elementlari bo'yicha tahlil qilish xarajatlarni maqsadli boshqarish uchun xizmat qiladi.

1-jadval

"Asaka don mahsulotlari" AJning ishlab chiqarish xarajatlari elementi bo'yicha bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keluvchi xarajatlar tahlili

Ko'rsatkichlar	2022 yil	2023 yil		O'zgarish			
		reja	haqiqatda	rejaga nisbatan		2023 yilga nisbatan	
				so'm-da	%	so'm-da	%
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	94286	134677	129326	-5351	96,03	+35040	137,16
Mahsulot hajmi	103428	144941	137991	-6950	95,20	+34563	133,42
Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keluvchi xarajat sh/j:	0,91	0,93	0,94	+0,01	100,86	+0,03	102,81
Moddiy xarajat	0,76	0,84	0,85	+0,01	101,25	+0,09	111,67

Ish xaqi to‘lash xarajatlari	0,06	0,03	0,03	-	97,27	-0,04	45,33
Ijtimoiy soliq (sug‘urta) ajratmalari	0,01	-	-	-	97,22	-	45,33
Amortizatsiya	0,01	0,01	0,01	-	97,28	-	152,19
Ishlab chiqarish ustama xarajatlari	0,07	0,04	0,04	-	97,24	-0,03	60,16

Olib borilgan o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bir so‘mlik mahsulotga to‘g‘ri keluvchi xarajat 2023-yilda rejaga nisbatan 0,01 so‘mga, o‘tgan yilga nisbatan 0,03 so‘mga ortgan. Bu mahsulot tannarxini ko‘tarilishiga olib keladi. Qaror qabul qilishdan oldin xarajat va hajm o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish taklif qilinadi. Iqtisodiy tejamkorlik koeffitsienti xarajat va hajm o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun foydalaniladi:

$$Kt = \frac{Ix}{Im}$$

Bu yerda

Kt – iqtisodiy tejamkorlik (muvozanat) koeffitsienti

I_x – xarajatning mos davrlardagi nisbati

I_m – mahsulot hajmining mos davrlardagi nisbati

Ko‘rsatkichni rejaga nisbatan aniqlasak:

Kt = 96,03/ 95,20 = 1,01

2023 yilga nisbatan:

Kt = 137,16/ 133,42 = 1,03

Hisob-kitoblardan ko‘rinib turibdiki, ikkala taqqoslash davri uchun ham xarajat va hajm muvozanati ta’minlanmagan. Ko‘rsatkichning 1 dan ortiq bo‘lishi iqtisodiy samarasizlikni, 1 dan kichik bo‘lishi iqtisodiy tejamkorlikni, 1 ga teng bo‘lishi esa xarajat va hajm o‘rtasidagi iqtisodiy muvozanatni anglatadi. Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, rejaga nisbatan ham, o‘tgan yilga nisbatan ham iqtisodiy tejamkorlikka erishilmagan va xarajat hamda hajm muvozanati ta’minlanmagan.

Xulosalar: Ishlab chiqarish jarayoni boshqaruv tahlilini tashkil etish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahsulot hajmi va ishlab chiqarish xarajatlari muvozanatini nazorat qilib borish korxona boshqaruvchilariga xarajatlarni rejalashtirish, shuningdek, byudjetlashtirish jarayonini shakllantirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy tejamkorlik koeffitsienti korxona rahbarlariga mahsulot ishlab chiqarish rejasini ilmiy asosda tuzish, ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot hajmiga mos ravishda rejalashtirish, shuningdek, xarajatlarni nazorat qilish va samarali boshqarishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

BIBLIOGRAFIK RO‘YXAT:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.
2. Г.В.Савицкая. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: Учебник.М.:ИНФРА-М, 2003. 187-188 с.
3. M.A. Vaxrushina. Upravlencheskiy analiz: Uchebnoe posobie. M.:Omega-L, 2005. -432 s.
4. A.T.Mamajonov. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan avtoreferat. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. -20 b.
5. L.R.Chinberdiyeva. SCIENCE AND EDUKATSION IN AGRIKULTURE Ishlab chiqarish xarajatlarining korxona samaradorligiga ta’sirini baholash. 157-161 b. Volume 2 Issue 2. №2 2024 yil.

Mualliflar haqida ma’lumot

Chinberdiyeva Lazokatxon Raxmatjonovna

Andijon qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti, telefon: (+998) -94-384-95-59, E-mail:chinberdiyeval@gmail.com

УДК: 632.937.64

MEASURES TO CONTROL DOMINANT TYPES OF MITES

Annakulov Bakhitbay Kdirbaevich
Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Аннотация: *Мақолада Қорақалпоғистон шарайтида экилаёдган қишлоқ хўжалиги экинлари далаларида тарқалган каналар турларини аниқлаш, доминант турларининг биоэкологияси, динамикаси ва зарар келтириш мезонини белгилаш ва карши кураш тадбирларини олиб бориш бўйича ўтказилаётган тадқиқотлар натижалари келтирилган.*

Калит сўзлар: *қаналар, биоценоз, ҳаво ҳарорати, нисбий намлик, биоэкологияси, динамикаси, зарар келтириш.*

Annotation: *This article presents the results of research conducted to identify the types of mites found in the fields of agricultural crops grown under the conditions of Karakalpakstan, to determine the bioecology, dynamics, and damage threshold of dominant species, and to develop and implement control measures against them.*

Keywords: *mites, biocenosis, air temperature, relative humidity, bioecology, dynamics, damage.*

INTRODUCTION

In recent years, research conducted under the conditions of the Republic of Karakalpakstan has confirmed the emergence of new species belonging to the class arachnids (Arachnidea), order mites (Acariformes), in biotopes where various agricultural crops are grown. These species, which had not previously been recorded in agrobiocenoses, are now found in small numbers and are becoming widespread [5,7].

To carry out control measures against these species, it is first necessary to identify the mite species, determine the dominant and secondary types, and identify environmental factors that influence their development and bioecology. It is essential to determine the bioecology of these species and assess the extent of damage they cause. Considering the development dynamics of mites that spread and cause harm to crop species, the timing of recommended control measures for use in the field must be established. Among today's main measures are determining the application rates of chemical preparations per hectare and evaluating their biological and economic effectiveness when implemented in agricultural production.

Methods of the research.

To identify the types of mites spreading in agricultural crops and determine their bioecology and dynamics, the methods of B.P. Adashkevich [1], Sh.T. Khojaev [6], and the damage assessment method of V.I. Tanskiy [4] were used. In carrying out control measures, the approaches of Sh.T. Khojaev [6] and K.A. Gar [2] were applied. Biological effectiveness was calculated using Abbott's formula. For placing variants and conducting dispersion analysis of the results, mathematical statistical processing was performed based on the method of B.A. Dospekhov [3].

Results of the research and their discussion. As a result of scientific studies conducted to identify mite species spread in the biotopes of agricultural crops within the agrobiocenosis of Karakalpakstan, it was revealed that depending on the plant species in the region, the following mite species are widely distributed and cause significant damage: two-spotted spider mite (Tetranychus urticae Koch.), tomato rust mite (Aculops lycopersici Massee.), fruit spider mite (Schizotetranychus pruni Oudms.), brown fruit mite (Bryobia redikorzevi Reck), red fruit mite (Panonychus ulmi).

The dominant species under regional conditions was identified as the two-spotted spider mite, which emerges from overwintering by the end of March and develops on 24.2–77.2% of weed leaves. From May until the end of the growing season, its development dynamics showed the following densities: on cotton leaves: 14.3–144.5 individuals (32.5–36.3% of leaves), on cucumber leaves: 25.3–74.3 individuals (18.1–22.5%), n melon leaves: 29.3–456.5 individuals (33.1–55.2%), on pumpkin leaves: 52.8–664.07 individuals (13.3–31.2%), on apple and apricot trees: up to 36.3–60.2 individuals (11.6–44.4%).

In recent years, the tomato rust mite has become the dominant species in terms of area of spread and damage level. In the first ten days of May, 2.6–8.1 individuals (4.5–11.3%) per 1.5 cm² were recorded on weed leaves. On tomato plants, the population reached 2.6–10.3 individuals (12.8–68.1%) by the end of August. The fruit spider mite reached densities of: 6.8–149.0 individuals (5.1–37.2%) on apple leaves, 10.9–34.2 individuals (1.8–11.3%) on plum leaves, 11.6–26.1 individuals (2.8–9.7%) on cherry leaves, causing significant damage. (Table 1.)

When tomato rust mite infestation levels were considered in the tomato fields, the average number of mites per leaf reached 18.5–24.1 individuals. After chemical treatment was applied, 73.8–87.8% of the mite population was eliminated by the third day compared to untreated control fields. On the 7th day after treatment, the biological effectiveness of the chemical preparations was 80.2–94.6%, and by the 14th day, this increased to 94.8–97.2%, effectively eliminating damage to the plants.

Table 1

Impact of various levels of tomato rust mite infestation on tomato seedlings and their yield (Entomological testing station, Chimboy district, 2022–2023)

Number of mites (pcs)	Number in August in III ten days, damaged leaf		Visible damage signs			Yield per compared to control	
	pcs	%	leaf	stem	fruit	kg	±
Early planting – first ten days of Apri							
10	2,5	2,6	-	-	-	3,6	-0,2
20	3,9	3,1	+	-	-	3,5	-0,3
30	5,8	7,9	+	+	-	3,3	-0,5
40	7,4	14,8	++	+	+	2,1	-1,7
50	11,8	23,6	+++	+++	+++	1,2	-2,6
60	16,9	41,2	+++	+++	+++	0	-3,8
70	18,6	65,3	+++	+++	+++	0	-3,8
80	21,3	71,9	+++	+++	+++	0	-3,8
90	24,2	84,6	+++	+++	+++	0	-3,8
100	25,4	97,5	+++	+++	+++	0	-3,8
Control (No infestation)			-	-	-	3,8	-
Late planting – first ten days of May							
10	0,4	0,6	-	-	-	3,3	-0,1
20	1,3	2,3	-	-	-	3,1	-0,3
30	2,9	4,1	+	-	-	2,8	-0,6
40	5,1	11,2	+	-	-	2,3	-1,1
50	8,1	19,4	+	+	-	1,6	-1,8
60	12,3	27,6	++	+	+	0,9	-2,5
70	14,2	44,8	+++	+++	+++	0,3	-3,1
80	16,3	56,1	+++	+++	+++	0	-3,4
90	20,1	63,7	+++	+++	+++	0	-3,4
100	22,6	68,5	+++	+++	+++	0	-3,4
Control (No infestation)			-	-	-	3,4	-

Note: – - no visible damage; + - initial signs of damage; ++ - moderate damage; +++ - plant destruction.

Conclusion. It was proven that the microclimate formed in the agrobiocenosis of Karakalpakstan — specifically in the biotopes of agricultural crops and fruit orchards — contributes to the widespread dissemination of spider mites and tomato rust mites. As a key factor, abiotic elements have played a major role in this process, causing significant damage.

In the fields where the number of mite species exceeded the damage threshold on various crop types, it is recommended to apply one of the following insectoacaricides and acaricides: Vertimec 1.8% EC – 0.4 L/ha, Karate 5% EC – 0.4 L/ha, Omayt 57% EC – 1.5–3.0 L/ha, Atila 5% EC – 0.5 L/ha, Abamectin 3.8% EC – 0.1 L/ha, Nurelle-D 55% EC – 1.5 L/ha, Mitak 20% EC – 3.0 L/ha, Nissoran 10.5% WP – 0.3 L/ha, Agrofos 55% EC – 1.0 L/ha. Application should be carried out by hand in small fields or using a tractor sprayer in large fields with a water volume of 200–300 liters per hectare.

REFERENCES:

1.Adashkevich B.P. Biological Protection of Cruciferous Vegetable Crops from Harmful Insects. – Tashkent: “FAN”, 1983. – pp. 110–188.

2. Gar K.A. Testing the Effectiveness of Insecticides in Natural and Field Conditions. – Moscow, 1967. – pp. 14–92.

3. Dospekhov B.A. Field Experiment Methodology. – Moscow: Agropromizdat, 1986. – pp. 25–110.

4. Tanskiy V.I. Biological Foundations for Studying Insect Harmfulness. – Moscow: “Agropromizdat”, 1988. – pp. 132–157.

5. Toreniyazov E.Sh., Khojaev Sh.T., Kholmuradov E.A. Plant Protection. – Tashkent: “Navruz”, 2018. – 876 p.

6. Khojaev Sh.T. Methodological Guidelines for Testing Insecticides, Acaricides, Biologically Active Substances, and Fungicides (2nd edition). – Tashkent, 2004. – pp. 5–98.

7. Khojaev Sh.T. Modern Methods and Means of Integrated Pest Management for Plants. – Tashkent: “Navruz”, 2015. – 552 p.

Information about the author:

Annakulov Bakhitbay Kdirbaevich

Independent Researcher at the Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Email: login.b.annaqulov@mail.ru

Password: baxitbay2022annaqulov

Phone: +998 97 789 40 65

“ZAMONAVIY MAKTAB O'QITUVCHILARI FAOLIYATINI KPI TIZIMI ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH”

Raximjonova Muqaddas Maxmudjon qizi
Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika va Psixologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur tezisda zamonaviy maktab o‘qituvchilari faoliyatini KPI (Kalit samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimi asosida baholashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. O‘qituvchilarning mehnatini ob’ektiv va shaffof tarzda baholash tizimi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida ko‘rilmoqda. Tezisda baholash mezonlari, KPI tizimining afzalliklari va uni joriy etish bo‘yicha takliflar bayon etilgan. Xulosa sifatida tizimni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *KPI tizimi, Kalit samaradorlik ko‘rsatkichlari, O‘qituvchi faoliyati, Ta’lim sifati, Baholash mezonlari, Pedagogik baholash, Maktab tizimi, Kasbiy kompetensiya, Rag‘batlantirish tizimi, Ta’lim menejmenti, Innovatsion metodlar, Pedagogik yondashuv, O‘quv jarayoni monitoringi, Mehnat samaradorligi, Ta’limda raqamlashtirish, Shaffof baholash tizimi, Kasbiy rivojlanish.*

«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ СИСТЕМЫ KPI»

Рахимджонова Мукаддас Махмуджон кызы
Международный Нордик Университет, факультет Педагогики и Психологии
Магистрант 2го курса

Аннотация: *В данной тезисной работе рассмотрены теоретические и практические аспекты оценки деятельности современных школьных учителей на основе системы KPI (ключевые показатели эффективности). Объективная и прозрачная система оценки труда педагогов рассматривается как важный фактор повышения качества образования. В тезисе изложены критерии оценки, преимущества KPI и предложения по его внедрению. В заключение даны практические рекомендации по совершенствованию системы.*

Ключевые слова: *Система KPI, Ключевые показатели эффективности, Деятельность учителя, Качество образования, Критерии оценки, Педагогическая диагностика, Школьное образование, Профессиональная компетентность, Мотивация преподавателя, Образовательный менеджмент, Инновационные методы, Педагогический подход, Мониторинг учебного процесса, Эффективность*

труда, *Цифровизация образования*, *Прозрачная система оценки*, *Профессиональное развитие*.

"IMPROVING THE ASSESSMENT OF THE ACTIVITIES OF MODERN SCHOOL TEACHERS ON THE BASIS OF THE KPI SYSTEM"

Rakhimjonova Muqaddas Makhmudjon kizi
International Nordic University, faculty of Pedagogy and Psychology 2nd year master degree

Annotation: *This thesis explores the theoretical and practical aspects of evaluating the performance of modern school teachers based on the KPI (Key Performance Indicators) system. An objective and transparent evaluation mechanism is considered a vital factor in improving the quality of education. The thesis outlines evaluation criteria, the advantages of the KPI system, and provides proposals for its implementation. Practical recommendations for enhancing the system are also presented.*

Keywords: *KPI system, Key Performance Indicators, Teacher performance, Quality of education, Evaluation criteria, Pedagogical assessment, School system, Professional competence, Incentive mechanisms, Educational management, Innovative methods, Pedagogical approach, Learning process monitoring, Work efficiency, Digitalization in education, Transparent evaluation system, Professional development.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va raqobatbardosh ta'lim tizimini shakllantirishda pedagog kadrlarning kasbiy mahorati va ularning faoliyat samaradorligini baholash dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda o'qituvchilar mehnatini qadrlash, ular uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish hamda o'z ustida ishlashga rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ularning faoliyatini baholashda yangicha, shaffof va natijaga yo'naltirilgan yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

KPI (Kalit samaradorlik ko'rsatkichlari) tizimi – bu xodimning ish faoliyati va yutuqlarini aniq raqamlar orqali o'lchash imkonini beruvchi zamonaviy menejment vositasi hisoblanadi. Ushbu tizim orqali maktab o'qituvchisining kasbiy salohiyati, metodik yondashuvi, o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish darajasi, innovatsion texnologiyalarni qo'llashi kabi mezonlar asosida baho berish mumkin. Bu esa, nafaqat o'qituvchi faoliyatini adolatli baholash, balki ularni malaka oshirishga undash, kasbiy motivatsiyani kuchaytirish va umumiy ta'lim sifatini yuksaltirish imkonini beradi.

Mazkur tezis ishida KPI tizimini ta'lim muassasalariga joriy etishning afzalliklari, mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari va tizimni mahalliy sharoitga moslashtirish bo'yicha takliflar bayon etilgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning malakasini uzluksiz rivojlantirib borish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilar mehnatini aniq va adolatli baholash tizimini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. KPI (Kalit ko'rsatkichlar tizimi) modeli bu borada samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Asosiy qism. KPI (Key Performance Indicators – Kalit samaradorlik ko'rsatkichlari) – bu tashkilot yoki xodim faoliyatining asosiy strategik maqsadlariga erishish darajasini o'lchovchi ko'rsatkichlar tizimidir.

Maktab o'qituvchilari uchun KPI tizimini joriy etish ularning mehnat unumdorligini oshirish, sifatli dars berishga intilishni kuchaytirish, shuningdek, o'z ustida ishlashni rag'batlantiradi.

. Zamonaviy KPI tizimi quyidagi ko'rsatkichlar asosida shakllanishi mumkin:

- O'quvchilarning bilim darajasi (olingan baholar, test natijalari, olimpiada yutuqlari);
- Darsga tayyorgarlik sifati (dars ishlanmalari, metodik materiallar mavjudligi);
- Pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlar (AKTdan foydalanish, yangi metodikalarni qo'llash);
- O'qituvchining o'z ustida ishlashi (malaka oshirish kurslarida ishtirok etishi, ilmiy maqolalar e'lon qilishi);
- Ijtimoiy faoliyat (sinfdan tashqari ishlar, ota-onalar bilan ishlash, maktab hayotidagi ishtirok).

Mazkur tizim asosida baholashda shaffoflik va adolat tamoyillarini qo'llash muhimdir. Shuningdek, KPI baholash natijalari moddiy va nomoddiy rag'batlantirish tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

Xulosa. O'qituvchilar faoliyatini KPI tizimi asosida baholash – bu ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish va ularning rivojlanishiga imkon yaratish vositasidir.

Ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- KPI ko'rsatkichlarini har bir o'quv muassasasining xususiyatlaridan kelib chiqib moslashtirish;
- Baholash jarayoniga o'qituvchining o'zi va mustaqil ekspertlarni jalb etish;
- KPI asosidagi baholash natijalarini ochiq e'lon qilish orqali shaffoflikni ta'minlash;
- Tizimni raqamlashtirish orqali inson omilining sub'ektiv ta'sirini kamaytirish.

Shu orqali zamonaviy maktab o‘qituvchilarining mehnatini to‘g‘ri baholash hamda ta’lim sifatini oshirishga katta hissa qo‘shish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori. “Ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2020-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (Qabul qilingan: 2020-yil, yangi tahrir).
3. Normurodov A., Tursunov S. – Ta’lim menejmenti. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Ashurova D., Murodova N. – Pedagogik baholash va monitoring. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Hajiyev I.A. – KPI tizimi: samarali boshqaruv asosi sifatida. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
6. Islomov A.A. – O‘qituvchi faoliyatini baholashda zamonaviy yondashuvlar. Ilmiy maqola. “Pedagogika va psixologiya” jurnali, 2022, №4.
7. Murodova M. – Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va KPI ko‘rsatkichlari. “Innovatsion ta’lim” ilmiy jurnali, 2023, №2.
8. Kaplan R.S., Norton D.P. – The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Harvard Business School Press, 1996.

TA`LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI VA UNING IQTISODIY IMKONIYATLARI

Ergashev Tolibjon Eshqobilovich
O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Jizzax viloyati filiali bosh inspektori, f.f.b.f.d., (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta`lim xizmatlarini rivojlantirish tizimida davlat-xususiy sherikchiligini samarali tashkil etish, ta`lim sohasini innovatsion, raqamli va iqtisodiyotga asoslangan jamiyat shaklida shakllantirish, yoshlarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda muhim omil ekanligi ilmiy tahlil qilingan.*

**Kalit so`zlar:** *ta`lim xizmatlari, davlat-xususiy sherikchiligi, iqtisodiy imkoniyatlar, ta`limda modernizatsiya, innovatsion markaz, startaplar.*

Аннотация: *В статье научно анализируется важность эффективного государственно-частного партнерства в развитии услуг высшего образования, формировании образовательного сектора в инновационном, цифровом и экономически обоснованном обществе, а также в полной мере раскрывающем потенциал молодежи..*

Ключевые слова: *образовательные услуги, государственно-частное партнерство, экономические возможности, модернизация образования, инновационный центр, стартапы.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the importance of effective public-private partnerships in the development of higher education services, shaping the education sector into an innovative, digital, and economically-based society, and fully realizing the potential of young people.*

Key words: *educational services, public-private partnership, economic opportunities, modernization in education, innovation center, startups.*

KIRISH

Mamlakat aholisining farovonligi va iqtisodiy imkoniyatlarining yaxshilanishi, avvalo, fuqarolarning bilim darajasiga chambarchas bog'liqdir. Bilim va intellektual salohiyat - bugungi kunda har bir davlatning strategik boyligi sanaladi. Egallangan mustahkam bilimlar, zamonaviy ko'nikmalar va innovatsion yondashuvlar Yangi O'zbekistonning rivojlanish jarayonini tezlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyat rivojida iqtisodiyot hal qiluvchi o'rin tutadi. Uning xizmatlar sohasi bilan birgalikda taraqqiy etishi bilimlar, innovatsiyalar va ularni samarali qo'llash usullarini asosiy

daromad manbai sifatida namoyon qila boshlaydi. Bunda ta`limning ahamiyati ortib, iqtisodiy rivojlanishda uning roli birinchi darajali omilga aylanadi. Shu asosda ta`lim va iqtisodiyot sohalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yangi bosqichga ko‘tariladi.

Shu bilan birga, axborot, raqamlashtirish va nazariy bilimlar zamonaviy dunyoda mamlakatning strategik resurslari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta`limning rivojlanish darajasi esa O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligi va nufuzini belgilaydi. Shuning uchun ham ta`limni rivojlantirish, bilimli va innovatsion fikrlaydigan avlodni tarbiyalash mamlakat taraqqiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib boraveradi.

Qonunchilik

O`zbekiston Respublikasida uzluksiz ta`lim tizimi, jumladan oliy ta`limni sifat jihatdan rivojlantirish borasida kadrlar salohiyatini oshirish va ta`lim xizmatlarining davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta`lim xizmatlari ko`rsatishda davlat-xususiy sheriklik masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada maxsus qonun, Prezidentimizning

farmon va qarorlari qabul qilingan. Bular jumlasiga: O`zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda - Davlat-xususiy sheriklik to`g`risidagi O`RQ-537-sonli Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 20-oktyabrda - Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo`yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to`g`risidagi PQ-3980-son qarori, 2020 -yil 26-aprelda - Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to`g`risidagi 259-son qarorlari qabul qilindi. 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-sonli “O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi Farmoni hamda mazkur sohalarga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar kiradi. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida barcha sohalar bilan birga ta`lim sohasida ham davlat-xususiy sheriklik masalalarini rivojlantirish vazifasi qo`yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “... birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta`limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz. “Najot - ta`limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”. Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so‘zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak”,[7] degan jumlalar bor. Bundan ko‘rinib turibdiki ta`lim davlat iqtisodiyotining eng asosiy ishongan sohalaridan biridir va uni rivojlantirmasdan turib mamlakatdagi boshqa soha va tarmoqlarni innovatsion taraqqiy ettirib bo`lmaydi.

[7] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti https://president.uz/uz/lists/view/5774

Jahon tajribalarida davlat-xususiy sherikligi tushunchasi keng talqin qilinadi, jumladan, Jahon banki tomonidan berilgan ta‘rifga e‘tibor qaratamiz[8],: “Davlat xususiy sherikchiligi - davlat va xususiy sektor o`rtasidagi o`rta yoki uzoq muddatli shartnomalar bo`lib, ular doirasida davlat sektorining javobgarlik sohasida bo`lgan, ammo xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar taqdim etiladi, bunda infratuzilmani rivojlantirish yoki davlat xizmatlarini ko`rsatish masalalari o`rtasida vazifalarni aniq ajratish mavjud”.

Bu borada mamlakatimizda qonunchilik hujjatlariga e‘tibor qaratsak, jumladan, Davlat-xususiy sheriklik to`g`risida‖gi Qonunining 3-moddasida[9], -...davlat-xususiy sheriklik – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o`z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi‖ deb keltirilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihasi - iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va ilg`or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui ekanligi qayd qilingan.

Tadqiqotlar

Davlat-xususiy sherikligi - bu davlat va ijtimoiy mulk ob‘yektlari hamda turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan shakli bo`lib, bugungi kunda ta`lim sohasini jadal rivojlantirish hayotiy zaruratga aylangan bir pallada, ta`limdagi sifat darajasini oshirishda davlat-xususiy sherikchiligi imkoniyatlaridan ham foydalanish va uni ta`lim tizimiga moslashtirish hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Davlat-xususiy sherikligi loyihalarining ustunligi tarmoq rivojlanishining garovi sanalgan sheriklik munosabatlari uzoq muddatli xarakterga ega ekanligi hisoblanadi. Bunday sheriklik xususiy sektor resurslarini jalb qilish imkoniyati tufayli nafaqat ishlab chiqarish, transport, ta`lim, fanda ham loyihalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Davlat-xususiy sheriklik tushunchasi o`z qamrovi va ahamiyatiga ko`ra bugungi kunda milliy ta`lim tizimi chegarasidan allaqachon chiqib bo`lgan. U bugunda global ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar zamonaviy ta`limni modernizatsiya qilish amaliyotini qo`llab, xususan, davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga allaqachon o`tganlar.

Ta`lim majmuida tashkil qilinadigan davlat-xususiy sheriklikning asosiy maqsadi oliy ta`lim tizimining sifati va samaradorligi hamda raqobatbardoshligini, oshirish, innovatsion va investitsion jozibadorliklarini oshiradigan, shuningdek, yuqori sifatli ta`lim xizmati ko`rsatgan holda mehnat bozori uchun ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega xizmatlar

[8] The World Bank / Всемирный Банк – What are Public Private Partnerships / Что такое государственно-частное партнерство [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://ppp. worldbank.org/public-privatepartnership /overview/what-are-public-privatepartnerships.

[9] O`zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi https://lex.uz/acts/4329270

ko`rsatilishini ta‘minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar vositalarini yaratishga qaratiladi.

Ta`lim sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bugungi kunga kelib, ta`lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarining asosiy turlari qo`shma va xususiy universitetlarni tashkil etish, xususiy noshirlar tomonidan xalq ta`limi tizimi uchun kitoblar va qo`llanmalarni nashr etish va ko`paytirish, ilmiy madaniy markazlar qurish, shuningdek, xususiy maktab va maktabgacha ta`lim muassasalarini tashkil etish ob‘yektlarini qamrab olmoqda. Bu o`z navbatida bilimga asoslangan jamiyatning vujudga kelishi va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida ta`lim sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Zamonaviy jamiyatda ta`lim sohasining o`rni uning kompetensiyalarni rivojlantirish, bilimlarni yaratish va tarqatish - zamonaviy jamiyatning asosiy resurslari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, axborot oqimining ko`payishi va tezlashishi, doimiy ravishda yangi bilimlarning paydo bo`lishi, mutaxassislar tayyorlash sifatiga qo`yiladigan talablarning sezilarli darajada oshishi mavjud ta`lim tizimini takomillashtirish va ta`limni tez o`zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu o`z navbatida ta`lim tizimini rivojlantirish yo`nalishida ta`lim muassasalari va tadbirkorlik sub‘yektlari, davlat organlarining davlat xususiy sheriklik doirasidagi o`zaro hamkorligining tamoyillari va zamonaviy yo`nalishlarini belgilab beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarning yanada kengayib borayotganligidan dalolat bermoqda.[10]

-Ta`lim tizimida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish har bir davlatning iqtisodiy hayotida va ta`lim xizmatlarini yetkazib berishda muhim rol o`ynaydi. Davlat byudjetining cheklanganlik sharoitida hamda aholining ta`lim sifati va normal hayot kechirishga bo`lgan talabining cheksizlik holatida ushbu munosabatlarni rivojlantirish mamlakat ta`lim tizimi uchun asosiy vazifa bo`lib qoladi. Sherikchilik munosabatlarining hamohangligini ta‘minlas mamlakat ta`lim tizimidagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlarga sabab bo`lishi mumkin. Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarida davlat va biznes keng ko`lamli masalalar, jumladan, bugungi kun tartibidagi va hozirgi ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan vazifalar, shu bilan birgalikda, iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda ikkala tomon ham hamkorlik qilishdan manfaatdordir va bu, o`z navbatida, jamiyat rivojida o`ziga xos ustuvorliklar kasb etadi.[11]

Ta`lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik umumiy maqsadlarga erishish uchun davlat ta`lim muassasalari va biznes tuzilmalarining o`zaro manfaatlarga asoslangan o`zaro hamkorligi sifatida ifodalanishi mumkin. Bu hamkorlikni qonunchilik va maxsus kelishuvlar

[10] https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=17219231856494478882&btnl=1&hl=ru
[11] Abdikarimova Z.B. Ta‘lim tizimida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish yo_nalishlari va ustuvor jixatlari // https://dx.doi.org/10.36522/2181-9637-2022-2-3 UDC: 334.723

asosida ta`limga oid loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat va biznes o`rtasidagi ittifoq ekanligini ham aytish mumkin.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik loyihalari haqida gap ketganda, bu, birinchi navbatda, xususiy sektorning moliyaviy resurslarini jalb qilish mexanizmi, xususan, ijtimoiy ahamiyatli sohalarda kapital talab qiladigan infratuzilma loyihalarini rivojlantirishga qaratilganligi, bu ayniqsa byudjet mablag`lari yetarli bo`lmagan sharoitda muhimdir. Sherikchilik doirasida, inson resurslarini jalb qilish amalga oshiriladi. Oliy ta`limni rivojlantirish sohasida tadbirkorlik tuzilmalari vakillari o`quv jarayonida, masalan, tegishli maxsus kurslar va individual seminarlarda ishtirok etadilar.

Takliflar

Oliy ta`lim tizimidagi davlat-xususiy sheriklik ning xarakterli xususiyatlarini inobatga olgan holda, sheriklar o`rtasida ularning tutadigan o`rinlarini samarali taqsimlash uchun o`zaro manfaatli munosabatlar tizimi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Oliy ta`lim sohasida davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini qo`llash nafaqat barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlaydi, balki mamlakatning, fundamental va amaliy fanining innovatsion rivojlanishini ham ta‘minlaydi, bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi va aholining turmush darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratadi.

Oliy ta`lim muassasalarida davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha huquqiy-me’yoriy baza va institutsional asoslarni mustahkamlash uchun mavjud davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunga qo‘shimchalar kiritish;

-oliy ta`lim muassasalarida davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha maxsus bo‘lim yoki koordinatorlik tashkil qilish;

- davlat-xususiy sheriklik uchun davlat kafolatlari va soliq imtiyozlari tizimini yo‘lga qo‘yish;

-ta`lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali xususiy sektor ishtirokida texnoparklar, laboratoriyalar, innovatsiyon markazlar, maktabgacha ta`lim muassasalari va maktablar qurish;

- ta`lim sohasini rivojlantirishga investitsiya kiritayotgan xususiy sheriklarga infratuzilmaga kirish, yer maydoni, logistika kabi masalalarda yengilliklar yaratish;

- ish beruvchi tashkilotlar, muassasalar va xususiy kompaniyalar ishtirokida qo‘shma ta`lim dasturlari, dual ta`lim modellarini joriy qilish;

- oliy ta`lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash uchun davlat va xususiy korxonalarda stajirovka va tajriba almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish;

- oliy ta`lim muassasalarda xususiy sheriklar bilan hamkorlikda innovatsion startaplar va biznes-inkubatorlar tashkil etish;

- ilmiy loyihalar, konsalting xizmatlari orqali talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun iqtisodiy faollik yaratish;

- ta`lim va tadqiqot markazlarida autsorsing va masofaviy xizmatlarni yo‘lga qo‘yish orqali yangi ish joylarini yaratish;

- xalqaro institutlarning davlat-xususiy sheriklik loyihalarini jalb qilish orqali ta`lim sifatini va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish choralarini ko‘rish.

Xulosa

Oliy ta`lim tizimida davlat-xususiy sherikchiligini samarali tashkil etish - ta`lim sohasini rivojlantirish, innovatsion, raqamli va xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotga asoslangan jamiyatni shakllantirish, yoshlarning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda muhim omil hisoblanadi. Tahlillar, o‘rganishlar va amaliyotdagi natijalarga tayaniladigan bo‘lsak, davlat-xususiy sheriklik mexanizmining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ijobiy samaralarni beradi:

- Davlat-xususiy sheriklik ishtirokida zamonaviy kampuslar, texnoparklar, laboratoriyalar va raqamli ta`lim platformalarining barpo etilishi oliy ta`limda o‘qitish va ta`lim olish jarayonini texnik va metodik jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi;

- Yangi O‘zbekiston va bozor iqtisodiyoti talablariga mos ta`lim dasturlarini joriy etish orqali ish beruvchi va investorlarning talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan ta`lim dasturlari bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va “ta`lim – ish bilan ta’minlash” zanjiri mustahkamlanadi;

- Davlat va xususiy sektorning ilmiy tadqiqotlarga qo‘shma investitsiyalari oliy ta`lim muassasalarini tadqiqot markazlariga aylantiradi, iqtisodiy va xizmat ko‘rsatish amaliyotiga moslashgan texnologiyalar va mahsulotlar yaratiladi, patentlash, tijoratlashtirish jarayonlari yanada faollashadi;

- Oliy ta`lim muassasalarini bitiruvchi yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish va tadbirkorlik ruhini rivojlantirishda startaplar, biznes-inkubatorlar, innovatsiya markazlari orqali talabalar va yosh olimlar tadbirkor sifatida faoliyat boshlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa O‘zbekistonda bandlik darajasini oshirib, iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi.

- O‘zaro sheriklarning moliyaviy va menejment salohiyatidan unumli foydalanishi natijasida davlat tomonidan ta`limga ajratiladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar qisqaradi. Shu bilan birga, ta`lim tizimida shaffoflik va samaradorlik oshadi, xizmat ko‘rsatish sohasida yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti https://president.uz/uz/lists/view/5774

2. The World Bank / Всемирный Банк – What are Public Private Partnerships / Что такое государственно-частное партнерство [Электронный ресурс]. – Режим

доступа: http://ppp. worldbank.org/public privatepartnership/overview/what-are-public-privatepartnerships

3. O`zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi https://lex.uz/acts/4329270

4. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=17219231856494478882&btnI=1&hl=ru

5. Abdikarimova Z.B. Ta`lim tizimida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish yo_nalishlari va ustuvor jixatlari // https://dx.doi.org/10.36522/2181-9637-2022-2-3 UDC: 334.723

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ЕНГИЛ САНОАТ КОРХОНАЛАРИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ КИРИТИШ МАСАЛАЛАРИ

Жовлиев Жавоҳир
Ангор туман 1-сон политехникуми Тарих фани ўқитувчиси

Калит сўзлар: "*Сурхондарёсавдо*", *инвестиция*, *ип-газлама*, *қўшма корхона*.

Аннотация: *Мақолада вилоятимизнинг енгил саноатида хорижий камкорлар томонидан инвестицияларнинг киритилиши ва уларнинг самарадорлиги ҳақида тўхталиб ўтилган.*

Ключевые слова: «*Сурхондарёсавдо*», *инвестиции*, *нарезка*, *совместное предприятие*.

Аннотация: *В статье основное внимание уделяется внедрению инвестиций иностранных предпринимателей в легкую промышленность нашего региона и их эффективности.*

Key words: "*Surkhondaryosavdo*", *investments*, *cutting*, *joint venture*.

Annotation: *The article focuses on the introduction of investments by foreign entrepreneurs in the light industry of our region and their effectiveness.*

КИРИШ

Ўзбекистонда экспорт салоҳиятини ошириш мақсадида, хорижий давлатлар билан ўзаро ҳамкорлик муносабатлари яхши йўлга қўйилган. Бу борада ҳукуматимиз томонидан бир қанча қарорлар қабул қилинган ва ушбу қарорлар асосида экспорт салоҳиятини ривожлантириш давлат дастури ишлаб чиқилган.

Ўзбекистоннинг савдо сотиқдаги асосий мижозлари: АҚШ, Буюк Британия, Нидерландия, Бельгия, Швейцария, Франция, Германия, Италия, Россия, Туркия, Хитой, Жанубий Корея ва бошқа мамлакатлар.

Ўзбекистон Республикасининг ташқи савдо айланмасида кейинги йилларда муҳим таркибий ўзгаришлар бўлмоқда. Дунёнинг 140 дан ортиқ мамлакати билан ташқи савдо қилинмоқда[12].

Саноатда амалга ошириладиган инвестиция лойиҳалари ишчи кучи қийматига сезувчан бўлади. Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни киритишнинг асосий таҳдидлари мавжуддир. Буларга мамлакатдаги молиявий беқарорлик, ҳарбий ва сиёсий беқарорлик, инвестиция муҳитининг ўзгариши ва

[12] Ўзбекистон Республикаси Энциклопедик маълумотнома. – Тошкент.: "Давлат илмий нашриёти", 2002. – Б 333.

бошқа омиллар сабаб бўлиши мумкин. Энг муҳим таҳдидлар ичида биринчи ўринга ҳарбий ва сиёсий беқарорлик чиқади. Инвесторлар жавобига Ироқ, Афғонистон ва дунёнинг бошқа худудларидаги ҳарбийларнинг режа ва ҳаракатлари таъсир қилади.

Инвестиция иқтисодиётнинг ривожланишига таъсир этувчи омиллардан биридир. Инвестиция ёрдамида янги саноат корхоналари қурилади, мавжудлари таъмирланади, янги машина ва ускуналар сотиб олинади. Мамлакатимизнинг импорт ва экспорт салоҳиятига назар ташлар эканмиз, 1991 йилларда вилоятимизда кичик, хусусий ва қўшма корхоналар ташкил этила бошланганлигига гувоҳ бўламиз. Жумладан, пахта толасини ип-газламага, газламани эса тайёр кийим-кечакка айлантириш, иқтисодиётимизга ўзининг ижобий ўзгаришларини кўрсатиши муҳим вазифа қилиб олинди.

Германия давлати билан ташқи иқтисодий алоқаларимиз 1997 йилда 6204,0 минг долларни ташкил этиб, бунга асосан экспорт таркибида пахта толаси ва озиқ-овқат маҳсулотлари кирди[13].

Жарқўрғондаги ип-газлама қўшма корхонаси 1997 йилда экспортга маҳсулот сотиш режасини 140 фоизга бажарди. Корхона томонидан Чехия, Польша ва Австрия мамлакатларига 312 минг долларлик ип-калава маҳсулотлари сотилди. 1800 нафардан зиёд ишчилар 1602 тонна калава ип, 8866 минг погонометр мато ишлаб чиқариб, бу борадаги режа топшириқларини ортиғи билан бажариб, корхонанинг 2000 йилдаги соф фойдаси 34,5 миллион сўмни ташкил қилди. Фабрика қошида “Ўзбекистон-Америка” қўшма корхонаси ташкил этилиб, унинг қуввати йилига 42 тонна калава ип ва 1920 минг погон. метр мато ишлаб чиқаришга мўлжалланган. Корхонанинг умумий лойиҳа қуввати 13 миллион 132 минг 036 евро бўлиб, хорижий таъсисчи Американинг улуши ҳисобига (53 %) ташкил этилди. Қўшма корхонада Германия ва Чехия давлатларининг замонавий йигирув дастгоҳлари ўрнатилиб, жаҳон бозорлари талабларига жавоб берадиган юқори сифатли калава ип ва мато ишлаб чиқарадиган маҳсулотнинг 70 фоизи экспортга сотилди[14].

Бойсун туманида Ишонч ҳиссадорлик жамияти базасида йилига 600,0 тонна калава ип ишлаб чиқариш бўйича қўшма корхоналар ташкил этиш учун Россия Федерацияси ва Жанубий Корея давлатлари билан музокаралар олиб борилди ва келишув имзоланди[15].

[13] Сурхондарё вилоят давлат архиви, 1091- жамғарма, 1-рўйхат ,661- иш, 36- варақ.
[14] Турсунов С., Тўхтаев А. Жарқўрғон. – Тошкент.: “Фан”, 2008. – Б. 142.
[15] Сурхондарё вилоят давлат архиви, 1091- жамғарма, 1-рўйхат , 293- иш, 78- варақ.

Вилоятда 1998 йилда ташқи савдо айланмаси 124404 минг долларга тенг бўлди. 1997 йилнинг шу даврига нисбатан 108,5 фоиз, жами ташқи савдо айланмасининг 90,9 фоизи экспорт маҳсулотлари ва 9,1 фоизи импорт маҳсулотлари ҳиссасига тўғри келди[16].

Вилоят ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо бошқармаси Ўзбекистон Республикаси билан Украина ўртасида 1999-2008 йилларга мўлжалланган "Иқтисодий ҳамкорлик дастури" га мувофиқ Сурхондарё вилоятида қуйидаги ишларни амалга оширди. "Техно-Текс" Ўзбекистон-Украина қўшма корхонаси 2007 йилнинг 21 июнь куни Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги, Сурхондарё вилояти Адлия бошқармасидан 33- рақамли реестр билан рўйхатдан ўтган. Жамият иштирокчиларининг низом жамғармасидаги улушлари қуйидагича тақсимланган: Украиналик иштирокчи " ООО ПФК Меркурий ЛТД " фирмаси 480,0 минг доллар (60 фоиз), Ўзбекистонлик иштирокчи "Пўлат Алп" ХИТФ 320,0 минг доллар (40 фоиз) ни ташкил этди. Корхонанинг асосий фаолият туридан бири гилам маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва сотиш ҳисобланади. Хорижий ҳамкор томонидан қиймати 486,7 минг доллар миқдоридаги замонавий асбоб-ускуна ва жиҳозлар келтирилди. 2007 йилда корхона томонидан 16,1 млн. сўмга, 2008 йилда эса 43,2 млн. сўмга тенг гилам маҳсулотлари ишлаб чиқарилди[17].

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 11 октябрдаги "Қўшма корхоналар" ни ташкил этишда хорижий инвесторларни жалб этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги 393- сон қарорининг 9-иловасига мувофиқ вилоятимизнинг туманларида 2001-2005 йилларда 19 та қўшма корхоналар ташкил этилиши, шу жумладан 2001 йилда 5 та қўшма корхоналар тузилиши режалаштирилган эди[18].

Бинобарин, сўнгги ўн йилликда юртимизда енгил саноат тизими тараққиёт сари юз тутди. "Сурхонтекс" қўшма корхонасида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар ҳажми ва турини кўпайтириш мақсадида 2010 йилда ишлаб чиқариш қуввати 2,0 минг тонна, умумий қиймати 2400 минг доллар қийматидаги лойиҳа амалга оширилди[19].

"Сурхонтекс" Ўзбекистон Буюк Британия қўшма корхонаси собиқ "Сурхонтекстиль" корхонаси ўрнида 2013 йилда қайта ташкил этилди. Илгари корхонада 970 киши ишлаган, 2,5 минг тонна пахта хом ашёси қайта ишланган

[16] Сурхондарё вилоят давлат архиви, 698- жамғарма, 1- рўйхат ,101- иш, 21 - варақ.
[17] Сурхондарё вилоят ҳокимлиги жорий архиви, 1091- жамғарма, 1- рўйхат, 33- иш, 95-варақ
[18] Сурхондарё вилоят давлат архиви, М. 698 жамғарма, 1-рўйхат , 110- иш, 121- варақ.
[19] Сурхондарё вилоят ҳокимлиги жорий архиви, М.1091- жамғарма, 1- рўйхат, 33 иш, 78-варақ

бўлса, бугунги кунда 240 нафар ишчи фаолият юритмоқда. 2018 йилда ишлаб чиқариш қуввати 5 минг тоннани ташкил этган. Бу кўрсаткич эса корхонанинг янги замонавий технологиялар билан жиҳозланганлигини кўрсатади. Ўртача иш ҳақи 550 мингдан ошган. 2017 йил корхонада 16 млрд. сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилган, шунинг 90 фоизи хорижга экспорт қилинди. Чет давлатларга экспорт қилинган маҳсулот таннархи қарийб 2 млн. долларни ташкил этди. Маҳсулот асосан Россия, Хитой, Туркия ва Болтиқбўйи мамлакатларига етказиб берилди. 2016 йилда 600 минг доллардан зиёд чет эл сармояси асосида корхонага келтирилган 2 та саваш линиялари учун 4 та дастгоҳ келтирилганлиги сифат ва самарадорликни янада оширди.[20]. Ислоҳотлар натижасида "Сурхонтекс" қўшма корхонаси томонидан 2588,9 долларлик тўқимачилик маҳсулотлари экспорт қилинди.

Пилла маҳсулотларини қайта ишлашда Термиз шаҳридаги "Inter Silk Pro" Ўзбекистон-Хитой қўшма корхонаси вилоят иқтисодий ҳаётида ўз ўрнига эга. Корхонада пилла хомашёсидан ишлаб чиқараётган ип-калава сифати ва дизайни билан жаҳон бозорида тобора мустаҳкам ўрин эгалламоқда. Пилла хом-ашёсидан харидоргир ип-калава ишлаб чиқараётган масъулияти чекланган жамияти шаклидаги "Inter Silk Pro" Ўзбекистон-Хитой қўшма корхонаси 1 миллион 170 минг доллар қийматидаги замонавий технологиялар билан жиҳозлангани рақобатбардош, жаҳон стандартларига мос тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришда қўл келаётир. 2015 йил корхона Сурхондарё вилоятида етиштирилган 1 минг 550 тонна пиллани қабул қилган ва хомашё сифатли қайта ишланиб, тайёр маҳсулот хорижий давлатлардаги буюртмачиларига жўнатилди. Корхонада меҳнат қилаётган 80 дан зиёд ишчининг унумли меҳнат қилиши учун барча шароит яратилган. Бепул тиббий ва транспорт хизмати кўрсатиш йўлга қўйилган, узоқ қишлоқлардан қатнаб ишлайдиганлар учун ётоқхоналар мавжуд. 2015 йил корхона 150 минг доллар қийматидаги ип-калавани экспорт қилди. Янги йилгача яна 350 минг доллар қийматидаги рақобатбардош маҳсулот чет эллик буюртмачиларига жўнатилади. Бу ерда хом ашё етиштиришдан тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришгача бўлган жараён тўлиқ технологик занжир асосида ташкил этилган. Жумладан, ипак қурти боқиш, мато ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш, гилам тўқиш йўлга қўйилган. Кластер усулида маҳсулот етиштириш учун Сурхондарё вилоятидаги бир нечта туманлар бириктириб берилган.

[20] Сурхон тонги, 2018 йил 3 (17403) - сон.

Корхона фаолияти икки сменали бўлиб, 300 дан ортиқ доимий, 250 дан зиёд мавсумий иш ўринлари яратилган. Бугунги кунда корхона маҳсулотлари Осиё ва Европа давлатларига сотилмоқда. 2017 йилда қарийб 2 миллион 140 минг доллар, 2018 йилда 2 миллион 873 минг доллардан зиёд миқдорда экспорт қилинган.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, мазкур жараёнлар Сурхондарё вилоятида қишлоқ хўжалиги маҳсулоти, хусусан, пахта ва пилла етиштириш асосида тўқимачилик индустрияси шаклланишига хизмат қилмоқда. Унинг таркибини пахта тозалаш, ип ва ипак йигирув, тикувчилик саноати ташкил этади ва бу соҳаларни ривожлантириш эса вилоят иқтисодиётини ривожлантиришга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБАЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Энциклопедик маълумотнома. – Тошкент.: “Давлат илмий нашриёти”, 2002. – Б 333.

2. Турсунов С., Тўхтаев А. Жарқўрғон. – Тошкент.: “Фан”, 2008. – Б. 142.

3. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 1091- жамғарма, 1-рўйхат , 293- иш, 78-варақ.

4. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 698- жамғарма, 1- рўйхат ,101- иш, 21 -варақ.

5. Сурхондарё вилоят ҳокимлиги жорий архиви, 1091- жамғарма, 1- рўйхат, 33-иш, 95-варақ

6. Сурхондарё вилоят давлат архиви, М. 698 жамғарма, 1-рўйхат , 110- иш, 121-варақ.

7. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 1091- жамғарма, 1-рўйхат ,661- иш, 36-варақ.

8. Сурхондарё вилоят ҳокимлиги жорий архиви, М.1091- жамғарма, 1- рўйхат, 33 иш, 78-варақ

9. “Сурхон тонги”, 2018 йил 3 (17403) - сон.

GRAMMATIK TARJIMA METODINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI TIL O‘RGATISH JARAYONIDA

Ismatova Muqaddas
Samarqand davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada grammatik tarjima metodining afzalliklari va kamchiliklarini atroflicha tahlil qilib, uning bugungi kundagi ahamiyatiga baho beramiz.*

Kalit sozlar:*GTM, metod, so‘zma-so‘z tarjima, ijobiy va salbiy tomonlari, nisbiy gaplar, idioma va frazalar, fe’lning shaxssiz shakllari.*

Biror kishiga yangi til o‘rgatish yoki o‘rganish oson ish emas.Yangi til butunlay notanish bo‘lganligi sababli o‘qituvchilar ham, o‘quvchilar ham ma’lum qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida ikkinchi tilni o‘rganishning bir nechta usullari mavjud.Bu usullardan biri Grammatik tarjima metodir. Grammatik tarjima metodi (Grammar-Translation Method) til o‘rganishda eng qadimiy yondoshuvlardan biri bo‘lib,uning ildizlari antik davrlarga borib taqaladi.Bu metod asosan lotin va qadimgi yunon tillarini o‘rgatishda qo‘llangan bo‘lib,o‘quvchilarga matnlarni tarjima qilish va grammatik tuzilmalarga asoslangan holda tahlil qilish imkonini bergan O‘rta asr va Uyg‘onish davrida G‘arbiy Yevropa ta’lim tizimida hukmronlik qilgan ushbu metod XIX asrda zamonaviy tillarni o‘qitish jarayoniga ham kirib kelgan. Ayniqsa,XIX asr oxiri va XX asr boshlarida maktab va universitetlarda bu metod asosiy yondashuv sifatida foydalanilgan.

Grammatik tarjima metodining asosiy maqsadi-o‘quvchilarga til grammmatikasini tushuntirish va ularning grammatikaga asoslangan holda tarjima qilish qobiliyatini shakllantirishdir.Bu yondashuv yozma va nazariy bilimlarga urg‘u bo‘lib,muloqotga ham e’tibor qaratishi bilan ajralib turadi. Shu sababli, XX asrning 2-yarmidan boshlab,kommunikativ va interaktiv metodlar rivojlana boshlagan sari Grammatik tarjima o‘rni tobora qisqarib bordi. GTM boshqa usullarga qaraganda kamroq ma’lum bo‘lsada, xorijiy tillarni boshqa metodlarga qaraganda o‘qitishning samaraliroq usulidir,ayniqsa, yangi til o‘rganuvchilari uchun. Bu usul asosan o‘qish va yozishga qaratilgan va faqat o‘qish va yozishni osonlashtiradigan usullarni o‘z ichiga oladi.

Boshqa usullar kabi Grammatik tarjima usulining afzalliklari bor. Ular:

1.O‘rganuvchilar aqliy va intelektual qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

2.Maqsadli tilni o‘qish va yozish malakasini oshirish imkoniyatini taqdim etadi.

3.O‘rta va past darajali talabalar uchun juda samarali.

4.Tushuntirish jarayonida ona tilidan foydalanish tufayli o‘quvchilar o‘zlarini qulay va ishonchli his etadilar.

Shuningdek,til o‘rganayotganlar uchun so‘zma-so‘z tarjima tilning Grammatik va leksik jihatlarni tushunishda ko‘makchi bo‘ladi.

Ammo afzalliklari bilan bir qatorda Grammatik tarjima metodining ma’lum kamchiliklari ham mavjud:

1.Darslar ,asosan,grammatik qoidalarni o‘rganish va mashqlarni bajarishdan iborat bo‘lganligi sababli tilni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan tinglab tushunish og‘zaki nutq faoliyati kabi kategoriyalarga e’tibor qaratilmay qolishi.

2.Dars jarayonida ,asosan, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan bo‘lganligi sababli o‘quvchilarda o‘qituvchi bilan muloqat qilish imkoniyati kamligi.

3.Tarjimalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilgani sababli ba’zida tarjimalar qoniqarsiz bo‘lishi mumkin.

Grammatik tarjima metodi til o‘rganishda qat’iy qoidalarga asoslangan bo‘lsa-da,har bir til o‘ziga xos sintaktik va semantik tuzilishga ega bo‘lgani sababli ba’zi grammatik strukturalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish qiyin bo‘lib qoladi. Masalan, Relative clause(nisbiy gaplar) konstruksiyalar shunday murakkabliklardan biri hisoblanadi. Ingliz tilida relative clause gapning asosiy qismiga qo‘shimcha ma’lumot qo‘shish uchun ishlatiladi va ko‘pincha who,which,that,whose,where kabi so‘zlar yordamida bog‘lanadi.

- I know the man who wrote this article
- The book which is on the table must be returned to the library

Bu kabi gaplarni o‘zbek tiliga Grammatik tarjima usuli bilan tarjima qilish har doim ham aniq tushunarli natija bermaydi.Sababi o‘zbek tilida bu kabi bog‘lovchi gaplar ko‘pincha mutlaqo boshqa usul bilan ifodalanadi. Agar Grammatik tarjimaga tayanib yuqoridagi gaplarni so‘zma-so‘z tarjima qilsak,quyidagi muammolar kelib chiqadi.

- Men u odamni taniyman kimki bu artiklni yozgan
- Kitob qaysiki stolni ustida turgan kutubxonaga qaytarilishi shart

Bu tarjimalar o‘zbek tilining tabiiy tuzulishiga mos kelmaydi.O‘zbek tilida relative clauseni ifodalash uchun quyidagicha qo‘llanadi:

- Men bu maqolani yozgan odamni taniyman
- Stolning ustida turgan kitoblar kutubxonaga qaytarilishi kerak

Bu kabi tarjimalar Grammatik tarjima metodidan foydalanib bu kabi strukturalarni aniq va tabiiy tarjima qilishni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari,yana bir so‘zma-so‘z tarjima bilan bog‘liq muammolardan biri idioma va frazalardir. Agar ularni GTM ga asoslanib tarjima qilsak, ularning ma’nosi butunlay noto‘g‘ri chiqishi mumkin.

2. Iboralar

Inglizcha idiom	So‘zma-so‘z tarjima(noto‘g’ri)	To‘g‘ri o‘zbekcha tarjima
Break the ice	Muzni sindirish	Suhbatni boshlamoq,muhitni yumshatmoq
Cost an arm and a leg	Bir qo‘l va bir oyoqqa tushmoq	Juda qimmat turmoq
Spill the beans	Loviya to‘kmoq	Sirni ochib qo‘ymoq

Izoh:G‘approv M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi:akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr.-Toshkent:”Turon-iqbol”,2019.-O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasdig‘i bilan.

Frazalar

Inglizcha frazal fe’l	So‘zma-so‘z tarjima	Togri ozbekcha tarjima
Give up	Berishni yuqoriga qilish	Tashlamoq(yomon odatni
Look after	Qaramoqdan keyin	G‘amxo‘rlik qilmoq, parvarish qilmoq
Run into	Yugurib urilmoq	Tasodifan uchrashib qolmoq

3.Fe’lning shaxssiz shakllari ingliz va o‘zbek tillarida turlicha ishlatiladi. Shuning uchun ularning tarjimasida GTM muayyan qiyinchiliklarga duch keladi.

Inglizcha shakl	So‘zma-so‘z tarjima	To‘gri o‘zbekcha tarjima
He found the keys only to loose them again	U yana qayta yo‘qotish uchun kalitlarni topdi.	U kalitlarni topishi bilan yuqotdi.
Jack came only to see that Jane had left	Jack Jane jo‘nab ketganini ko‘rish uchungina keldi.	Jane ketishi bilan Jack jo‘nab ketdi.
Charles arrived for the concert only to find it had been cancelled	Charles konsertga uni tugaganini ko‘rish uchun yetib keldi.	Charles konsert tugaganida yetib keldi.

Ayniqsa, bu yuqoridagi misollarda Grammatik tarjima metodining kamchiliklari yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun bu shakllarni tarjima qilishda semantik yondashuv va kontekstual moslik muhim ahamiyatga ega.

Grammatik tarjima metodi til o‘rganishda va tarjima qilishda aniq Grammatik qoidalarni tushunish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. U tarjimonlarga sintaktik tuzilmalarni aniq ko‘rish va ikki til o‘rtasidagi grammatik farqlarni anglash imkonini beradi.Shu jihatdan,ayniqsa, yozma tarjimada,uning ahamiyati yuqori.Biroq, GTM ning cheklovlari,ayniqsa, idiomalar,frazal fe’llar,nisbiy gaplar va fe’lning shaxssiz shakllari kabi murakkab birliklarni tarjima qilishda yaqqol ko‘rinadi.Ushbu metod shaklga urgu bergani sababli,ba’zan matnning tabiiyligi yo‘qoladi yoki ma’no buziladi.Bu muammolarni bartaraf etish uchun GTMni boshqa yondashuvlar bilan birlashtirish tavsiya etiladi, bundan tashqari kengroq metodologiya doirasida qo‘llash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hatim, B., & Mason, I. (1990). Discourse and the Translator. – Matn va kontekst o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi, tarjimada muhim omillardan biri sifatida.
2. Nishonov, M.M.(2024). Tarjima jarayoni:qiyinchiliklar va usullar – turli metodlar,so‘zma-so‘z tarjima va ma’noiy tarjima farqlari,qiyinchiliklari. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tarjimonlik fakulteti. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 366-370.
3. Abdulxayeva D., TEACHING IN GRAMMAR TRANSLATION METHOD
4. Journal of Asian Social Science,2013,3(12):2469-2476
5. Akhbarova, M. A.,& Atayeva,G. K.(2024).Grammar used in teaching a foreign language – Translation Method (GTM). Eurasian Journal of Academic Research,4(2),152.

U D K 591.69:633(575.151)

POLIZ EKINLARIDA FITONEMATODALARNI O‘RGANISHNING MATERIAL VA METODIKASI

Mamanazarova M.O‘
TerDMAU assistenti.

Annotatsiya: *Ushbu maqola poliz ekinlarida keng tarqalgan fitonematodalarni aniqlashda material yig‘ilgan hududlar o‘simlik navlaridan Marshrut metodiga asosan dalaning dioganali bo‘yicha namunalar olish va olingan tuproq namunalaridan Bermanning voronkali metodida parazit nematodalarni yig‘ish, doimiy va vaqtinchalik preparatlar tayyorlash, Bo‘rtma nematodasidan anal-vulvar plastinka tayyorlash metodikalari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tarvuz, qovun, o‘simlik ildizi, o‘simlik poyasi, bo‘rtmalar, nekroz dog‘lar, fitonematoda, doimiy preparat va vaqtinchalik preparat, anal-vulvar plastinka,*

Аннотация: *В статье представлены сведения о методах сбора образцов с сортов растений в регионах сбора материала методом Маршрута по диагонали поля, сбора паразитических нематод из полученных образцов почвы методом воронки Бермана, приготовления постоянных и временных препаратов, а также приготовления анально-вульварных пластинок от нематоды Буртмы.*

Ключевые слова: *Арбуз, дыня, корень растения, стебель растения, шишки, некротические пятна, фитонематода, постоянный препарат и временный препарат, анально-вульварный налет,*

1-§. Material

Ushbu tadqiqot ishining bajarilishi uchun 2020-2022 yilllarda Surxondaryo viloyatining 5 ta tumanidan jumladan Termiz tumani Namuna “Nurmuhammad-Maftuna” f/xo‘jaligi, Termiz tumani “Gulbahor” MFY Jamoliddin Shoto‘rayev f/x da, Jarqo‘rg‘on tumani “O‘zbekiston” MFY, “Yangi Ustun”MFY aholining shaxsiy tomorqalaridan Angor tuman “M.Azimov”f/x , “Sh.Rashidov” f/x, Denov tuman “Dunyotepa” MFY Nuriddin Olimjonovich f/x da, “Bog‘ieram” MFY Abdunazar Eshniyozov f/x, Oltinsoy tuman “Oqarbuloq” MFY Akbar Tog‘aymurodov f/x hamda “Jilibuloq” MFY Nuriddin To‘rayev, Farhod Suyunov,Botir To‘rayev aholining shaxsiy tomorqalaridan o‘rganish uchun poliz ekinlaridan tarvuz (lot.Citrullus)ning Citrullus lanatus, xashaki (Citrullus colocynthoides), xo’raki (Citrullus aedulis) turlari Dolbi, Dilnoz navlari va qovun (lot.Cucumis melo)ning zakara, torpeda, kampir F1 navlaridan 210 tuproq va 90 dan ortiq o‘simlik namunalari yig‘ilib, statsionar usulda ilmiy tahlil qilindi.Vaqtinchalik va doimiy preparatlar tayyorlandi.



1-rasm Poliz ekinlari nematodalari o‘rganish uchun material yig‘ilgan tumanlar xaritasi.

2-§. Namunalar yig‘ish metodlari

Poliz ekinlari, jumladan tarvuz va qovun o‘simliklari va ildizi atrofidagi tuproqdan namunalar yig‘ishda fitogelmentologiyada ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan qabul qilingan va keng tarqalgan marshrut metodidan foydalanildi [5. 338-369c].

Marshrut metodi. Poliz ekinlaridan tarvuz va qovun o‘simligi nematoda faunasini o‘rganish va fitogelmentmentlarning tarqalishini bilish maqsadida qo‘llaniladi. Buning uchun namuna olinadigan o‘simlikning atrofi 10-15 sm kenglikda, 20-30 sm chuqurlikda qazildi va o‘simlik organlaridan namunalar olindi. Ildiz atrofidagi tuproqdan 1kgdan olindi.

2-rasm. Marshrut matodida ildiz va tuproqdan namunalar olish

Marshrut metodiga asosan dalaning dioganali bo‘yicha namunalar yig‘ildi. Olingan namunalar polietilin xaltachalarga solinib, namuna olingan joy, namuna olingan vaqt, o‘simlik turi qog‘ozga yozilib, u ham xaltachaga solinadi.

Yig‘ilgan fitogelmintologik namunalarni ro‘yxatga olishda foydalaniladigan namuna

Tuman: Termiz tumani.
Xo‘jalik: Jamoliddin Shoto‘rayev f/x
Almashlab ekiladigan ekin turi: pomidor
Ekin turi: Tarvuz
Navi: Dolbi navli tarvuz
O‘simlikning rivojlanish fazasi: 1 faza
Tuproq tipi: yaxshi ishlov berilgan bo‘z tuproq
O‘simlik xolati va zaralanish belgilari: bo‘rtma nematodasi zarari 2 ball
Yig‘ilgan namunalar uchun mas’ul: Mamanazarova Maqsuda

2.1.1-rasm.(orig) Termiz t Namuna Qovun dalasi

2.1.2-rasm.(orig)Termiz t Gulbahor Tarvuz dalasi

2.2.2- Fitonematodalarni ajratib olish, fiksatsiya qilish va preparat tayyorlash metodikasi

Yig‘ilgan namunalar Termiz davlat universiteti qoshidagi fitogelmentologiya labaratoriyasida tahlil qilindi. O‘simlik namunalari labaratoriyaga olib kelingach, o‘simlik ildizi va poyasida bo‘rtmalar, nekroz dog‘lar bor-yo‘qligi ko‘zdan kechirildi.

Biz o‘z ishimizni o‘simlik organlari va ildiz atrofidagi tuproqdan nematodalarni ajratib olish uchun. Bermanning voronkali metodidan foydalandik. Bumda o‘simlik ildiz, poya, barg, qismlarga ajratilib, vodoprovod suvida yuvildi, shundan so‘ng o‘simlik qismlari qaychi yordamida 0.5sm uzunlikda maydalandi va belgilangan miqdorda (20 gr.) tarozida tortib olindi.Voronkaga rezina nay kiygizilib, uning pastki qismida probirka kiygizib qo‘yildi va unga toza suv solindi.

1

2

3.

4.

3-rasm. Berman metodi bo‘yicha ishlarning bajarilish ketma ketligi. 1 -kerakli material va asbob uskunalar. 2 - tuproq namunasining tarozida tortib olinishi. 3 -tarozida 20 gr tortib olingan tuproq. 4 –namuna olingan joy o‘simlik nomining qayd etilib voronkaga joylashtirilishi.

Maydalangan o‘simlik qismlaridan fitonematodalar tezroq chiqadi. Namuna uchun olib kelingan tuproqdan ham belgilangan miqdorda (20 gr) tortib olinib, voronkalarga rezina nay kiygizilib, uning pastki qismiga probirka kiygizilib qo‘yildi va unga toza suv solindi. Voronka ustiga mis setka qo‘yilib, har bir namuna sut filtiriga solinib, voronkaga joylashtirildi. Har bir namuna uchun qayerdan qachon olinganligi haqida yorliq yozib qo‘yildi.

Fitonematodalar o‘simlik va tuproqdan suvga chiqib, probirkaga yig‘ildi. Voronkaga kiygizilgan rezina nayni qo‘l bilan qisib probirka tortib olindi. Probirkadagi suvning bir qismi pepitka yordamida olib tashlanib, uning o‘rniga 4 foizli formalin eritmasi solinib, og‘ziga tiqini qo‘yildi. Formalin bilan fiksatsiya qilingan ba’zi fitonematodalarning tanasi bukilib, egri-bugri bo‘lib qolishi mumkin. Uni o‘z holiga qaytarish uchun probirkani 50-55 gradusli issiq suvli vannachalarga solindi. Shundan so‘ng fitonematodalar turlarini aniqlash va ularning sonini bilish uchun probirkadagi fitonematodalar Petri chashkasiga to‘kib

mikroskop ostiga qo‘yilib qaraldi. Fitonematodalarni tirik holda ko‘rganda ularni fiksatsiya qilgandagina nisbatan tana tuzilishi, morfologik belgilari yaxshiroq ko‘rinadi.

Doimiy preparat tayyorlash uchun Saynxorst metodidan foydalandik. Bunga fitonematodlar maxsus nina bilan soat oynasiga, 4-5 tomchi distillangan suvga terildi. Terib bo‘lingach, fitonematodalarni ravshanlashtirish maqsadida unga 4 tomchi birinchi qorishmadan (20% spirt, 1% glitserin, 79% distillangan suv) qo‘shilib, 20-30C li termostatga 24 soatga qo‘yildi. Termostat spirt va suvning bug‘lanishiga yordam beradi. Shundan so‘ng termostatdan olingan fitonematodalar preparat qilishga tayyor hisoblanadi.

Vaqtinchalik preparat tayyorlash uchun buyum oynasiga nina bilan bir tomchi glitserin tomizildi. Shundan so‘ng stereoskopik mikroskop yordamida soat oynasidagi fitonematodalar buyum oynasidagi glitserin tomchisiga ilmoq yordamida 4-5 dona terildi, terilgan nematodalar bir-birini ustiga tushmasligi uchun mikroskopda qarab nina yordamida orasida masofa qoldirib terib chiqildi. so‘ng ustidan qoplag‘ich oyna qo‘yildi.

Doimiy preparat tayyorlash uchun buyum oynasiga metall naycha yordamida parafindan halqa qo‘yildi. Halqa ichiga nina yordamida glitserindan tomchi tomizildi va tomchiga ilmoq yordamida 4, 5, 6 donadan qilib fitonematodalar terildi. Tomchi binokulyarda qaralib, undagi fitonematodalar alohida-alohida qilib joylashtirildi. Bir tomchiga 4, 5, 6, tagacha qilib fitonematodalar terildi. So‘ngra uning usti qoplag‘ich oyna bilan yopilib, preparat spirt lampasida qizdirildi. Bunda glitserinning bir xil yoyilishiga, parafinning erishiga etibor berish kerak bo‘ldi. Iloji boricha fitonematodalarni qovurib yubormaslikka ahamiyat berildi. Parafin erib bir xil tarqalgach, spirt lampasi o‘chirildi. Qoplag‘ich oyna atrofidagi parafin skalpil yordamida tozalanib preparat chekkasiga siyoh bilan preparat nomeri, qayerdan olinganligi, o‘simlikning qaysi qismidan olinganligi va olingan vaqti yozib qo‘yildi.

3-§. Fitonematodalarni turlar tarkibini aniqlash va morfometrik o‘lchovlarini olish metodikasi.

Fitonematodalarning turlarini, jinsini aniqlash uchun MBR-3 mikroskopidan va maxsus fitogelmentologiya atlaslaridan foydalanildi.

Fitonematodalarni turini aniqlashda anatomomorfologik xususiyatlardan tashqari, Gollandiya olimi de Man 1884-yilda taklif etgan quyidagi bir qator uzunlik o‘lchovlari indekslaridan foydalanildi[2].

L = tananing umumiy uzunligi;

a = gavdaning umumiy uzunligi/eni;

b = gavdaning umumiy uzunligi/qizilo‘ngach uzunligi;

c = gavdaning umumiy uzunligi/dum uzunligi;

d = umumiy tana uzunligi/vuvladan dum uchigacha bo‘lgan masofa;

e = umumiy tana uzunligi/ bosh qismidan chiqaruv teshigigacha bo‘lgan uzunlikka;

z = umumiy tana uzunlikka/ stelit uzunligiga;

v = vulva joylashgan chegara/ gavdaning umumiy uzunligi x100;

t = urug‘donning uzunligi/ umumiy tana uzunligiga *100;

Bo‘rtma nematodasidan anal-vulvar plastinka tayyorlash

Bo‘rtma nematodalarni tur tarkibini aniqlash uchun voyaga yetgan erkak urg‘ochilarining anal-vulvar plastinkali preparatlari tayyorlanadi. Buning uchun zararlangan ildiz qismlarga bo‘linib, petr chashkasida joylashtirildi va suv solinib binokulyar mikroskop yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ildiz yorish metodi asosida tahlil qilindi. Preparaval igna va ko‘z skalpeli yordamida ildizdagi bo‘rtmalarni yorib, extiyotkarlik bilan ulardagi bo‘rtma nematodalarning urg‘ochilari ajratib olindi. Ajratib olingan urg‘ochi nematodalar qavariq buyum oynasiga bir tomchi suv yoki gletseringa solinib binokulyar ostida qaraldi. O‘tkir ko‘z skalpeli yordamida urg‘ochi nematodalarning tanasi yorilmasligi uchun bosh qismi kesilib, keyin esa extiyotkorlik bilan orqa qismi kesiladi.Kesib olingan urg‘ochi nematodalarning orqa qismi uchi qayrilgan ingichka preparaval igna yordamida ichki organlardan tozalanadi.

Tayyorlangan anal-vulvar plastinka bir tomchi glitserin yoki laktofenal tomizilgan buyum oynasiga ko‘chirilib shunday mo‘ljal olinadiki, kutikulasining ustki qismi yuqoriga ya’ni ko‘zga to‘g‘rilab joylashtirish lozim. Shundan so‘ng qoplag‘ich oyna bilan qoplanadi.

1. 2.

4-rasm. 1-2 Bo'rtma nematodasini MBR-3 mikroskopida o'simlik ildizidan ajratish.

Bo'rtma nematodalarining turlar tarkibi binokulyar mikroskopi va fazokontrast qurilmasi yordamida ko'pchillik fitogelmentologlar tomonidan qabul qilingan metodlardan foydalangan holda aniqlandi [1. 161c].

Bo'rtma nematodalarning turini aniqlash uchun samkalarining anal-vulvar qismidan, ya'ni anal teshigi va vulva qismi joylashgan qismdan tayyorlangan preparatlardananiqlanadi, bu sohadagi kutikulaning bo'rtmalari ularning turini aniqlashda xarakterli xususiyatga ega.

Bo'rtma nematoda turi binokulyar mikroskop ostida aniqlagichlar yordamida aniqlandi. Aniqlashda bo'rtma nematodasining anal-vulvar sohasi undagi kutikula burmalari, undagi kutikula burmalari, vulva yorig'i, anal yoki va boshqa belgilarga e'tibor beriladi. Yosh nematoda jinsiy organlari-vulva (urg'ochi jinsiy organi), spikula (erkak jinsiy organi)

yetilmagan, shuning uchun lichinkalik davrida ularni ularni turgacha aniqlandi, yosh nematodalar esa avlodgacha aniqlanib, avlod nomiga sp. so‘zi qo‘shib yozildi. Nematodalarning morfologik ko‘rsatgichlari o‘lchanadi.

Bo‘rtma nematodalarning turini aniqlash uchun E.C Кирянова, Е.Л.Кралл, З. Н. Норбоев va boshqalarning ilmiy ishlaridan foydalandik [3:161c, 4: 418c]

Bo‘rtma nematodalarning tana o‘lchamlarini o‘lchash uchun bittasi olinib, predmet shishasi ustiga qo‘yiladi, keyin tana o‘lchamlari o‘lchanadi.



2.2-rasm. Meloidogyne acritaning anal-vulvar plastinkasi

2.3-rasm. Meloidogyne javanicaning anal-vulvar plastinkasi

Xulosa

Ushbu bobda tadqiqot ishining material va metodika qismi keng yoritilgan bo‘lib, asosan Surxondaryo viloyatining tumanlaridan namuna yig‘ish, fitonematodalarni ajratib olish, fiksatsiya qilish va preparat tayyorlash metodikasiga oid manbalar keltirilgan.

Biz poliz ekinlarining ildizi va ildiz oldi tuproqlaridan jami 210 tuproq va 90 dan ortiq o‘simlik namunalari yig‘dik va ushbu namunalar butun jahon fitogelmintolog olimlari tomonidan keng qo‘llaniladigan Bermanning voronkali metodidan foydalandik. Ajratib olingan turlardan Saynxorst metodidan foydalanib 20 ga yaqin doimiy va vaqtinchalik preparatlar tayyorlandi. Shuningdek, ajratib olingan fitonematodalar faunasi morfometrik ko‘rsatkichlariga asoslangan holda, De Man formulasidan foydalanib turlar aniqlandi. Aniqlangan nematodalar 30 turdan iborat parazit turlar ekanligi qayd etildi.

Bu tarvuz va qovun o‘simliklarining agrotsenozlarida profilaktik, agrotexnik, fizikaviy hamda kimyoviy qarshi kurash choralarini ishlab chiqish ham amaliy ham nazariy jihatdan muhim ekanligini isbotladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Darvin Ch. Происхождение видов // - М.:Изд Академия Наука СССР 1939.440с.

48. Goodey Т Соил фре шусатер нематодер // 2 нол эд Лондар 1963 п 544
ИИИ. - 255 с.

13. Kasimova G.A.1964. Фауна нематод овоще-бахевых култур (семейства зонтичных и тыквенных) Куба-Хачмасской зоны Азербайджана Изв. АН АзССР, сер.биол. наук,53-63 с.

14. Kiryanova E.S. Некоторые проблемы нематодологии растений, почвы и насекомых // - Самарканд, Изд-во СамГУ, - 1961. - 161 с.

23. Paramonov A.A. Основы фитогельминтологии //-М.: Наука, - 1970. - Т. III. - 255 с.

ҚОРАКЎЛ ТЕРИЛАРИНИ АЧИТИШ ЖАРАЁНИ УЧУН ЁНАКИ МАҲСУЛОТ - СОЯ ЗАРДОБИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Тошпўлатова М.Б
Шамсиева М.Б
Бухоро давлат техника университети Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

Аннотация: *Мақолада қоракўл териларини ачитиш жараёни учун соя ёғи ва соя изоляти ишлаб чиқаришда ҳосил бўладиган ёнаки маҳсулот – соя зардобини қўллаш имкониятлари келтирилган. Соя зардобини ачитиш жараёнида қўллаш, озиқ-овқат маҳсулотларини техник мақсадда фойдаланишга чек қўйиши башорат қилинган.*

Аннотация: *В статье представлены возможности использования соевой сыворотки, побочного продукта производства соевого масла и соевого изолята, для процесса квашения каракуля. Прогнозируется, что использование соевой сыворотки в процессе квашения ограничит использование пищевой продукции в технических целях.*

Annotation: *The article presents the possibilities of using soy whey, a by-product of the production of soybean oil and soybean isolate, for the process of pickling karakul. It is predicted that the use of soy whey in the fermentation process will limit the use of food products for technical purposes.*

Қоракўл - жаҳон бозорида энг машҳур мўйна турларидан бири бўлиб, мўйналар ичида ўз нақшига эга бўлган ягона мўйна тури бўлиб ҳисобланади. Қоракўл териларидаги жингалаклар шаклининг ўзига хослиги, турли-туманлиги, нафис мерея ҳосил қилганлиги бу мўйна турига машҳурлик келтирган. Шунинг учун, қоракўл мўйналари аҳоли томонидан қизиқиш билан фойдаланилади ва юқори истеъмол талабига эга.

Ачитиш жараёни қоракўл териларига ишлов беришнинг муҳим жараёнларидан бири бўлиб [1], у қоракўл мўйналарининг юқори сифати, жумладан юмшоқлигини, пластиклигини ва майинлигини таъминлайди. Бу усул қадимий ва анъанавий усул ҳисобланиб, унда арпа уни ва ишлатилган ачитқилардан фойдаланиш қоракўл мўйна тери тўқимасининг пластиклигини оширишга сабаб бўлади, бироқ ачитиш жараёнининг узоқ давом этиши, озиқ-овқат маҳсулотидан техник мақсадда фойдаланиш, жараён назорати ва оқава

сувларни тозалашнинг мураккаблиги, ачитиш жараёнини қайта кўриб чиқишни тақозо этади.

Тадқиқотчи [2] томонидан қоракўл териларини ачитиш жараёнида арпа уии иштирокидаги анъанавий ачитиш жараёни ўрнига сут зардобидан фойдаланилган ва мустаққамлик ҳамда эластик хоссалари яхшиланган қоракўл мўйналари олишга эришилган. Бироқ таъкидлаш керакки, сут зардоби бу сут маҳсулотларининг иккиламчи маҳсулоти бўлиб, ундан озиқ-овқат маҳсулоти сифатида ҳам фойдаланилади. Бу эса қоракўл териларини ачитиш жараёни учун янги манбаларни излаб топиш ва тежамкор технологияларни ишлаб чиқишга зарурият туғдиради.

Ачитиш жараёнида қўллаш мумкин бўлган янги манбалардан бири бу – соя донининг зардобидир. Соя ўсимлиги - Осиё мамлакатларида азалдан оқсил манбаи сифатида қўлланилиб келинаётган дуккакли ўсимликдир [3]. Соядан олинган маҳсулотларига бўлган талаб, уларнинг юқори озуқавий қиймати ва соғлиқ учун фойдали бўлганлиги сабабли дунё бўйлаб ортиб бормоқда. Соя маҳсулотлари таркибида бир қатор биологик фаол бўлган фитокимёвий моддалар, жумладан изофлавонлар, сапонинлар, фитостероллар ва пептидлар мавжуд [4,5].

Соя – кўплаб фойдали хусусиятларга эга ўсимлик бўлиб, унинг дони таркибида 50 % оқсил ва 28 % гача мой сақлайди. Бугунги кунда юртимизда сояни қайта ишлаш натижасида, ундан соя ёғи, соя оқсил изоляти ва озуқавий толаси олиш бўйича бир қатор корхонлар фаолият юритиб келмоқда [6]. Соя ёғи ва соя изоляти олишда [7], ёнаки маҳсулот сифатида соя зардоби ҳосил бўлади. Соя зардобидан фойдаланиш бўйича ҳали ҳануз аниқ бир ечимга келинган эмас.

Сут зардобидан ачитиш жараёнида фойдаланилаётганлигини инобатга олиб, тадқиқот ишида соя зардобини ҳам ачитиш жараёнида қўллаш имкониятлари ўрганилди. Бунинг учун сут зардоби ва соя зардоби таркиби ўрганилиб, натижалар қуйидаги жадвалда келтирилди:

Жадвал Сут зардоби ва соя зардоби таркибини таққослаш

Компонентлар	Сут зардоби	Соя зардоби
Углеводлар г/л	-	9,50
Рафиноза %	-	0,84
Сахароза %	-	1,02
Лактоза %	38,0-60,0	-
Фруктоза %	-	0,51
Глюкоза %	-	0,30

Оқсиллар г/л	0,3-3,00	1,40-10,00
Ёғ моддалари г/л	-	0,99-10,58
Минерал моддалар г/л	1,93	5,0-7,0

Соя изоляти олишда соя таркибидан оқсил ажратиб олингандан сўнг, соя зардоби таркибидаги озуқ моддалари (оқсиллар, изофлавонлар, минераллар и олигосахаридлар) нинг максимал концентрациясиси ҳар бир модда учун ўртача 1 % ни ташкил этади. Ёғ моддалари миқдори сезиларли даражада эмас, чунки оқсил изоляти ажратиб олиш учун ёғсизлантириш жараёни олиб борилади.

Хулоса қилиб айтганда, соя зардоби ёнаки маҳсулот бўлишига қарамасдан, унинг таркиби сезиларли даражада оқсил бирикмалари (асосан оқсил, камроқ пептидлар ва аминокислоталар), углеводлар, минерал моддалар ва изофлавонлар сақлайди. Соя зардобининг биологик фаол бирикмалар сақлаши улардан турли мақсадларда, шунингдек қоракўл териларини ачитиш жараёнида қўллашга имкон яратади.

Соя зардобини қоракўл териларини ачитиш жараёнида қўллаб, дастлабки натижалар олинмоқда. Бу кейинги тадқиқот ишларида ёритиб борилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мусаев, С. С. Технология квашения каракулевых шкур с применением отходов молочного производства / С. С. Мусаев, Г. О. Самиева, А. З. Шамсутдинов, Л. С. Мусаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 17 (151). — С. 62-66. — URL: https://moluch.ru/archive/151/42542/ (дата обращения: 28.03.2024).
2. Садирова С.Н. Актуальные проблемы выделки каракулевых шкур // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022. 11(104). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/14568 (дата обращения: 28.03.2024).
3. Benedetti, S., Prudêncio, E. S., Nunes, G. L., Guizoni, K., Fogaça, L. A., & Petrus, J. C. C. (2015). Antioxidant properties of tofu whey concentrate by freeze concentration and nanofiltration processes. Journal of Food Engineering, 160(September), 49–55.
4. Xiao, Y., Wang, L., Rui, X., Li, W., Chen, X., Jiang, M., et al. (2015). Enhancement of the antioxidant capacity of soy whey by fermentation with Lactobacillus plantarum B1-6. Journal of Functional Foods, 12, 33–44.
5. Isanga, J., & Zhang, G.-N. (2008). Soybean bioactive components and their implications to health - a review. Food Reviews International, 24(2), 252–276.

6. https://www.facebook.com/375620572469709/posts/2963856006979473/?mibextid=rS40aB7S9Ucbxw6v

7. Vong, W. C., & Liu, S. Q. (2016). Biovalorisation of okara (soybean residue) for food and nutrition. Trends in Food Science & Technology, 52, 139–147.

ТЕЗИС ДЛЯ КОНФЕРЕНЦИИ

Мамаюсупова Ирода Хамидовна
Старший преподаватель КГУ,Phd
Одилова Шохсанам Рауфжон кизи
КГУ, магистр 01/24 ПП МАГ (СОП) E-mail: sobirovashohsanam18@gmail.com

Тема: *Коррекция поведенческих расстройств личности: современные подходы и методики.*

Актуальность исследования:

В условиях роста поведенческих расстройств личности (таких как пограничное, антисоциальное, нарциссическое и др.) особую значимость приобретает разработка эффективных методов их коррекции. Современные вызовы общества, включая цифровизацию, социальную изоляцию и стрессогенные факторы, усугубляют проявления данных расстройств, что требует комплексного подхода к их диагностике и терапии.

Теоретико-методологические основы:

1. Классификация поведенческих расстройств личности (по МКБ-11 и DSM-5):
- Эмоционально-неустойчивое (пограничное) расстройство
- Диссоциальное (антисоциальное) расстройство
- Тревожные и зависимые расстройства
2. Современные подходы к коррекции:
- Когнитивно-поведенческая терапия (КПТ)
- Диалектико-поведенческая терапия (ДПТ) для пограничного расстройства
- Схема-терапия (Джеффри Янг)
- Медикаментозная поддержка (в сочетании с психотерапией)

Эмпирическая часть исследования:

1. Методы исследования:
- Клинико-психологическая диагностика (опросники PDQ-4+, MMPI)
- Экспериментальные методы (анализ кейсов, лонгитюдные наблюдения)
- Оценка эффективности терапии (шкалы динамики симптомов)
2. Основные результаты:
- Выявлены наиболее устойчивые паттерны дезадаптивного поведения
- Определена эффективность интегративных подходов (КПТ + ДПТ)

- Установлена роль семейной терапии в коррекции расстройств

Практическая значимость:

1. Разработанные методики коррекции включают:

- Индивидуальные и групповые терапии
- Тренинги эмоциональной регуляции
- Программы социальной адаптации

2. Области применения:

- Клиническая психология и психиатрия
- Реабилитационные центры
- Профилактика девиантного поведения

Выводы:

1. Наиболее эффективными являются комбинированные методы терапии, учитывающие индивидуальные особенности пациента.

2. Ранняя диагностика и профилактика снижают риск хронификации расстройств.

3. Перспективным направлением является использование VR-технологий в коррекции.

Перспективы дальнейших исследований:

1. Изучение нейробиологических основ поведенческих расстройств.

2. Адаптация западных методик к локальным культурным особенностям.

3. Разработка онлайн-программ психологической поддержки.

Рекомендации:

1. Внедрение скрининговых программ в образовательных учреждениях.

2. Повышение квалификации специалистов в области коррекции расстройств личности.

3. Развитие междисциплинарного подхода (психология, психиатрия, неврология).

ЛИТЕРАТУРА:

1. Xamidovna, Mamayusupova Iroda va Mamayusupova I.X. “T.Lirining so‘rovnomasi” “Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi” metodologiyasi asosida o‘smirlar o‘rtasidagi konfliktlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish”. Library Progress International 44.3 (2024): 16399-16407.

https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:4JMBOYKVnBMC

2. Mamayusupova, I. (2024). O'SGIRLARDA ZAMONAVIY IQTISODIYoTI YO'LLARINI OLDINI OLISH BO'YICHA PSIXOLOGIK MASLAHATLAR. Zamonaviy fan va tadqiqotlar , 3 (6). https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:R3hNpaxXUhUC

3. Mamayusupova I. TA'LIMNI TASHKILOT SHAKLLARI VA TURLARI //NRJ. – 2024. – T. 1. – Yo'q. 3. – 550-556-betlar. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:e5wmG9Sq2KIC

4. Mamayusupova, Iroda, Gulchehra Umurqulova, Dilrabo Abduxoliqova. "O'RTA TA'LIM MAKTABDA FİZİKA O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI". Zamonaviy fan va tadqiqotlar 3.5 (2024): 851-856. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:TQgYirikUcIC

5. Mamayusupova I. X., Mirhayitova S. OILADA O 'SPIRIN YOSHLARGA BO 'LGAN NIZOLARNI KELIB CHIQISHINI OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK MASLAXATLAR //Inter education & global study. – 2024. – №. 4 (2). – С. 479-486. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:_Qo2XoVZTnwC

6. Xamidovna, Mamayusupova Iroda. "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI". Xalqaro ilmiy tadqiqotchilar jurnali (IJSR) INDEXING 5.2 (2024): 503-505.
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:HDshCWvjkbEC

7. Mamayusupova I., Umurqulova G., Abduxoliqova D. O'RTA TA'LIM MAKTABDA FİZİKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI //Zamonaviy fan va tadqiqotlar. – 2024. – T. 3. – Yo'q. 5. – 851-856-
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:3fE2CSJIrl

8. Vygotsky L.S. Historical crisis of psychology. // L.S. Vygotsky Collected works in 6 volumes. - M., Pedagogy, 1982, issue 1, 302–309 b(2).

ТЕЗИС ДЛЯ КОНФЕРЕНЦИИ

Мамаюсупова Ирода Хамидовна
Старший преподаватель КГУ,Phd
Рустамова Мухлиса Мансуржон кизи
КГУ, магистр 01/24 ПП МАГ (СОП) E-mail: rustamovamuxlisa2003@gmail.com

Тема: *Психологические исследования психического состояния личности: теория и практика.*

Актуальность: *В условиях возрастающих психоэмоциональных нагрузок изучение психических состояний личности приобретает особую значимость для профилактики дезадаптации и повышения качества жизни.*

Ключевые аспекты:

1. Теоретические основы исследования психических состояний:

- Анализ подходов в отечественной и зарубежной психологии (Л.С. Выготский, Ф.Б. Березин, Р. Лазарус).

- Классификация психических состояний (эмоциональные, когнитивные, пограничные).

2. Факторы, влияющие на психическое состояние личности:

- Внутренние (личностные особенности, копинг-стратегии).

- Внешние (социальная среда, стрессогенные события).

3. Практические аспекты диагностики и коррекции:

- Обзор современных методик (тесты Спилбергера-Ханина, шкала депрессии Бека, проективные методы).

- Кейсы из практики автора (примеры работы с тревожными и депрессивными состояниями).

4. Перспективные направления исследований:

- Применение цифровых технологий в мониторинге психических состояний.

- Интеграция психотерапевтических подходов (КПТ, гештальт-терапия) в коррекционную работу.

Вывод: Комплексное изучение психических состояний на стыке теории и практики способствует разработке эффективных программ психологической помощи и адаптации личности в современном мире.

Рекомендации:

- Внедрение скрининговых программ для ранней диагностики.

- Развитие психопрофилактических мероприятий в образовательной и профессиональной среде.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Xamidovna, Mamayusupova Iroda va Mamayusupova I.X. “T.Lirining so‘rovnomasi” “Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi” metodologiyasi asosida o‘smirlar o‘rtasidagi konfliktlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish”. Library Progress International 44.3 (2024): 16399-16407. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:4JMBOYKVnBMC

2. Mamayusupova, I. (2024). O'SGIRLARDA ZAMONAVIY IQTISODIYoTI YO'LLARINI OLDINI OLISH BO'YICHA PSIXOLOGIK MASLAHATLAR. Zamonaviy fan va tadqiqotlar , 3 (6). https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:R3hNpaxXUhUC

3. Mamayusupova I. TA’LIMNI TASHKILOT SHAKLLARI VA TURLARI //NRJ. – 2024. – T. 1. – Yo‘q. 3. – 550-556-betlar. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:e5wmG9Sq2KIC

4. Mamayusupova, Iroda, Gulchehra Umurqulova, Dilrabo Abduxoliqova. “O’RTA TA’LIM MAKTABDA FİZİKA O’QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING TA’SIRI”. Zamonaviy fan va tadqiqotlar 3.5 (2024): 851-856. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:TQgYirikUcIC

5. Mamayusupova I. X., Mirhayitova S. OILADA O ‘SPIRIN YOSHLARGA BO ‘LGAN NIZOLARNI KELIB CHIQISHINI OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK MASLAXATLAR //Inter education & global study. – 2024. – №. 4 (2). – С. 479-486. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:_Qo2XoVZTnwC

6. Xamidovna, Mamayusupova Iroda. “PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI”. Xalqaro ilmiy tadqiqotchilar jurnali (IJSR) INDEXING 5.2 (2024): 503-505. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:HDshCWvjkbEC

7. Mamayusupova I., Umurqulova G., Abduxoliqova D. O‘RTA TA’LIM MAKTABDA FİZİKA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING TA’SIRI //Zamonaviy fan va tadqiqotlar. – 2024. – T. 3. – Yo‘q. 5. – 851-856-
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZY1_zEAAAAJ&citation_for_view=sZY1_zEAAAAJ:3fE2CSJIrl
8. Vygotsky L.S. Historical crisis of psychology. // L.S. Vygotsky Collected works in 6 volumes. - M., Pedagogy, 1982, issue 1, 302–309 b(2).

TOG‘AY MURODNING “OT KISHNGAN OQSHOM” QISSASIDA BADIIY DIALEKTIZMLAR

Olimova Rushana Ilg‘orjon qizi
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining 11-sinf o ‘quvchisi
Xaitov Xusniddin Xasanovich
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yozuvchi Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asaridagi badiiy dialektizmlarning tahlili keltirilgan. Shevaga xos so‘zlarning qissa qahramonlari hududiy mansubligini ifodalashgi o‘rni xususida ba’zi mulohazalar yuritilgan. Yozuvchining badiiy dialektizmlardan mohirona foydalanish imkoniyatiga ilmiy-tahliliy munosabat bildirilgan. Shuningdek, qissada Surxondaryo arealiga oid dialektal birliklarning ma’noviy-uslubiy jihatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *qissa, yozuvchi, dialektizmlar, dialektal birliklar, qipchoq lahjasi, areal, ma’noviy-uslubiy, tahlil.*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ДИАЛЕКТИЗМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИ ТОГАЯ МУРАД «ОТ КИШНГАН ОҚШОМ»

Аннотация: *В данной статье представлен анализ художественных диалектизмов в произведении писателя Тогая Мурода «Ночь ржания коня». Высказываются некоторые соображения о роли диалектных слов в выражении территориальной принадлежности героев повести. Дается научно-аналитический подход к умению писателя искусно использовать художественные диалектизмы. Также в повести освещаются духовно-стилистические аспекты диалектных единиц, связанных с Сурхандарьинской областью.*

Ключевые слова: *произведени, писатель, диалектизмы, диалектные единицы, кипчакский диалект, ареальный, духовно-стилистический, анализ.*

ARTISTIC DIALECTICISMS IN THE WORK OF TOGAI MURAD “OT KISHNGAN OKSHOM”

Abstract: *This article presents an analysis of artistic dialectisms in the work of the writer Togay Murod “The Night of the Horse’s Neighing”. Some considerations are expressed about the role of dialect words in expressing the territorial affiliation of the heroes of the story. A scientific and analytical approach is given*

to the writer's ability to skillfully use artistic dialectisms. The story also highlights the spiritual and stylistic aspects of dialect units associated with the Surkhandarya region.

Keywords: *work, writer, dialectisms, dialect units, Kipchak dialect, areal, spiritual and stylistic, analysis.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Asarlaridagi dialektizmlarning xilma-xilligi, qipchoq shevasidan mohirona foydalana olgan Tog‘ay Murod (familiyasi Mengnorov) 1948-yil 3-fevralda Surxondaryo viloyati Denov tumaniga qarashli Xo‘jasoat qishlog‘ida tavallud topgan. Yozuvchining bir qancha asarlari, jumladan, “Bu dunyodan o‘lib bo‘lmaydi”, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Otamdan qolgan dalalar” va “Ot kishnagan oqshom” kabi asarlari juda mashhur. Yuksak e’tibor va e’tirofga loyiq ijodkor 1994-yil Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan, shuningdek, u 1999-yildan buyon O‘zbekiston Xalq yozuvchisi hamdir. Yozuvchining har bir asarini o‘qir ekanmiz, undagi dialektlarning mohirona tanlangani kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Ushbu maqola orqali Tog‘ay Murod qalamiga mansub “Bu dunyodan o‘lib bo‘lmaydi” va “Ot kishnagan oqshom”asarlaridagi dialektlarni ko‘rib chiqib, tahlil qilamiz.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tog‘ay Murod Surxondaryo qir-u adirlarida ulga‘ygan yozuvchi. Asarlarini o‘qish orqali voha so‘zlashuv uslubini ham o‘rganib olish mumkin. “Qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta territoriyaga tarqalgan. Haqiqatan ham qipchoq lahjasining vakillari Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysidagina emas, hatto Fargona, Andijon viloyatlarida ham yashaydilar. Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari aholisining ko‘pchilik qismi ham qipchoq lahjasining vakillaridir” [1; 36]. Qipchoq shevasi asosida yozilgan “Ot kishnagan oqshom” asari matnida ko‘plab dialektik frazalarni uchratish mumkin. Bu iboralardan Surxondaryoda, Samarqand viloyatining ayrim qishloqlarida ham keng qo‘llanishini ko‘rish mumkin:

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

“Zardam qaynadi, qamchim bilan Tarlon boshiga soldim” [2; 49].

Yuqoridagi gapda dialektal mazmunda bo‘lgan ibora qo‘llangan. Mazkur zardasi qaynadi ot+fel shaklidagi fe’l dialektlashgan bo‘lib, “zarda boluv, ya’ni oshqozonning qaynashi, forsiy+turkiy so‘z”dir [4; 142]. Asarda qahramonning ruhiy holatiga xos tasvirni ifodalagan. Jahli chiqdi, asabi buzildi kabi dialektal ma’nolarga ega. Bu dialektdan Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo areallaridagi mahalliy aholi keng foydalanadi. Ushbu fe’lga oid dialektizm ot shaklida ham uchraydi: “Zarda – jahl, g‘azab, do‘q, baqirish” [3;136]. Yana zarda qilmoq – jahl qilmoq shaklida ham ishlatiladi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

“Ay, birodarlar, zaril gaplaring bo‘lsa aytinglar” [2; 66]. Keltirilgan misoldagi dialektal birlik bu “zaril” shevaga xos so‘zidir. Bu dialektning adabiy shakli esa zarur, kerak, shartdir. Bu so‘z ham Samarqand viloyati Jomboy tumaniga qarashli Naymantepa, To‘qqizboy, Juriyat kabi mahallalarda keng tarzda foydalaniladi. “Zarillav – turkiy so‘z. Qattiq iltimos, iltijo, elanmoq” [4; 142]. Shuningdek, Sirdaryoning ayrim qishloq joylarida ham bu so‘zlar ishtirokidagi gaplarni eshitish mumkin.

“Pishakni-da shunday deyishadi” [2; 59]. Pishak so‘zi mushukning shevaga xos variantidir. Bu so‘z “pish-pish” taqliq so‘zidan kelib chiqqan. “Pishak – mushuk “кот, кошка” [6; 219]. Ushbu dialektdan ko‘pincha, Sirdaryo, Samarqand, Jizzax viloyati aholisi ko‘proq foydalanadi.

Shaxs otlari ham aytilishi bilan bir-biridan farq qiladi:

“–Ay, enasi-ya, kel, ulimga mamma ber” [2; 63]. Misolda ena va ulim so‘zlari dialektal birlik bo‘lib kelgan. Ena so‘zi Surxondaryo, Samarqandda ona ma’nosini bildirsa, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax kabi hududlarda buvi kabi ma’noda ishlatiladi. Ammo misolda keltirilgan ma’no onadir. “Ena – ona” [5; 122]. Ikkinchi dialekt esa ulim, ya’ni o‘g‘lim. Bu so‘z tarkibida fonetik hodisa yuz bergan, ya’ni o‘g‘il so‘zidagi [g‘] undoshi va [i] unlisi tushib qolgan va natijada ul so‘zi kelib chiqqan. I shaxs unga -im egalik qo‘shimchasini qo‘shish natijasida esa ulim dialekti hosil bo‘lgan.

“Zot-boborakotini, mazgilini so‘radim” [2; 60]. Bu namunada keltirilgan dialektizm mazgil so‘zidir. Mazgil talaffuzi jihatidan manzil so‘ziga o‘xshab ketadi va adabiy shakli ham shunday, ya’ni “ mazgil – yashash joy – manzil” [5; 58]. Qo‘shimcha qilib shuni aytish mumkinki, “Mazgil” dialektizmini “Alpomish” dostonida ham uchratish mumkin.

“Sayil emish” [2;61] Sayil, odatda, bayramlarga nisbatan qo‘llaniladi, masalan, har yili yurtimizda nishonlanadigan Navro‘z sayillari. Samarqand viloyati Jomboy tumaniga qarashli Naymantepa, To‘qqizboy, Juriyat, No‘sh kabi qishloqlarda esa bu dialektning ma’nosi Hayit so‘ziga to‘g‘ri keladi, masalan, Qurbon sayili tarzda ifodalanishi. “Ot kishnagan oqshom” asarida esa nimanidir tomosha qilish ma’nosida kelgan, adabiy shakli ham shunday, “ sayil – tomosha, sayr” [5;77]. Birgalik olmoshlari dialekt vazifasida kelish xususiyatiga ega, masalan, “Barining ko‘zida qora ko‘zoynagi bo‘ldi” [2;65]. Asar parchasi orqali keltirilgan gapdagi dialektizm bu bari olmoshidir. Bu so‘z adabiy tilda ham, shevada ham bor. “Barin – birgalikda, hammasini”[5;14]. Bari so‘zining dialektal sinonimi bori dialektidir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shuningdek, olmoshning boshqa turlarining ham dialektal birliklari bor, masalan, belgilash olmoshining. “Sag‘al lat yegan ekan, yaxshi bo‘p ketibdi” [2;59]. Sag‘al ozgina so‘zining dialektizmi hisoblanadi va talaffuz chog‘ida g‘ undoshining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. “Sahal – ozgina, bir oz”[5;80]. Ba’zi joylarda sal tarzida ham foydalaniladi, bu birlik adabiy tilda ham mavjud. Parchada keltirilgan keyingi

dialektizm bu bo‘p fe’lidir. Bo‘p fe’li bo‘lib fe’lining qisqartmasi hisoblanadi. [L] undoshi va [I] unlisining tushib qolishi va [b] undoshining [p] bilan o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tog‘ay Murod asarlarida uchraydigan har bir dialektizm muhim ahamiyat kasb etadi. Nazarimizda, ushbu dialektal so‘zlar xalqning tarixiy xotirasi va madaniy merosining ajralmas qismi sifatida o‘rganilishi lozim. Negaki tilimizni yanada taraqqiy etishida, uning boyligini saqlash hamda mustahkamlashda yozuvchining asarlari matnidagi dialektizmlarning o‘rni muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev.S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent–: 2013. –B. 36.
2. Тоғай М. От кишнаган оқшом (қисса). – Тошкент: Шарқ, 1994. –Б 49, 59,60, 61 63,65,66
3. Мирзаев.Т, Бегматов.Э, Мадалиев.А, Махкамов.Н, Тохлиев.Н, Умаров.Э, Худойберганова.Д, Ходжиев.А Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, –Б. 136, 211.
4. Назаров Н. Лақайлар: баъзи сўзлар ва ибораларнинг диалектологик мазмуни. – Тошкент, 2010. –Б. 142.
5. Мирзаев.Т, Ж.Эшонкул, Фидокор.С. "Алпомиш "достонининг изохли луғати. – Тошкент: 2007. – Б. 122, 58, 14, 77, 80 .
6. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 219.

THEORY OF PHYSICAL EDUCACION OF PRESCHOOL CHILDREN

Madaminov O.N

Senior lecturer Department of Physical Education and Sports Teaching Methods, Fergana State University,Uzbekistan, Fergana city

Abstract: *This article discusses issues related to the physical education of preschool children, covering a wide range of issues including the organization of physical education, physical education classes, active games, sports games, and training. The article can be used by professors and teachers of physical education and physical culture, undergraduate students, students of academic lyceums and technical schools, as well as those interested in the subject "Physical Education and Physical Culture".*

Keyword: *Preschool children, physical education theory, educational tasks, sports games, movement skills, educational tasks, children's character.*

The theory of physical education for preschool children is a science that teaches the general laws of the formation of a child's physical education. The theory of physical education of preschool children has the same content and subject of study as the general theory of physical education, while at the same time it specifically studies the laws of physical education of children under 7 years of age and, accordingly, the general laws of managing the development of a child in the process of education and upbringing. The theory of children's physical education, studying each age stage, generalizing scientific data and practical experience, defines the tasks of physical education, comprehensively reveals their essence, highly effective means and methods of organizing the entire physical education process, and appropriate forms. The formation of a healthy, strong, alert, cheerful, kind, initiative-oriented child who is able to control his or her own movements well, who loves physical education and sports, who can act independently in the environment, and who is capable of studying at school and future active creative activities is an important task that determines the special importance of physical education as the basis for the comprehensive development of the individual. The theory of physical education includes the following psychophysiological characteristics of children of early childhood and preschool age: the working capacity of the organism, emerging interests and needs, demonstrative movement, demonstrative image and logical thinking forms, the specificity of the predominant type of activity, in connection with the development of this activity, significant changes occur in the child's psyche and prepare for the "transition of the child to a new higher stage of development". Accordingly, the theory of children's physical education develops the content of all forms of organizing physical education and implementing them in optimal pedagogical conditions. The theory of physical

education, studying and taking into account the laws of the potential capabilities of a child at each age level, provides for the requirements of a scientifically based program of the entire educational complex of physical education (movement, skills and abilities, physical qualities, some elementary knowledge).

Their mastery allows children to ensure the necessary level of physical fitness for school. Physical education is an important component of the comprehensive education of the individual, while it comprehensively solves the tasks of intellectual, moral, aesthetic and labor education. In various forms of organizing children's physical education (exercises, active games, independent movement activities, etc.), the educator's attention is focused on raising a child who thinks, acts consciously according to his age capabilities, successfully masters movement skills, is able to find a goal in the environment, actively overcomes difficulties, and strives for creative exploration.

The theory of physical education for children is constantly evolving and is enriched by new knowledge gained from research covering various aspects of child education. The results of research, tested in the mass experience of children's institutions, are being incorporated into programs, teaching aids, textbooks, and implemented in the practice of working with children, contributing to the development of the entire educational process. Thus, the theory of physical education of preschool children helps to improve the entire physical education system. The main tasks of physical education of preschool children in preschool educational institutions and in the family are to raise them healthy and strong, to strengthen their bodies, and to properly organize education and upbringing.

The tasks of improving the health of preschool children are the most important task of physical education, which consists in protecting the child's life, strengthening his health, protecting himself by strengthening his body, and increasing his resistance to various diseases. Since the development of the child's body has its own characteristics, its tasks are expressed in a much clearer form; it helps the child's bones to harden correctly and in a timely manner, the formation of the curvature of the spine, the good development of the heel surface, and the maturation of the ligamentous apparatus. To help develop body parts (proportions) in the correct proportions, to regulate bone growth and weight; to develop all muscle groups (body, legs, arms and shoulder girdle, paws, fingers, heels, neck, eyes, internal organs - cardiovascular, respiratory and other muscles); special attention should be paid to the development of the weakly developed flexor muscles.

Help improve the functioning of the cardiovascular and respiratory systems, that is, increase blood flow to the heart, improve the rhythm of its contractions, and develop the ability to adapt to sudden changes in load; develop chest tightness, deep breathing, help stabilize its rhythm, increase lung capacity, improve nasal breathing; help the internal organs (digestion, excretion, etc.) function properly; promote the proper development of

thermoregulation. Improving the functioning of the central nervous system: promoting the alternation of excitation and inhibition, their mobility processes, as well as the development of the motion analyzer and sensory organs.

LITERATURE:

1. The Presidential Decree "On Measures for the Further Development of Volleyball Sports" (No. PQ-274, 07/19/2024) was adopted.

2. Improving sports pedagogical skills (Volleyball) A.A. Pulatov, M.A. Kadirova Tashkent - 2018

3. Methods of conducting volleyball training A.T. Xasanov, G.R. Kurbonov, N.N. Bobojonov Fergana - 2019

4. Preparing young volleyball players for competitions Methodological guide O.N. Madaminov Fergana - 2021

5. Conducting and refereeing competitions in sports" Manual O.N. Madaminov Fergana - 2023.

XORAZMSHOHLAR DAVLATIDA DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

Barno Abduraxmonova
Oybek Fayzullayev
2-maktab tarix fani o'qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazmshohlar saltanatining diplomatik munosabatlari haqida manbalar asosida bayon etiladi*

Kalit so'zlar: *Xorazmshohlar, diplomatik munosabatlar, elchi, Jaloliddin Manguberdi.*

Markaziy Osiyo davlatchilik tarixini o'rganar ekanmiz albatta undagi diplomatik munosabatlar diqqatimizni tortmasdan qolmaydi. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda ham albatta diplomatik munosabatlar, elchilik aloqalari davlatning eng ma'suliyatli va juda muhim jihatlari ekanligini guvohi bo'lib boryapmiz. Davlatlar yuzaga kelibdiki diplomatik munosabatlar takomillashib rivojlanib borayotir.

Biz ko'rib o'tayotgan davrda Xorazmshohlar davlatida diplomatik munosabatlar, elchilik aloqalarining o'ziga xos yo'nalishlariga ega bo'lgan. Xorazmshohlar davlati vujudga kelib toki Alouddin Muhammad hukmronlik davrigacha elchilik aloqalari o'ziga xos bir yo'nalishda amalga oshirildi. Ammo Xorazmshohlar davlati Saljuqiylarga rasmiy jihatdan Saljuqiylar davlatiga qaram amalda mustaqil edi.

Diplomatik munosabatlar o'ziga xos xususiyatlari va nozik jihatlari bilan ajralib turadi. Elchilik aloqalarida har bir davlatning o'ziga xos qonun qoidalari , elchilarning o'ziga xos majburiyatlari mavjud bo'lgan. Agar elchi aql va tajribada tengi yo'q, donishmand, so'zamol inson bo'lsa, albatta u óz davlatining sha'nini va qadr-qimmatini saqlagan holda óz ishini amalga oshirgan, agarda aksi bólsa elchining oddiygini nomaqbul sózi va xatti-harakatlari sababli davlatlar o'rtasida sovuq munosabatlar yuzaga kelib, hattoki ular o'rtasidagi kurashga ham sabab bo'lgan.

Misol tariqasida Jo'jining Xorazmga yurishi haqida ushbu voqeani keltirish mumkin."Dushixon Xorazmga elchilar yuborib, shaharni vayron qilmasligini, agarda shahar o'z xohishi bilan taslim bo'lsa, hammaga omonlik berishini ma'lum qildi. U boshqa viloyatlarga nisbatan Xorazmga iltifotliroq bo'ldi. Aholi orasidan aqlli odamlar tinchlik sulhi tuzish tarafdori bo'ldilar, ammo aqli noqis kimsalar ularga nisbatan ko'pchilikni tashkil qilardi. Xorazm kurashib holdan toygach, omonlik so'rash uchun Xorazm muxtasibi, Faqih Alovuddin al Hayyotiyni yo'lladilar. Alovuddin Dushixon oldiga tiz cho'kib dedi:"Biz xonning qahri qay darajada ekanidan voqif bo'ldik, endilikda uning iltifotidan bahramand bo'ladigan payt kelmadimikan?". Bu so'zlardan Dushixon jahli chiqib" Xorazmliklar mening

qaysi qahrimdan bahramand bo‘lishibdi? Ularning o‘zi urushni boshlab lashkarlarimni o‘ldirdilar-ku! Hozircha men ularning qahrini ko‘rdim! Ana endi men qo‘rquv qanday bo‘lishini ko‘rsataman! [21]". Ko‘rib turganingizdek elchilik munosabati juda nozik masala. Xoja Samandar Termiziyning " Dastur ul-muluk" asarida elchining sifati haqida shunday deyiladi: " Azizim elchi o‘tkir, yaltiroq shamshirga monand tilidan chaqqonlik va va mohirlik bilan foydalanishi lozim. Ammo uning ochiq yuzligi, go‘zal muomalasi biron- bir sulh tuzish paytida muloyim, yoqimli nutqidan taralib turgan so‘z javharlaridan bilinib tursin.

Azizim to‘rt to‘rt toifadagi odamni elchi sifatida yubormaslik tajribada isbotlangan.Birinchisi-podshohdan jafo ko‘rgan,ikkinchisi-mol-mulk, hurmat izzati podshoh g‘azabi shamoli bilan sovutilgan, uchinchisi-o‘z amalidan haydalgan, to‘rtinchisi-podshohning zarari hisobidan o‘z manfaatini ko‘zlagan, ya'ni davlat manfaatidan o‘z manfaatini ustun qo‘ygan kishilarni davlat elchisi qilib yuborish aqldan uzoqdir" [22].

Xorazmshohlar elchilik munosabatlariga kelsak, Xorazmshoh Takash (1172-1200) Hamadonda turgan vaqtda Bag‘doddan xalifa elchisi Mujriddin Muhammad al-Bag‘dodiy sharafiga uyushtirilgan qabul marosimini ko‘rib chiqsak. Elchi Oliy devondan(xalifalikdan) bo‘lgani uchun shunga monand qabul marosimi tashkil etildi. Elchining saroygacha bosib o‘tadigan yo‘liga bir necha qavatdan iborat atlas va parcha poyondozlar to‘shalgan va ko‘p oltin tangalar sochilgan. Elchini qutlash uchun hatto, Xorazmshoh Takashning o‘zi ham taxtdan tushib kelgan . Elchi xalifa nomini tilga olganda xorazmshoh Takash o‘rnidan turib, hurmat va extiromini izhor qilgan[23].Bu jarayonda ko‘rishimiz hukmdor davlat egasi bo‘lishi bilan bir qatorda mohir diplomat bo‘lishi ham bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, musulmon olamida xalifalar Oliy hukmronligi tan olingan va har bir musulmon davlati singari Xorazmshohlar ham o‘z ehtiromini ko‘rsatganlar, hamda Bag‘dod xalifasi va Xorazmshoh Takash o‘rtasida sovuq munosabatlar yuzaga kelganligi sababli har ikkisi ham aloqalarni tiklashga urinmoqda edi.

Sulton Alovuddin Muhammad davrida bu jarayonlar nihoyatda qizg‘in tus olgan. Sababi Muhammad Xorazmshoh hech kim yenga olmagan qoraxitoylarni Movarounnahrdan daf qilgan, davlat sarhadlarini nihoyatda kengaytirgandi. Ko‘pgina davlatlar bu buyuk hukmdor bilan muvozanatli diplomatiya olib borishga, majbur edilar.Manbalarda ko‘rib o‘tishimiz mumkinki, Xorazmshohlar hayotining ko‘p vaqti harbiy yurishlardan iborat bo‘lgan. Ular yurish boshlagan hududlar, hamda zabt etilgan o‘lkalar Sultonga munosib ravishda diplomatiya olib borishga majbur edilar.

[21] Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.K.Matyoqubov tarjimasi.T.:"O'zbekiston"-2009.-121b
[22] Akademik M.M.Xayrullayev. O'zbek diplomatiyasi tarixidan. Tarixiy ocherklar va lavhalar. Toshkent-2003.-331b
[23] J.A.Avazova. Xorazmshohlar davlatida elchilarni qabul qilish marosimi.Maqola.Toshkent-2016.

Sulton o‘ziga bir vaqtlar saljuqiylar saltanati egalariga berilgani singari Bag‘dodda hukmronlik va hukmdorlikni talab qila boshladi.Bu masala bo‘yicha xalifalikdan Shihobiddin as- Suxravardiy elchi bo‘lib kelgan[24]. Odatga ko‘ra o‘z davrida shayxlar orasida yuksak mavqega ega bo‘lgani, martabasi ulug‘ligi tufayli Sulton huzurida boshq elchilarga nisbatan hurmat va ehtirom bilan kutib olinishi kerak edi. Shunga qaramay shayx Suxravardiy eshik oldida kutib qoladi va Sulton unga ancha vaqtdan keyin kirishga ruxsat beradi. Manbalarda Sulton unga iltifot ko‘rsatmagani hatto o‘tirishga ham ruxsat bermagani keltiriladi[25].

Mo‘g‘ullar va Xorazmshohlar diplomatiyasi va uning ayanchli oqibatlari barchamizga ma'lum. Sulton Iroq yurishidan so‘ng Movarounnahrga nafas rostlash uchun qaytgan vaqtda bu yerga Mahmud al-Xorazmiy, Ali Hoji al-Buxoriy, Yusuf Kanka al-O‘troriy kabi shaxslardan iborat elchilik missiyasi tashrif buyuradi.An Nasaviyning yozishicha elchilarning kelishidan maqsad do‘stlik, o‘rtada tinchlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarni o‘rnatishdan iborat edi deb ta’kidlab o‘tadi. Elchilar o’zlari bilan turkiylar uchun odatiy bo’lgan sovg’alar olib kelgandilar.

Sovg’alar orasida Xitoy tog’laridan qazib olinadigan tuya o’rkachidek keladigan oltin bo’lagi, qimmatbaho metallar bo’lagi, dengiz hayvonlarining qoziq tishlari(nusub al-xutuvv), qoplarda mushklar, nefrit toshlari, kiyimlar, oq tuya junidan tayyorlangan tarxu[26] deb nomlangan kiyim bor edi.Elchilar nomasida shunday keltirilgandi: "Sen qilayotgan ulug‘ ishlar menga ayon, davlatingda nimaga erishganini yaxshi bilaman. Men sening mulking nihoyatda katta ekanligidan, buyrug‘iga olamdagi ko‘plab mamlakatlar itoat etishidan xabardorman. Sen bilan tinchlik, osoyishtalikda yashashni o‘zim uchun majburiyat deb bilaman. Sen menga eng aziz o‘g‘illaridan biri kabisan. Men Xitoyni, qo‘shni turkiy mamlakatlarni bosib olganim, endilikda ular qabilalari bizlarga qaram ekanligi sen uchun ham sir bo‘lmasa kerak.Boshqalardan ham ko‘ra senga ko‘proq ayonki, mening vatanim - behisob qo‘shinlar va kumush konlar yurti.

Boylik shunchalik ko‘pki, uni boshqa yerdan izlash ortiqchadir. Agar savdogarlarning ikkala tomon borib -kelishlari uchun yo‘l ochishni ma'qul deb topsang, bu barchamizning umumfoydamizga xizmat qilgan bo‘lardi[27]".Bu so‘zlarni teran anglagan kishi albatta bu nomada qanday mazmun anglatayotganini darhol anglaydi. Bu yerda Xorazmshoh buyukligi olqishlamoqda, ammo u Chingizxon o‘g‘illari qatorida ko‘rishini bundan tashqari u Xitoyni va hatto turkiylarni bo‘ysundirgani, mamlakatida behisob qo‘shinlar va boylik mamlakati ekanligini takidlab o‘z qudratini shular orqali anglatmoqda. Bunday elchilik munosabatlari

[24] Shihobiddin Abu Xafs as-Suxravardiy 1145-1234-yillarda yashagan.Bag’dod so’fiylarining boshlig’i, shayxlar shayxi.
[25]Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.K.Matyoqubov tarjimasi.T.:”O’zbekiston”-2009. -31b
[26] Tarxu-yengil ipak kiyim
[27] Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.K.Matyoqubov tarjimasi.T.:”O’zbekiston”-2009. -56 b

davom etib turgan va aynan O‘tror fojiasidan so‘ng Mo‘g‘ullar bilan elchilik munosabatlari yakunlangan.

Buyuk sarkarda Sulton Jaloliddin Xorazmshoh davrida esa asosan bo‘ysundirilgan hududlar, Bag‘dod xalifalari , ar-Rum hukmdorlari va boshqa ko‘pgina musulmon davlatlari bilan diplomatik munosabatlar olib borgan. Sulton Jaloliddinning asosiy maqsadi umumiy dushmanga qarshi yakdil bo‘lib kurashish va parchalangan mamlakatni oldingi qudratini qayta tiklash edi.U Hindistondaligi vaqtida Shamsuddin Eltutmish bilan dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan. Sababi Shamsiddin Eltutmish Sultonga qarshi chiqadi, ammo yengilishi aniq ko‘rinib qolganligi sababli Sulton huzuriga elchilar orqali quyidagi so‘zlarini yetkazishni buyuradi : " Hech sir emaski, sening orqangda din dushmani turibdi. Sen endilikda musulmonlar sultoni va sultonlar musulmonining o‘g‘lidan. Men senga qarshi kutashsishni , mavjud voqelikning qo‘lida qurol bo‘lishni, taqdirning yordamchisi bo‘lib xizmat qilishni istamayman. Sendaylarga qarshi qilish yalang‘ochlamoq men kabilarga yarashmaydi! Bunday holat faqat midofaaga majbur bo‘lganimizda yoki biror xavfni bartaraf etish zaruratga aylangandagina yuz berishi mumkin. Agar maqsadga muvofiq desang oradagi ishonchni mustahkamlash, dushmanlikni bartaraf etib o‘zaro ehtirormimizni kuchaytirish uchun qizimni senga beraman[28]".

Sulton Jaloliddin Tabrizdaligi vaqtida To‘g‘rul ib Arslonning qizi otabek O‘zbekning ayoli nomidan bir guruh ayol elchilar kelganligi manbalarda keltiriladi[29]. Sulton Jaloliddin Marog‘ani egallagan vaqtida qozi Mujriddin Umar ibn Sa'd al-Xorazmiyni elchi sifatida Rum, ash-Shom va Misr hukmdorlari huzuriga elchi qilib yuboradi. U asosan hukmdorlarni do‘stona hamkorlikka chaqirdi. Sultonning Ganjada bo‘lgan vaqtda Mag‘rib [30] elchisi tashrif buyuradi. U elchi hurmat ehtirom bilan kutib olindi, qabul marosimi tashkil etilib, ziyofat uyushtirildi. Bu hammaga ham nasib etmagan. U elchi juda samimiy, ko‘ngildagi borini to‘kib soladigan, to‘g‘ri so‘zdan qaytmaydigan, boylik va mol-mulkka e'tiborsiz odam edi. U Sulton ruxsat berguncha Ganjada turdi va o‘ng ming dinor miqdorida pul berildi. Yurtiga qaytish vaqtida Sultonga murojaat qilib tog‘ va do‘mbira berishlarini so‘radi. Shu bilan bir qatorda, Damashq atrofidagi Jannat az-Zabadaniya[31] mulkining o‘ziga tegishli ekanligi haqida tavq (farmon) chiqarib berishini iltimos qildi. Sulton u so‘ragan barcha narsalarni amalga oshirdi[32]. Jaloliddin va Mag‘rib o‘rtasida keyingi davrda qanday munosabat bo‘lganligi qorong‘u, muhimi shuki, Jaloliddinning jasoratlari, uning fazilatlari o‘zga

[28] Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.K.Matyoqubov tarjimasi.T.:"O'zbekiston"-2009.-118 b
[29] Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.K.Matyoqubov tarjimasi.T.:"O'zbekiston"-2009.-147 bet
[30] Mag'rib-Shimoliy-g'arbiy Afrika, xususan, hozirgi Sudanga yaqin joylar anglashilgan. Mag'rib elchisining sulton huzuriga kelganligi haqiqatga yaqin deb hisoblanadigan bo'lsa, u Almahdiylar xalifaligidan tashrif buyurgan. Almahdiylar Sudanda hukmronlik qilib o'tgan. Bu xalifalikda 1224-1227-yillarda Abdulloh al-Odil hukmronlik qilgan.Mag'rib elchisining qanday niyatlari bo'lganligini bilib bo'lmasa ham bir narsani anglash mumkin:Jaloliddinning nomi, uning qahramonligi boshqa mamalakatlarga yetib borganligi aniq.
[31] Jannat az-Zabadaniya-Damashq atrofidagi vodiy.
[32] Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.K.Matyoqubov tarjimasi.T.:"O'zbekiston"-2009.-158 b

yurtlarda ham dong yaratishi edi. Sulton Tabrizdaligi paytida Bag‘doddan elchilar keladi. Bunga sabab az-Zohir xalifa bo‘lganligi va Sulton elchisi bilan orqaga qaytishi lozim edi. Sulton Mujiriddini ular bilan qo‘shib jo‘natadi.Ular yangi xalifaning taxtga chiqish marosimida ishtirok etgan va faxriy kiyim bosh bilan qaytgan. Ammo ular Sulton huzuriga qaytishidan avval az -Zohirni vafoti haqida xabar keladi va faxriy kiyimlar Bag‘dodga qaytariladi.

Keyingi xalifa al-Mustansir davrida ham bu aloqalar davom etdi. Sulton Hilotni qamal qilib turgan vaqtda Arzon ar-Rumning hukmdori Rukniddin Jahonshoh ibn To‘g‘rul tashrif buyuradi. Sulton uni guldor qimmatbaho chodir ostida kutardi. Jahonshoh maydonga shoshilib keldi va yerni o‘pdi. Keyin bir necha qadam yurgandi, uni al-hojib al-xass Badriddin Dudog‘ ibn Inonjxon qarshiladi. U Sulton nomidan nomidan Jahonshobga otga minishni buyurdi.U otga mindi va odatdagi rasm-rusmlariga ko‘ra ta'zim qilib keldi. Sulton uni bag‘riga bosdi, Jahonshoh esa Sulton qo‘lini o‘pdi. Sulton unga gulli qimmatbaho chodir ostidan joy ko‘rsatdi.U Sultonning o‘ng tomonida tik turdi. Shu paytda chodir yog‘ochlarga darz ketdi va qulab tushdi. Jahonshoh Sulton xizmatida bir necha kun bo‘ldi. Sulton u va yaqinlariga ikki yuzta faxriy kiyimbosh, o‘n sakkizta to‘la yasatig‘liq ot berdi. Jahonshoh esa "Qora Bug‘ro" deb atalgan katta manjaniqni, matarislarni , kiyiladigan himoya anjomlarini va ko‘plab kamon o‘qlarini yubordi[33].

Ayni Sulton Hilotdaligi vaqtida Sa'daddin al-Hasan al-Hojib Oliy devondan elchi sifatida tashrif buyurdi. Xalifalik devonining iltimoslari orasida quyidagilar bor edi: Sulton Mo‘sul hukmdori malik Bahriddin Lo‘ludan, Irbil hukmdori Muzafariddin Ko‘k Bo‘ridan, Iva'iy hukmdori Shihobiddin Sulaymonshohdan, Jibal hukmdori Tomonidan Pahlavon ibn Xazoraspdan o‘ziga bo‘ysunishni talab qilmasligi so‘raladi, bundan tashqari Alovuddin Muhammad davrida qo‘l ostidagi mamlakatlarda xalifa nomini xutbaga qo‘shib o‘qish to‘xtatilgandi va elchilar xalifa nomini xuybaga qo‘shib o‘qitishni so‘radilar. Hamma ishlar elchi qanday so‘ragan bo‘lsa, shunday amalga oshirildi. Be bejiz emas albatta. Jaloliddinning bundan ko‘zlagan maqsadi bo‘lsa kerak. Chunki Bag‘dod xalifasi musulmon mamlakatlarining umumiy rahnamosi, unga ko‘pgina hududlar bo‘ysunadi. Albatta, u davlatlarni umumiy dushmanga qarshi birlashtirib, Jaloliddinni qo‘llay olishi kundek ravshan. Shundan keyin Sulton Badriddin Dudog‘ ib Inonjxonni elchiga hamroh qilib Oliy devonga jo‘natadi. An-Nasaviy elchidan eshitganlarini o‘z kitobida bayon qiladi. Amir al-mo‘minin "Shohonshoh janobi oliylarining ahvoli qanday?" deb so‘raydi va Sulton haqida yaxshi fikrda ekanligini, munosabati jiddiyligini, unga g‘amxo‘rlik qilish niyatidaligini aytgan. Qaytishda Falakiddin ibn Sunqur at-Tavil va Sa'daddin ibn al-Hasan al-Hojib hamroh bo‘lib kelishdi. Xalifa ular orqali Sultonga bir qancha sovg‘alar yuborgan edi.Falakiddin

[33] Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.K.Matyoqubov tarjimasi.T.:”O’zbekiston”-2009.

ehtirom bilan kutib olindi, u otda kelib, undan tushayotgan vaqtda kutib oluvchilar ishtirokida o‘ziga xos "dahliz" tashkil qilindi va karnay chalinib turdi. Sa'daddin ibn al-Hasan al-Hojib esa Oliy devonda yuksak mavqega ega bo‘lsa ham unga hojiblik mansabi doirasidagi amallar asosida hurmat ko‘rsatildi. Ko‘rib turganimizdek, elchilarni darajasiga qarab o‘ziga xos kutib olish marosimlari amalga oshirilgan[34].

Xalifalikdan olib kelingan sovg‘alar quyidagilar edi:

1. Sulton uchun ikki sidra faxriy kiyim-bosh. Uning bir sidrasi jubba, salla, bandi yasatig‘liq hind qilishidan iborat edi. Ikkinchi sidrasi tarkibida chakmon(qabo), bosh kiyim(xamma), ust kiyim(farjiyya), tillo bilan bezatilgan Qorajul qilishi, dindorlar va har xil qimmatbaho toshlar qadalgan kamar hm bor edi.

2. Egar-jabduq, havzalari va tug‘i bilan birgalikda yasatilgan eng chiroyli, baquvvat ikki arg‘umoq, ularning yonida har qaysisi yuz dinor turadigan sakkizta taqa ham qo‘shilgan edi.

3.Noyob, yarqirab turadigan har xil toshlar qadab ishlangan oltin qalqon. Unga jami qirq bitta tosh naqshlangan: shundan yigirmatasi la'l yigirmatasi Badaxshon aqiqi va bitta katta feruza tosh edi.

4. O‘ttizta arabiy arg‘umoq otlar, ularning yopinchiqlari Roma atlaslaridan bo‘lib, uning ostidan Bag‘dod atlaslari to‘qim o‘rnida ishlatilganedi. Hamma otlarning tizgini ipakdan tayyorlangandi va har biriga xalifalik dinorlaridan oltmishtasi shoda qilib osilgandi.

5. Qurollangan, o‘z otlariga ega o‘ttizta mamluk.

6. Atlas yopqich yopilgan va oltin shodasi taqilgan o’nta chita (gepard).

7. Kichkina marvarid qadalgan qalpoqcha kiydirilgan o’nta lochin.

8. Yuz ellik dona bo’g’cha, bu bo’g’chalarning har birida 10 sidra kiyim-bosh.

9. Oltin gardishli, kulran tusdagi, muattar hidli beshta shar.

10. Besh yoki olti tirsak keladigan sabur (ud) daraxti. Uni ikki odam olib keldi.

11. Xonlar uchun o’n to’rtta faxriy sovg’a. Bularning hammasi egar- jabduqlar, tug’lar bilan yasatilgan, oltin qarindoshlar boglangan va Tiflis ilgaklari osilgan otlar edi. Xalifa bu sovg’aning ayrimlari ajralib tursin degan niyatda ilgaklarni bo’ylatgan edi. Faqat Doyixon, Ulug’xon. Uturxon va To’g’onxonga atalgan otlarni ilgaklari bo’ylanmagandi.

12. Amirlar uchun o’ttiz sidra kiyim bosh: uning har bir sidrasi chakmon va bosh kiyimdan iborat edi.

Sharafulmulkka atab yuborilgan sidra kiyimlar qora salla, chakmon, ustgi ko’ylak jamlamasi edi. Bundan tashqari, unga hind qilishi ellikta ko’ylak, muattar hidli ikki shar mavjud edi.

[34] Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.K.Matyoqubov tarjimasi.T.:”O’zbekiston”-2009.-227-231-b

Xalifalik devonidan Sultonga kelgan ro‘yxat quyidagi tartibda edi: dastlab "Shohanshosh janobi oliylari" (al-janob al-a'li ash shahinshax) tilga olingan, keyin "Muhtaram Sharafulmulk" ismi bitilgan.

Shunday mohir diplomatiya, shunchalik kuchli siyosiy va madaniy aloqalarga ega bo‘lgan, yigirma yetti mamlakatni o‘ziga itoat ettirgan, markazlashgan kuchli davlatni bunyod etgan, buyuk davlatlar bilan tengma- teng siyosat olib borgan Xorazmshohlar saltanati, yog‘iy bosimi vaqtida kerakli chora-tadbirlarni ko‘rolmagani, birlasha olmagani, ayrim vaqtda juda kibrga berilganligi sabab saltanat tirgaklariga shikast yetdi va tanazzulga yuz tutdi. Albatta biz tarixdan kerakli saboq olishimiz, biz uchun o‘rnak bo‘lgan hodisalarni o‘zimiz uchun qo‘llashimiz, ayrim xatolarni takrorlamaslikka harakat qilmog‘imiz darkor. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta'biri bilan aytganda: "Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q!".

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.K.Matyoqubov tarjimasi.T.:”O’zbekiston”-2009.
2. O’zbekistonda elchilik xizmati tarixidan: talqin va tahlil. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami. “Adabiyot uchqunlari”. Toshkent-2016.
3. Akademik M.M.Xayrullayev. O’zbek diplomatiyasi tarixidan. Tarixiy ocherklar va lavhalar. Toshkent-2003.

G‘O‘ZANING ODDIY ILDIZ CHIRISH KASALLIGI VA UNGA QARSHI KURASH USULLARI

Abduraim Qurbanov
Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti agrobiologiya fakulteti o‘simliklar himoyasi agrokimyo va agrotuproqshunoslik kafedrasi assistenti
Choriyeva Fazilat Olimovna
O’simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo’yicha) 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *g'o'za turlari, g'o'za ildiz chirish kasalliklari, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, kasalliklarga chidamliligi, ularga qarshi kurashish choralari.*

Аннотация: *виды хлопчатника, корневые гнили хлопчатника, причины возникновения болезней, устойчивость к болезням и меры борьбы с ними.*

Abstract: *cotton species, cotton root rot diseases, causes of diseases, disease resistance, and measures to combat the*

O’zbekiston Respublika sharoitida g‘o‘zaning oddiy ildiz chirish kasalliklari uchraydi. G‘o‘zaning oddiy ildiz chirish kasalligi chigit ungan davrdan boshlab 6-8 ta haqiqiy barg hosil qilg‘uncha davom etadi. Kasallikning dastlabki belgilari ko‘chatlarning ildiz bo‘g‘izida to‘q jigar rangdagi dog‘ hosil bo‘lishdan boshlanib, keyinchalik chiriydi.

Bunday o‘simlik bargi rangsizlanib, qurib qoladi va tushib ketadi, poyasi jigar rangga kiradi. Ildiz bo‘g‘izida poyaning yo‘g‘onlashishi yoki buralib ketishi kuzatiladi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchisi tuproqdagi turli mikroorganizmlar bo‘lib ular orasida keng tarqalgani – Rhizoctonia solani, Thielavitopsis basicola, F. solani zamburug‘lari asosiy rol o‘ynaydi. Bu zamburug‘lar mitseliysi tuproqdan o‘simlik ildiz bo‘g‘izi orqali ildizga kirib keladi. Infeksiya manbayi asosan tuproqda va kasallangan o‘simlik qoldiqlarida hayot kechirayotgan zamburug‘lar hisoblanadi.

Ildiz chirishi, rizoktonioz – qishloq xo‘jaligi ekinlarining ildizi va poyaning ildiz, bo‘g‘zi qismini kasallantiradi. G‘o‘za, sabzavot, poliz ekinlari, kanop, tok va boshqa kasallanadi. Kasallikni Rhizoctonia Solani Kuhn. zamburug‘lari va ba’zi bakteriyalar qo‘zg‘atadi. Ildiz qorayib, chirib ketadi, ildiz bo‘g‘zida qoramtir-qo‘ng‘ir dog‘lar paydo bo‘ladi, ular bir-biri bilan qo‘shilib, ildizni halqa shaklida o‘rab oladi, ayrim hollarda o‘q ildiz va yon ildizlar ingichkalashadi. Po‘stloqning zararlangan joylari yoriladi, o‘simlik so‘lib, qurib qoladi. Qo‘zg‘atuvchilar tuproqda saqlanadi va rivojlanadi. G‘o‘za, kartoshka, bug‘doy, javdar, qand lavlagi, sabzi, bodring, qovun, qovoq, karam Ildiz chirishi dehqonchilikka katta zarar yetkazadi. O‘zbekistonda g‘o‘zaning Ildiz chirishi keng

tarqalgan kasallik, hamma yerda uchraydi. Bu kasallik tufayli har yili 250-300 ming ga maydonda chigit xatosiga, ba'zan butun maydonga qaytadan ekiladi. Chigit chirishi, maysalarning chirishi, o'simlik nihollarining birinchi rivojlanish fazasidayoq chirishi kabi ko'rinishlari bor. G'o'zada Ildiz chirishining boshlanish davrida (agar tuproq namligi kamayib, havo harorati ko'tarilsa) nihollarining bir qismi sog'ayib ketadi. Biroq ko'pchilik o'simliklar ildiz bo'g'zida parazit zamburug' ta'siridan vujudga kelgan uzunchoq po'kaklashgan dog'lar – kasallik belgisi saqlanib qoladi.

Qarshi kurash choralari: agrotexnik tadbirlarga amal qilish, tuproqni chuqur xaydab, ekishdan oldin boranalash, dalani tekislash, urug' ekilgandan keyin qotqolaq xosil bo'lishiga yo'l qo'ymasdan, ko'chat orasiga o'z vaqtida kultivatsiyani o'tkazish, Baraka, Vitovaks 200 kabi fungitsidlar bilan a'lo sifatli dorilangan urug'larni ekish, yaganalashni va qatqoloqqa qarshi kurashni o'z vaqtida o'tkazish, almashib ekishga va g'o'za poya qoldiqlarini ildizini daladan chiqarib tashlash tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish kerak.

G'o'zaning oddiy ildiz chirish kasalligi bilan kasallanishni kamaytirish uchun ekish muddatlari va chuqurligi xam asosiy rol o'ynaydi. Urug'ni tuproqqa ekishda sutkalik xarorat 12 0 S dan yuqori bo'lishi,ekish chuqurligi 3 -4 cm ni tashkil qilishi kerak. G'o'za navining xususiyatlarini xisobga olib qator oralig'i 90 sm ni tashkil qilishi kerak. Baxorda va kuzda uzliksiz sug'orish ildiz chirish va xashoratlarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

G'o'zani barg orqali oziqlantirishni to'g'ri tashkil qilish o'simlikning oddiy ildiz chirish kasalligiga chidamliligini ortishiga olib keladi. Azot, kaliy, mikroelementlar g'o'zadagi gidrolitik jarayonlarning tezlashishiga olib keladi. G'o'zaga karbomid, kaliy xlorid, borat kislotasi eritmasi bilan barglariga ishlov berilgan dalalarda kasallanish 3 marta kamaygan, hosildorlik 5-7 s ga ortgan. Mikroelementlar o'simlikning immunitet hususiyatini ortirib qolmasdan kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'ga nisbatan fungitsidlik hususiyatini namayon qiladi.

G'o'za o'simligiga vitaminlardan sistin, shonalash davrida xar 10 kunda, gullagandan keyin xar 5 kunda barg orqali oziqlantirilganda ularning oddiy ildiz chirish kasalligi bilan kasallanishi 10-12 kunga kechikdi. Bunday o'simliklarda oksidlanish qaytarilish reaksiyasi ortganligi tufayli o'simlikning rivojlanishi tezlashadi. V1 va V 12 vitaminlari g'o'zada oqsil moddalar sintezini tezlashtirib, kasallanish kamayadi.

G'o'zaga vitaminlar bilan ishlov berilganda xujayra shirasi tarkibidagi oqsil azoti va S vitamin miqdori ortgan va oddiy ildiz chirish kasallig chidamliligi yahshilangan. Natijada, oddiy ildiz chirish kasalligi nazoratga nisbatan 34% ga pasayib, paxta hosili 4 % ga ortgan. O'sishni tezlashtiruvchi moddalar xam g'o'zaning immunitet xususiyatlarini hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Jumladan gibberilin, kofe kislotasi, qaxrabo kislotasi o'simlikning fermentativ faolligiga, oqsil uglevodlar almashinuviga, hosil miqdorining ortishiga olib kelishi aniqlangan. Kofe kislotasi bilan ishlov berilgan g'o'zaning oddiy ildiz chirish kasalligi

chidamliligi ortib Toshkent navlarida kasallik 3 marta kamaygan. Har bir tup ko‘chatda 2-3 ta ko‘sak ortiq hosil bo‘lgan.

Mikroelementlar o‘simlikning immunitet hususiyatlarini ortishdagi roli masalasi fanda g‘oyat dolzarb masala hisoblanadi. O‘simliklarning oziqlanishida mikroelementlarning yetishmasligi undagi tabiiy barqarorlikni yo‘qolishiga va turli kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Mikroelementlardan marganes, bor, mis, rux va kabolt o‘simlik birinchi oziqlanishda yerga 1,5 kg dan tuproqqa solinganda oddiy ildiz chirish kasalligi belgilari birinchi ko‘sak hosil bo‘lguncha namayon bo‘lmagan. Kasallik nazoratga nisbatan 2-3 marta kamaygan, ko‘saklar soni ortib tola sifati yaxshilangan. Paxta hosildorligi mis va marganes ishlatilgan variantlarda 3-4 ga s miqdorida ortgan.

G‘o‘zaning oddiy ildiz chirish kasalligi bilan kasallanishini oldini olishda almashlab ekish tadbirlari asosiy rol o‘ynaydi. Bunda makkajo‘xori, oq jo‘xori, beda va g‘alla ekinlardan foydalanish yahshi samara beradi. To‘rt yil g‘o‘za ekilgan dalalarda go‘ng, mineral kompost solish bilan birga trixodermadan foydalanish tuproqda infeksiyaning kamayishiga sabab bo‘ladi. G‘o‘zani oziqlantirishda N 200, P 160, K 100 kg miqdorda oziqlantirilganda, chigit ekilguncha 50% azot, 40 % fosfor, 50 % kaliy solinganda qolganlari chin barg chiqargan va shonalay boshlaganda berilsa o‘simlikning kasallikka chidamliligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.1. O‘rozov B., Ibragimov P., Allashov B., Bobonazarov A., Toreev F., To‘xtaev E. G‘o‘zaning gommoz kasalligiga chidamliligini oshirishda murakkab chatishtirishning ahamiyati // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali.- 2009.- №9.- 1.2 Orazbaeva G., Kim R. G‘o‘zaning ota-ona shakllari va F1 –F2 duragaylarining gommoz kasalligiga chidamliligi // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali.- 2012.-№8.- B.22 . 5.

1.3 Xasanov B.A., Hamraev A.Sh., Eshmatov O.T., Alimuhammedov S.N., Azimov J.A., Ochilov R.O., Rashidov M.I., Gapparov F.A. G‘o‘zani zararkunanda, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish // Toshkent. “GROTEKS”, 2002. – B. 193-205.

1.4 Abdinazarov J., “The effect of various composts on the amount of salts in the soil” Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia. PP.13-16. 11.03.2024.

2. S.Boltayev, O.Boynazarov, F.Imamov, J.Abdinazarov, B.Turdiyev, D.Artikova. Tuproq unumdorligiga noan’anaviy orgona-mineral kompostlarni qo’llash samradorligia. Life sciences and agriculture. 2021 № 3 (7). 37-53 p.

3.S.M.Boltayev, N.Abdurahimov, J.Abdinazarov, B.Turdiyev. Surxondaryoning taqir tuproqlari sharoitida ingichka tolali g’o’zani parvarishlash agrotexnologiyasida qo’shimcha

oziqlantirishning ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dozarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari nomli konferensiya ma'teriallari to'plami. T-2020. 105-107-bet.

4. Jamshid, A., & Otabek, K. (2024). THE EFFECT OF COMPOSTS ON THE YIELD OF FINE-FIBER COTTON. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(27), 239-242.

5. Jamshid, A., Saydullo, B., Otabek, P., Umida, M., & Uligberdi, K. (2022). TO STUDY THE EFFECT OF ADDITIONAL NUTRIENTS IN THE CARE OF FINE-FIBER COTTON IN THE CONDITIONS OF BARREN SOILS OF SURKHANDARYA REGION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 156-158.

6. Boltaev, S. M., Abdinazarov, J., & Yusupov, A. (2022). SURXONDARYONING TAQIRSIMON TUPROQLARI SHAROITIDA INGICHKA TOLALI G 'O 'ZANI PARVARISHLASHDA QO 'SHIMCHA OZIQALARNING TA'SIRI O 'RGANISH. World scientific research journal, 5(1), 50-54.

7. . Abdinazarov. (2024). THE EFFECT OF VARIOUS COMPOSTS ON THE AMOUNT OF SALTS IN THE SOIL. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 3(3), 13–16. Retrieved from https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/4075

8. Абдиназаров, Ж., & Болтаев, С. (2023). СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ТАҚИРСИМОН ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. AGROINNOVATSIYA, 1(1), 118-121.

9. Болтаев, С., Абдиназаров, Ж., & Ибрагимов, Х. (2023). СУРХОНДАРЁНИНГ ТАҚИР ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. Научный Фокус, 1(5), 193-196.

10. Jamshid, A., & Mahliyo, A. (2024). THE EFFECT OF APPLYING VARIOUS RATES OF COMPOST ON THE AMOUNT OF HARMFUL SALTS IN MODERATELY SALINE MEADOW-TAKIR SOILS. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(35), 277-281.

11.Абдиназаров, Ж., Паянов, О., & Каримова, К. (2024). ТАҚИРСИМОН ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ТУРЛИ КОМПОСТЛАР, ТУПРОҚНИ УМУМФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИГА ТАЪСИРИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(35), 320-325.

12. РЎЗИЕВА, И., АБДИНАЗАРОВ, Ж., & РЎЗИМУРОДОВ, Д. ASSESSMENT OF THE QUALITY OF IRRIGATED GRASSLAND SOILS. UNIVERSITETI XABARLARI, 2020,[3/1] ISSN 2181-7324.

13. Болтаев, И. Б., Аскарова, З. Ш., & Абдиназаров, Ж. А. (2015). СОДЕРЖАНИЕ ОРГАНИЧЕСКОГО УГЛЕРОДА И ВАЛОВОГО АЗОТА В ПОЧВЕ ПРИ ВНЕСЕНИИ НАВОЗА РАЗЛИЧНОЙ СТЕПЕНИ РАЗЛОЖЕНИЯ. In Актуальные вопросы развития аграрной науки в современных экономических условиях (pp. 146-147).

14. Boltayev, S. M., Abdurahimov, N., Abdinazarov, J., & Turdiyev, B. Surxondaryoning taqir tuproqlari sharoitida ingichka tolali g'o'zani parvarishlash agrotexnologiyasida qo'shimcha oziqlantirishning ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda dozarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari nomli konferensiya ma'teriallari to'plami.

15, Jamshid, A., & Otabek, X. (2024). BENTONITLI VA FOSFORITLI KOMPOSTLARNING TUPROQDAGI ZARARLI TUZLAR MIQDORIGA TA'SIRI. Научный Фокус, 2(20), 1-3.

16, Абдиназаров, Ж., & Курбанов, А. (2024, December). ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 29, pp. 80-83).

17. Jamshid, A., & Otabek, K. UOT 631.67: 631.4 DISTRIBUTION AND APPLICATION OF BIOGUM IN AGRICULTURE.

18. Jamshid, A., & Mahliyo, A. (2024, December). QO 'SHIMCHA OZIQALARNING INGICHKA TOLALI G 'O 'ZANI O 'SISH VA RIVOJLANISHDA TA'SIRI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 29, pp. 106-110).

19. Jamshid, A., & Asror, K. (2024). THE COMPOSITION OF VARIOUS COMPOSTS BASED ON BENTONITE, PHOSPHORITE, AND MANURE USED IN THE EXPERIMENT. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 4(40), 95-99.

20. Болтаев, С., Бойназаров, О., Имамов, Ф., Абдиназаров, Ж., Артиқова, Д., & Турдимов, Б. (2021). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ НЕТРАДИЦИОННЫХ ОРГАНО-МИНЕРАЛЬНЫХ КОМПОСТОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВЫ. Life Sciences and Agriculture, (3-4 (7-8)), 46-61.

21. Абдиназаров, Ж., Мурадова, Ш., & Бегалиева, Н. (2025). ТУПРОҚГА ТУРЛИ КОМПОСТ ҚЎЛЛАНИЛГАНДА ТУПРОҚНИ УМУМФИЗИК ХОССАЛАРИГА ТАЪСИРИ. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(29), 114-120.

MASHHUR O'ZBEK KOMPAZITORLARI VA ULARNING IJODI

Barshinay Matnazarova
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda musiqa san’ati rivojiga katta hissa qo‘shgan mashhur kompozitorlar va ularning ijodi tahlil qilinadi. O‘zbek musiqasining o‘ziga xosligi va zamonaviylikka intilishi orqali mamlakatning musiqa madaniyati shakllangan. Kompozitorlarning ijodida milliy an’analar va zamonaviy musiqiy uslublar uyg‘unlashuvi o‘z aksini topgan. Maqola tarixiy, madaniy va badiiy jihatlardan o‘zbek kompozitorlarining faoliyati va ularning asarlarining ahamiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek kompozitorlari, musiqa san’ati, ijod, milliy musiqa, zamonaviylik, madaniyat.*

ИЗВЕСТНЫЕ УЗБЕКСКИЕ КОМПОЗИТОРЫ И ИХ ТВОРЧЕСТВО

Аннотаци: *В данной статье анализируются известные композиторы, внесшие значительный вклад в развитие музыкального искусства Узбекистана, и их творчество. Музыкальная культура страны формировалась через самобытность узбекской музыки и ее стремление к современности. Творчество композиторов отражает сочетание национальных традиций и современных музыкальных стилей. В статье показано творчество узбекских композиторов и значимость их произведений с исторической, культурной и художественной точек зрения.*

Ключевые слова: *узбекские композиторы, музыкальное искусство, творчество, национальная музыка, современность, культура.*

FAMOUS UZBEK COMPOSERS AND THEIR WORK

Abstract: *This article analyzes famous composers who have made a significant contribution to the development of musical art in Uzbekistan and their work. The country's musical culture was formed through the uniqueness of Uzbek music and its striving for modernity. The work of composers reflects the combination of national traditions and modern musical styles. The article shows the work of Uzbek composers and the significance of their works from historical, cultural and artistic aspects.*

Keywords: *Uzbek composers, musical art, work, national music, modernity, culture.*

O‘zbekiston musiqa san’ati boy tarixga ega bo‘lib, uning rivojida kompozitorlar muhim o‘rin tutadi. Ularning ijodi milliy an’analarni saqlab qolish va yangi badiiy shakllarni yaratish orqali o‘zbek musiqasining zamonaviyligini ta’minlaydi. Ushbu maqolada o‘zbek kompozitorlarining hayoti, ijodi va musiqaga qo‘shgan hissalari yoritiladi.

Metodologiya

Maqolada tarixiy-tahliliy, komparativ va kontent-tahlil usullari qo‘llanildi. Kompozitorlarning hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi biografik ma’lumotlar, asarlarning musiqiy tahlili hamda madaniy va tarixiy kontekstda o‘rganildi. Shuningdek, arxiv materiallari, intervyular va musiqashunoslik tadqiqotlari asosida ma’lumotlar yig‘ildi.

Natijalar

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek kompozitorlari milliy musiqiy an’analarni saqlab qolish va ularni zamonaviy musiqiy shakllar bilan uyg‘unlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Mashhur kompozitorlarning ijodi, ularning hayoti va asarlari tahlil qilinib, quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishdagi hissasi

Kompozitorlar o‘z asarlarida o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga intilganlar. Masalan, Mutal Burhonovning “Shahriyor” operasi milliy epos va folklorni musiqiy tilga aylantirish orqali milliy madaniyatni boyitgan. Shu tarzda, kompozitorlarning ijodi orqali o‘zbek musiqa san’atining milliy ildizlari zamonaviy sahnaga olib chiqildi.

2. Zamonaviy musiqiy uslublar bilan uyg‘unlik

Kompozitorlar an’anaviy xalq musiqasini zamonaviy uslublar bilan birlashtirib, o‘ziga xos yangi badiiy shakllar yaratgan. Misol uchun, Dilorom Saidaminova o‘z asarlarida xalq musiqasining melodiya va ritmik xususiyatlarini saqlab qolgan holda, zamonaviy kompozitsiya texnikalaridan foydalangan. Bu o‘zbek musiqasining jahon san’ati bilan integratsiyasini kuchaytirdi.

3. Musiqiy ta’lim va pedagogik faoliyatdagi roli

Ko‘pgina mashhur kompozitorlar nafaqat ijodkor, balki musiqiy ta’lim sohasida ham faoliyat yuritib, yosh avlodni tarbiyalashga hissa qo‘shgan. Eson Karimov va Said Rustamov kabi shaxslar o‘zbek musiqa madaniyatini yosh musiqachilarga etkazishda muhim o‘rin tutdi. Ularning pedagogik ishlari milliy musiqa san’atining davomiyligini ta’minlashga xizmat qildi.

4. Jamiyat va madaniyatdagi o‘rni

Kompozitorlarning ijodi jamiyatning ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Ularning musiqiy asarlari milliy birlik va o‘zlikni mustahkamlash, madaniy o‘zlikni anglashda vosita bo‘lgan. Bu orqali musiqaning ijtimoiy ahamiyati ham o‘z ifodasini topgan.

5. Zamonaviy tendensiyalar va global integratsiya

Bugungi kunda o‘zbek kompozitorlari xalqaro musiqiy jarayonlarga faol kirib borib, yangi texnologiyalarni qo‘llashmoqda. Elektron musiqadan tortib, xalqaro musiqiy hamkorlikka qadar keng sohalarda faoliyat olib borilmoqda. Bu esa o‘zbek musiqa madaniyatining rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

6. Muammolar va rivojlanish istiqbollari

Shu bilan birga, milliy musiqa an’analarini saqlash va ularni yangi asr talablariga moslashtirishda qiyinchiliklar mavjud. Kompozitorlar milliylik va zamonaviylik o‘rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilmoqda, ammo zamonaviy tendensiyalar bilan milliy o‘zlikni yo‘qotmaslik masalasi doimiy ravishda muhokama qilinmoqda.

1. Mutal Burhonov (1916–2002)

O‘zbekistonda professional musiqaning asoschilaridan biri hisoblanadi. U operalar, simfoniyalar va qo‘shiqlar yaratgan. “Shahriyor” operasi bilan mashhur. Burhonov milliy musiqiy an’analarni zamonaviy klassik musiqaga muvaffaqiyatli integratsiya qilgan.

2. Eson Karimov (1935–2017)

Xalq musiqasi va zamonaviy kompozitsiyalarning uyg‘unligini ta’minlagan. Uning asarlari milliy ruhiyatni aks ettiradi, shuningdek, musiqa pedagogikasi sohasida ham faoliyat yuritgan.

3. Said Rustamov (1917–2003)

Milliy opera va balet san’atini rivojlantirishda katta rol o‘ynagan. Rustamovning ko‘plab qo‘shiqlari va instrumental asarlari O‘zbekiston madaniyatining asosiy qismiga aylangan.

4. Dilorom Saidaminova (1950-yillardan hozirgi kungacha)

Zamonaviy o‘zbek musiqasining yorqin namoyandasi. Uning kompozitsiyalarida xalq musiqasi va klassik musiqaning o‘ziga xos uyg‘unligi mavjud. Saydaminova o‘z asarlarida yangi musiqiy texnologiyalar va uslublarni qo‘llash bilan tanilgan.

5. Kompozitorlarning zamonaviy tendensiyalari

Bugungi o‘zbek kompozitorlari xalq musiqasi an’analarini zamonaviy uslublar bilan birlashtirishga harakat qilmoqda. Elektron musiqadan tortib, xalqaro musiqiy hamkorlikgacha keng ko‘lamda faoliyat olib borilmoqda.

Muhokama

O‘zbek kompozitorlarining ijodi milliy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, ular xalqning tarixiy va madaniy merosini zamonaviy san’atga muvaffaqiyatli moslashtirishga xizmat qiladi. Ushbu kompozitorlar milliylikni saqlab qolgan holda, yangi shakl va uslublarni kiritish orqali o‘zbek musiqasini jahon maydonida tanitishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro ta’sirlar kompozitorlarning ijodini yanada boyitmoqda, bu esa musiqaning rivojlanishida yangi ufqlar ochmoqda. Biroq milliy

musiqiy an’analarni yo‘qotmaslik, ularni asrash va rivojlantirish masalalari doimo dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xulosa

Ushbu ilmiy tadqiqot o‘zbek kompozitorlarining ijodi va ularning milliy musiqa madaniyatidagi o‘rni haqida keng va chuqur tasavvur berdi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, o‘zbek kompozitorlari milliy an’analarni saqlab qolish bilan birga, zamonaviy musiqiy shakllar va texnologiyalarni faol qo‘llash orqali musiqa madaniyatining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

- Milliy musiqa an’analarining zamonaviylik bilan uyg‘unlashuvi, ya’ni o‘zbek musiqasining xalqaro musiqiy jarayonlarga moslashishi;
- Kompozitorlarning musiqiy ta’lim va pedagogika sohasidagi faoliyati orqali yosh avlodni milliy madaniyatga yo‘naltirishlari
- Ijodkorlarning zamonaviy texnologiyalar va yangi uslublarni qo‘llab, musiqani global miqyosda targ‘ib qilishi.
- Milliylik va zamonaviylik o‘rtasida muvozanatni saqlashda duch kelinayotgan qiyinchiliklar, ba’zan milliy o‘zlikning zaiflashishi xavfi mavjudligi;
- Zamonaviy tendensiyalar tufayli xalq musiqa an’analarining to‘liq saqlanib qolishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar yuzaga kelishi;
- Resurslar va qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi sababli, ayrim iste’dodli kompozitorlarning faoliyati cheklanishi.

Tadqiqot o‘zbek musiqa madaniyatining bugungi kundagi holatini, uning rivojlanish yo‘llarini aniqroq anglashga yordam berdi. Milliy musiqiy an’analarni saqlab qolish, ularni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha tajribalar va muammolarni aniqlash, shu sohada yangi istiqbollarni belgilash imkonini yaratdi. Shu bilan birga, kompozitorlarning ijodi orqali milliy madaniyatni asrash va dunyo musiqasi maydonida o‘z o‘rnini mustahkamlash yo‘lida qanday choralar ko‘rilishi kerakligi haqida muhim xulosalar chiqarildi.

Mashhur o‘zbek kompozitorlari o‘z asarlari bilan milliy musiqa madaniyatini boyitib, uni yangi bosqichga olib chiqdilar. Ularning ijodi xalq musiqasi an’analarini zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirishda namunadir. Kelajakda ham o‘zbek musiqasining rivojida bu ijodkorlarning merosi va zamonaviy tendensiyalar asosiy o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR:

1. Xolmurodov, I. (2018). O‘zbek musiqasining rivojlanish tarixi. Toshkent: Madaniyat nashriyoti.

2. Karimov, A. (2020). Zamonaviy o‘zbek kompozitorlari. Musiqashunoslik jurnal, 3(2), 45–57.

3. Nazarov, T. (2019). Milliy musiqa va zamonaviylik. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

4. Saidaminova, D. (2022). O‘zbek musiqasida yangi yo‘nalishlar. Toshkent: San’at nashriyoti.

5. Islomov, R. (2017). O‘zbek musiqiy madaniyati va uning jahon miqyosidagi o‘rni. Musiqa va san’at, 5(1), 12–23.

“CHET TILINI O’RGATISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNING (AKT) O’RNI VA AHAMIYATI”

Nishanova Tursunoy Abdivoxidovna
Namdu Dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan. AKT vositalaridan foydalanish til o‘rganish jarayonini samarali, interaktiv va qiziqarli bo’lishiga yordam beradi. Onlayn platformalar, mobil ilovalar, multimediya resurslari orqali talaba-o‘quvchilarning nutq, eshitish, yozish va o‘qish kompetensiyalari rivojlanadi. Shuningdek, maqolada xorijiy tilini o‘rganishda masofaviy ta’lim va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning afzalliklari haqida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *xorijiy til, AKT, vosita, til o’rganish, jarayon,multimedia resurslari,kompetentsiya, masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt.*

«РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (ИКТ) В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ»

Нишанова Турсуной Абдивохидовна
Доцент Намду

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и значение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в обучении иностранным языкам. Использование ИКТ делает процесс изучения языка более эффективным, интерактивным и увлекательным. Онлайн-платформы, мобильные приложения и мультимедийные ресурсы способствуют развитию у обучающихся навыков говорения, аудирования, письма и чтения. Также рассматриваются преимущества дистанционного обучения и применения искусственного интеллекта в процессе изучения иностранных языков.*

Ключевые слова:*иностранный язык, ИКТ, средство, изучение языка, процесс, мультимедийные ресурсы, компетенция, искусственный интеллект.*

“ROLE AND IMPORTANCE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES (ICT) IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES”

Nishanova Tursunoy Abdivokhidovna
Associate Professor Namdu

Annotation:*This article explores the role and importance of information and communication technologies (ICT) in teaching foreign languages. The use of ICT tools makes the language learning process more effective, interactive, and engaging. Online platforms, mobile applications, and multimedia resources help learners develop their speaking, listening, writing, and reading skills.The article also discusses the benefits of distance learning and the integration of artificial intelligence in foreign language education.*

Key words: *foreign language, ICT, tool, language learning, system, multimedia resources, competence, artificial intelligence.*

Bugungi globallashuv davrda xorijiy tillarni o‘rganish shaxsiy va kasbiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylangan. Zamonaviy ta’lim tizimida bu jarayonni samarali tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim o‘rin egallaydi. AKT – zamonaviy ta’limning asosiy omili.Chet tilini o‘rganishda AKTdan oqilona foydalanish zarur.

AKT vositalari xorijiy tilni o‘rganish jarayonini interaktiv, individual va yuqori sifatli darajada olib borish imkonini beradi. Xususan, mazkur vositalar insonning intellektual va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqib, interaktiv va individual yondashuv asosida o‘qitish imkonini beradi.

Axborot kommunikativ texnologiyalari va ularning chet tili ta’limidagi funksiyasi. AKT vositalariga quyidagilar kiradi: kompyuterlar, mobil qurilmalar, elektron darsliklar, multimedia darsliklari va resurslari, interaktiv doskalar, internet platformalari, onlayn videodarslar, podkastlar, chat-botlar , virtual sinflar va ta’lim platformalari (masalan, Moodle, Google Classroom, Duolingo, Quizlet, Kahoot) va boshqa texnologik vositalar to‘plamidir.Ular tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish kompetensiyalarini mustahkamlashda xizmat qiladi.

AKT orqali ta’limning samaradorligi. Chet tilni o‘rganishda axborot kommunikativ texnologiyalar motivatsiyani oshiradi, ta’lim oluvchilarni mustaqil ishlashga undaydi. Masalan, videodarslar orqali talaffuzni yaxshilash, interaktiv testlar yordamida o’qituvchilar talaba-o’quvchilarni fan bo’yicha bilim darajasini baholashi mumkin. Mazkur vositalar til o‘rgatishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-Multimediali resurslar orqali audio va video materiallardan foydalanish;

- Onlayn lug‘atlar, tarjima ilovalari va yozuvni tekshiruvchi vositalardan foydalanish;

-Interaktiv topshiriqlar, testlar, o‘yinlar yordamida til kompetensiyalarini rivojlantirish;

-Virtual muloqot: bloglar, forumlar, ijtimoiy tarmoqlarda chet elliklar bilan suhbatlashish.

AKT yordamida til o‘rgatishning afzalliklariga quyidagilar kiradi:

-Individual yondashuv: Har bir ta’lim oluvchi o‘ziga mos tempda materiallarni o‘zlashtiradi;

-Motivatsiya muhitini yaratish: O‘yin elementlari va grafikalar motivatsiyani oshiradi;

-Chet tilini eshitib o‘rganish imkoniyati: Kichik axborot, suhbat, matn materiallari tahlili;

-O‘z-o‘zini nazorat qilish: Interaktiv testlar orqali bilim darajasini baholash.

O‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar:

AKT nafaqat ta’lim oluvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham yangi metodik uslublarni yaratadi. Ular quyidagilar:

-Onlayn kurslar va sertifikatlar orqali malakani oshirish;

O‘quv jarayonini masofadan turib boshqarish;

-O‘quv materiallarini tezkor tayyorlash va ishlatish imkoniga ega bo‘ladilar.

Muammolar va yechimlar. Biroq AKTni til o‘qitishdagi jarayonda qo‘llashda ba’zi muammolar ham yuzaga keladi:

-Texnik vositalar yetishmovchiligi yoki internet sifati pastligi;

-O‘qituvchilarning texnologiyadan foydalanish bo‘yicha malakasi yetishmasligi;

-O‘quvchilar e’tiborining chalg‘ishi.

Ushbi kamchiliklarni bartaraf etish uchun infratuzilmani yaxshilash, o‘qituvchilarga AKT bo‘yicha treninglar o‘tkazish va undan maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirish lozim. Albatta, talaba-o’quvchilar ham bundan mustasno emas. Jumladan, ular axborot kommunikativ texnologiyalardan faqat bilimini boyitish, kengaytirishda foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

"Chet tilini o‘qitishda infratuzilmani yaxshilash" deganda quyidagilar tushuniladi:

O‘quv-moddiy bazani yaxshilash:

-Zamonaviy darsliklar, lug‘atlar, audio-video materiallar bilan ta’minlashi;

-Interaktiv vositalar (proyektorlar, interaktiv doskalar, multimedia) o‘rnatish.

Texnologik infratuzilmani rivojlantirish:

-Til o‘rganish uchun kompyuter sinflari tashkil etish;

-Online platformalar (masalan, Duolingo, Quizlet, Zoom, Moodle) bilan integratsiya qilish;

-Internet tezligi va barqarorligini ta’minlash

Kadrlar salohiyatini oshirish infratuzilmasi:

-O‘qituvchilarni malaka oshirish kurslariga yuborish;

-Yangi metodikalarni o‘rgatish bo‘yicha treninglar tashkil qilish;

-Chet ellik mutaxassislarni jalb qilish;

-Maxsus til markazlari va laboratoriyalar;

-Til laboratoriyalari, til o'rgatish markazlari tashkil etish;

-Mustaqil mashg'ulotlar uchun til o'rganish xonalarini jihozlash.

Baholash va nazorat tizimlarini modernizatsiya qilish:

-Til darajasini baholovchi zamonaviy test tizimlari (CEFR, IELTS, TOEFL) asosida baholash;

Elektron test tizimlarini joriy qilish.

Bularning barchasi — dars sifati, o'rganish samaradorligi va chet tilini egallash imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Xorijiy tillarni o'rganishda AKT vositalarining ahamiyati beqiyosdir. Ular til o'rgatishning samaradorligini oshiradi, talaba-o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi hamda global bilim maydoniga keng yo'l ochadi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi va ta'lim oluvchi zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri va samarali foydalanishni o'z ustuvor vazifasi sifatida belgilashi zarur.

AKT vositalari chet tili ta'limini yanada samarali va zamonaviy qilishga xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi va o'quvchi bu vositalardan to'g'ri foydalanishni o'rganishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Baxodirova, M. (2021). Zamonaviy ta'limda AKTning o'rni. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali.

2.Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

3. B. Aliev, A. Xamdamov Axborot texnologiyalari va dasturlash asoslari

4. M. Qurbonov, D. Ibrohimov va boshqalar Kompyuter savodxonligi asoslari

5. Gary Beauchamp, "Teaching and Learning with ICT"

6. Dr. M. Rajendra Prasad, "ICT for Teaching and Learning"

7. Anandakrishnan M., "ICT and Education: Issues and Challenges.

8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi materiallari,"Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi".

9. UNESCO ICT in Education platformasi: https://unesdoc.unesco.org

10.Coursera, EdX, FutureLearn — AKT bo'yicha bepul kurslar mavjud

RASMLARNI QAYTA ISHLASH, SUN'IY INTELLEKT VA AQLLI ROBOTOTEXNIKA SOHALARIDAGI ILG'OR YUTUQLAR

Modullayev Jahongir Sobir o'g'li
O'qituvchi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

Annotatsiya: *Mazkur maqola tadqiqotchilarga tasvirni qayta ishlash, chuqur o'qitish, sensorlarni birlashtirish va robot ko'rishning hozirgi tendensiyalari, so'nggi yutuqlari hamda kelajak tadqiqot yo'nalishlarini taqdim etish imkonini beradi. Tasvirni qayta ishlashda sun'iy intellektdan foydalanish sohalari birma bir keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, chuqur o'qitish, robot, tasvir, tanib olish.*

Annotation: *This article offers researchers an overview of current trends, recent advances, and future research directions in image processing, deep learning, sensor fusion, and robotic vision. It also enumerates, one by one, the various application areas in which artificial intelligence is employed for image processing.*

Keywords: *Artificial Intelligence, Deep Learning, Robot, Image, Recognition.*

KIRISH

So'nggi yillarda olimlar va muhandislar raqamli tasvirni inson ko'rish tizimi kabi samarali qilish ustida izlanish olib bormoqdalar [1]. Sun'iy intellekt, chuqur o'rganish va boshqa hisoblash (soft computing) usullarini birlashtirish natijasida ilg'or tasvirni qayta ishlash algoritmlari ishlab chiqildi [1,2]. Tasvirni qayta ishlash aqlli robototexnika sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu yerda maqsad vizual ma'lumotlarga asoslangan aniq, mustahkam va intellektual boshqaruvni amalga oshirishdir [3,4,5]. Shu maqsadda robototexnikaga sensorlar va kameralar joriy etilib, qishloq xo'jaligi, biologiya va tibbiyot kabi turli sanoat tarmoqlarida innovatsion qo'llanmalar paydo bo'ldi [6,7]. Zamonaviy sanoat tizimlari turli tasvirlash qurilmalari va sensorlarning keng ko'lamli integratsiyasiga ega bo'lib, bu o'z navbatida ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonida turli xil tasvirni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan algoritmlardan foydalanishni talab etadi. Bundan tashqari, tibbiy diagnostika sohasida tasvirni qayta ishlash va sun'iy intellekt alohida o'rin tutadi, chunki ular yangi tibbiy asbob-uskunalarning samaradorligini oshiradi. So'nggi paytlarda tasvirni qayta ishlashda sun'iy intellektdan foydalanish barcha sanoat tarmoqlarida katta e'tibor qozonib, ilmiy tadqiqot hamjamiyatida eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylangan.

Obyektni aniqlash va tanib olish: Obyektni aniqlash va tanib olish robototexnikada muhim vazifalardan bo'lib, chuqur o'rganish (deep learning) tufayli amaliyotga joriy etildi.

Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan neyron tarmoqlarni o'rgatish orqali robotlar atrof-muhitdagi obyektlarni yuqori aniqlik bilan aniqlay va klassifikatsiya qila oladi.

Predictiv texnik xizmat (predictive maintenance): Predictive texnik xizmat — bu muammolar yuzaga kelishidan oldin AI va mashina o'rganish (ML) usullaridan foydalangan holda nosozliklarni aniqlashga imkon beruvchi xizmat yondashuvi. Sensorlar va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, bu algoritmlar robot komponentlari qachon ishlamay qolishi mumkinligini oldindan bashorat qiladi va shu orqali vaqtida ta'mirlash yoki almashtirish ishlarini rejalashtirish mumkin bo'ladi.

Imzo va nutqni tanib olish: Imzo (gesture) va nutqni tanib olish ham AI va ML ning robototexnikadagi muhim ilovalari hisoblanadi. Masalan, Pepper kabi robotlar inson imo-ishoralarini va nutqini tanib, ularga javob qaytarish qobiliyatiga ega bo'lib, bu ularni mijozlar xizmatida yoki sog'liqni saqlash sohasida foydali qiladi.

Robotlashtirilgan jarrohlik: Robotlashtirilgan jarrohlik operatsiyalarni bajarish usulini tubdan o'zgartirmoqda. Ilg'or algoritmlar yordamida jarroh-robotlar murakkab protseduralar davomida inson jarrohlariga yordam beradi, bu esa asoratlar xavfini kamaytirish va natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi. Jarrohlik robotlari operatsiyalarni yanada aniq va barqaror bajarish uchun AI, ML va DL texnikalaridan foydalanadi.

Tibbiyot sohasidagi ilovalar: DL usullari tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda ayniqsa foydali, chunki ular odamlarga aniqlashi qiyin bo'lgan naqshlar va xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Bu shifokorlarga tasvirlardagi nozik o'zgarishlarni aniqlash va kasallik mavjudligini erta bosqichda sezishga yordam beradi. Shuningdek, yuqumli kasalliklarni davolashda dorilarni yetkazib berish tizimlarida ML modellar — ansambl algoritmlar, qaror daraxtlari, tasodifiy o'rmon (random forest), holatga asoslangan algoritmlar va sun'iy neyron tarmoqlardan foydalangan holda dorilar samaradorligini oshirish yo'lga qo'yilgan.

Harbiy robototexnika: Harbiy operatsiyalarda robototexnika razvedka, kuzatuv va bomba xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalarni bajarishda qo'llaniladi. AI va ML algoritmlari to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilib, aniqlangan vaziyat asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi: Qishloq xo'jalikda sun'iy intellekt va mashina o'rganish yordamida mustaqil harakatlana oladigan va ekinlarga g'amxo'rlik qiladigan robotlar ishlab chiqilmoqda. Bu usullar unumdorlikni oshirib, mehnat xarajatlarini kamaytiradi. Ekish, yig'ib olish, purkash kabi jarayonlar robototexnika yordamida avtomatlashtiriladi, AI va ML algoritmlari esa ob-havo bashoratlari, sug'orish optimallashtirilishi va ekin holatini monitoring qilish kabi qishloq xo'jaligi operatsiyalarini samaradorligini oshirish uchun ishlatiladi.

Avtonom boshqaruv: AI va ML avtomobillarga yo'llarni o'z-o'zidan tanlash va harakat qarorlarini qabul qilishda yordam beradi. Masalan, avtonom avtomobillar kompyuter ko'rishi

yordamida yo‘l ustidagi to‘siqlarni aniqlaydi va ML algoritmlari sensorlar, kameralardan va GPS ma’lumotlaridan foydalangan holda yangi vaziyatlarga moslashib, navigatsiya qarorlarini qabul qiladi.

Sun’iy intellekt (AI), mashina o‘rganish (ML) va chuqur o‘qitish (DL) robototexnikaga tobora kengroq integratsiya qilinib, robotlarga vaqt o‘tishi bilan o‘rganish, moslashish va unumdorlikni oshirish imkonini bermoqda. Robototexnika va sun’iy intellekt sohalari tez sur’atlar bilan rivojlanib, birlashib bormoqda; bunda ML va DL intellektual robotlar yaratishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. AI, ML va DL dan foydalangan ilg‘or robototexnika ilovalari — avtonom transport vositalari, dron navigatsiyasi, sanoat robotlari, tibbiyot robotlari va qidiruv-qutqaruv robotlaridir. Ushbu texnologiyalar robototexnika sohasini tubdan o‘zgartirib, ilgari odamlar uchun juda murakkab yoki xavfli hisoblangan vazifalarni bajarish imkonini yaratmoqda.

Chuqur o‘qitish robototexnika uchun ayniqsa muhimdir, chunki u robotga tasvirlar, audio yozuvlar kabi katta hajmdagi sezgirlik ma’lumotlaridan o‘rganish imkonini beruvchi algoritmlar yaratishga xizmat qiladi. Bu robotga atrof-muhitni insonga o‘xshash tarzda idrok etish va tushunish, shuningdek, shu tushunchalar asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tadic, V. Study on Automatic Electric Vehicle Charging Socket Detection Using ZED 2i Depth Sensor. Electronics 2023, 12, 912. https://doi.org/10.3390/electronics12040912.

2. Al-Azzawi, A.; Lencse, G. Analysis of the Security Challenges Facing the DS-Lite IPv6 Transition Technology. Electronics 2023, 12, 2335. https://doi.org/10.3390/electronics12102335.

3. Chen, M.; Liu, T.; Xiong, X.; Duan, Z.; Cui, A. A Transformer-Based Cross-Window Aggregated Attentional Image Inpainting Model. Electronics 2023, 12, 2726. https://doi.org/10.3390/electronics12122726.

4. Han, E.; Kang, T.; Lim, M. Physiological Signal-Based Real-Time Emotion Recognition Based on Exploiting Mutual Information with Physiologically Common Features. Electronics 2023, 12, 2933. https://doi.org/10.3390/electronics12132933.

5. Chen, M.; Duan, Z.; Li, L.; Yi, S.; Cui, A. A Two-Stage Image Inpainting Technique for Old Photographs Based on Transfer Learning. Electronics 2023, 12, 3221. https://doi.org/10.3390/electronics12153221.

6. Jang, S.; Ahn, W.; Kim, Y.; Hong, H.; Pae, D.; Lim, M. Stable and Efficient Reinforcement Learning Method for Avoidance Driving of Unmanned Vehicles. Electronics 2023, 12, 3773. https://doi.org/10.3390/electronics12183773.

7. Peng, C.; Cheng, N.; Tsai, M. Application of an Output Filtering Method for an Unstable Wheel-Driven Pendulum System Parameter Identification. Electronics 2023, 12, 4569. https://doi.org/10.3390/electronics12224569.

TREATMENT WORK ACCORDING TO BACHELOR'S DEGREE STUDENT BEE FOR HUMAN ANATOMY STUDY PROGRAM REFORM TO DO

Yuldasheva Ch.T
Gulistan State University

Abstract: *This research students independent education ability development , " Qualified practice + anatomy " interdisciplinary " integration develop and daily clinical treatment treatments project based on teaching reform based on practical abilities increase for study program system to create This is aimed at research for Guiston at the university treatment work direction according to education taking a total of 120 1st year (2025) students selectively received . Study plan adapt , revise teaching content build , BOPPPS (bridge , results , pre evaluation , participation to grow through study , next " hybrid + flipped " learning based on (evaluation , conclusion) method application and " three" again three link to " based By implementing a teaching system, human anatomy and basic knowledge with related was clinical practice for man anatomy course was developed .. Course content again both professors and students by one out of the blue confession was done . That's all attention It is worth it , 2024-2025 students traditional face to face education received in 2023 to students than much high to the grades achieved (p <0.01). This results this 1st year students in the year in the group clinical application skills developed shows . One semester during study reforms done from increased then , students motivation , program done to improve oneself himself/herself management and interpersonal in communication noticeable improvements showed . From education previous in the period self management abilities for general of points statistic in terms of noticeable growth observed (p < 0.05). From this besides , students satisfaction requests results enriched teaching format , course high level activity , often teachers and students mutual attitude and general competence increase about high positive imaginations reflection led.Treatment work direction according to bachelor's degree students for " Man" "Anatomy " course in the context of of reform practical done increase noticeable positive to the results take came and this with teaching and teaching efficiency increased . Students clinical application abilities and self management abilities noticeable at the level improved , that's it with together from the course general satisfaction level up left .*

Key words: *anatomy ; mixed education ; clinical application ability ; medical education ; treatment ; online education ; self management ability .*

YASHIL IQTISODIYOTDA HUDUDIY KO‘RSATKICHLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA MONITORING MEXANIZMLARI

Ergashaliyeva Ra’noxon Farxodjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot Fakulteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-kurs talabasi ergashaliyevaranoxon@gmail.com

Anatatsiya: *Ushbu maqola yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududiy darajada joriy etish hamda uning samaradorligini baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish va monitoring mexanizmlarini tahlil qiladi. Unda yashil iqtisodiyotning mohiyati, asosiy tamoyillari va hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy yashil indikatorlarni yaratish metodologiyasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada ushbu ko‘rsatkichlarni doimiy kuzatib borish imkonini beruvchi samarali monitoring mexanizmlari hamda ulardan qaror qabul qilish jarayonida foydalanish usullari yoritilgan. Tadqiqotda xalqaro tajriba va O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinib, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar belgilangan. Maqola yashil iqtisodiyot siyosatini ishlab chiquvchilar va mutaxassislar uchun foydalidir.*

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, hududiy ko'rsatkichlar, monitoring, barqaror rivojlanish, ekologiya, iqtisodiyot, ijtimoiy, resurs samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, yashil investitsiyalar, chiqindilarni boshqarish, innovatsiya, siyosat, boshqaruv, O'zbekiston.*

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ РЕГИОНАЛЬНЫХ ИНДИКАТОРОВ И МЕХАНИЗМОВ МОНИТОРИНГА В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Эргашалиева Раънохон Фарходжон қизи

Студент 1-го курса направления «Экономика» факультета экономики Ферганского государственного университета. ergashaliyevaranoxon@gmail.com

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу теоретических и практических аспектов формирования системы индикаторов и механизмов мониторинга для внедрения и оценки эффективности принципов зеленой экономики на региональном уровне. В ней раскрывается суть зеленой экономики, ее основные принципы и важность в глобальном контексте. Особое внимание уделено методологии создания экологических, экономических и социальных зеленых индикаторов, учитывающих специфику регионов. В статье рассмотрены эффективные механизмы мониторинга для постоянного отслеживания этих показателей, а также способы их использования в процессе принятия решений. В работе проанализирован международный опыт и особенности развития зеленой экономики в условиях Узбекистана, включая нормативно-правовую базу, достигнутые успехи, существующие проблемы и перспективные направления.*

Статья будет полезна разработчикам политики зеленой экономики и специалистам.

Ключевые слова: *Зеленая экономика*, *региональные индикаторы*, *мониторинг*, *устойчивое развитие*, *экология*, *экономика*, *социальные аспекты*, *ресурсоэффективность*, *возобновляемая энергия*, *зеленые инвестиции*, *управление отходами*, *инновации*, *политика*, *управление*, *Узбекистан*.

FORMING A SYSTEM OF REGIONAL INDICATORS AND MONITORING MECHANISMS IN THE GREEN ECONOMY

Ergashaliyeva Ra'noxon Farhodjon qizi
First-year student of the Economics program, Faculty of Economics, Fergana State University
ergashaliyevaranoxon@gmail.com

Annotation: *This article analyzes the theoretical and practical aspects of forming an indicator system and monitoring mechanisms for implementing and evaluating the effectiveness of green economy principles at the regional level. It explores the essence of the green economy, its core principles, and its significance in the global context. Special attention is given to the methodology for creating ecological, economic, and social green indicators that consider regional specificities. The article discusses effective monitoring mechanisms for continuously tracking these indicators, as well as methods for using them in the decision-making process. The study analyzes international experience and the peculiarities of green economy development in Uzbekistan, including the regulatory framework, achievements, existing challenges, and promising directions. This article will be useful for green economy policymakers and specialists.*

Keywords: *Green economy, regional indicators, monitoring, sustainable development, ecology, economics, social aspects, resource efficiency, renewable energy, green investments, waste management, innovation, policy, governance, Uzbekistan.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida barqaror rivojlanish konsepsiyasi, xususan, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan yashil iqtisodiyotga o'tish global kun tartibidagi ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi global chaqiriqlar har bir mamlakatni o'z iqtisodiy siyosatini qayta ko'rib chiqishga undamoqda. Yashil iqtisodiyot, aynan shu muammolarga yechim topishga qaratilgan bo'lib, atrof-muhitga minimal zarar yetkazgan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va aholi farovonligini oshirishni maqsad qiladi.

O'zbekiston ham bu global tendensiyalardan chetda qolmay, yashil iqtisodiyotga o'tishni o'z taraqqiyotining strategik yo'nalishi etib belgilagan. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-dekabrdagi "Yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-31-son Farmoni mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi[35]. Ushbu

[35] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-dekabrdagi "Yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-31-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.12.2021, 06/21/31/1110-son.

Farmon energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda resurs samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, ekologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda, ayniqsa hududiy darajada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlar o‘ziga xos iqtisodiy tuzilishi, tabiiy resurslari va ijtimoiy-demografik xususiyatlariga ega bo‘lgani bois, ularda yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini shakllantirish va ularni monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu tizim hududiy boshqaruv organlariga barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida aniq va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar Tahlili

Yashil iqtisodiyotga o‘tish va uning hududiy ko‘rsatkichlarini shakllantirish masalasi so‘nggi yillarda dunyo miqyosida ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ushbu bo‘limda mavzuga oid asosiy ilmiy yondashuvlar, nazariyalar va amaliy tajribalar tahlil qilinadi.

Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari va xorijiy olimlar fikri: Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi 1980-yillardan boshlab shakllana boshlagan bo‘lsa-da, uning zamonaviy talqini Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit Dasturi (UNEP) tomonidan 2011-yilda chop etilgan "Yashil iqtisodiyotga tomon: barqaror rivojlanish va qashshoqlikni bartaraf etish yo‘llari" nomli hisobotida keng yoritilgan [36]. Ushbu hisobotda yashil iqtisodiyot atrof-muhit xavflarini va ekologik tanqisliklarni sezilarli darajada kamaytiradigan, ijtimoiy adolatni ta’minlaydigan iqtisodiyot sifatida ta’riflanadi.

Tim Jackson o‘zining 2009-yilda nashr etilgan "Prosperity Without Growth: Economics for a Finite Planet" (O‘sishsiz farovonlik: cheklangan sayyora iqtisodiyoti) nomli asarida doimiy iqtisodiy o‘sishning ekologik chegaralari haqida chuqur bahs yuritadi. Uning fikricha, an’anaviy iqtisodiy o‘sish modeli resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitning buzilishi sababli barqaror emas. Jackson yashil iqtisodiyotni "farovonlikka erishishning ekologik jihatdan maqbul yo‘li" sifatida ko‘rib, bu jarayonda resurslardan samarali foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish zarurligini ta’kidlaydi[37].

Ikkinchi bir muhim olim, Herman Daly, o‘zining "Steady-State Economics" (Barqaror holat iqtisodiyoti) kitobida iqtisodiyotning cheklangan ekologik tizim doirasida ishlash zarurligini ta’kidlaydi. Dalyning yondashuvi, iqtisodiy o‘sishning ma’lum bir nuqtada to‘xtatilishi va resurs iste’moli barqaror holatga keltirilishi kerakligini ilgari suradi. Uning ishlari yashil iqtisodiyotning ekologik chegaralarini belgilash va resurslardan mas’uliyatli foydalanish tamoyillarini shakllantirishda fundamental ahamiyat kasb etgan[38].

[36] United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. UNEP.
[37] Jackson, T. (2009). Prosperity Without Growth: Economics for a Finite Planet. Earthscan.
[38] Daly, H. E. (1991). Steady-State Economics (2nd ed.). Island Press.

O‘zbekiston olimlarining yondashuvi: O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot masalalari bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, professor A.V. Vahobovning "Iqtisodiy rivojlanishning ekologik muammolari va ularni hal etish yo‘llari" kabi ilmiy ishlari O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. U o‘z asarlarida respublikaning iqlimiy o‘zgarishlar, suv tanqisligi va qishloq xo‘jaligidagi ekologik muammolarini hal etishda yashil texnologiyalar va resurs tejashning muhimligini asoslagan[39]. Vahobovning tadqiqotlari O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish uchun milliy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan olimlar fikri va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy rivojlanishning sifatini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Bu tadqiqotlar yashil iqtisodiyotga o‘tishda hududiy ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish va monitoring qilishning ilmiy asoslari hamda amaliy ahamiyatini chuqur tushunishimizga yordam beradi.

Muhokama va Natijalar

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) ulushi

O'zbekiston "yashil" energetikaga o'tishda jadal sur'atlarni namoyish etmoqda. Energetika vazirining so'zlariga ko'ra, 2024-yil oxiriga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida ulushini 18 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Hatto 2023-yil 12-may kuni bu ko'rsatkich bir kunlik cho'qqida 18 foizga yetgan edi. 2030-yilgacha esa 25 GVt quvvatga ega quyosh va shamol elektr stansiyalarining ishlashi hisobiga energiya balansining 40 foizini QTEM tashkil etishi kutilmoqda. Bu ma'lumotlar hududlarda yangi investitsiyalar, texnologik innovatsiyalar va ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qilayotganini ko'rsatadi[40].

1-jadval

O'zbekistonda Qayta Tiklanuvchi Energiya Manbalari Ulushi

Ko‘rsatkich	2023-yil (haqiqiy xolat)	2024 yil (rejalashtirilgan)	2030-yil (uzoq muddatli reja)
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) ulushi(elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi umumiy xajmda)	18% (bir kunlik cho`qqi holati)	18%	40%
Qo‘shimcha QTEM quvvatlar (gigavatt,GVt)	-	2.6 GVt (qo`shimcha 2000MVt	25GVt

$N\text{-}NO_3$ (4.93 mg/kg): Not within the norm. The result is lower (4.93 mg/kg), which indicates a deficiency of the nitrate form of nitrogen or the soil may be acidic.

P_2O_5 (12 mg/kg): Not within the norm. The result is very low (12 mg/kg), which indicates a deficiency of phosphorus or the soil may be acidic.

K_2O (101 mg/kg): Not within the norm. The result is lower (101 mg/kg), which indicates a deficiency of potassium or the soil may be acidic.

Humus % (0.75%): None. Below (0.75%) indicates low organic matter.

5. Option-3 (0–30 cm)

$N\text{-}NH_4$ (7.52 mg/kg): None. Below (7.52 mg/kg) indicating ammonium nitrogen deficiency or acidic soil.

$N\text{-}NO_3$ (4.22 mg/kg): None. Below (4.22 mg/kg) indicating nitrate nitrogen deficiency or acidic soil.

P_2O_5 (19.7 mg/kg): None. Very low (19.7 mg/kg) indicating phosphorus deficiency or acidic soil.

K_2O (87 mg/kg): None. Below (87 mg/kg) indicating potassium deficiency or acidic soil.

Humus % (0.82%): The norm is absent. The result is lower (0.82%), which indicates a low level of organic matter.

6. Option-3 (30-60 cm)

$N\text{-}NH_4$ (8.12 mg / kg): The norm is absent. The result is lower (8.12 mg / kg), which indicates a deficiency of the ammonium form of nitrogen or the soil is acidic.

$N\text{-}NO_3$ (4.33 mg / kg): The norm is absent. The result is lower (4.33 mg / kg), which indicates a deficiency of the nitrate form of nitrogen or the soil is acidic.

P_2O_5 (20 mg / kg): The norm is absent. The result is very low (20 mg / kg), which indicates a deficiency of phosphorus or the soil is acidic.

K_2O (82 mg / kg): The norm is absent. The result is lower (82 mg / kg), which indicates a deficiency of potassium or the soil is acidic.

Humus % (0.76%): The norm is absent. The result is lower (0.76%), indicating a low level of organic matter.

Humus improves the soil structure, regulates water and air exchange processes, and stores nutrients for plants. According to the analyzed samples, the humus content is low, indicating a deficiency of organic matter in these soils. The humus content is 1.0-1.5%. The chemical composition of the soil plays an important role in the growth and development of plants. The content of nitrogen (N), phosphorus (P), potassium (K), and humus (organic matter) are some of the main factors determining soil fertility.

Conclusion:

Based on the above table, we can draw several conclusions and make the following recommendations: Analyze the dry matter in all soil samples, analyze the ammonium cation, nitrogen content, potassium and phosphorus content, which will allow us to determine the norm of minerals to be supplied to crops.

[1] Savich v I, Nafetdinov Sh Sh 2022 Genesis and fertility information and energy 1Assessment of soil volume 9, issue 7 (European Journal of Molecular and Clinical Medicine) p 9857-9860

[2] Hezhong D, Weijiang L, A. Egrinya E, Dongmei Z 2012 Effect of nitrogen level and yield and plant density on late-season leaf senescence of cotton in a saline field 126 (Field Crops Research Netherlands) p 137-144.

[3]Hafiza Artikova Sattorova Mahfuza Jumayev.J.J Prevent Salinization And Increase The Fertility Of Irrigated Sandy And Loamy Soil The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering (ISSN – 2689-1018) Published: March 11, 2021| Pages: 1-6 Doi:https://doi.org/10.37547/ tajabe/ Volume03Issue03-01

[4] Hafiza Artikova Sattorova Mahfuza Jumayev.J.J Jundishapur Journal of Microbiology Research Article Published online 2022 January Vol. 15, No.1 (2022) Development and Increase of Fertility of Irrigated Sandy and Loamy Soils of Bukhara Region

5. Jumayev.J.J, Zamira Atayeva Universum: chemistry and biology, #6 (108) June, 2023 Causes of soil degradation and measures to prevent it

6.Jumayev.J.J The Composition, Properties and Meliorative Situation of the Irrigated Soils in the Gijduvan District of the Bukhara Oasis ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF2022-2.889, 2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023 The multidisciplinary journal of science and technology VOLUME-3, ISSUE-5

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYACHI PEDAGOGLARNING KASBIY MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH VA ULARNING TA’LIM JARAYONIDAGI ROLI

Yuldashev Begzodjon Baxtiyorjon o‘g‘li
Ta’lim muassasasi: Xalqaro Nordik Universiteti Email: yuldashevbegzodjon0@gamil.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi pedagoglarning kasbiy ma’naviyati va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Pedagog shaxsining axloqiy qadriyatlari, kasbiy burchiga sadoqati va shaxsiy namunadorligi ta’lim sifati va tarbiyaviy samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada kasbiy ma’naviyatni yuksaltirishning samarali yo‘llari, xususan, ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlar, psixologik treninglar, mentorlik tizimi va etika asosidagi yondashuvlar keltirilgan. Shuningdek, amaliy kuzatishlar asosida oliy ta’lim muassasalarida tarbiyachi pedagoglarning ijtimoiy ta’siri, talabalar bilan munosabatlari va kasbiy ma’naviy saviyasi baholangan. Yakunda tarbiyachi pedagoglarning kasbiy va axloqiy yetukligi ta’lim-tarbiya jarayonining sifatli va samarali bo‘lishida hal qiluvchi omil ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy ma’naviyat, tarbiyachi pedagog, oliy ta’lim, tarbiyaviy jarayon, pedagogik etika, shaxsiy namunadorlik, ta’lim sifati, ma’naviy tarbiya, mentorlik, axloqiy qadriyatlar*

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida nafaqat ilmiy salohiyat, balki tarbiyaviy muhitning shakllanishi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda tarbiyachi pedagoglarning kasbiy ma’naviyatini yuksaltirish orqali ta’lim muassasalarida sog‘lom axloqiy muhitni yaratish muhim vazifa hisoblanadi.

Kasbiy ma’naviyat – bu pedagog shaxsining kasb faoliyatidagi axloqiy, ruhiy, ijtimoiy va intellektual tamoyillar majmuasi bo‘lib, u o‘zini jamiyat, talabalar va ta’lim muassasasi oldidagi mas’uliyatli shaxs sifatida anglashda namoyon bo‘ladi. Bu tushuncha nafaqat kasbga bo‘lgan sadoqat, balki unga bo‘lgan ruhiy bog‘liqlik, etik pozitsiya, ijtimoiy ong va insonparvarlik qadriyatlariga asoslangan munosabatni ham o‘z ichiga oladi.

Tarbiyachi pedagog uchun kasbiy ma’naviyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1-rasm.Tarbiyachi pedagog uchun kasbiy ma’naviyat ifodalovchi rasm

1.Axloqiy qadriyatlar tizimi – halollik, adolat, odob-axloq, empatiya, mehr-oqibat kabi ijtimoiy fazilatlar uning kasbiy faoliyatining ichki asosini tashkil qiladi.

2. Kasbga sadoqat – pedagog o‘z kasbini shunchaki ish emas, balki ijtimoiy vazifa va burch sifatida qabul qiladi; bu unga fidokorlik bilan, ijodkorlik bilan yondashish imkonini beradi.

3. Shaxsiy mas’uliyat – tarbiyachi pedagog o‘z xatti-harakatlari, nutqi, muomalasi, hatto tashqi ko‘rinishi bilan ham talabalarga namunadir. U o‘zining har bir ishida mas’uliyatli bo‘lishi zarurligini anglaydi.

4. Tarbiyaviy uslub – har bir tarbiyachi o‘ziga xos yondashuvga ega bo‘lib, bu uslub kasbiy ma’naviyat bilan uyg‘un bo‘lsa, u talabalar ongiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, hurmat va ishonchga asoslangan yondashuv orqali o‘qituvchi talabani faollikka undaydi, shaxsiy o‘sishiga hissa qo‘shadi.

Tarbiyachi pedagog aynan mana shu jihatlari bilan talabalarga namunali shaxs sifatida ko‘rinadi. U faqat bilim beruvchi emas, balki shaxsiy yetukligi, ruhiy barqarorligi, ma’naviy dunyosi bilan o‘z o‘quvchilariga ideal obraz bo‘lib xizmat qiladi. Talabalar bunday pedagogdan nafaqat ilm, balki hayotiy tajriba, odob, muloqot madaniyati, insoniy qadriyatlarni ham o‘rganadilar.

Shu sababli, kasbiy ma’naviyat – bu pedagoglik faoliyatining yuragi, uning mazmunini belgilovchi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiyachi pedagogning roli nafaqat darsdan tashqari tashkiliy ishlarda qatnashish bilan cheklanadi, balki u talabaning shaxs sifatida shakllanishi, uning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk inson bo‘lib voyaga yetishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Chunki aynan tarbiyachi pedagog – bu yosh avlodga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi, ularning hayotiy yo‘nalishini, qadriyatlar tizimini, ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi shaxsdir.

Tarbiyachi pedagog:Talabaning ruhiy-axloqiy rivoji, ya’ni o‘zini anglash, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, axloqiy me’yorlarga mos yashash kabi muhim fazilatlarida yo‘naltiruvchi bo‘ladi.Talabaning ijtimoiy faolligi, ya’ni jamoa bilan ishlash, tashabbus ko‘rsatish, jamiyat hayotida ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘shadi.Kamol topayotgan shaxs sifatida talabaga e’tibor qaratib, uning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, ijtimoiy muhitdagi holatini inobatga olib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.Ayniqsa, tarbiyachi pedagogning muloqot madaniyati, sabr-toqati, tinglash va tushunish ko‘nikmalari – talabaning ichki dunyosini tushunishga, unga ma’naviy tayanch bo‘lishga xizmat qiladi.

Bu rolni muvaffaqiyatli bajarish uchun tarbiyachi pedagog:

- har bir talaba bilan individual yondashuv asosida ishlashi,

• ishonchli, ijobiy munosabat o‘rnatishi,
• va eng muhimi, shaxsiy namunadorligi bilan tarbiya berishi zarur.

Tarbiyachi pedagog talabaga shunchaki ma’ruza qiluvchi emas, balki yashash, fikrlash, muomala qilish madaniyatini ko‘rsatib beruvchi real insoniy namunadir. U orqali talaba mehr-oqibat, mas’uliyat, halollik, ijtimoiy adolat, hamjihatlik kabi ma’naviy qadriyatlarni hayotiy misollar asosida anglab yetadi.

Shuning uchun ham tarbiyachi pedagogning roli ta’lim jarayonida bevosita ko‘rinmasa-da, tarbiya orqali yoshlarning shaxs sifatidagi shakllanishida sezilarli ta’sir kuchiga egadir. Bu rolni e’tibordan chetda qoldirish ta’limning bir tomonlama rivojlanishiga olib kelishi mumkin.



1.Ma’naviyat va ma’rifat darslari

Bu darslar pedagoglar va talabalar uchun umuminsoniy, milliy va ijtimoiy qadriyatlarni singdirish, axloqiy yetuklikni shakllantirishda asosiy vositalardan biridir. Tarbiyachi pedagoglar ushbu darslar orqali talabalarga insoniylik, adolat, halollik, vatanparvarlik kabi ma’naviy qadriyatlarni yetkazadi, o‘zlari esa bu darslar orqali o‘z ichki dunyolarini boyitadi.

2. Maxsus trening va seminarlar

Pedagoglar uchun tashkil etiladigan etika, kommunikatsiya madaniyati, stressni boshqarish, ijtimoiy-emotsional salohiyat kabi yo‘nalishlardagi seminarlar ularning kasbiy ma’naviy salohiyatini oshiradi. Treninglar orqali ular zamonaviy tarbiyaviy yondashuvlar, innovatsion metodikalar bilan tanishib, o‘z faoliyatlariga amaliy jihatdan tatbiq etadilar.

3. Mentorlik asosidagi ishlar

Katta tajribaga ega tarbiyachi pedagoglarning yosh mutaxassislarni shaxsiy namunasi, kasbiy tajribasi va maslahatlari orqali yo‘naltirishi kasbiy ma’naviyatni rivojlantirishda samarali usullardan biridir. Mentorlik o‘zaro o‘rganish, ma’naviy madaniyatni uzatish va jamoaviy ruhni kuchaytirishga xizmat qiladi.

4. O‘z-o‘zini rivojlantirish dasturlari

Har bir pedagog o‘zining ichki motivatsiyasi, kasbiy qiziqishi va intilishlari asosida mustaqil rivojlanish yo‘liga ham ega bo‘lishi zarur. Kitob mutolaasi, ilmiy maqola yozish, xalqaro tajribalarni o‘rganish, yangi kompetensiyalarni egallash – bularning barchasi kasbiy ma’naviyatni boyitadi. Bu orqali pedagog o‘zining shaxsiy axloqiy pozitsiyasini mustahkamlaydi.

5. Ochiq muloqot va fikr almashish anjumanlari

Pedagoglar o‘rtasida doimiy tarzda o‘tkaziladigan ochiq muloqotlar, kasbiy davra suhbatlari, “ma’naviyat soatlari” kabi anjumanlar ularning o‘zaro tajriba almashishi, dolzarb tarbiyaviy masalalarni muhokama qilish va kasbiy ma’naviy birdamlikni kuchaytirish imkonini beradi. Bu jarayonlar ijtimoiy muhitda ishonchli, mas’uliyatli va ongli pedagoglar jamoasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan amaliy kuzatishlar va so‘rovnoma asosidagi tahliliy ishlovlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kasbiy ma’naviyati yuqori bo‘lgan tarbiyachi pedagoglar o‘z faoliyatlarida bir necha yo‘nalishda boshqalarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega bo‘lgan. Bunday pedagoglar nafaqat o‘z ishiga sadoqatli va mas’uliyatli yondashadi, balki ijtimoiy ishonch, talabalar hurmati, hamkasblar e’tirofi kabi omillar bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy ishonch darajasi yuqori bo‘ladi.Talabalar, ota-onalar va jamoa a’zolari ular bilan erkin muloqot qiladi, maslahatlarga suyanadi, muhim tarbiyaviy muammolarni aynan ana shunday pedagoglar bilan hal qilishga intiladi.Talabalarning hurmatini qozonadi.Bunday pedagoglar o‘zlarining odilona yondashuvi, halolligi, axloqiy yetukligi bilan talabalar nazarida nafaqat ustoz, balki hayotiy namunaga aylanishadi. Ular faqat ma’ruza o‘qimaydi – ular talabaning ruhiy olami, axloqiy yo‘nalishi bilan ishlaydi.Samarali tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega bo‘ladi.Ularning bergan tarbiyasi ko‘proq ichki motivatsiyaga asoslanadi. Sababi, talabalar ular bilan bog‘liq tarbiyaviy fikrlarni chin dildan qabul qiladi. Ularning so‘zlari faqat ko‘rsatma emas, balki amaliy hayotda kuzatilgan namuna sifatida qabul qilinadi.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bunday pedagoglar nafaqat darsdan tashqari faoliyatlarda, balki talabalar hayotiy muammolarida, ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashda ham faol ishtirokchilar hurmatini va samarali tarbiyaviy ta’sir kuchini qozona olgan.

Xulosa

Tarbiyachi pedagoglarning kasbiy ma’naviyatini yuksaltirish – bu jarayon faqatgina ularning shaxsiy va kasbiy kamolotini emas, balki butun oliy ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhit va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogning kasbiy ma’naviyati yuksak bo‘lsa, u o‘z faoliyatida nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlar uchun axloqiy-ruhiy tayanch, hayotiy yo‘l ko‘rsatkichiga aylanadi. Bunday pedagoglar ta’lim muassasasi jamoasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllanishiga, o‘zaro hurmat, mas’uliyat va hamkorlik madaniyatining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Bundan tashqari, kasbiy ma’naviyati yuksak bo‘lgan tarbiyachi pedagoglar talabalarning shaxsiy va ijtimoiy kamolotiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi, ularni halollik, odillik, ezgulik kabi qadriyatlar asosida tarbiyalaydi. Bu esa ta’lim sifatining nafaqat bilim darajasida, balki axloqiy va ma’naviy jihatdan ham yuksalishini ta’minlaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch”. — T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Xodjiahmedov N.H., Qodirovna T.M. "Pedagogik mahorat". — T.: TDPU, 2019.
3. Turaqulov E., Nurmurodova D. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. — T.: Fan va texnologiya, 2020.
4. Soliyev A. “Ma’naviyat asoslari”. — T.: O‘zbekiston, 2016.
5. G‘.Yo‘ldoshev, A.Qahhorov. “Pedagogik mahorat va kommunikatsiya”. — T.: 2021.
6. Yuldashev, B. (2024). Nodavlat ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani yuksaltirish. Nordic_Press, 3(0003).
7. Yuldashev, B. (2024). MAKTAB TASHKILOTLARINI BOSHQARISHDA DIREKTOR O’RINBOSARLARNING KASBIY MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH. Nordic_Press, 3(0003).

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Акрам Хашимов
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси

Аннотация: *Хорижлик ва маҳаллий иқтисодчи олимлар томонидан тижорат банкларининг молиявий барқарорлиги ва уни таъминлашнинг методологик асослари илмий жиҳатдан тадқиқ қилинди. Банк молиявий барқарорлигини таъминлашда юридик ва жисмоний шахсларга ажратилган кредитлар бўйича шакллантирилган захиралар уларга ажратилган кредитлар бўйича шакллантирилган захира миқдорига чегара белгилаш бўйича илмий таклиф ва амалий тавсиялар шакллантирилган.*

Калит сўзлар: *Тижорат банклари, банк тизими, молия хизматлари, трансформатсия, чаканахизмат.*

Аннотация: *Финансовая устойчивость коммерческих банков и методологические основы ее поддержания были научно исследованы зарубежными и отечественными экономистами. В целях обеспечения финансовой устойчивости банка, резервов, формируемых по кредитам, выданным юридическим и физическим лицам, сформулированы научные предложения и практические рекомендации по установлению лимита размера резервов, формируемых по кредитам, выданным им.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, банковская система, финансовые услуги, трансформация, розничное обслуживание.*

Abstract: *The financial stability of commercial banks and the methodological basis of its maintenance were scientifically researched by foreign and domestic economists. In order to ensure the financial stability of the bank, the reserves formed on the loans allocated to legal entities and individuals have been formulated scientific proposal and practical recommendations on setting a limit to the amount of reserves formed on the loans allocated to them.*

Keywords: *Commercial banks, banking system, financial services, transformation, retail service.*

КИРИШ

Банкнинг ўз капитали банк фаолиятининг энг муким асоси бўлиб, у банкни ташкил қилишда хужалик ва молиявий фаолиятни молиялаштириш манбаи кисобланади. Келажакда банк капитали ривожланишни таъминлайди, рискларни

қоплаш манбаи сифатида ишлайди. Банкларнинг ўз капитали банк сектори барқарорлигини ва унинг ривожланишини таъминлайди.

Банкнинг ўз капитали бу банкни ташкил этиш жараёнида шаклланган ва кейинчалик ички ва ташки манбалар кисобидан тулдириладиган капиталдир. Банк капиталининг асосий функсиялари одатда кимоя, операцион ва тартибга солиш функсиялари билан ажралиб туради.

Таҳлил ва натижалар

Банклар ва бошка кредит ташкилотларининг молиявий барқарорлигини таъминлашда ўз капиталининг киймати ушбу молия институтларининг юқотишлари айнан капитал кисобига қопланиши лозимлиги билан белгиланади. Кўзда тутилмаган юқотишларни қоплаш учун етарли бўлган капиталнинг мавжудлиги кредит ташкилотларига нокулай вазиятда тулов кобилиятини саклаб колиш, омонатчилар ва бошка кредиторлар олдидаги мажбуриятларини бажариш имконини беради.

Аммо банк амалиётида барқарорликни таъминлаш билан боғлиқ айрим муаммолар канўзгача сакланиб колинмокда. Ана шундай муаммолардан бири банк капитал базасининг мустаҳкам эмаслиги, капиталнинг диверсификатсия даражасининг юқори эмаслиги ва капитални бошқариш самарадорлиги сифатининг пастлиги кисобланади. Хусусан, банк капитали таркибида қўшимча капиталнинг улуши никоятда паст бўлиб, жами капиталга нисбатан охирги йилларда ўртача 1 фоизни ташкил этади. Қўшимча капитал банкларнинг умумий капиталини қисқа вакт ичида кўпайтириш имконини берадиган, банк фаолиятини ривожлантиришда арзон ресурс, актив операцияларни амалга оширишда барқарор молиялаштириш манбаи уисобланишини эътиборга олсак, мазкур ҳолат банк капиталини бошқариш билан боғлиқ муаммолар мавжудлигидан далолат беради.

Банк капитали банкнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлайди, йўзага келиши мумкин бўлган юқотишларни қоплаш учун кулланилади, шунингдек, банк фаолиятининг молиявий асоси ва ресурслар манбасини ташкил қилади.

Банк капиталини бошқаришнинг мақсадлари куйидагилардан иборат бўлади:

рискларни қоплаш учун капитал етарлилигини таъминлаш;

мақсадли капитал етарлилиги коеффитсиентини белгилаш ва унга риоя қилиш;

банк акциядорлари учун зарур бўлган капитал рентабеллигини таъминлаш;

банк капиталидан самарали фойдаланиш учун ресурсларни таксимлаш; инқироз вазиятида капиталнинг етарлилигини таъминлаш.

3. Жадвал Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари капиталининг таркиби,фоизда

Кўрсаткичлар	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Устав капитали	73,7	82,1	76,5	77,2	75,2
қўшимча капитал	0,3	0,3	0,7	1,0	1,3
Захира капитали	11,0	7,5	8,9	11,9	9,2
Таксимланмаган фойда	14,9	10,1	13,8	9,9	14,3
Жами капитал	100	100,0	100	100	100

Республикамиз банк тизими капитал базасини таулил қиладиган бўлсак, устав капитали мутлак катта улушга эга бўлиб, таулил қилинган даврда 70 фоиздан юқори. Қўшимча капиталнинг улуши эса деярли сезиларсиз ауамиятга эга бўлиб, 0,3-1,3 фоизни ташкил қилади. Ушбу уолат банк тизими капитал базаси заиф эканлигидан ва қўшимча капитал даражасини ошириш лозимлигини англатади.

Мазкур муаммони банкларда чегирмалардан сунг И даражали капиталнинг учдан бир кисмидан ошмаган миқдорда аралаш турдаги мажбуриятлар асосида қўшимча капитали уажмини 15 фоизга ошириш орқали уал қилиш мумкин.

Банк капитали банкнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлайди, йўзага келиши мумкин бўлган юқотишларни қоплаш учун кулланилади, шунингдек, банк фаолиятининг молиявий асоси ва ресурслар манбасини ташкил қилади.

Банк капиталини бошқаришнинг мақсадлари куйидагилардан иборат бўлади:

рискларни қоплаш учун капитал етарлилигини таъминлаш;

мақсадли капитал етарлилиги коеффитсиентини белгилаш ва унга риоя қилиш;

банк акциядорлари учун зарур бўлган капитал рентабеллигини таъминлаш;

банк капиталидан самарали фойдаланиш учун ресурсларни таксимлаш; инқироз вазиятида капиталнинг етарлилигини таъминлаш.

Банк капиталини тўғри бошқариш ва такисмлаш банкларда молиявий ресурсларга бўлган эх,тиёжни пасайтиради, банк ҳаражатларини камайтириш имконини берганлиги боис банкнинг даромадлари кўпайишини таъминлайди, молиявий барқарорлигини оширишга ёрдам беради. Бу эса ўз навбатида, банкнинг рентабеллик кўрсаткичларига ижобий таъсир кўрсатади. Шунингдек, капитални тўғри бошқариш банкларда рискларни олдини олиш имкониятини беради. Банк рисклари барқарорликка тўғридан тўғри таъсир этувчи асосий омиллардан биридир. Банк капиталини самарали бошқариш доирасида куйидагиларни амалга оширади:

капитални режалаштириш;

капитал кийматини бошқариш;

меъёрий капитал билан операциялар;

капитални таксимлаш;

капитал етарлилигини мониторинг қилиш ва бах,олаш; капитал етарлилигини стрес-тестдан утказиш;

капитал етарлилигини таъминлаш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқиш;

капитал бўйича Ҳисоботларни тайёрлаш ва доимий назоратни амалга ошириш.

Банклар капитал базаси барқарорлигини таъминлашда мавжуд иқтисодий-молиявий вазиятни, банк тизимидаги мавжуд рискларни ва молиявий ҳолатидан келиб чиқиб, капитал етарлилиги коеффитсиентини ошириш мақсадга мувофиқдир. Мазкур рисклар муаммоли кредитлар суммасининг йириклиги, банклар фаолиятида зарарнинг вужудга келиши, активлар риск даражасининг усиши, фоиз ставкалари бўйича номутаносибликнинг йўзага келиши кабиларни ўз ичига олади.

Банк тизими барқарорлигини таъминлашдаги яна бир асосий муаммолардан бири банк тизими ликвидлилиги кўрсаткичининг барқарор эмаслиги ва катта диапазонда ўзгариши ҳисобланади. Ушбу ҳолат банк тизими ликвидлилигини бошқаришда муаммолар борлигини кўрсатади.

Банк тизимининг асосий барқарорлик кўрсаткичларидан бири бу ликвидлилик кўрсаткичлари ҳисобланади. Банк ликвидлилиги банк активлар усишини молиялаштириши ва кўзда тутилмаган (номакбўл) юқотишларсиз мажбуриятларининг ўз вактида бажарилишини таъминлашни билдиради.

Ликвидлиликни бошқариш банкнинг актив, пассив ва рискларни бошқаришда асосий жараён ҳисобланади.

Банклар ҳар йили ликвидлиликни бошқариш сиёсатини ишлаб чиқади. Мазкур хужжат банк ликвидлилигини бошқаришнинг мақсади, вазифалари, тамойиллари, ликвидлиликни бошқариш жараёнини ташкиллаштириш ва функсияларини белгилайдиган ҳамда банк ликвидлилигини самарали бошқаришга доир кўрсатмалар билан таъминлайдиган ва банкнинг таркибий тўзилмалари фаолиятини мувофиқлаштирадиган хужжатдир.

Ликвидлилик сиёсатининг асосий мақсади банк фаолиятини ташкиллаштирган ҳолда мижозлар ва кредиторларнинг олдида бўлган жорий мажбуриятларини ўз вактида ва тулик бажариш ҳамда мавжуд бўлган ресурслардан самарали, юқори даражада фойдаланилган ҳолда мижозларни кредит ресурслари билан таъминлаш, шунингдек амалдаги қонунчилик, Ўзбекистан Республикаси Марказий банки ва халқаро молия институтлари томонидан ўрнатилган нормативларга риоя қилиш ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Националные банковские системы. Учебник. Под ред. проф. В.И. Рыбина.-М.: Инфра-М, 2010. –С.49.

34. Нестеренко Е.К. Консепсия модернизации кредитной деятелности коммерческого банка. – Саратов: СГСЕУ, 2005. – С. 37-38.

35. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования. Москва. 2010 – С. 6.

36. Норт Д. Институты, институционалные изменения и функсионирование экономики. Пер. с англ. – М.: Фонд экономической книги «Начала», 1997. – С. 68.

37. Ожегов С.И.,Шведова Н.Ю. Толковый словар русского языка: 80000 слов и фразеологических выражений/ РАН. Институт русского языка им. В.В.Виноградова. 4-е изд., доп. и перераб. М.: Азбуковник, 1999. с. 841.

38. Организация деятелности сентралного банка: учебник / Г.Г.Фетисов, О.И.Лаврушин, И.Д.Мамонова.-М.: КНОРУС, 2006. -С.367

39. Овчинникова Н.Э. Адаптивная устойчивост банковской системы в условиях глобалной финансовой нестабилности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Орел. -2014. -23 стр

40. Папин Д.С. Финансовая устойчивост предприятий как фактор

стабилизации банковской системы. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва. -2006. -18 стр.

41. Полфреман Д., Форд Ф.Основы банковского дела.-М.:Инфра -М, 1996. - С- 63-67.

42. Риск-менеджмент в коммерческом банке: монография / коллектив авторов; под ред. И.В.Ларионовой.-М.:КНОРУС,2014.-456 с

43. Ротбард М. История денежного обращения и банковское дело в США. Пер. с англ. – М.: Дело, 2012.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА РИСКЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Акрам Хашимов
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси

Аннотация: *Хорижлик ва маҳаллий иқтисодчи олимлар томонидан тижорат банкларининг молиявий барқарорлиги ва уни таъминлашнинг методологик асослари илмий жиҳатдан тадқиқ қилинди. Банк молиявий барқарорлигини таъминлашда юридик ва жисмоний шахсларга ажратилган кредитлар бўйича шакллантирилган захиралар уларга ажратилган кредитлар бўйича шакллантирилган захира миқдорига чегара белгилаш бўйича илмий таклиф ва амалий тавсиялар шакллантирилган.*

Калит сўзлар:*Тижорат банклари, банк тизими, молия хизматлари, трансформатсия, чаканахизмат.*

Аннотация: *Финансовая устойчивость коммерческих банков и методологические основы ее поддержания были научно исследованы зарубежными и отечественными экономистами. В целях обеспечения финансовой устойчивости банка, резервов, формируемых по кредитам, выданным юридическим и физическим лицам, сформулированы научные предложения и практические рекомендации по установлению лимита размера резервов, формируемых по кредитам, выданным им.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, банковская система, финансовые услуги, трансформация, розничное обслуживание.*

Abstract: *The financial stability of commercial banks and the methodological basis of its maintenance were scientifically researched by foreign and domestic economists. In order to ensure the financial stability of the bank, the reserves formed on the loans allocated to legal entities and individuals have been formulated scientific proposal and practical recommendations on setting a limit to the amount of reserves formed on the loans allocated to them.*

Keywords: *Commercial banks, banking system, financial services, transformation, retail service.*

Банкнинг ўз капитали банк фаолиятининг энг муким асоси бўлиб, у банкни ташкил қилишда хужалик ва молиявий фаолиятни молиялаштириш манбаи кисобланади. Келажакда банк капитали ривожланишни таъминлайди, рискларни қоплаш манбаи сифатида ишлайди. Банкларнинг ўз капитали банк сектори барқарорлигини ва унинг ривожланишини таъминлайди.

Банкнинг ўз капитали бу банкни ташкил этиш жараёнида шаклланган ва кейинчалик ички ва ташки манбалар кисобидан тулдириладиган капиталдир. Банк капиталининг асосий функсиялари одатда кимоя, операцион ва тартибга солиш функсиялари билан ажралиб туради.

Банклар ва бошка кредит ташкилотларининг молиявий барқарорлигини таъминлашда ўз капиталининг киймати ушбу молия институтларининг юқотишлари айнан капитал кисобига қопланиши лозимлиги билан белгиланади. Кўзда тутилмаган юқотишларни қоплаш учун етарли бўлган капиталнинг мавжудлиги кредит ташкилотларига нокулай вазиятда тулов кобилиятини саклаб колиш, омонатчилар ва бошка кредиторлар олдидаги мажбуриятларини бажариш имконини беради.

Аммо банк амалиётида барқарорликни таъминлаш билан боғлиқ айрим муаммолар канўзгача сакланиб колинмокда. Ана шундай муаммолардан бири банк капитал базасининг мустаҳкам эмаслиги, капиталнинг диверсификатсия даражасининг юқори эмаслиги ва капитални бошқариш самарадорлиги сифатининг пастлиги кисобланади. Хусусан, банк капитали таркибида қўшимча капиталнинг улуши никоятда паст бўлиб, жами капиталга нисбатан охирги йилларда ўртача 1 фоизни ташкил этади. Қўшимча капитал банкларнинг умумий капиталини қисқа вакт ичида кўпайтириш имконини берадиган, банк фаолиятини ривожлантиришда арзон ресурс, актив операцияларни амалга оширишда барқарор молиялаштириш манбаи уисобланишини эътиборга олсак, мазкур ҳолат банк капиталини бошқариш билан боғлиқ муаммолар мавжудлигидан далолат беради.

Банк капитали банкнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлайди, йўзага келиши мумкин бўлган юқотишларни қоплаш учун кулланилади, шунингдек, банк фаолиятининг молиявий асоси ва ресурслар манбасини ташкил қилади.

Банк капиталини бошқаришнинг мақсадлари куйидагилардан иборат бўлади:

рискларни қоплаш учун капитал етарлилигини таъминлаш;

мақсадли капитал етарлилиги коеффитсиентини белгилаш ва унга риоя қилиш;

банк акциядорлари учун зарур бўлган капитал рентабеллигини таъминлаш;

банк капиталидан самарали фойдаланиш учун ресурсларни таксимлаш; инқироз вазиятида капиталнинг етарлилигини таъминлаш.

4. жадвал

Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари капиталининг таркиби, фоизда

Кўрсаткичлар	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Устав капитали	73,7	82,1	76,5	77,2	75,2
қўшимча капитал	0,3	0,3	0,7	1,0	1,3
Захира капитали	11,0	7,5	8,9	11,9	9,2
Таксимланмаган фойда	14,9	10,1	13,8	9,9	14,3
Жами капитал	100	100,0	100	100	100

Банк капитали банкнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлайди, йўзага келиши мумкин бўлган юқотишларни қоплаш учун кулланилади, шунингдек, банк фаолиятининг молиявий асоси ва ресурслар манбасини ташкил қилади.

Банк капиталини бошқаришнинг мақсадлари куйидагилардан иборат бўлади:

рискларни қоплаш учун капитал етарлилигини таъминлаш;

мақсадли капитал етарлилиги коеффитсиентини белгилаш ва унга риоя қилиш;

банк акциядорлари учун зарур бўлган капитал рентабеллигини таъминлаш;

банк капиталидан самарали фойдаланиш учун ресурсларни таксимлаш; инқироз вазиятида капиталнинг етарлилигини таъминлаш.

Банк капиталини тўғри бошқариш ва такисмлаш банкларда молиявий ресурсларга бўлган эх,тиёжни пасайтиради, банк ҳаражатларини камайтириш имконини берганлиги боис банкнинг даромадлари кўпайишини таъминлайди, молиявий барқарорлигини оширишга ёрдам беради. Бу эса ўз навбатида, банкнинг рентабеллик кўрсаткичларига ижобий таъсир кўрсатади. Шунингдек, капитални тўғри бошқариш банкларда рискларни олдини олиш имкониятини беради. Банк рисклари барқарорликка тўғридан тўғри таъсир этувчи асосий омиллардан биридир. Банк капиталини самарали бошқариш доирасида куйидагиларни амалга оширади:

капитални режалаштириш;

капитал кийматини бошқариш;

меъёрий капитал билан операциялар;

капитални таксимлаш;

капитал етарлилигини мониторинг қилиш ва бах,олаш; капитал етарлилигини стрес-тестдан утказиш;

капитал етарлилигини таъминлаш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқиш;

капитал бўйича Ҳисоботларни тайёрлаш ва доимий назоратни амалга ошириш.

Банклар капитал базаси барқарорлигини таъминлашда мавжуд иқтисодий-молиявий вазиятни, банк тизимидаги мавжуд рискларни ва молиявий ҳолатидан келиб чиқиб, капитал етарлилиги коеффитсиентини ошириш мақсадга мувофиқдир. Мазкур рисклар муаммоли кредитлар суммасининг йириклиги, банклар фаолиятида зарарнинг вужудга келиши, активлар риск даражасининг усиши, фоиз ставкалари бўйича номутаносибликнинг йўзага келиши кабиларни ўз ичига олади.

Банк тизими барқарорлигини таъминлашдаги яна бир асосий муаммолардан бири банк тизими ликвидлилиги кўрсаткичининг барқарор эмаслиги ва катта диапазонда ўзгариши ҳисобланади. Ушбу ҳолат банк тизими ликвидлилигини бошқаришда муаммолар борлигини кўрсатади.

Банк тизимининг асосий барқарорлик кўрсаткичларидан бири бу ликвидлилик кўрсаткичлари ҳисобланади. Банк ликвидлилиги банк активлар усишини молиялаштириши ва кўзда тутилмаган (номакбўл) юқотишларсиз мажбуриятларининг ўз вактида бажарилишини таъминлашни билдиради. Ликвидлиликни бошқариш банкнинг актив, пассив ва рискларни бошқаришда асосий жараён ҳисобланади.

Банклар ҳар йили ликвидлиликни бошқариш сиёсатини ишлаб чиқади. Мазкур хужжат банк ликвидлилигини бошқаришнинг мақсади, вазифалари, тамойиллари, ликвидлиликни бошқариш жараёнини ташкиллаштириш ва функсияларини белгилайдиган ҳамда банк ликвидлилигини самарали бошқаришга доир кўрсатмалар билан таъминлайдиган ва банкнинг таркибий тўзилмалари фаолиятини мувофиқлаштирадиган хужжатдир.

Ликвидлилик сиёсатининг асосий мақсади банк фаолиятини ташкиллаштирган ҳолда мижозлар ва кредиторларнинг олдида бўлган жорий мажбуриятларини ўз вактида ва тулик бажариш ҳамда мавжуд бўлган ресурслардан самарали, юқори даражада фойдаланилган ҳолда мижозларни кредит ресурслари билан таъминлаш, шунингдек амалдаги қонунчилик,

Ўзбекистан Республикаси Марказий банки ва халқаро молия институтлари томонидан ўрнатилган нормативларга риоя қилиш ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Националные банковские системы. Учебник. Под ред. проф. В.И. Рыбина.- М.: Инфра-М, 2010. –С.49.

34. Нестеренко Е.К. Консепсия модернизации кредитной деятелности коммерческого банка. – Саратов: СГСЕУ, 2005. – С. 37-38.

35. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования. Москва. 2010 – С. 6.

36. Норт Д. Институты, институционалные изменения и функсионирование экономики. Пер. с англ. – М.: Фонд экономической книги «Начала», 1997. – С. 68.

TOKDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR UNING HOSILDORLIKGA TA'SIRI VA QARSHI KURASH CHORA TADBIRLARI.

Razakova Ro'zigul Abdug'affor qizi
TerDMAU assistenti
Mamanazarova Maqsuda O'razaliyevna
TerDMAU assistenti
Mustafoyeva Zubayda Qayum qizi
TerDMAU talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada kasallikning o'simliklarga yetkazadigan zarari natijasida o'simliklarda kechadigan jarayonlar ,ushbu kechadigan jarayonlarning o'simlik o'sishi ,rivojlanishi va hosil siftiga ta'siri ularga qarshi kurash choralari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Zang kasalligi, uzum, hosil, o'simlik, mikroorganizim, meva, proflaktika, qarshi kurash barg, novda.*

Аннотация: *В статье рассматриваются процессы, происходящие в растениях в результате поражения болезнью, влияние этих процессов на рост, развитие растений и качество урожая, а также меры борьбы с ними.*

Ключевые слова: *Ржавчина, виноград, урожай, растение, микроорганизм, плод, профилактика, контроль лист, ветвь*

KIRISH

Tok kasalliklarga beriluvchan bo'lib, ular orasida: oidium, ya'ni un shudring, antraknoz, serkosporioz, qora chirish, bakterial rak va xloroz kasalliklari ko'p uchraydi.

Un-shudring-oidium. Kasallik qo'zg'atuvchi - Uncinula necator, Erysphales tartibi, konidiyali fazasi Oidium tuckeri deb nomlanadi. Oidium Markaziy Osiyo respublikalarida tok o'simligi zangini, mevasini, bargini zaradaydi. Kasallangan o'simlik qismlari oq, kulrang-qo'ng'ir rang bilan qoplanib, mitseliy va konidiyalar bilan o'ralgan bo'ladi . Kasallikning dastlabki belgilari yosh novdalarda hosil bo'ladi. Zamburug' mitseliysi asosan barg va kurtaklar orasida hosil bo'ladi. Ular kasallikning tarqalishida manba bo'lib hisoblanadi. Novdada erta bahordan gullashgacha yoki gullagandan keyin mitseliy hosil bo'ladi. Keyinchalik kasallik mevani, novdani va bargni zararlaydi. Kasallik erta namoyon bo'lganda, mevalar o'si-hdan to'xtaydi, qurib qolsa da, tushib ketmaydi [5]. Kasallik kech namoyon bo'lganda kasallangan mevalar yorilib ketib, urug'i ochilib qoladi. Kuzda nam ko'payib ketsa, meva chiriy boshlaydi. Novdalarda oqish-unsimon g'ubor hosil qiladi, g'ubor ostida jigarrang- qoramtir dog' hosil bo'ladi. Bunday novdalar yaxshi yog' ochlashmaydi, ulami

tezda sovuq uradi, kelgusi yili hosil yaxshi bo'lmaydi. Barglaming har ikki tomonida oqish g'ubor hosil bo'lib, keyinchalik u qo'ng'ir rangga kiradi. Oq muskat, Toifi navlari bu kasallikka beriluvchan bo'ladi. Kasallik 70% namlikda tez rivojlanadi, kasallik qo'zg'atuvchining mitseliysi 11-12°C da o'sa boshlaydi, 18 25°C da esa tez rivojlanadi. Kasallangan novda va kurtak po'stida joylashadigan mitseliy infeksiya manbayi hisoblanadi. Qarshi kurash choralari: erta bahorda, kurtaklar ochilguncha tokka ohak - oltingugurt eritmasi bilan ishlov berish, fungitsidlar bilan 3-4 marta (3-4 ta barg hosil qilguncha, gullagandan keyin, yosh meva hosil oltingugurt kukuni bilan 20-25 kg/ga miqdorda, kolloid oltingugurt bilan 9-12 kg/ga miqdorda, Topsin-M bilan 1-1,5 kg/ga, Benlayt bilan 1,5 kg/ga miqdorda ishlov berish kerak; agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish, begona o'tlarga qarshi kurash, xomtok, novda bog'lash, sog'lom o'simliklardan ko'chat tayyorlash va chidamli navlarni yetishtirish zarur[3].

Serkosporioz kasalligi. Kasallik qo'zg'atuvchi - Cercospora vilis yoh Cercospora roesleri zamburug'i bo'lib, kasallik asosan barg, novdalarni, mevabandi va mevani zararlaydi. Kasallikning belgisi - barglarning orqa tomonida yashil-binafsha rangdagi yumaloq nuqtalar hosil bo'}adi. Kasallangan mevabandi qurib qoladi va mevasi to'kilib ketadi. Uzum mevasi yashilligida quriydi. Kasallik qo'zg'atuvchi konidiyalar shaklida qurib qolgan barglarda saqlanadi [1].

Oq chirish kasalligi. Kasallik qo'zg'atuvchi Takomillashgan zamburug'lar sinfi vakili - Coniothyrium diplodiella bo'lib, konidiyali va sklerotsiyli bosqichlarda rivojlanadi. Konidiyalar piknidiyalarda hosil bo'lib, ular mevada rivojlanadi. Havo quruq bo'lganda mevada sklerosiylar hosil qiladi. O'simliklarning bargi, poyasi, novdasini zararlaydi. Mevalarning mexanik zararlanishidan kasallik kelib chiqadi. Ularda dastlab sariq, keyin

ko'k-qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi. Mevalar po'stida ko'p miqdorda piknidiyalar hosil bo'lib, ularda hosil bo'lgan piknidiyasporalar sog'lom mevalarni zararlaydi[5]. Kasallik qo'zg'atuvchi tuproqda qishlaydi. Kasallikka qarshi kurash choralari: tokzorlarni chuqur haydash, o'simliklarga bordo suyuqligi bilan (3-4%) ishlov berish, novdalami bog'lash, xomtok qilish va qirqish ishlarini o'z vaqtida o'tkazish, chidamli navlami yetishtirishdan iborat.

Antraknoz kasalligi. Bu kasallik tokning barcha yer usti a'zolarini, ayniqsa novdasini qattiq zararlaydi. Kasallangan novdalaming parenxima to'qimalari kuchli zararlanib, yog'ochlikning o'tkazuvchi naychalari sog'lom bo'ladi. Kasallangan novdalar qo'ng'ir dog' hosil qilib, chuqur yaraga aylanadi. Novdalar qorayib rivojlanmaydi, buralib ayrim joylarida qavariq yuza hosil bo'ladi. Barlardagi to'q jigarrangdagi uchburchak dog'lar to'qimalami nobud qilib, ulaming to'kilib ketishiga sabab bo'ladi. Barg bandi va tomirlarida ham yara hosil bo'ladi. To'pgul va mevalar zararlanganda, ular tez to'kilib ketadi [5]. Kasallik qo'zg'atuvchi Gloeosporium ampelophagum Sace. zamburug'i bo'lib, Melanconiales tarkibiga kiradi. Kasallik qo'zg'atuvchi vegetatsiyasi davomida konidiya hosil qilib ko'payadi. Konidiyalar zararlangan joyda qo'ng'ir rangdagi yostiqchalarda hosil bo'lib, vegetatsiya oxirida sklerosiylarga aylanadi. Erta bahorda ulardan yangi konidiyalar hosil bo'ladi. Antraknoz kasalligi issiq nam havoda tez rivojlanadi. Masalan, yomg'ir yog'gan vaqtda 24-30°C da kasallik qo'zg'atuvchining inkubatsiya davri 3--4 kun davom etadi. Respublikamiz sharoitida antraknoz kasalligi tok vegetatsiyasining birinchi yarmida, ayniqsa gullash davrida katta zarar yetkazadi. Kasallikka qarshi kurash choralari: qalamcha tayyorlashda sog'lom o'simliklardan foydalanish, agrotexnika tadbirlaridan: 0' simliklaming aeratsiya holatini hisobga olgan holda xomtok qilish, shakl berish maqsadga muvofiq, kasallik belgisi bo'lgan novdalami yig'ishtirib olib, yoqib tashlash kerak. Kimyoviy kurash maqsadida erta bahorda yoki kech kuzda 3% Ii nitrofen eritmasini purkash kerak; vegetatsiya davrida 1 % Ii bordo suyuqligi bilan 0,3% Ii mis xlorid, 0,4% Ii sinab, 50% Ii eruvchan oltingugurt eritmasidan foydalanib, 2-3 marta ishlov beriladi. Kasallikka Saperavi, Risling navlari chidamli hisoblanad [2].

Soxta un-shudring kasalligi. Kasallik qo'zg'atuvchi Fikomitsetlar sinfi vakili Plasmopara viticola zamburug'i bo'lib, parazit konidiyali va jinsiy (oospora) bosqichida rivojlanadi. Konidiya hosil bo'lishi o'simliklarning zararlangan qismida oq rangdagi mog'or hosil qilishdan boshlanadi. Mog'or tarmoqIangan konidiyaband-Iardan iborat bo'lib, vegetatsiya davomida bir hujayrali, ovalsimon, rangsiz konidiyalar hosil qiladi. Kuzga borib, o'simliklaming zararlangan qismida qishlovchi oosporalar hosil qiladi. Bahor faslida oosporalar o'sib, makrokonidiyalar hosil qiladi. Ular o'sib, zoosporaga aylanadi. Zoosporalar suv tomchisi bilan barglar yuzasiga tushib, yostiqchalar orqali o'simlikni zararlaydi. Kasallik belgilari: o'simliklaming barcha yer usti a'zolarini, bargini, novdasini, g'unchasini, gul va mevasini zararlaydi. Zararlangan barglar yuzasida dastlab burchakli yumaloq dog'lar hosil qiladi. Nam havoda barglaming orqa tomonida oq mog'or hosil bo'ladi. Old tomoni jigar, qo'ng'ir rangga kiradi. Tokning boshqa qismlari zararlanganda, ular ham oqish dog' bilan qoplanib, keyin qurib qoladi. Zararlangan mevalarda ko'kish botiq dog'lar paydo bo'lib, ular to'kilib ketadi [4] Kasallikka qarshi kurash choralari: Amerika-Yevropa duragaylari: Rkasiteli, Matrassa, Saperavi kabi navlar kasallikka chidamli hisoblanadi. Sog'lom o'simliklardan qalamcha tayyorlash, o'simliklar qoldig'idagi oosporalarga qarshi 3% Ii nitro fen bilan ishlov berish kerak.

Un-shudring kasalligi

Kurash choralari. Tok kasalliklariga qarshi kurash choralari. YAngi tokzorlarni tash-kil etishda joy tepalik quruqrog‘ erlardan tanlanishi kerak; Ko‘chat uchun qa-lamchalar antraknoz kasalligi bilan zararlanmagan tok novdalaridan tayyor-lanishi shart; Toklar simbag‘izga ko‘tarilib o‘stirilishi zarur; Tok tup-larini kasallangan qismlari kesib olinib tokzorlardan tashqariga chiqarib kuydiriladi; Kuzda toklarni ko‘mishdan oldin ularga temir kuporosini sulfat kislota qo‘shilgan 8-10 % li eritmasi bilan purkaladi; Erta ba-horda barglar yozila boshlagan paytida toklarga 1 % bardo suyuqligi purkaladi.

Kasallikni rivojlanish darajasiga qarab purkash ishlari har 10 kunda 1 marta qaytariladi; Kasallangan meva va o‘simlik qoldiqlari daladan chiqa-rib tashlanishi va qator orasini chuqur xaydash kerak; O‘z vaqtida sifatli xomtok qilib, mevali yangi novdalarni terib boylash kerak; Bordo suyuqligi-dan mis kuporosi bo‘yicha 10-15 l/ga o‘suv davrida 6 martagacha purkash tavsiya etiladi, 10 % Vektrani suspenzion konsentratidan 0,3 l/ga 3 martagacha purkash kerak, 70% li Topsin – M 10% li emulsion konsentra tidan 1 l/ga 3 martagacha sepiladi, 22,5 % Folikur BT ni 0,25 l/ga 2 martagacha purkaladi [5].

Xulosa.

Tokda uchraydigan kasalliklar — zang, unli shudring, pushti chirish, bakterial rak va antraknoz kabi turli xil infektsiyalar — uzumzorlarning sog‘lom o‘sishi va barqaror hosildorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Ushbu kasalliklar barg, novda va mevalarni zararlab, fotosintez jarayonini susaytiradi, o‘simlikni zaiflashtiradi va yakuniy hosil sifati hamda miqdorini keskin kamaytiradi.

Kasalliklarning oldini olish va ularni samarali nazorat qilish uchun kompleks yondashuv zarur: bu, eng avvalo, agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri tashkil qilish, sog‘lom ko‘chatlardan foydalanish, ekinlarni zich ekmaslik, zararlangan qismlarni yo‘qotish, rezistent navlarni tanlash va vaqtida fungitsidlar bilan ishlov berishni o‘z ichiga oladi.

Shunday yondashuv orqali tok kasalliklarining oldi olinadi, uzumzorlar samaradorligi oshiriladi va sifatli hosil yetishtirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Golovin P.N., Arsen'eva M.V. va boshqalar Практикум по общей фитопатологиию – Л. Колос, 1977.
2. Popkova K.V, Shkalikov V.A, Stroykov Yu.M, Lekomseva S.N, Skvorsova I.N. Общая фитопатология. М. Дрофа, 2005.
3. Sattarova R.K, N.T.Xakimova, E.A.Xolmuradov, A.N. Allayarov Умумий фитопатология ва микробиология Toshkent 2018
4. Cherepanova N.P. Морфология и размножение грибов. Изд-во Ленинградского Университета, 1984.
5. Sheraliyev A. Umumiy va qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi Ikkinchi nashri TOSHKENT «TALQIN» 2008

YALPIZ O'SIMLIGI AGROTEXNOLOGIYASI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI

Ibragimova Xurliman Oralbay qizi
Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute 2-kurs talabasi

Annotaciya: *Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bu insonlarda dori mahsulotlariga ruju qo'yish, unga qaramlikning paydo bo'lishidir. Kimyoviy mahsulotlar shu bilan birga dori mahsulotlari ham insonlarda turli kasallik qo'zg'atuvchilarini paydo qilishi mumkin . Ushbu maqolada ming dardga davo deb ta'riflangan tabiiy foydali mahsulot yalpiz va uning foydali xususiyatlari batafsil bayon etilgan. Yalpizdan qaysi kasalliklarda qanday foydalanish haqida aniq ma'lumotlar asosida ko'rsatmalar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *mentol, efir moyi, tog' yalpiz, vitaminlar, dori*

Аннотация: *Одной из актуальных проблем современности является зависимость людей от наркотиков. Химические продукты, как и лекарственные средства, могут вызывать у человека различные заболевания. В этой статье подробно описан полезный натуральный продукт мята перечная, которую описывают как лекарство от тысячи недугов, и ее полезные свойства. Инструкция давалась на основе конкретной информации о том, как применять мяту при каких заболеваниях.*

Ключевые слова: *ментол, эфирное масло, мята, витамины, лекарство*

Abstract: *One of the urgent problems of today is people's addiction to drugs. Chemical products, as well as medicinal products, can cause various diseases in humans. This article describes in detail the useful natural product peppermint, which is described as a cure for a thousand ailments, and its beneficial properties. Instructions were given on the basis of specific information about how to use peppermint in which diseases.*

Key words: *menthol, essential oil, spearmint, vitamins, medicine*

Mavzuning dolzarbligi: Hozirda deyarli barcha mamlakatlar aholisining ko‘p qismi o‘z sog‘lig‘i haqida qayg‘urish maqsadida dori mahsulotlaridan foydalanishi statistikada ko‘rsatilmoqda. Bilamizki, dori va shu kabi farmatsiya mahsulotlari inson tanasida bir nuqtani tiklab bersa yana bir boshqa joyda o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Shu sababli bu mahsulotlarga ruju qo‘yish tana a’zolarimizni zarar ko‘rishiga olib kelmoqda. Inson davolanish maqsadida faqat farmatsiya mahsulotlari emas balki xalq tabobatidagi foydali tabiat mahsulotlarini tanlashi undagi boshqa qo‘zg‘atuvchilardan himoyalanishga yordam beradi. Tabiat bizga yetishtirib bergan ne’matlar har tomonlama shifo va foyda manbaidir. Shu kabi ming dardga davo deyiluvchi mahsulotlardan biri albatta – yalpizdir.

Obekti va predmeti: Yalpiz — labguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumi, dorivor va efirmoyli o‘simlik. Shimoliy yarim sharning iliq iqlimli mintaqalarida 20-25 turi tarqalgan. Yevropa mamlakatlari, AQSH, Ukraina, Belarus va Shimoliy Kavkazda yalpizning taxir (achchiq) yalpiz va jingalak yalpiz, Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshqalar mamlakatlarda dalayoki suv yalpiz turlari ekiladi. O‘zbekistonda 4 turi: suv yalpiz, osiyo yalpizi, taxir (achchiq) yalpiz va jingalak yalpiz yovvoyi holda o‘sadi, Poyasi tik shoxlangan, bo‘yi 25–100 sm gacha, barglari qarama-qarshi joylashgan, rombsimon, nashtarsimon yoki tuxumsimon, gullari chala soyabonsimon to‘pgulga yig‘ilgan, binafsharang. May–oktabrda gullaydi. Yalpiz yorug‘sevar, namsevar o‘simlik. Barglarida 2,5— 3 %, gullarida 4—6 %, poyasida 0,3 % mentol (validolning tarkibiy qismi)ga boy bo‘lgan efir moyi, shuningdek, flavonoidlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar bor. [1]

Yalpiz o‘stirish uchun mo‘ljallangan maydon kuzda 25 sm chuqurlikda haydaladi. Haydashdan oldin yerga gektariga 20 tonna chirigan go‘ng va 100 kg fosfor solinadi. Yalpiz ildizpoya – qalamchadan ko‘paytiriladi. Ekishdan oldin 8-10 sm uzunlikda qalamchalar tayyorlanadi. Qalamchalar mart-aprel oylarida 10 sm chuqurlikda tayyorlangan jo‘yaklarga bir-biridan 20-25 sm masofada ekiladi. Qator oralari 60 sm bo‘lganda bir gektar yerga 7-8 mingta ildizpoya qalamchalari zarur bo‘ladi. Ekilgandan so‘ng sug‘orish egatlari olinadi va tuproq suvga to‘yingunga qadar sug‘oriladi yalpizning rivojlanib yaxshi hosil berishi muntazam sug‘orib va o‘g‘itlab turishga bog‘liq. Qalampir yalpiz organik va mineral o‘g‘itlarga juda talabchan. O‘simlik ekilgandan 17-20 kun o‘tgach yoki yon shoxlari paydo bo‘lishi bilan gektar hisobiga 40 kg dan azot, 20 kg dan kaliy o‘g‘itlari bilan oziqlantiriladi. Ikkinchi oziqlantirish shonalash fazasida 40 kg azot va 30 kg dan fosfor o‘g‘itlarini berish bilan amalga oshiriladi. Qalampir yalpiz gullash fazasida mineral o‘g‘itlarini juda ko‘p talab qilishni hisobga olib, azotli va kaliyli o‘g‘itlardan gektariga 30 kg dan qo‘llab oziqlantirish to‘xtatiladiVegetatsiya davomida birinchi va keyingi yillar gektar hisobiga 110-120 kilogramm azot, 80 kilogramm fosfor va 60 kilogramm kaliy o‘g‘iti bilan oziqlantiriladi.

Quyidagi jadvalda O‘zbekistonda moliyaviy mustaqillikka ega bo‘lgan ba’zi universitetlar keltirilgan:

Universitet nomi	Moliyaviy mustaqillik darajasi	Qo‘shimcha daromad manbalari	Xalqaro grantlar va hamkorlik
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	To‘liq moliyaviy mustaqillikka ega	Tijorat shartnomalari, xalqaro talabalar uchun kontrakt, tadqiqot loyihalari	Erasmus+, DAAD, Bank grantlari
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi	Qisman moliyaviy mustaqillikka ega	Xususiy homiylik, xalqaro hamkorlik doirasidagi loyiha mablag‘lari	Islom taraqqiyot banki, IDB grantlari
Toshkent shahridagi INHA universiteti	To‘liq moliyaviy mustaqillikka ega	Xalqaro talabalardan tushumlar, IT xizmatlari va startap loyihalari	Janubiy Koreya universitetlari bilan hamkorlik
Turin politexnika universiteti	To‘liq moliyaviy mustaqillikka ega	Tijorat loyihalari, sanoat hamkorligi orqali mablag‘ jalb qilish	Italiya hukumati va sanoat korxonalari grantlari

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti	Qisman moliyaviy mustaqillikka ega	IT xizmatlari, davlat buyurtmalari, sertifikatlash markazlari	Huawei, Cisco, Microsoft hamkorlik loyihalari

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari hozirda davlat tomonidan markazlashgan boshqaruv ostida faoliyat yuritmoqda. Universitetlarning akademik va moliyaviy mustaqilligi cheklangan bo‘lib, ularning xalqaro reytinglardagi mavqei pastligining asosiy sababi ham shu bilan bog‘liq. Dunyo tajribasiga qaraganda, universitetlarga akademik avtonomiya berilishi ta’lim sifati va innovatsion rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Ko‘plab universitetlarda professor-o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik va ilmiy bilimlari yetarli emas. O‘qitish jarayonida interaktiv va amaliy usullarning kamligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi muhim muammo sifatida qaralmoqda.O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida moliyaviy mustaqillik yetarlicha rivojlanmagan. Universitetlarning davlat budjetiga bog‘liqligi ularga mustaqil rivojlanish imkoniyatini cheklaydi. Bundan tashqari, ba’zi OTMlarda korrupsiya holatlari, ayniqsa, imtihon baholarini manipulyatsiya qilish va o‘qishga kirish jarayonlarida uchraydi..O‘zbekiston mehnat bozorining talab va ehtiyojlari bilan oliy ta’lim tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yetarlicha shakllanmagan. Ko‘plab bitiruvchilar mehnat bozoriga mos kelmaydigan mutaxassisliklarga ega bo‘lib, natijada ularning bandligi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelmoqda.O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar yetarlicha rivojlanmagan. Universitetlar tomonidan xalqaro nufuzli jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar soni past bo‘lib, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi sust. Rivojlangan mamlakatlarning oliy ta’lim tizimida ta’lim sifati, moliyaviy mustaqillik, universitetlarning avtonomiyasi va mehnat bozori bilan integratsiyaga alohida e’tibor qaratiladi. Quyida ba’zi davlatlarning oliy ta’lim boshqaruvidagi muvaffaqiyatli tajribalari va zamonaviy tamoyillar tahlil qilinadi.

Dunyoda oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha uchta asosiy model mavjud:

Model	Tavsif	Mamlakatlar
Markazlashgan boshqaruv	Davlat tomonidan qat’iy nazorat qilinadi, universitetlarning mustaqilligi cheklangan	Xitoy, Rossiya, O‘zbekiston
Avtonom boshqaruv	Universitetlarga moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan, lekin davlat tomonidan nazorat saqlanib qoladi	Germaniya, Fransiya, Yaponiya
Bozor iqtisodiyotiga asoslangan boshqaruv	Universitetlar xususiy sektor bilan yaqin ishlaydi, davlat aralashuvi minimal	AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya

Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta’limni boshqarishning samarali modellariga misollar:

Davlat	Boshqaruv usuli	Muvofaqqiyat omillari
AQSh	Universitetlar to‘liq avtonomiya va xususiy sektor bilan hamkorlikda ishlaydi	Grantlar, mustaqil boshqaruv, xususiy sektor sarmoyalari

Davlat	Boshqaruv usuli	Muvofaqqiyat omillari
Buyuk Britaniya	Universitetlar mustaqil, davlat faqat sifat nazoratini olib boradi	Ta'lim sifatini baholash tizimi, davlat va xususiy hamkorlik
Germaniya	Davlat moliyalashtiradi, lekin universitetlarga akademik avtonomiya beradi	Raqobatbardosh grant tizimi, tadqiqot universitetlari
Janubiy Koreya	OTMlar davlat va xususiy sektor hamkorligida rivojlanadi	Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, universitet va sanoat integratsiyasi

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini xalqaro tajriba asosida modernizatsiya qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

1.Universitetlarning avtonomiyasini kengaytirish – akademik va moliyaviy mustaqillik ta'minlanishi kerak.

2. Xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish – korporativ universitetlar modeli joriy etilishi lozim.

3. Ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish – universitet grant tizimlari va xalqaro ilmiy loyihalar bilan faol ishlashi lozim.

4. Ta'lim sifatini baholash tizimini yaratish – xalqaro reytinglarga mos sertifikatsiya va monitoring mexanizmlari joriy qilinishi kerak.

Xulosa O'zbekiston oliy ta'lim tizimi tub islohotlarga ehtiyoj sezmoqda. Universitetlarning avtonomiyasini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash, moliyaviy mustaqillikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi muammolarni hal qilish orqali oliy ta'lim tizimi xalqaro darajada raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, shaffof boshqaruv tizimini shakllantirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali O'zbekiston oliy ta'lim tizimi barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1.Clark, B. R. (1998). Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. Pergamon. https://doi.org/10.1016/B978-0-08-043354-2.50006-8

2. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. (2009). Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000183168

3. World Bank. (2020). Improving Higher Education in Central Asia. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/589161592542103049/improving-higher-education-in-central-asia

4. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2023). O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi. https://www.edu.uz/uz/documents

5. Marginson, S. (2016). The worldwide trend to high participation higher education: Dynamics of social stratification. Higher Education, 72(4), 413–434. https://doi.org/10.1007/s10734-016-0016-x

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ

Мирзаева Комола Нормурод кизи
Преподаватель Ташкентского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии
Аширов Алишер Исломович
Преподаватель Ташкентского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии

Аннотация: *В данной статье разрабатываются научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию управления качеством предприятий нашей страны на сегодняшний день, разработке системы управления на основе эффективного использования особенностей управления качеством в данной сфере.*

Ключевые слова: *управление, эффективность, целеустремленность, гармония экономичности и эффективности, системный подход, адаптивность и инновационность, учет человеческого фактора, наличие системы контроля и оценки, быстрота и точность принятия решений*

ВВЕДЕНИЕ

Показатели эффективности управления являются не обобщающими, а конкретными в оценке уровня функционирования системы управления. Если их ухудшение за счет увеличения численности аппарата управления сопровождается снижением уровня проблем, то это свидетельствует о повышении эффективности деятельности организации, а значит, и о повышении эффективности управления. Однако относительное снижение затрат на управление не всегда свидетельствует о повышении ее эффективности. В конечном счете эффективность управления организацией складывается из общих социально-экономических показателей и результатов ее деятельности.

Частные показатели эффективности управления также затрудняют получение полной и однозначной оценки эффективности управления организацией по различным направлениям ее деятельности. Все это приводит к необходимости поиска приемлемого интегрального показателя. Такой показатель должен отвечать следующим требованиям:

отражать конечные целевые результаты хозяйственной деятельности предприятия;

показывать уровень достижения этих результатов; фиксировать уровень затрат на управление при достижении поставленных предприятием целей.

Этот интегральный показатель экономической эффективности управления уравнивает эффективность хозяйственной деятельности с уровнем экономичности системы управления. Повышение уровня экономичности системы управления является важным фактором роста эффективности торговли. Однако само по себе повышение экономичности системы управления не дает развернутого ответа на уровень ее эффективности и может сопровождаться снижением уровня эффективности и наоборот. Поэтому предлагаемый интегральный показатель эффективности управления является произведением показателей эффективности предприятия и экономичности системы управления.

Таким образом, интегральный показатель, в отличие от частного, характеризует эффективность использования нескольких важных ресурсов, используемых и потребляемых организацией. Поэтому он занимает ведущее место в системе показателей эффективности управления.

Однако использование интегрального показателя, каким бы сложным он ни был, не способно отразить все стороны такого многогранного явления, как эффективность управления. В связи с этим интегральный показатель требует дополнения рассмотренными ранее частными показателями.

Кроме того, для объективной оценки функционирования системы управления предприятия необходимо использование и других показателей, ее описывающих, наряду с перечисленными выше, таких как:

Удельный вес административно-управленческого персонала в общей численности работников;

Удельный вес расходов на оплату труда управленческого персонала в общем фонде оплаты труда; расчетная прибыль (доход) аппарата управления на одного работника;

Расходы на управление в расчете на 1 млн сум произведенной продукции

Оценка фактической взаимосвязи между конкретными показателями эффективности управления и перечисленными определениями системы управления позволяет диагностировать систему управления, выявить пути раскрытия ее потенциала и совершенствования.

Эффективность управления — критерий, показывающий, насколько эффективно и рационально реализуется процесс управления в достижении целей организации. Факторов, влияющих на него, может быть много и они разнообразны. Отличительными чертами эффективности управления являются следующие:

1. Целенаправленность

Эффективность управления измеряется, прежде всего, степенью реализации поставленных перед организацией целей и задач. Если структура управления точно выполняет поставленные перед ней задачи, эффективность будет высокой.

2. Сочетание экономичности и эффективности

Эффективное управление должно быть направлено не только на достижение результатов, но и на обеспечение этих результатов при низких затратах. Это обеспечивает экономическую эффективность.

3. Системный подход

Эффективность управления зависит от взаимодействия каждого звена всей организационной системы. В эффективном управлении четко разделены задачи, функции и ответственность.

4. Адаптивность и инновационность

В современных условиях одним из важных признаков эффективности управления является способность быстро и рационально реагировать на изменения рынка. Внедрение новых технологий и инноваций также обеспечивает высокую эффективность.

5. Учет человеческого фактора

Эффективное управление грамотно управляет человеческими ресурсами, уделяет внимание мотивации, удовлетворенности и развитию сотрудников. В результате повышается общая производительность.

6. Наличие системы мониторинга и оценки

Эффективность управления должна регулярно контролироваться и оцениваться. Это позволит своевременно выявлять и устранять ошибки и недостатки.

7. Скорость и точность принятия решений

Эффективное управление должно обладать способностью быстро и правильно принимать решения. Эта черта обеспечивает эффективное управление организацией в различных ситуациях.

Также целесообразно сравнивать показатели, характеризующие эффективность управления, с нормативными, максимальными и средними показателями по отрасли. В этом случае указанные показатели следует сравнивать по организациям, работающим в схожих экономических и природно-климатических условиях. В других случаях необходимо вносить корректировки в показатели с учетом соответствующих факторов. Кроме того, возможно сравнение показателей эффективности управления за несколько временных периодов, в том числе при осуществлении радикальных изменений в системе управления, а также при сравнении различных вариантов системы управления.

Для оценки эффективности управления весьма перспективно сравнение достижений деятельности организации и ее системы управления с планируемыми, т.е. поставленными целями. В этом случае необходимо количественно отражать эффективность управления степенью достижения или приближения к поставленным перед системой управления целям (плану, программе). При этом предполагается, что планы и программы являются серьезными и научно обоснованными.

Реализация данного подхода предполагает определение затрат на управление (или объема используемых ресурсов) одновременно с целью следующим образом: - предельные (максимально допустимые) или - известные (фиксируемые).

Следует отметить, что метод оценки эффективности управления по уровню достижения цели имеет субъективное (постановка цели) и объективное (фактические результаты) сопоставление.

В этом методе цель может рассматриваться как нечто данное, поэтому уровень ее достижения скорее характеризует качество воздействия руководителя, чем качество (содержание) цели, которая также является результатом процесса управления. Данный подход может иметь и методические трудности, так как в силу многообразия систем управления критерии достижения целей зависят от типов задач и уровней управления. Необходимо также учитывать различный плановый характер самих целей. Практическое использование данного подхода требует разработки системы критериев и показателей достижения целей для конкретных систем управления.

В некоторых случаях мы считаем целесообразным оценивать эффективность органов управления по реализации тех или иных решений и мероприятий, совершенствованию производственной системы. При этом

источники и механизмы организации эффективности различаются в зависимости от содержания указанных решений и мероприятий.

Приведенные показатели эффективности управления можно рассматривать как показатели экономической эффективности.

При этом можно рассматривать и социальную эффективность управления, которая отражает социальные результаты управленческой деятельности. Она характеризует уровень успешности решения социальных проблем трудового коллектива и каждого работника, использования его творческих способностей, развития коллектива. Расчет показателей эффективности управления предполагает взаимосвязь полученных результатов и произведенных затрат. В этом случае в качестве социальных результатов деятельности предприятия выступают условия труда и быта, квалификация работников, организация их деятельности и мотивация. В некоторых случаях это расходы на приобретение технических средств управления, обучение и повышение квалификации работников, строительство общежитий для работников предприятия, приобретение путевок для работников на санаторно-курортное лечение и отдых и т. д. Но большая часть социальных результатов управленческой деятельности не будет зависеть от материальных затрат.

Таким образом, произведенные затраты и полученные от деятельности предприятия социальные результаты не имеют для них единой шкалы, измерителей. Кроме того, они носят косвенный и, как правило, стохастический характер. В результате показатели социальной эффективности управления, в отличие от показателей экономической эффективности, не отражаются в соотношении произведенных затрат и полученных от деятельности предприятия социальных результатов. В связи с этим целесообразно их описывать только по организаторам результатов, без затрат (ресурсов). Оценку социальной эффективности управления целесообразно проводить с помощью системы показателей, которые, на наш взгляд, можно разделить на следующие 4 группы:

показатели, характеризующие условия труда работников организации;

показатели, характеризующие социально-бытовые условия работников организации;

показатели, характеризующие квалификацию работников;

показатели, характеризующие организацию труда и стимулирование его.

Следует отметить, что эффективность управления проявляется также как условие, признак, результат, к которому должна стремиться система управления.

Выводы и предложения:

Использование показателей эффективности управления позволяет диагностировать систему управления, предупреждать отклонения в ее функционировании, выявлять причины неэффективного управления, внедрять научно обоснованное целеполагание в деятельность подразделений управления и вносить коррективы в их последующую работу.

Кроме того, это позволяет создать систему мотивации управленческого персонала, связать его оплату труда с эффективностью управленческой деятельности. В этой связи следует отметить, что согласно теории катастроф крайне важно, чтобы ответственные лица, принимающие и реализующие решения, и люди лично и материально были связаны с реализацией этих решений.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. https://lex.uz/ru/docs/3358139?ONDATE=14.05.2019%2000
2. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/02/NamDU-ARM-12654.pdf
3. https://cyberleninka.ru/article/n/korhonada-sifatni-bosh-arishning-ziga-hos-hususiyatlari
4. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/20_B_Urinov.pdf
5. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/45_Sh_Kurbaniyazov.pdf
6. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_005ff87fc6e2586.pdf

ОСОБЕННОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ

Мирзаева Комола Нормурод кизи
Преподаватель Ташкентского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии
Муминова Дилрабо
Преподаватель Ташкентского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии

Аннотация: *В статье дается комплексный анализ особенностей эффективности управления на предприятиях и в организациях, видов управления, путей повышения эффективности управления.*

Ключевые слова: *управление, менеджмент, эффективность, затраты, материальные ресурсы, финансовые ресурсы, трудовые ресурсы, организационный фактор, социально-экономический фактор, психологический фактор, технический фактор, физиологический фактор*

ВВЕДЕНИЕ

Внедрение и совершенствование организационного управления обуславливает необходимость использования конкретных мер по определению эффективности этой деятельности. В связи с этим целесообразно использовать понятие «эффективность управления».

Эффективность управления — сложная категория, отражающая взаимосвязь и взаимодействие результатов управленческой деятельности и произведенных при этом затрат (использование материальных, финансовых, трудовых и других ресурсов). Функциональная роль процесса управления заключается в отражении уровня и динамики его развития, качественных и количественных сторон процесса управления.

Эффективность управления — многогранная категория. Она отражает специфические особенности социально-экономических и других явлений.

Эффективность управления формируется под воздействием ряда факторов, которые можно классифицировать по следующим признакам.

По содержанию они делятся на организационные, социально-экономические, психологические, технические, физиологические.

По форме воздействия они различаются на прямые и косвенные. Первые оказывают прямое влияние на эффективность управления, вторые — косвенное.

По продолжительности воздействия они делятся на краткосрочные и долгосрочные. Одни факторы напрямую связаны с эффективностью управления, другие — обратно.

По характеру воздействия они делятся на интенсивные и экстенсивные. Первые обеспечивают рост эффективности управления за счет мобилизации внутренних ресурсов, то есть совершенствования организации труда управленческого персонала и улучшения его условий, повышения квалификации управленческого персонала. Вторые предполагают привлечение дополнительных ресурсов и увеличение численности управленческого персонала.

Каждый из перечисленных факторов может влиять на систему управления как в отдельности, так и в сочетании с другими. При положительном совместном эффекте они обеспечивают существенное повышение эффективности управления (за счет синергетического эффекта), а при отрицательном — снижают ее. Роль управления заключается в системном воздействии на перечисленные факторы. Повышение эффективности должно быть объектом постоянной управленческой деятельности на всех уровнях организации.

Эффективное функционирование системы управления организацией подразумевает, что каждый ее элемент (организационная структура, персонал, методы и процессы управления, документооборот и т. д.) соответствует определенным требованиям, предъявляемым к нему. Кроме того, он соответствует системе управления в целом, ее целям и задачам, а также элементам системы, с которыми он непосредственно связан.

Кроме того, в современных условиях на эффективность управления организациями, особенно коммерческими, существенное влияние оказывает состояние их внешней среды.

Экономическая эффективность управления отражает экономическую сущность управленческих отношений. По сути, это соотношение полученных экономических результатов и затрат (использованных ресурсов) на управленческую деятельность, отраженное в переменных величинах (показателях).

Использование этого подхода требует, прежде всего, определения результативной составляющей эффективности управления, то есть результатов

этой деятельности, ее продукта. Однако выделить ее в чистом виде, то есть измерить напрямую, невозможно. Измерить таким образом можно только продукт деятельности технического персонала и отдельных специалистов, постоянно занятых теми или иными стандартизированными трудовыми операциями. О результатах деятельности линейных и функциональных руководителей, многих специалистов и системы управления в целом невозможно мыслить в терминах количества затраченного труда или объема переработанной информации. Дело в том, что они не существуют в виде конкретных материальных результатов. Конечным продуктом управленческой работы можно считать совокупность управленческих решений, но не информационные решения, то есть решения, принимаемые руководителями. Предполагается, что решения органов управления научно обоснованы и направлены на удовлетворение экономических потребностей. Более того, результаты управленческой деятельности часто отделяются от времени, затрачиваемого на управленческую работу. В конечном счете, они не отделяются только от результатов системы управления. Таким образом, результаты управленческой деятельности лишь косвенно отражаются в результатах деятельности организации или подразделения. В этом случае конечными показателями деятельности или показателями экономической эффективности деятельности организации могут считаться: валовой доход, прибыль, уровень рентабельности, объем производства, товарооборот и т. д. В этом случае выдвижение прибыли как отражения конечного результата деятельности организации автоматически отодвигает остальные результаты на второй план. Управленческая деятельность, направленная на увеличение указанных результатов, способствует повышению экономической эффективности системы управления.

Второй, затратной составляющей управления организацией являются соответствующие трудовые, материальные и финансовые затраты или ресурсы, обеспечивающие поддержание и функционирование системы управления, используемые в процессе управления. Эти затраты не связаны напрямую с производством (торговлей) и считаются расходами на управление. Расходы на управление входят в состав производственных (коммерческих) затрат. Расходы на управление объективно определяются содержанием, объемом, масштабом функций управления, выполняемых конкретным субъектом, уровнем научной организации управленческого труда, технологией реализации управленческих процессов, квалификацией руководителей предприятий и т. д.

В структуре расходов на управление важными статьями являются: расходы на оплату труда руководителей и других работников, обслуживающих аппарат управления; расходы на управленческое оборудование; текущие расходы на эксплуатацию системы управления.

Решение этих задач требует соответствующих методических корректировок. Например, целесообразно изменить учет расходов в сфере управления, включив в него все расходы, связанные с управленческой деятельностью. В целом необходимо наладить достоверный учет и калькулирование всех затрат на реализацию функций управления и связи конкретных объектов.

Могут использоваться два основных метода расчета показателей определения экономической эффективности управления: затратный и ресурсный.

Первый метод, а соответственно и показатель, характеризующий экономическую эффективность управления, называется затратным. Он основан на отношении совокупных или конечных экономических результатов деятельности предприятия к совокупным затратам на управление.

Вторым методом оценки экономической эффективности управления является ресурсный, который отражает отношение общих или конечных результатов деятельности предприятия к объему используемых ресурсов, например, к численности административно-управленческого персонала:

Следует отметить, что если при анализе форм эффективности управления учитывать динамический аспект, то достоверность показателей эффективности возрастает. Это объясняется следующим. Во-первых, определения социальных и экономических процессов остаются неизменными во времени. Во-вторых, различные варианты мероприятий имеют разную направленность по динамике результатов и затрат. В-третьих, существуют временные сдвиги, которые существенно влияют на эффективность вариантов бизнес-решений. Целесообразно также рассматривать показатели эффективности управления в динамике, фиксируя и сравнивая изменения за два и более периодов. В этом случае имеет место «динамическая» эффективность управления.

Динамика экономической эффективности управления также описывает сравнение этих показателей в двух и более периодах, давая показатель относительного изменения эффективности управления, выраженный в процентах:

Упомянутые динамические показатели целесообразно рассчитывать повторно при внедрении кардинального изменения системы управления организацией, при сравнении различных вариантов совершенствования систем управления.

Выводы и предложения:

Важно определить уровень затрат по управлению. Известно, что полученная ситуация отличается возведением снижения затрат на управление в абсолютный принцип, выдвижением его в качестве универсального средства адекватной оценки процесса управления. В то же время такую экономию часто считают ложной, поскольку она скрыта потерями из-за недостатков системы управления. Важнее достижение высоких конечных результатов в деятельности организации. Также важно учитывать единство «полезного» эффекта системы управления в целом или ее отдельных звеньев, или относительное снижение затрат на управление для реализации определенных задач и решений. Таким образом, необходимо обратить внимание на необходимость поиска научно обоснованного уровня затрат на управление.

При этом в условиях ограниченности финансовых ресурсов большое значение приобретает экономия управленческих расходов, что, в частности, требует применения соответствующих форм и методов управления.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. https://lex.uz/ru/docs/3358139?ONDATE=14.05.2019%2000
2. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/02/NamDU-ARM-12654.pdf
3. https://cyberleninka.ru/article/n/korhonada-sifatni-bosh-arishning-ziga-hos-hususiyatlari
4. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/20_B_Urinov.pdf
5. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/45_Sh_Kurbaniyazov.pdf
6. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_005ff87fc6e2586.pdf

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN SPORTCHILARNING HISSIY-EMOTSIONAL MUAMMOLARI

Maxamatova Dildora Orifovna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Sport psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi (maxamatova.dildora91@gmail.com) orcid 0009-0003-5022-0984

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarning hissiy-emotsional muammolari tahlil qilingan. Nogironlikning psixologik oqibatlari, sportchilarning ruhiy holati, sportning reabilitatsiya vositasi sifatidagi ahamiyati, emotsional intellektning o‘rni va psixologik yordamning zarurligi keng yoritilgan. Shuningdek, emotsional intellektni rivojlantirish usullari hamda sportchilarda stressni boshqarish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga qaratilgan strategiyalar tavsiya qilingan.*

Kalit so’zlar: *Jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilar, psixoemotsional holat, emotsional intellekt, sport psixologiyasi, stressni boshqarish, motivatsiya, psixologik yordam,ijtimoiy moslashuv, o‘ziga ishonch*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются эмоционально-психологические проблемы спортсменов с ограниченными физическими возможностями. Подробно анализируются психологические последствия инвалидности, состояние спортсменов, роль спорта как средства реабилитации, значение эмоционального интеллекта и необходимость системной психологической поддержки. Также предложены методы развития эмоционального интеллекта и стратегии управления стрессом и повышения уверенности у спортсменов.*

Ключевые слова: *Спортсмены с ограниченными физическими возможностями, психоэмоциональное состояние, эмоциональный интеллект, спортивная психология, управление стрессом, психологическая поддержка, социальная адаптация, уверенность в себе*

KIRISH

Ilmiy nazariyaga ko‘ra, nogironlik bu shaxsning doimiy yoki uzoq muddatli, to‘liq yoki qisman mehnat qobiliyatini yo‘qotgan holatini ifodalaydi. Aniq ifodalangan funktsional buzilishlar davolash tadbirlari ta’sirida tiklanmaydi va kasb (mutaxassislik) bo‘yicha ish bajarishga to‘sqinlik qiladi. Bu buzilishlar ko‘pincha o‘zida kamchilik his qilish bilan bog‘liq ruhiy buzilishlarga olib keladi. Nogironlik insonning psixoemotsional holatiga juda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jarohatdan keyin shaxsning psixologik qayta shakllanishi asabiylashish,

portlashga moyillik, ruhiy va jismoniy jarayonlarning tez charchashi bilan namoyon bo‘luvchi astenonevrotik sindrom mavjudligi bilan tavsiflanadi. “Jismoniy imkoniyati cheklanganlarning psixikasi harakat apparatidan tegishli miya bo‘limlariga ma’lumot yetib kelmasligi natijasida yuzaga keladigan cheklovlar va bir qator harakatlarni bajarishning imkonsizligi tufayli kuchli zarar ko‘radi. Jarohat natijasida rivojlanayotgan patologik jarayonlar, bir tomondan, organizmning yaxlitligi va tabiiy ishlashini buzadi, boshqa tomondan esa nogironlarda psixologik kamchilik komplekslarini keltirib chiqaradi. Bu komplekslar xavotir, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish, passivlik, izolyatsiya yoki aksincha, egotsentrizm, tajovuzkorlik, ba’zan esa antisotsial qarashlar bilan tavsiflanadi” [1; 156-b.]. Bu fikrni tahlil qilar ekanmiz, shuni aytishimiz mumkinki jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarning psixoemotsional holati ko‘p jihatdan ularning hayotdagi tajribalari, jamiyatdagi munosabatlar, sportdagi muvaffaqiyatlari va ularga qo‘yilayotgan talablar bilan bog‘liq. Sportchilar uchun sport nafaqat jismoniy, balki ruhiy va hissiy tiklanish vositasi hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan sportchilarda muvaffaqiyatli chiqishlar ularda o‘ziga ishonchni oshiradi va hayotga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ammo ba’zi hollarda jarohatlar yoki cheklovlar ularni o‘z imkoniyatlariga shubha bilan qarashga majbur qilishi mumkin. Bu esa qo‘shimcha psixologik yordamni talab qiladi. Musobaqalardan oldin yoki ularning davomida sportchilar o‘zlarini o‘ta kuchli ruhiy bosim ostida his qilishlari mumkin. Bu, ayniqsa, jamiyatning ularga nisbatan noto‘g‘ri qarashlari yoki ular o‘zlarini boshqalardan pastroq his qilishidan kelib chiqadi. Sportchilarning jamoa bilan ishlashi va murabbiylar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi bu stressni kamaytirishga yordam beradi. Sport ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida ularning psixoemotsional holatiga ijobiy ta’sir qiladi. Musobaqalarda qatnashish va yangi tanishlar orttirish orqali ular jamiyat bilan faol muloqot qiladilar. Ammo ba’zi sportchilar cheklovlari tufayli ijtimoiy izolyatsiyaga uchrashi mumkin. Bu ularning psixologik barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Murabbiylarning ruhiy qo‘llab-quvvatlashi va oilaning ishtiroki sportchilarning ruhiy holatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ijobiy fikr-mulohaza va motivatsiya sportchilarni yanada ishonchli va barqaror bo‘lishga undaydi.

Depressiya, tashvish va o‘zini qadrsiz his qilish kabi holatlar jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilar orasida uchrab turadi. Bunday sportchilar uchun individual psixologik yordam va motivatsion mashg‘ulotlar o‘tkazish muhimdir. Sport mashg‘ulotlari stressni kamaytirish, o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish va umumiy emotsional barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sportchilar o‘z maqsadlariga erishishda qat’iyat va sabot ko‘rsatish orqali hayotdagi boshqa sohalarda ham ijobiy natijalarga erishadilar. Umuman olganda, jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarning

psixoemotsional holatini yaxshilash uchun ular bilan individual yondashuv asosida ishlash va psixologik yordamni tizimli ravishda amalga oshirish zarur.

Jismoniy imkoniyati cheklangan odamlar duch keladigan muammolardan biri – nogironlik sababli ularga "yorliqlar osilishi". Bunday vaziyatda odamlarning intellekti, ijtimoiy kompetentligi, hazil tuyg‘usi, qobiliyatlari va boshqa fazilatlari jamiyat tomonidan e’tibordan chetda qoladi. Odamlar nogironlikni ommaviy axborot vositalarida shakllantirilgan tasavvurlar asosida qabul qilishga moyildirlar.

Ta’kidlanishi kerakki, ommaviy axborot vositalarida aks etgan salbiy obrazlardan farqli o‘laroq, imkoniyati cheklangan sportchilar obrazi ko‘pincha ijobiy shakllanadi. Jamiyat uchun imkoniyati cheklangan sportchilar odatiy faoliyatlarni, masalan, maktabga yoki mashg‘ulotlarga borishni amalga oshirgan taqdirda ham ko‘pincha qahramonlar sifatida qabul qilinadi. Jamiyatning imkoniyati cheklangan sportchilarni musobaqalarda qatnashib, oddiy hayot kechirayotgan bo‘lsa-da, qahramonlar deb bilishi yana bir stereotipdir. Ushbu stereotipni o‘zlari sportchilar ko‘pincha tushunmaslik bilan qabul qiladilar. Ular o‘z sportdagi muvaffaqiyatlarini oddiy sport yutuqlari sifatida ko‘radilar [2].

Shunday qilib, jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilar sport bilan mashg‘ul bo‘lishni o‘zlarini ulug‘lash uchun emas, balki shaxs sifatida rivojlanish va sport natijalariga erishish uchun tanlaydilar.

Sportchi psixologlari ular bilan ishlashda, avvalo, sportchining imkoniyatlari va qobiliyatlariga e’tibor qaratishlari lozim, nogironlikka emas. Bu yondashuv sportchilarni yanada motivatsiyalash va ularga o‘z salohiyatini to‘liq namoyish etishga imkon beradi. Paralimpiya sportchilari bilan kommunikatsiyadagi ba’zi qiyinchiliklar, bizning fikrimizcha, nogironligi bo‘lgan sportchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlashning eng muhim jihatlaridan biridir.Biz paralimpiya sportchilari bilan o‘zaro munosabatda psixolog-mutaxassis kommunikatsiyasining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatamiz:

- Psixolog va sportchi o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatish va munosabatlarda zarur ishonch darajasiga erishish uchun ko‘proq vaqt talab etiladi;
- Psixologning kommunikativ sifatlariga nisbatan yanada qat’iy professional talablar qo‘yiladi;

Psixologlar imkoniyati cheklangan sportchilar bilan o‘ziga xos muloyimlik va etikaga rioya qilishi, shu bilan birga, muloqotning erkinligi va tabiiyligini ta’minlashi zarur.

Shundan kelib chiqib, nogironligi bo‘lgan sportchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash, umuman olganda, sog‘lom sportchilarni qo‘llab-quvvatlashga nisbatan ko‘proq mehnat talab etadigan jarayon ekanligini xulosa qilish mumkin. Bu, ko‘p jihatdan, psixologik qo‘llab-quvvatlashning keng ko‘lamli vazifalari, masalan, psixologik profilaktika kabi funksiyalar bilan bog‘liq bo‘lishi bilan belgilanadi. Shu jumladan, sportchilarda turli noqulay holatlarning oldini olish profilaktikasi ham shular jumlasidandir [3].

"Harakat-tayanch tizimi shikastlangan, yuqori darajadagi sport bilan shug‘ullanuvchi nogironlar, o‘xshash somatik patologiyaga ega, ammo sport bilan shug‘ullanmaydigan nogironlarga nisbatan ijtimoiy jihatdan ko‘proq moslashgan va hayot sifati yuqoriroq" [4; 23-b.]. Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarning psixoemotsional holati quyidagicha namoyon bo’lmoqda harakat tizimining buzilishlariga ega bo‘lgan sportchilar sport bilan shug‘ullanmaydigan xuddi shunday xususiyatlarga ega odamlarga qaraganda psixosotsial moslashuvchanlik va hayot sifatining yuqori ko‘rsatkichlariga ega. Shuningdek, ularning shaxsiy xususiyatlar tuzilmasida sezilarli farqlar mavjud. Masalan, faol sport bilan shug‘ullanadigan nogironlar, asosan, konstruktiv koping-strategiyalarni qo‘llaydilar, yuqori o‘z-o‘zini baholash darajasiga ega.

Nogironligi bo‘lgan sportchilarning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bir tomondan, ular muloqotda yopiqroq, haqiqatni pessimistik qabul qilishadi, o‘z kuchlariga yetarlicha ishonmaydilar, tahdidga nisbatan yuqori sezgirlikka ega va ko‘pincha e’tibor markazida bo‘lmaslikni afzal ko‘radilar. Boshqa tomondan esa, ularda o‘z-o‘zini nazorat qilish va intizom darajasi pastroq bo‘lib, ular ko‘proq tartibsiz va hissiy jihatdan o‘zgaruvchan. Tadqiqot muallifi ayniqsa paralimpiya sportchilarining shaxsiyatining regulyativ xususiyatlari pastligini ta’kidlaydi, bu ularning rejalashtirish qobiliyati zaifligini va xatti-harakatlarining ko‘proq bir zumlik istaklar bilan belgilanayotganini ko‘rsatadi [5].

Bir guruh mualliflarning fikriga ko‘ra, paralimpiya sportchilarida o‘zlarini yetarlicha to‘laqonli shaxs sifatida his qilmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy buzilishlar tez-tez uchraydi. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asteniya sindromi, ya’ni ortiqcha asabiylashish, tez jahldorlik, va odatiy faoliyatdan charchash bilan tavsiflanadi; sezgi deprivatsiyasi, bu qator harakatlarni bajara olmaslik bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lumotning miya tegishli bo‘limlariga yetib borishini cheklaydi; xavotir va passivlik; shuningdek, odatda atrofdagilarga nisbatan dushmanlik bilan namoyon bo‘ladigan va past o‘z-o‘zini baholashdan kelib chiqadigan antisosial qarashlar [6].

Jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarda quyidagi psixologik qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin: ko'pincha nogironliklariga sabab bo'lgan yoki ularni kuchaytiradigan travmatik hodisalarni boshdan kechirishadi bu tashvish va g'azab kabi psixologik qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin; sportchilar o’z nogironliklarini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, bu esa tushkunlik va o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishiga olib kelishi mumkin; parasportchilar ijtimoiy izolyatsiyaga duch kelishlari mumkin, chunki ular ko'pincha boshqalar bilan aloqada bo'lishda to'siqlarga duch kelishadi. Bu yolg'izlik, tushkunlik va tashvishga olib kelishi mumkin; sportchilar ko'pincha nogiron bo'lmagan sportchilar bilan o'zlarini taqqoslashlari mumkin, bu esa o'z-o'zini qiymatlashni pasayishiga va tushkunlikka olib kelishi mumkin; imkoniyati cheklangan sportchilar

nogironliklari tufayli sevimli sport turlaridan voz kechishga majbur bo'lishlari mumkin, bu esa stress va depressiyaga olib kelishi mumkin; jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilar nogironliklari tufayli sport qobiliyatlarida noaniqlik yoki o'ziga ishonchsizlikni boshdan kechirishi mumkin, bu esa tashvish va o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, nogironligi bo‘lgan sportchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash sog‘lom sportchilarga nisbatan ancha murakkab va ko‘proq vaqt hamda resurs talab qiladi. Bu, asosan, psixologik yordamning keng qamrovli vazifalari, jumladan, turli noqulay holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktika choralari bilan bog‘liq. Profilaktika bu jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, sportchilarni ruhiy va emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturi mualliflari ushbu qo‘llab-quvvatlashning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ta’kidlaydilar: shaxslarda ijobiy "Men-konsepsiyasi"ni shakllantirish; shaxsning ijodiy salohiyati, jismoniy va ruhiy resurslarini ochib berish orqali uyg‘un rivojlanishini ta’minlash; jismoniy, psixologik va ijtimoiy salomatlikni saqlashga ko‘maklashish; ijobiy fikrlashni shakllantirish, turli vaziyatlarda boshqalar bilan konstruktiv muloqot tajribasini orttirishga ko‘maklashish; stressga bardoshlilikni rivojlantiruvchi usullar bilan tanishtirish, psixoemotsional zo‘riqishni yengillashtirish bo‘yicha amaliy usullarni o‘zlashtirish; o‘zining individual hayot va faoliyat uslubini izlashni faollashtirish, o‘zini o‘rganish va takomillashtirishga qiziqishni rag‘batlantirish [7].

Umuman olganda, bu vazifalar ko‘p jihatdan sportchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash vazifalariga o‘xshashdir. Ularga shaxsiy rivojlanish (sport uchun muhim fazilatlarni rivojlantirish), psixik salomatlikni zarur darajada saqlash va boshqa jihatlar kiradi.

"Sport turining o‘ziga xosligiga qarab, sportchilar turli stress omillari bilan duch keladilar, bu esa psixologik tayyorgarlikka individual yondashuvni talab qiladi" [8; 36-b.]. Sport faoliyati inson imkoniyatlari erishgan yutuqlar sohasidir, bu sportchilarning psixologik va fiziologik talablariga yuqori darajada mos keladi. Aniqroq aytganda, sportchilarga yuqori raqobatdagi zamonaviy sportda natijalarni oshirish va sport mahoratini rivojlantirish uchun muntazam ravishda sport yuklamalariga moslashish zarur. Sport faoliyatining maqsadlariga erishishda, belgilangan vazifalarni bajarish uchun sportchilar, yuqori darajadagi stressga chidamlilikni talab qiladigan yuklamalarni boshdan kechirishlari kerak. Zamonaviy psixologik ilm-fanda stress – bu sport va boshqa professionallar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan emotsional salbiy va ekstremal omillar natijasida paydo bo‘lgan organizmning hissiy tarangligidir deb ta’riflanadi .

Jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilar uchun sport faoliyati nafaqat jismoniy imkoniyatlarini sinovdan o'tkazadi, balki, avvalo, ularning "psixologik mustahkamligi", ya'ni "psixologik barqarorligi"ni ham talab qiladi. Shu bilan birga, sportchining jismoniy va texnik tayyorgarligi asosiy o'rinda turgani kabi psixologik tayyorgarligi ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu holatda sportchi o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqara oladi. Psixologik tayyorgarligi yetarlicha bo'lmagan holatlarda, sportchilar o'z kasbiy faoliyatlarida ko'pincha yuqori raqobat va turli to'siqlarga duch keladilar, bu esa ularni jismoniy va psixologik imkoniyatlarining chegarasida kurashishga majbur qiladi. Bu sharoit, tabiiy ravishda, stressni keltirib chiqaradi va emotsional holatga ta'sir qiladi. Ushbu yuklamalarni yengib o'tish va sportda muvaffaqiyat qozonish uchun o'z emotsional holatini boshqarishni o'rgatadigan emotsional intellekt muhim rol o'ynaydi.

Emotsional barqarorlik jismoniy imkoniyati cheklangan eng kuchli sportchilarning asosiy fazilatlaridan biridir. Shu sababli, emotsiyalar sportchilar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ular muvaffaqiyatga erishish uchun o'z emotsional holatini doimiy kuzatib borishlari va kerak bo'lganda boshqarishni o'rganishlari zarur. Bu nafaqat sport natijalarini yaxshilaydi, balki ularning umumiy farovonligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Izlanishlarimizdan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki emotsional intellektni jismoniy imkoniyati cheklangan o'spirin yoshidagi sportchilarda o'rganish bir qator foydali natijalarga olib kelishi mumkin:

- Jismoniy imkoniyati cheklangan o'spirin sportchilarda emotsional intellektni rivojlantirish ularning o'zini anglash, stressni boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash va o'z salohiyatini to'liq ochish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy moslashuv va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

- Emotsional intellekt sportchilarga o'z emotsiyalarini boshqarish va qiyinchiliklarga duch kelganda yaxshiroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bu, jismoniy imkoniyatlari cheklangan o'spirin sportchilarda, ayniqsa, jismoniy va psixologik to'siqlarni engishda katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

- Emotsional intellektni rivojlantirish jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarda o'zgaruvchan sharoitlarga va yangi muhitga tez moslashishni osonlashtiradi. Bu, o'z navbatida, ular uchun muvaffaqiyatli sport faoliyatining asosi bo'lishi mumkin.

- Sportchilarda, ayniqsa jismoniy imkoniyatlari cheklanganlarida, treninglar yoki musobaqalar davomidagi stressni boshqarish muhimdir. Emotsional intellektni rivojlantirish, bu sportchilarga o'z salbiy his-tuyg'ularini boshqarishda va jismoniy holatni yaxshilashda yordam beradi.

- Jismoniy imkoniyati cheklangan o'spirin sportchilar uchun emotsional intellektni rivojlantirish, ijtimoiy integratsiyani yaxshilashga yordam beradi. Bu sportchilar, boshqa sportchilarga nisbatan, o'zlarini kamroq alohida yoki ajralib turgan his qilishlari mumkin.

Shunday qilib, emotsional intellektni o‘rganish va rivojlantirish, jismoniy imkoniyati cheklangan o‘spirin sportchilarda nafaqat ularning sportdagi muvaffaqiyatlarini, balki psixologik va ijtimoiy farovonliklarini ham oshirishi mumkin.

Emotsional intellektni yaxshilash uchun sportchilarga yordam berish, hissiy-emotsional holatini samarali boshqarishga, stressni kamaytirishga, emotsional reaktsiyalarni boshqarishga va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Buning uchun sport psixologlari quyidagi usullardan foydalanishlari mumkin:

1. Meditatsiya: (diqqatni hozirgi vaqtda saqlash) va meditatsiya amaliyotlari, sportchilarga stressni kamaytirish, diqqatni jamlash va emotsional holatlarni boshqarishga yordam beradi. Bu usullar prefrontal po‘stloqni faol holatga keltiradi, bu esa o‘zini nazorat qilish va yuqori darajadagi kognitiv funksiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, amigdala faolligini boshqarishga yordam berishi mumkin.

2. Emotsional o‘zini anglash va o‘zini nazorat qilish, sportchilarga o‘z emotsiyalarini aniqlash va ularni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish kerak. Emotsional intellektni rivojlantirish, o‘zini anglash va o‘zini nazorat qilishni o‘rgatish, sportchilarga stressni boshqarish va g‘alaba yoki mag‘lubiyat kabi emotsional holatlar bilan samarali kurashish imkonini beradi. Bu, amigdala va prefrontal po‘stloq o‘rtasidagi muvozanatni yaxshilaydi.

3. Neyrofeedback va biofeedback usullari sportchilarga o‘z miyasini va tanasini kuzatib, ularni boshqarishni o‘rganishga yordam beradi. Bu texnologiyalar orqali sportchilar o‘z miya faoliyatini yaxshilash va nerv tizimini boshqarish uchun maxsus mashqlarni bajaradilar. Bu usullar stressni kamaytirish va emotsional reaksiyalarni boshqarish uchun juda samarali.

4. Jismoniy mashqlar, ayniqsa, yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash va umumiy salomatlikni yaxshilash, nerv tizimining faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Jismoniy faoliyat stressni kamaytirish va endorfinlar (baxt gormonlari) ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, bu esa sportchilarning emotsional holatini yaxshilashga yordam beradi.

5. Kognitiv-hissiy treninglar sportchilarga salbiy fikrlarni aniqlash va ularni ijobiy fikrlar bilan almashtirishni o‘rgatadi. Bu treninglar orqali emotsional intellektning muhim komponentlari, masalan, emotsional qaror qabul qilish va stressni boshqarish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu jarayon prefrontal po‘stloq va limbik tizim o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yaxshilaydi.

6. Emotsional intellektni rivojlantirish sportchilarni ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganishga ham undaydi. Bu, ularning boshqalar bilan o‘zaro aloqalarini yaxshilash, hamkorlik qilish va konfliktlarni samarali hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy aloqalar sportchilarning o‘zini yanada ishonchliroq his qilishlariga yordam beradi va ularning umumiy farovonliklarini oshiradi.

10. Bronfenbrenner U. Ekologik tizimlar nazariyasi va bolalarning rivojlanish muhitlari. // Child Development Journal, 2020, Vol. 91(1), 12–24.

11. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.

12. OECD. Early Learning and Child Well-being: A Study of Five-year-olds. – OECD Publishing, 2020.

13. Хамраева Ш.Х. Мактабгача таълим муассасаларида экология дарсларини ташкил этишда инновацион ёндашувлар. // Баркамол авлод, 2023, №1.

14. Bobonazarova R. Ekologik tarbiya va tabiatga e’tiborli munosabatni shakllantirish metodikasi. – Buxoro: BDU, 2022.

PREVENTION OF ATRIAL FIBRILLATION

Jorayev Umarxon
Ferghana medical institute of public health

Abstract: *Atrial fibrillation (AF) is the most common sustained cardiac arrhythmia encountered in clinical practice. It is associated with increased risks of stroke, heart failure, and all-cause mortality. The burden of AF continues to grow with the aging population and increasing prevalence of cardiovascular risk factors. Effective prevention strategies are essential to reduce the incidence and complications associated with AF.*

Key Points:

1. Risk Factor Management:

- Hypertension, obesity, diabetes mellitus, and sleep apnea are modifiable risk factors.
- Lifestyle changes including weight loss, exercise, and dietary modification have shown benefit.

2. Pharmacological Interventions:

- Antihypertensives, statins, and antidiabetic drugs may help reduce AF incidence indirectly.
- Emerging evidence supports the role of anti-inflammatory agents and antioxidant therapies.

3. Screening and Early Detection:

- Opportunistic screening in high-risk groups can facilitate early intervention.
- Wearable devices and smartphone-based ECGs enhance detection capabilities.

4. Patient Education:

- Raising awareness about symptoms, risk factors, and preventive measures is crucial.
- Informed patients are more likely to adhere to lifestyle changes and medication regimens.

Conclusion

Preventing atrial fibrillation requires a multifaceted approach combining risk factor control, lifestyle modification, pharmacological strategies, and patient education.

Early identification and targeted intervention can significantly improve outcomes and reduce the public health burden of AF.

REFERENCES:

1. 1. Kirchhof P, et al. 2020 ESC Guidelines for the diagnosis and management of atrial fibrillation. Eur Heart J. 2020.

2. 2. Lip GYH, et al. Atrial fibrillation: epidemiology, pathophysiology and clinical outcomes. Lancet. 2016.

3. 3. Pathak RK, et al. Aggressive risk factor reduction study for atrial fibrillation and implications for the outcome of ablation. J Am Coll Cardiol. 2014.

4. 4. Hindricks G, et al. 2021 ESC Guidelines on cardiovascular disease prevention in clinical practice. Eur Heart J. 2021.

O‘ZBEK TILIDA KOSMONIMLARNING O‘RGANILISHI VA TAKOMILI

Xamidova Hilolaxon Rafiqjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilida frazeologiyaning shakllanish bosqichlari, uning tilshunoslikdagi mustaqil sohaga aylanish jarayoni, frazemalarning boshqa tillar bilan qiyosiy tahlili yoritilgan. Xususan, kosmonimlar (koinot jismlari nomlari)ning o‘zbek tilida qanday shakllangani, ularning tarixiy, madaniy va ilmiy asoslari o‘rganiladi. Shuningdek, tilning antropotsentrik mohiyati, inson tafakkuri va madaniy qarashlari bilan bog‘liqlikda frazeologik birliklar va kosmonimlar konseptual tahlil qilinadi. Maqolada antropolingvistika va kognitiv lingvistika yondashuvlari asosida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, kosmonim, onomastika, antropolingvistika, kognitiv lingvistika, milliy tafakkur, xalq ruhi, konsept, qiyosiy tadqiqot.*

KIRISH

XX asrning 50-yillargacha frazeologiya o‘zbek tilshunosligi tarkibida mustaqil soha sifatida shakllanib yetmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma’lumotlar, turg‘un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o‘zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ko‘zga tashlanadi. Bunday ishlar A.Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov, A.G‘ulomov, U.Tursunov, A.K.Borovkov, F.Kamol, X.Zarif, V.Abdullayev, N.Mallayev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansub edi.

70-80-yillarda o‘zbek tilidagi frazemalarning struktural-grammatik, semantik, uslubiy xususiyatlarini o‘rganish, frazemalarni lug‘atlarda izohlash tamoyillari va o‘zbek tili frazemalarini boshqa tillardagi frazemalar bilan qiyoslab o‘rganish ishlari jadallashdi. Bu o‘rinda o‘zbek tilidagi frazemalarni rus (I.Rasulov, T.Mirzayeva, A.Cho‘ponov, Ya.Rajabov, R.Jo‘raqulov, B.Qarshiyev, B.Hayitov), nemis (M.Azimova, A.M.Bushuy, A.Isayev, A.Yaxshiyev, K.Xurboyev, M.Umarxo‘jayev, T.A.Bushuy) tillar bilan qiyoslab o‘rganish sohasida bajarilgan ishlarni alohida qayd qilish o‘rinlidir. Bunday ishlar o‘zbek tilining frazeologik tizimini boshqa tillar frazeologiyasi bilan qiyosiy o‘rganish o‘zbek tili frazeologik tizimining o‘ziga xosligini, rivojlanish yo‘llarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bunday tadqiqotlar umumiy tillar frazeologik tarkibi orasidagi mushtarak tomonlarni belgilash, uning tarixiy ildizlari va sabablarini asoslash uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon tilshunosligida I.I.Chernisheva, A.D.Rayxshteyn, M.D.Gorodnikovalarning nemis frazeologiyasining mustahkam o‘rin olishida erishgan yutuqlari alohida ahamiyatga

ega bo‘ldi. Keyingi yarim asr mobaynida hamdo‘stlik mamlakatlarida o‘zbek (Sh.Rahmatullayev, Ya.Pinxasov, H.Berdiyorov, E.Umarov, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev kabilar) tillari frazeologiyasi bo‘yicha salmoqli ishlar maydonga keldi. Natijada frazeologiya tilshunoslikning alohida, mustaqil sohasi sifatida shakllandi.

A.Nurmonov shunday qayd etadi: “Hech bir tilni “til egasi”dan ajratgan holda to‘g‘ri va to‘liq o‘rganib bўlmaydi. Chunki har bir nutqiy aktda so‘zlovchi shaxsning izi sezilib turadi. Struktur tilshunoslikning ana shu cheklangan tomonini bartaraf qilish uchun hozirgi kunda antropolingvistika rivojlana boshladi”.

Olamning milliy-madaniy manzarasi haqida V.Gumboldt “har bir tilda til egalarining dunyoqarashi aks etishi, xalq ruhi va tili o‘rtasidagi munosabat o‘zaro zich bog‘langanligi, ularni ayro tasavvur qilib bo‘lmasligini, til xalqning ruhi, xalqning ruhi esa uning tili ekanini, tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning xilma-xilligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko‘rishning farqliligi natijasi” ekanini ta’kidlaydi.

Insoniyat dastlab ko‘zga ko‘ringan jismlarni nomlashga e’tibor bergan. Jumladan, osmon jismlarining turli nomlari va ularning qadimdan mavjudligini ta’kidlash mumkin. Koinot jismlari onomastikada kosmonimlar yoki astronimlar deb nomlanadi. Kosmonimlarni nomlashda dastlab o‘xshatish, qiyoslash asos qilib olingan bo‘lsa, keyingi davrlarda esa ilmiy nomlar berila boshladi.

Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma’no asosida ma’lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi. Shu nuqtai nazardan kosmonimlar dastlab mikrosistemaning tarkibi sifatida tadqiqot ob’yekti bo‘ldi. Z.Yunusovaning nomzodlik dissertatsiyasi o‘zbek tilidagi osmon yoritgichlari xususidagi ilk tadqiqot hisoblanadi. Tadqiqotning dastlabki ikki bobida semantik maydon, leksik-semantik guruh, leksik-semantik to‘da xususida ma’lumot beriladi. Uchinchi bob “O‘zbek tilida “samoviy yoritgichlar” lug‘aviy mikrosistemasi taraqqiyoti” masalasiga bag‘ishlangan. Bobda samoviy yoritgichlar o‘zbek tilining turli davrlariga oid manbalardan olingan misollar asosida tahlil qilinadi.

Xususan, tadqiqotchining qayd etishicha, “Kun, oy olamni yorituvchi vositalar, yulduz+kavokib esa ... bir qismi “ko‘k bezagi”, bir nechtasi “yo‘lchi, yo‘l ko‘rsatuvchi”(qulavuz), bir guruhi “kezuvchi”(yezak)lardir. Demak, yulduz atamasi ostida birlashtirsa, qulovuz va yezak belgilari bilan farqlaydi. Bo‘limning sarlavhasida kavokib so‘zi yezak so‘ziga ma’nodoshdir”. Ishda yuqoridagi kabi tahlillarni ko‘plab uchratish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida kosmonimlar bo‘yicha dastlabki monografik izlanish A.Primov tomonidan tadqiq qilingan. Primov o‘zbek tili doirasida kosmonimlarning genetik tasnifi, funksional xususiyatlari, hosil bo‘lishi kabi bir qator muammolarni tahlil qiladi.

Frazeologizm, hikmat hamda maqollarda kosmonimlarning ifodalanishi bo‘yicha ilmiy qarashlar

Nasirov Abdurahim Abdimutalipovich “Fransuz, o‘zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari”(filologiya fanlari doktori)

“O‘zbekistonda tillarni qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiq etish yuzasidan olib borilayotgan muvaffaqiyatli izlanishlar bilan bir qatorda frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganish borasida umumiy frazeologiya nazariyasining to‘liq ishlab chiqilmaganligi yanada jiddiy izlanishlarni taqozo etadi”

Ba’zan maqol va matallar xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining mustaqil janrlariku, ular qanday qilib frazeologizmlarning bir turiga aylanishi mumkin, degan mantiqiy savol tug‘iladi.

O‘rganilayotgan masalaning mohiyatiga nazar tashlansa, gap folklorga xos janrlar tasnifi haqida emas, adabiyotning xoh og‘zaki, xoh yozma shaklida bo‘lsin, xalq dahosining turg‘unlik, majoziylik, ifodalilik kabi xususiyatlarini o‘zida jam etgan dekskriptiv shaklli purma’no fikrlari lisoniy tadqiqot materiali sifatida olinishi haqida ketayotganligi ayon bo‘ladi.

A.E.Mamatovning fikricha “Frazeologik birliklar alohida shakllangan, ifodali, motivlashgan, tilning turg‘un leksik-semantik birligi bo‘lib, ularda asosiy belgilar semantik jihatdan qayta in’ikos etishi, tarkibini tashkil etgan leksik belgilarning to‘liq va qisman ko‘chma ma’no namoyon qilishi hisoblanadi”.(98:210)

Hozirgi zamon fransuz tili frazeologiyasining yirik namoyandasi Alen Rey: “Frazeologik birliklarda asosiy urg‘u semantik xususiyatlarga qaratiladi, ayniqsa, “semantik ko‘chish” va “semantik dinamizm” g‘oyalariga asoslanadi.

Frazeologiya alohida xossalarga ega bo‘lgan iboralar tizimi bo‘lib, ijtimoiy hayot bilan bog‘liq holda faollashadi”, - deb yozadi. (Rey A. Chantreau S. Le Robert. Dictionnaire des expressions et locutions. Le Robert. Paris-1997, Preface, 5-9 1085)

Frazeologlar: Sh.Rahmatullayev, M.Umarxo‘jayev, M.Sodiqova, L.Royzenzon, Yu.Avaliani, Ye.Malinovskiy, A.Bushuy, E.Begmatov, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, Sh.G‘aniyevalar munosib hissa qo‘shgan.

O‘zbek frazeologiyasiga doir dastlabki tadqiqotlar Sh.Rahmatullayev, Ya.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainovlarning nomzodlik dissertatsiyalarida yoritilgan. G‘.Salomov o‘zbek tilshunosligida frazemalar tarjimasiga doir izlanishlarida “frazeologizm” atamasining mazmunini keng tahlil qiladi, uning tarkibiga maqol, matal va idiomalarni kiritadi. (Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: O‘qituvchi 1983 B.118 11-bet)

Ispan tilshunosi Eduardo Benot o‘z izlanishlarida: “Kislorod va vodorod gaz bo‘la turib, birikishi natijasida boshqa turdagi suyuq modda, ya’ni suvni keltirib chiqargani kabi turlicha so‘zlar komponentlarning bog‘lanishi natijasida paydo bo‘ladigan turg‘un birikmalar boshqa

bir ma'noni keltirib chiqaradi", deb ta'kidlaydi (Eduardo Benot R.Kabaьyer lug'atining kirish so'zidan olingan(200:4)

A.Narziqulov "Maqol va matallarning o'ziga xosligi ulardagi o'z asl ma'nosi va ko'chma ma'nolilikning mavjudligidir.

Ular to'g'ri ma'noda ishlatilganida ham, ko'chma ma'noda ishlatilganda ham, o'zlarining kategorial sifatini yo'qotmasdan o'z-o'zligicha qoladi va ular proverbial frazeologizm deb ataladi. (Narziqulov A.M. Fransuzkaya frazeologiya i voprosы fransuzsko-uzbekskogo xudojestvennogo perevoda. Avtoref.dis. ... kand. Filol.nauk. L., 1969 B.19)"

Nemis tili frazeologiyasini muntazam tadqiq qilgan olim N.I.Chernisheva: "Frazeologik birikmalar – bu komponentlari bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan, turli struktural tipdagi va umumiy ma'nosi komponentlar tarkibining to'liq va qisman o'zgarishi natijasida paydo bo'ladigan turg'un so'zlar majmuasidir", deb ta'kidlaydi.

(Chernisheva N.I. Frazeologiya sovremennogo nemeskogo yazqka. M., 1970 S 200 B.29)

Frazeologik birliklar so'zdan farqli ravishda, shaklan so'z birikmasi yoki gapga teng bo'ladi, ularni bir narsa, ya'ni har ikkalasini ham gapning komponenti ekanligi bog'lab turadi, frazeologik birikmalar gapda gap bo'lagi yoki gap ichidagi gap shaklida ishlatiladi deydi M.Umarxo'jayev (Umarxodjayev M.I. Osnovы frazeografii. T., Fan. 1983 133b B.23)

FBlarga berilgan ta'riflardan ko'rinadiki, frazeologizmning eng asosiy xususiyati, ularning turg'unligi, ko'chma ma'noliligi, emosional-ekspressivligi, inson ongida tayyor holda in'ikos etishi kabilardir.

Shulardan kelib chiqib, frazeologiya milliy leksikaning o'ziga xosligini yorqin tarzda aks ettiradigan tarmog'i degan xulosaga kelamiz.

Mazkur masalada bunday yondashuvni o'zbek tilshunoslari PFBlar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqligini; ular obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi, nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim vositalar ekanligini tan olmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Monografiya. To'ldirilgan va tuzatilgan ikkinchi nashri. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. –25 b

2.Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 2012. – B-68.

3.Gumboldt V. Izbrannыe trudы po yazыkoznaniyu. – Moskva, 1984. – S.50-54.

4.Iskandarova Sh. Leksikani mazmuniy maydon asosida o'rganish muammolari. – Toshkent: Fan. 1998. – B.12

5.Yunusova Z.Q. O‘zbek tilida lug‘aviy mikrosistemaning tarkibi va rivojlanishi (samoviy yoritgichlar lug‘aviy guruhi asosida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2005. – B.132.

QANDLI DIABET VA HOMILADORLIK

Shomurodova Shirin
Hamroqulova Ganjina
Respublika ixtisoslashtirilgan Endokrinogiya ilmiy amaliy tibbiyot muasasasi Klinik ordinator:

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qandli diabet va homiladorlik o‘rtasidagi munosabatlar, homiladorlik davrida qandli diabetning sog‘liqka ta’siri va ona hamda bola uchun yuzaga keladigan xavflar tahlil qilinadi. Shuningdek, homiladorlik paytida diabetni boshqarish usullari, profilaktika choralariga e’tibor qaratilgan. Zamonaviy tibbiyotda diabet va homiladorlikni muvaffaqiyatli muvofiqlashtirish uchun qo‘llanilayotgan dori vositalari va parhez terapiyasi haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *qandli diabet, homiladorlik, gestatsion diabet, diabet boshqaruvi, ona salomatligi, homilaning rivojlanishi, diabet profilaktikasi, parhez terapiyasi, dori vositalari.*

KIRISH

Qandli diabet — organizmda qand miqdorining me’yordan ortiq darajada ko‘tarilishi bilan kechadigan surunkali kasallikdir. Homiladorlik davrida bu kasallik ona va homila salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, gestatsion diabet homilador ayollarda ko‘p uchraydigan va ona-bola sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yadigan holat sifatida e’tiborga loyiqdir. Shu bois, homiladorlikda qandli diabetni to‘g‘ri aniqlash, monitoring qilish va samarali boshqarish juda muhim hisoblanadi. Ushbu maqola homiladorlik davrida qandli diabetning klinik jihatlari, uni boshqarish metodlari hamda ona va bola sog‘lig‘ini saqlash yo‘llarini yoritishga bag‘ishlangan.

Qandli diabet (gestatsion diabet) homiladorlik davrida paydo bo‘lishi yoki oldindan mavjud bo‘lgan diabetning holatini og‘irlashtirishi mumkin. Bu holat homila va onaning sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun qat’iy nazorat va parhez kerak.

Gestatsion Diabet Mellitus (GDM) – Homiladorlik Diabeti

Sabablari:

• Homiladorlik davrida platsenta ishlab chiqaradigan gormonlar (masalan, laktogen, progesteron) insulin ta’siriga qarshilik yuzaga keltiradi.

• Insulin rezistentligi – organizm insulinni to‘g‘ri ishlata olmaydi, natijada qon shakarining ko‘tarilishi.

Xavf Omillari:

• Ortiqcha vazn (BMI › 30)

• Yoshi katta onalar (35+ yosh)

• Avvalgi homiladorlikda GDM bo‘lishi

• Oilada diabet tarixi
• Polikistik yumurtalik sindromi (PCOS)

2. Homiladorlikda Diabetning Asoratlari

Ona uchun xavflar:

• Preeklampsiya (qon bosimining ko‘tarilishi)
• Sezaryen operatsiyasi ehtiyoji
• Kelajakda 2-tip diabet rivojlanishi (50% holatda 10 yil ichida)

Homila uchun xavflar:

• Makrosomiya (4 kg dan ortiq vaznli ulkan homila)
• Erta tug‘ilish
• Tug‘ilgandan keyin nafas olish qiyinchiliklari
• Yoshligida semirish yoki diabet rivojlanishi

Diagnostika va nazorat

Qon shakarini tekshirish:

• OGTT (Og‘zaki Glukoza Bardosh Testi) – homiladorlikning 24-28 haftasida 75 g glukoza yutilgandan keyin qon shakari o‘lchanadi.

- Normal qiymatlar:
  - Bo‘sh qoringa: < 5.1 mmol/L
  - 1 soatdan keyin: < 10 mmol/L
  - 2 soatdan keyin: < 8.5 mmol/L

Davolash usullari:

Parhez (Asosiy usul):

• Kompleks uglevodlar (yashil sabzavot, tamaki bug‘doy noni)
• Oqsil va sog‘lom yog‘lar (go‘sht, baliq, yong‘oq)
• Shakarli mahsulotlardan qochish

Jismoniy faollik:

• Kundalik 30 daqiqa yurish, suzish, yoga.

Insulin terapiyasi:

• Agar parhez va sport yordam bermasa, insulin in’ektsiyalari buyuriladi (tabletkalar homiladorlikda tavsiya etilmaydi).

Tug‘ruq va keyingi davr

• Tug‘ruq paytida qon shakari qat’iy nazorat qilinadi (intravenoz glukoza yoki insulin kerak bo‘lishi mumkin).

• Tug‘ilgandan keyin 6-12 hafta ichida qon shakari qayta tekshiriladi (60% ayollarda normal holatga qaytadi).

• Keyingi homiladorliklarda GDM takrorlanish xavfi yuqori (70%).

Parhez Maslahatlari

Tavsiya etiladi	Cheklash kerak
Yashil sabzavotlar (brokoli, sabzi)	Qandlatilgan ichimliklar (Coca-Cola, sharbatlar)
Tamaki bug‘doy noni	Oq non, shirinliklar
Yog‘siz go‘sht va baliq	Qovurilgan ovqatlar
Yong‘oq va urug‘lar	Fast food

O‘zbek tibbiyot adabiyotlarida qandli diabet va homiladorlik masalasi keng yoritilgan.

N.Islomovaning (2019) “Qandli diabet va homiladorlikda parhez terapiyasi” nomli asarida gestatsion diabetning ona va bola sog‘lig‘iga ta’siri, shuningdek, parhez va dori vositalari orqali uni boshqarish usullari batafsil tahlil qilingan.

D.Raxmatovaning (2021) “Qandli diabet bilan kasallangan homilador ayollarda klinik ko‘rsatkichlar” maqolasida esa diabetning homiladorlik davomida kechishi, asoratlari va davolash metodlari haqida statistik ma’lumotlar keltiriladi.

Ushbu tadqiqotda ko‘p hollarda gestatsion diabet va an’anaviy qandli diabet turidagi kasalliklarning homiladorlik jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot uchun tanlangan ayollar orasida qon shakar darajasi, insulin qo‘llash holatlari va homilaning rivojlanish parametrlariga e’tibor qaratildi.

Metodologiyada:

- Klinik kuzatuv usuli asosida homilador ayollarning qandli diabet bilan bog‘liq holatlari tahlil qilindi;
- Laboratoriya tahlillari (qon shakar, glyukoza tolerans testi) o‘tkazildi;
- Onalar va homilalar sog‘lig‘i bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ildi;
- Parhez terapiyasi va dori-darmonlarni qo‘llash natijalari o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- Gestatsion diabetli ayollarda ona va homila sog‘lig‘ida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi, jumladan, homilaning kattalashuvi, tug‘ilishning erta boshlanishi va preeklampsiya holatlari ko‘p uchradi.
- Parhez terapiyasi va muntazam insulin qo‘llash orqali qon shakar darajasi nazorat ostida bo‘ldi, bu esa asoratlarning oldini olishda muhim rol o‘ynadi.
- Klinik kuzatuv natijalariga ko‘ra, diabetni boshqarishda individual yondashuv va doimiy tibbiy nazorat zarurligi aniqlandi.

• Natijalar shuni ko‘rsatadiki, homiladorlik davrida diabetni boshqarishda faqat dori vositalari emas, balki hayot tarzi, parhez va jismoniy faoliyat muhim omillardir.

Muhokamalarda, ayniqsa, diabetning homiladorlik paytidagi asoratlarini kamaytirish uchun yangi diagnostika va davolash usullarini joriy etish zarurligi ta’kidlandi.

XULOSA. Qandli diabet va homiladorlik mavzusidagi tadqiqotlar ko‘rsatdiki, bu ikki holat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik ona va bola salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Gestatsion diabetni erta aniqlash, individual davolash strategiyasini ishlab chiqish va samarali parhez terapiyasi homiladorlik asoratlarini kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, doimiy tibbiy nazorat va o‘quv ishlari diabetli homilador ayollarning salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Kelgusida ona va bola sog‘lig‘ini ta’minlashda innovatsion diagnostika va terapevtik usullarni keng qo‘llash zarur.

Gestatsion diabet vaqtida aniqlansa, uni parhez, jismoniy faollik va insulin bilan boshqarish mumkin. Homiladorlikdan keyin vaznni boshqarish va muntazam qon shakarini tekshirish 2-tip diabetning oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Islomova N.Qandli diabet va homiladorlikda parhez terapiyasi. Toshkent tibbiyot akademiyasi nashriyoti. Toshkent. 2019. 12–45 betlar.

2. Raxmatova D. Qandli diabet bilan kasallangan homilador ayollarda klinik ko‘rsatkichlar. Samarqand davlat tibbiyot instituti jurnal №3. Samarqand. 2021

78–85 betlar.

3. Karimova S. Homiladorlik va diabet: zamonaviy diagnostika va davolash usullari. Buxoro tibbiyot universiteti nashriyoti. Buxoro. 2022. 34–50 betlar.

4. American Diabetes Association. Standards of Medical Care in Diabetes—2023

Diabetes Care Journal. Alexandria, VA, USA. 2023. 10–50 betlar.

5.Hod M., Kapur A.The Epidemiology of Gestational Diabetes Mellitus Diabetes Care, Volume 27, Issue Supplement 2. New York, USA. 2004. S88–S89 betlar.

6. Almuradova, D. M., Mukumova, D. I., & Turaeva, X. K. (2022). Karlibaev AO Modern endocrine therapy in locally advanced estrogen or progesterone receptor-positive breast cancer. Образования и наука в XXI веке, 24(2), 773-780.

7. Juraev, M. D., Atakhanova, N. E., Almuradova, D. M., & Gaziev, L. T. (2023). Androgen receptor values for prediction of survival of patients with three times negative breast cancer. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8(6), 104-106.

8. Tursunova, N. I., Almuradova, D. M., Turayeva Kh, K. H., & Muqimova, D. I. (2022). Hereditary breast and ovarian cancer. EDUCATION AND SCIENCE IN THE XXI CENTURY, (24), 1200-1212.

9. Атаханова, Н. Э., & Алмурадова, Д. М. (2022). Влияние экспрессии андрогеновых рецепторов на прогноз трижды негативного рака молочной железы. Клиническая и экспериментальная онкология, 10(2), 112-115.

10. Almuradova, D. M., Sh, O. S., & Ubaydullaev, I. A. (2021). Sharobiddinov BB Islamov SB A Modern Approach to Diagnosis and Treatment of Breast Cancer Releases. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(5), 294-298.

11. Tilyashaikhov, M. N., Gaziev, L. T., Almuradov, A., & Almuradova, D. M. (2021). A Modern Approach to Diagnostics, Prediction and Course of Renal Cell Cancer. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(1), 4429-4451.

12. Khakimova, G. G., Khakimov, G. A., Khakimova, S. G., Khakimov, A. T., & Almuradova, D. M. (2021). Changes In Tumor Infiltrating Lymphocytes Of Peripheral Blood And Tissue During Chemotherapy In Patients With Gastric Cancer. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 3(03), 20-31.

13.Almuradova, D. M. (2018). THE ROLE OF CHEMOTHERAPY IN TRIPLE NEGATIVE BREAST CANCER. Journal of Drug Delivery & Therapeutics, 8(5), 163-167.

14.Atakhanova, N. E., Almuradova, D. M., Tursunova, N. I., & Ziyaev, S. V. (2023). Triple negative breast cancer and drug-resistant cells. World bulletin of public health (WBPH) in, 28.

15.Атаханова, Н. Э., Турсунова, Н. И., Яхяева, В. К., Эсонтурдиев, У. И., Мамажанов, Х. И., Алмурадова, Д. М., & Ботиралиева, Г. К. (2023). Клинический случай хирургического лечения злокачественной опухоли из оболочек периферических нервов забрюшинной локализации. Тазовая хирургия и онкология, 13(4), 62-67.

16.Verbalis, J. G. (2007). Disorders of water balance. In: Kronenberg HM, Melmed S, Polonsky KS, Larsen PR, editors. Williams Textbook of Endocrinology (11th ed.). Saunders Elsevier.

17. Metzger B. E., Gabbe S. G. Gestational Diabetes Mellitus. Endocrinology and Metabolism Clinics of North America. Philadelphia, PA, USA. 1999. 107–128 betlar.

LEGAL REGULATION OF MEDIATION IN LABOR DISPUTES

Durdona Yusupjon qizi Sobirjonova
Master's student in the field of "Mediation and Alternative Dispute Resolution Methods" Tashkent State University of Law Email: sdurdona2003@gmail.com

Annotation: *Legal regulation of mediation in labor disputes plays a key role in ensuring effective resolution of conflicts between employees and employers. Different countries are implementing their own approaches to mediation, taking into account national characteristics and international standards. Below is an overview of the legal regulation of mediation in labor disputes in the Republic of Uzbekistan and a number of other countries.*

Keywords: *mediation, labor disputes, conflicts, legal regulation of mediation, agreement.*

In Uzbekistan, mediation was legally formalized with the adoption of the Law "On Mediation" of July 3, 2018, which entered into force on January 1, 2019. This law enshrined the basic principles of mediation: voluntariness, confidentiality, equality of the parties, independence and impartiality of the mediator. Mediation is used in various areas, including individual labor disputes[52].

In addition, the Labor Code of the Republic of Uzbekistan provides for the possibility of resolving labor disputes using conciliation procedures. Article 267 of the Labor Code defines the procedure for considering individual labor disputes, including the possibility of concluding a settlement agreement between the parties[53].

Traditionally, in Uzbekistan, disputes were resolved with the participation of elders (aksakals) and mahalla committees, which reflects the cultural characteristics of the country. With the introduction of the institution of mediation, these traditions have received new development within the framework of formalized procedures.

Mediation can be conducted both at the extra-judicial stage and during the trial before a decision is made. If an agreement is reached during the mediation process, the parties may apply to the court for its approval, which gives the agreement enforcement force.

Russian legislation provides for the possibility of using mediation to resolve labor conflicts, but the regulatory framework has not yet been fully adapted for the widespread use of this mechanism.

Key regulatory acts include:

[52] hmadad.uz
[53] LABOR DISPUTES AND THEIR RESOLUTION PROCEDURE: FOREIGN EXPERIENCE For citation: Shokirov Oybek Azizjon ugli . LABOR DISPUTES AND THE PROCEDURE FOR THEIR RESOLUTION: FOREIGN EXPERIENCE . Journal of Law Research . 2021, 6 vol., issue9, pp. 41-4

- The Labor Code of the Russian Federation establishes the procedure for resolving individual and collective labor disputes.

- Federal Law No. 193-FZ "On Mediation" – defines the general principles and procedures of mediation.

- The Civil Procedure Code of the Russian Federation allows for pre-trial dispute resolution through mediation.

- The Code of Administrative Procedure of the Russian Federation regulates the procedure for using mediation in administrative disputes.

There are also international regulations that influence the development of mediation in labor disputes in Russia, in particular:

- European Directive 2008/52/EC on mediation in civil and commercial matters,

- ILO Convention No. 151 concerning the Protection of Rights to the Settlement of Labour Disputes.

Despite the existence of legal grounds, the practice of using mediation in labor disputes in Russia requires further improvement. One of the main problems is the lack of awareness of employees and employers about the possibilities of the procedure, as well as the lack of clear mechanisms for its integration into the system of resolving labor disputes.

Federal Mediation and Conciliation Service (FMCS). In the United States, labor dispute mediation has been regulated at the federal level since 1947 through the Federal Mediation and Conciliation Service (FMCS), created under the Taft-Hartley Labor Relations Act Act). FMCS provides services for the resolution of industrial disputes in the private and public sectors, especially in cases of threatened strikes or expiration of collective agreements.

FMCS recently faced the threat of closure as a result of an executive order, raising concerns among unions and employers about the future of labor dispute mediation in the country [54].

In 2023, India passed a new Mediation Act, which aims to decongest the court system and promote alternative dispute resolution. This legislation aims to encourage peaceful resolution of conflicts without resorting to court. In particular, the Act establishes that mediation will be a mandatory procedure in a number of categories of cases, including labor disputes.

The document regulates in detail the procedure: from the appointment of mediators, setting deadlines for mediation negotiations to the execution and approval of final agreements. The adopted law also provides for the creation of specialized mediation centers and forms uniform standards for the training of mediators.

[54] https://www.reuters.com/legal/government/unions-sue-block-trump-eliminating-labor-mediation-agency-2025-04-14/

India has thus taken an important step towards institutionalising mediation as an effective way to reduce the litigation burden and increase access to justice for individuals and organisations [55].

Singapore is a leader in the development of mediation in Asia and the world. With the adoption of the Mediation Act 2017, the state created a solid legal framework for the peaceful resolution of disputes. The Act regulates the mediation procedure in detail, sets out requirements for mediation agreements and their recognition in the courts.

One of Singapore's most important achievements in this area was the initiation of the Singapore Convention on Mediation, signed in 2019. The Convention provides an international legal mechanism for the recognition and enforcement of agreements reached through mediation in various participating countries.

These measures have significantly enhanced Singapore's attractiveness as an international dispute resolution center and have helped to build confidence in mediation as a universal tool for reconciling parties at the global level[56].

LIST OF USED LITERATURE:

1. NORMATIVE LEGAL ACTS

1.1 Law of the Republic of Uzbekistan "On mediation", 03.07.2018 г. № LRU-482

2. SCIENTIFIC ARTICLES

2.1 LABOR DISPUTES AND THEIR RESOLUTION PROCEDURE: FOREIGN EXPERIENCE For citation: Shokirov Oybek Azizjon ugli. LABOR DISPUTES AND THE PROCEDURE FOR THEIR RESOLUTION: FOREIGN EXPERIENCE. Journal of Law Research. 2021, 6 vol., issue9, pp. 41-4

3. INTERNET RESOURCES

3.1 hmadad.uz

3.2 https://www.singaporeconvention.org/

3.3https://www.reuters.com/legal/government/unions-sue-block-trump-eliminating-labor-mediation-agency-2025-04-14/

3.4 https://www.indiacode.nic.in/handle/123456789/19637?view_type=browse

[55] https://www.indiacode.nic.in/handle/123456789/19637?view_type=browse
[56] https://www.singaporeconvention.org/

KUTUBXONA XIZMATLARI: RAQAMLI KUTUBXONALAR VA ELEKTRON RESURSLAR

Yulduz Qo‘ziyeva Sotiboldiyevna
“Kutubxona-axborot faoliyati” fakultetining 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kutubxona xizmatlarining zamonaviy rivojlanishiga oid masalalar, ayniqsa, raqamli kutubxonalar va elektron resurslar haqida so'z yuritiladi. Maqolada raqamli kutubxonalarning taqdim etayotgan afzalliklari, ularning elektron kitoblar, maqolalar, ma'lumotlar bazalari kabi resurslar orqali foydalanuvchilarga qanday xizmatlar ko'rsatishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, raqamli kutubxonalarning ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va masofaviy o'qish kabi sohalarda qanday muhim o'rin tutishi ta'kidlangan. Maqolada raqamli kutubxonalar va elektron resurslarning jamiyatdagi bilim va axborot almashinuvidagi o'rni, foydalanuvchilarga taqdim etilayotgan yangi imkoniyatlar va kutubxonachilik sohasidagi yangiliklar haqida umumiy tushuncha beriladi. Maqola kutubxonalarning yangi texnologiyalar orqali qanday rivojlanishi, ularning foydalanuvchilarga taqdim etayotgan xizmatlarining samaradorligini va axborot olishda raqamli platformalarning ahamiyatini yoritishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli kutubxonalar, elektron resurslar, kutubxona xizmatlari, axborot texnologiyalari, elektron kitoblar (e-books), ma'lumotlar bazalari, onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar, raqamli ta'lim, masofaviy o'qish, kutubxona arxitekturasi, axborot xavfsizligi, kutubxona resurslari, ta'lim va ta'lim texnologiyalari, virtual kutubxonalar, elektron jurnal va maqolalar.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с современным развитием библиотечного обслуживания, особенно электронных библиотек и электронных ресурсов. В статье подробно описаны преимущества цифровых библиотек, а также то, как они предоставляют услуги пользователям через такие ресурсы, как электронные книги, статьи и базы данных. Он также подчеркивает важность цифровых библиотек в таких областях, как образование, исследования и дистанционное обучение В статье дается общее представление о роли электронных библиотек и электронных ресурсов в обмене знаниями и информацией в обществе, новых возможностях, предлагаемых пользователям, а также инновациях в сфере библиотечного дела. Целью статьи является освещение того, как библиотеки развиваются за счет новых технологий, эффективности их обслуживания пользователей и важности цифровых платформ в получении информации.*

Ключевые слова: *цифровые библиотеки, электронные ресурсы, библиотечные услуги, информационные технологии, электронные книги (электронные книги), базы данных, онлайн-библиотеки, научные статьи, цифровое образование, дистанционное обучение, библиотечная архитектура, информационная безопасность, библиотечные ресурсы, технологии преподавания и обучения, виртуальные библиотеки, электронные журналы и статьи.*

Abstract: *This article discusses issues related to the modern development of library services, especially digital libraries and electronic resources. The article details the benefits of digital libraries, how they provide services to users through resources such as e-books, articles, and databases. It also highlights the importance of digital libraries in areas such as education, research and distance learning. The article provides a general understanding of the role of digital libraries and electronic resources in knowledge and information exchange in society, new opportunities offered to users, and innovations in the field of librarianship. The article aims to highlight how libraries develop through new technologies, the effectiveness of their services to users, and the importance of digital platforms in obtaining information.*

Keywords: *Digital libraries, electronic resources, library services, information technologies, electronic books (e-books), databases, online libraries, scientific articles, digital education, distance learning, library architecture, information security, library resources, teaching and learning technologies, virtual libraries, e-journals and articles.*

Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kutubxona faoliyati ham tubdan o‘zgarib bormoqda. An’anaviy kutubxonalar endilikda raqamli kutubxonalar shaklida xizmat ko‘rsatmoqda. Bunday transformatsiya foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini tezkor, sifatli va masofadan turib qondirish imkonini bermoqda. Elektron resurslar esa kutubxonalarni 24/7 rejimida ishlaydigan, qulay va ommaviy axborot markazlariga aylantirmoqda.

Bugungi kunda kutubxonalar nafaqat kitoblar va jurnallarni saqlash, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida axborot va bilimlarni taqdim etishning yangi shakllarini yaratishda ham muhim rol o'ynamoqda. Raqamli kutubxonalar va elektron resurslar jamiyatda bilim olish va ta'lim jarayonini inqilobiy tarzda o'zgartirib yuborgan xizmatlar bo'lib, ular foydalanuvchilarga tezkor va qulay axborot olish imkonini beradi. Ushbu maqolada biz raqamli kutubxonalarning rivojlanishi, elektron resurslarning turli shakllari va kutubxona xizmatlaridagi yangi imkoniyatlar haqida so'z yuritamiz.

Raqamli kutubxonalar – bu an'anaviy kutubxonalarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish orqali axborot va bilimlarni onlayn tarzda taqdim etish imkonini beruvchi platformalardir. Raqamli kutubxonalar fizik muhitdan tashqari, internet orqali

keng auditoriyaga xizmat ko'rsatadi. Ularning rivojlanishi, asosan, axborot texnologiyalarining yuksalishi va internetning keng tarqalishi bilan bog'liq. Dastlabki bosqichlarda kutubxonalar faqat ma'lum bir elektron resurslarni taqdim etgan bo'lsa, bugungi kunda ular butun bir xalqaro axborot tarmog'iga aylanishdi. Har qanday foydalanuvchi, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, raqamli kutubxona orqali o'quv materiallarini olish, ilmiy ishlarni o'rganish yoki turli sohalarda izlanishlar o'tkazish imkoniyatiga ega.

Raqamli kutubxonalarda taqdim etiladigan elektron resurslar turli shakllarda bo'lishi mumkin. Ulardan ba'zilari quyidagilardir:

1. Elektron kitoblar (e-books) – Kitoblar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy asarlar va boshqa yozma materiallar raqamli formatda taqdim etiladi. Bu resurslar foydalanuvchiga istalgan vaqtda va istalgan joyda kitob o'qish imkoniyatini beradi.

2. Elektron jurnallar va maqolalar – Ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va jurnallar raqamli formatda mavjud. Elektron jurnallar tezda yangilanib, eng so'nggi ilmiy izlanishlar va yangiliklarni taqdim etadi.

3. Audio va video materiallar – Darslar, ma'ruzalar, konferensiyalar va boshqa o'quv materiallari audio va video shaklida taqdim etiladi. Bu, ayniqsa, masofaviy ta'limda muhim resurs hisoblanadi.

4. Ma'lumotlar bazalari va onlayn kataloglar – Kutubxonalar foydalanuvchilarga elektron kataloglar va ma'lumotlar bazalariga kirish imkonini beradi, bu esa ma'lumotlarni tezkor qidirish va izlashni osonlashtiradi.

Raqamli kutubxonalar va elektron resurslar taqdim etayotgan xizmatlar bir qator afzalliklarga ega:

- Keng qamrovli va qulaylik: Elektron resurslar foydalanuvchilar uchun har doim mavjud bo'lib, geografik cheklovlardan qat'iy nazar axborot olish imkonini beradi.
- Tezkor kirish va izlash: Raqamli kutubxona foydalanuvchiga kerakli materialni tezda qidirish va topish imkoniyatini beradi. Elektron kataloglar va ma'lumotlar bazalarida izlash jarayoni juda tez va samarali bo'ladi.
- Yuqori sifatli va yangilangan materiallar: Raqamli kutubxonalar yangi axborotlarni tezda qamrab oladi va foydalanuvchilarga eng so'nggi materiallarni taqdim etadi. Bu esa ilmiy izlanishlar va ta'limda yangiliklardan xabardor bo'lishni ta'minlaydi.
- Atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish: An'anaviy kutubxonalar kitoblarni saqlash uchun ko'plab jismoniy resurslarga muhtoj bo'lsa, raqamli kutubxonalar atrof-muhitni himoya qilishga yordam beradi, chunki ular qog'oz ishlatishni kamaytiradi va jismoniy saqlash joyini talab qilmaydi.

Raqamli kutubxonalar faqat resurslar taqdim etish bilan cheklanmaydi. Ular foydalanuvchilarga bir qator qo'shimcha xizmatlar ham taqdim etadi:

● Masofaviy o'qish va ta'lim: Elektron kutubxonalar masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlaydi, talabalar va o'qituvchilarga o'zlarining o'qish va o'rganish jarayonlarini masofadan tashkil etish imkonini beradi.

● Tadqiqot va ilmiy izlanishlar: Ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan foydalanuvchilar raqamli kutubxonalardan ma'lumotlarni olish, ilmiy maqolalar bilan tanishish va o'zlarining tadqiqotlarini rivojlantirish uchun zarur resurslarga ega bo'lishadi.

● Axborot xavfsizligi: Raqamli kutubxonalar foydalanuvchilarga axborot xavfsizligini ta'minlashda yordam beradi.

Foydalanuvchi ma'lumotlari va resurslarga kirish xavfsizligi yuqori darajada ta'minlanadi.

Raqamli kutubxonalar va elektron resurslar hozirgi kunda kutubxonachilik sohasining ajralmas qismiga aylangan.

Ular an'anaviy kutubxonalar bilan birgalikda bilim va axborot almashish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Yangi texnologiyalar yordamida kutubxonalar nafaqat o'quvchilar va tadqiqotchilar uchun, balki butun jamiyat uchun qimmatli axborot manbai va bilim markaziga aylanishda davom etmoqda. Raqamli kutubxonalar foydalanuvchilarga yanada kengroq imkoniyatlar yaratib, axborot erkinligini va bilim olishni yanada samarali va qulayroq qiladi.

Bugungi raqamli kutubxonalar foydalanuvchilarga quyidagi xizmatlarni taklif qilmoqda:

● Elektron kataloglar orqali izlash va buyurtma berish;
● Elektron kitoblar va maqolalarni yuklab olish;
● Onlayn maslahat xizmatlari;
● Masofaviy kutubxonachilik yordami;
● Interaktiv o‘quv materiallari;
● Onlayn seminarlar va ma’ruzalar arxivi.

Bu xizmatlar axborotni olishni osonlashtirib, zamonaviy kutubxonani foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashgan ijtimoiy axborot markaziga aylantiradi.

Zamonaviy kutubxonachilik amaliyotida raqamli kutubxonalar va elektron resurslar muhim o‘rin egallaydi.

Ular orqali foydalanuvchilarga qulay, tezkor va masofaviy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari yaratilmoqda. Kelajakda bu yo‘nalish yanada rivojlanib, sun’iy intellekt, blokcheyn va boshqa texnologiyalar asosida yangi xizmatlar paydo bo‘lishi kutilmoqda

Ushbu maqola raqamli kutubxonalarning ahamiyati, turli elektron resurslarning oydalari va kutubxona xizmatlaridagi yangi imkoniyatlar haqida umumiy tasavvur yaratadi.

Maqola orqali zamonaviy kutubxonalar va axborot texnologiyalarining o'zaro aloqasi va rivojlanish istiqbollari ham ko'rsatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova, D.M. (2021). Axborot-kutubxona faoliyatida raqamli texnologiyalar. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Yo‘ldosheva, G.X. (2020). Kutubxona-resurs markazlarida elektron xizmatlar ko‘rsatish tizimi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Jo‘rayev, B.B. (2019). Kutubxonashunoslik va axborot madaniyati asoslari. Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyoti.
4. Karimov, A.Sh. (2018). Zamonaviy kutubxonachilikda axborot texnologiyalarining o‘rni. – Ilmiy-amaliy maqola. // “Axborot-kutubxona jurnali”, №4, 2018, B. 24–28.
5. Sattorova, M.M. (2022). Elektron kutubxona va foydalanuvchi faoliyati. – “Madaniyat va san’at” ilmiy jurnali, №2, 2022. B. 45–49.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-381-sonli qarori (2018-yil 14-may) – Axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
7. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2023). Axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini raqamlashtirish dasturi. Toshkent.
8. Xudayberganov, S. (2021). Kutubxonalarda axborot xizmatlarini tashkil etishning zamonaviy yo‘llari. // “Zamonaviy kutubxonachilik” ilmiy-uslubiy jurnali, №1, 2021. B. 33–36.

КУТУБХОНАЧИ ВА ФОЙДАЛАНУВЧИ: МУЛОҚОТ МУОММОЛАРИ

Юлдуз Қўзиева Сотиболдиевна
"Кутубхона-ахборот фаолияти" факультетининг 3-босқич талабаси.

Аннотация: *Ушбу мақолада кутубхоначи ва фойдаланувчи ўртасидаги мулоқотнинг замонавий кутубхоначиликдаги ўрни, унинг аҳамияти ва самарадорлигини таъминловчи омиллар ёритилган. Мулоқотнинг педагогик ва психологик жиҳатлари асосида кутубхона ходимлари билан фойдаланувчилар ўртасидаги алоқанинг сифатига таъсир этувчи жиҳатлар кўриб чиқилган. Муаллиф кутубхонанинг маданияти, нутқ маданияти, мулойимлиги ва масъулиятлилик каби касбий фазилатлари фойдаланувчига хизмат кўрсатишдаги муваффақият омили эканини таъкидлайди. Шунингдек, фойдаланувчилар билан мулоқотда амал қилиниши зарур бўлган асосий қоидалар келтирилиб, кутубхона хизмати сифати кўп жиҳатдан кутубхоначи малакаси ва ёндашувига боғлиқлиги асослаб берилган.*

Калит сўзлар: *кутубхоначи, фойдаланувчи, мулоқот, ахборот алмашуви, хизмат кўрсатиш сифати, психологик хусусиятлар, касбий маданият, мулойимлик, кутубхона хизмати.*

Abstract: *This article explores the issues of communication between librarians and users, emphasizing its importance in modern library science, pedagogy, and psychology. The direct interaction between a librarian and a library user is highlighted as one of the essential functions of a library. The quality of this communication is considered a key indicator of service effectiveness and user satisfaction. The article analyzes the psychological and ethical aspects of communication, stressing the significance of the librarian's cultural behavior, politeness, professionalism, and responsibility. It is noted that understanding users' psychological characteristics helps prevent and resolve conflicts effectively. The paper also outlines key principles that librarians should follow, such as accuracy, commitment, and attentiveness, and emphasizes the necessity of providing personalized and relevant recommendations to users. Ultimately, the article concludes that successful communication largely depends on the librarian's attitude and competence.*

Keywords: *librarian, user, communication, information exchange, service quality, psychological characteristics, professional culture, politeness, library services.*

Кутубхоначилар ва фойдаланувчилар ўртасидаги мулоқот масаласи замонавий педагогика ва психология нуқтаи мамлакатимизда ва хорижий кутубхонашуносликда ҳам фаол ўрганилмоқда.

Кутубхонанинг муҳим функцияларидан бири кутубхоначи ва фойдаланувчилар ўртасидаги бевосита мулоқот билан боғлиқ бўлиб бугунги кунда ушбу функция айниқса долзарбдир. Кутубхоначининг фойдаланувчи билан диалоги хизмат кўрсатиш сифатининг кўрсаткичларидан бири сифатида баҳоланади, ва давлат буюртмаларини бажаришда кутубхоначининг фойдаланувчи билан мулоқоти сифатини аниқлашда муҳим рол ўйнайди.

Мулоқот – бу икки ёки ундан ортиқ одам ўртасидаги ўзаро таъсир жараёни бўлиб, бунда ахборот, ҳаракатлар, ҳиссиётлар алмашинуви содир бўлади. Психологияда мулоқот одамлар ўртасидаги боғланиш сифатида таърифланади, бунда психологик алоқа пайдо бўлиб, бу ахборот алмашиш, ўзаро таъсир, тушунишни ўз ичига олади. Ҳар бир мулоқот ҳамкорига (кутубхоначи, фойдаланувчи,) фақат мақсад (объект) сифатида эмас, балки ўрганиш, тушуниш ва ўзаро таъсир учун субъект сифатида қаралади.

Кутубхоначининг фойдаланувчи билан мулоқоти кутубхонашунослик фанидаги асосий масалалардан бири бўлиб, алоҳида ўрганишни талаб қилди.

Кутубхоначи билан фойдаланувчи ўртасидаги мулоқотнинг самарали ва фойдали бўлиши кўп жиҳатдан биз, кутубхоначиларга боғлиқдир.

фойдаланувчи билан алоқа ўрнатишда муҳим ролни кутубхона ходимлари томонидан олинган тескари алоқа ўйнайди, бу эса анкеталар, сўровлар, кутубхонага ёзилиш жараёнидаги суҳбатлар ва шахсий экскурсиялар орқали амалга оширилиши мумкин.

Кўплаб кутубхонашунослар кутубхона ходимларининг фойдаланувчиларнинг психологик хусусиятларини билишларини кутубхонанинг сифатли фаолияти учун зарур деб ҳисоблайдилар, чунки бу конфликт ҳолатларининг олдини олиш ёки уларни муваффақиятли бартараф қилиш имконини беради.

Маълумки, кутубхонага ҳар хил маданий даражага эга фойдаланувчилар келади. Ҳар доим кутубхоначининг маданияти, унинг этикага риоя қилиши ва хулқ-атвори фойдаланувчига таъсир қилади. Агар кутубхоначи ўзи яхши тарбияланган, юқори профессионал сифатларга эга, мулоқотни ёълга қоя қила оладиган, ишонтириш қобилиятига эга, эстетика, нутқ маданияти ва ёқимли хулқ-атворга эга бўладиган бўлса, кутубхоначи ва фойдаланувчи ўртасидаги алоқа, албатта, ўрнатилади ва мулоқот фақат завқ бериши мумкин.

Бизга яхши таниш этикетга оид принциплардан баъзилари: мулойимлик, нозиклик, эҳтиёткорлик, аниқлик, мажбурият ва ваъдаларга риоя қилиш,

вақтида бажариш, улар кутубхона ишида муваффақиятнинг таркибий қисмлари ҳисобланади.

